ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

САМАРҚАНД ИҚТИСОДИЁТ ВА СЕРВИС ИНСТИТУТИ

“ХАЛҚАРО ТУРИЗМ ВА ТУРИЗМ СЕРВИСИ” КАФЕДРАСИ

«ЎЗБЕКИСТОНДА ТУРИЗМ СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТАБИИЙ ВА ЭТНОГРАФИК РЕСУРСЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ МУАММОЛАРИ»

мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференцияси

МАТЕРИАЛЛАРИ

Конференция тўплами «Ф-1-61. Ўзбекистон туристик-рекреацион салоҳиятини ривожлантиришда минтақавий геоахборот тизимини шакллантириш” номли фундаментал давлат гранти иш режаси асосида тайёрланди

(2019 йил 13-14 ноябр)

САМАРҚАНД – 2019

Ўзбекистонда туризм соҳасини ривожлантиришда табиий ва этнографик ресурслардан самарали фойдаланиш муаммолари. / 2019 йил 13-14 ноябр. Халқаро илмий-амалий конференцияси материаллари. Самарқанд, СамИСИ, 2019. – 296 бет.

Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар:
Д.З.Норқулова – кафедра мудири, PhD.
С.А.Абдухамидов – кафедра катта ўқитувчиси
Р.Суюнов – кафедра ўқитувчиси

Нашр учун масъуллар:
И.С.Тухлиев – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор
З.О.Рахимов – кафедра катта ўқитувчиси, и.ф.н.

Саҳифаловчи: А.Каримов

Илмий-амалий конференция материалларида Ўзбекистонда туризм соҳасини ривожлантиришда табиий ва этнографик ресурслардан самарали фойдаланиш муаммолари оид масалалар ёритилган. Унда Ўзбекистонда туризм соҳасини ривожлантиришда табиий ва этнографик ресурслардан самарали фойдаланишнинг назарий ва методологик муаммолари, Ўзбекистон минтақаларида жойлашган табиий туристик ҳамда миллий мерос ресурсларидан туристик мақсадларда самарали фойдаланиш муаммолари, табиий ва этнографик ресурслар асосида анимацион дастурларни тузишнинг ўзига хос хусусиятлари ҳамда янги йўналишлардаги туристик маршрутлар ишлаб чиқиш масалалари, геоахборот тизимлари ва ахборот коммуникацион технологиялари асосида табиий ва этнографик ресурслардан самарали фойдаланиш масалалари, туризм соҳасида табиий ва этнографик ресурслардан самарали фойдаланишда менежмент, маркетинг, молия ва банк хизматлари ҳамда кадрлар тайёрлаш жараёнларининг ролини ошириш масалалари бўйича илмий-назарий ва амалий тавсияларга бой мақолалар ўрин олган.

Олий ва ўрта махсус ўқув юртлари профессор-ўқитувчилари, талабалари, магистрлар, таянч докторантура, докторантура, мустақил изланувчилар ва соҳа мутахассисларига мўлжалланган.

Мақолалар муаллифлар таҳририда босилмоқда. Уларда келтирилган рақамлар, фактлар, хулоса ва тавсияларга муаллифлар масъул. Уларнинг айрим фикрлари ташкилий гуруҳ қарашларига тўғри келмаслиги мумкин.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2019

I ШЎЪБА. ЎЗБЕКИСТОНДА ТУРИЗМ СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТАБИИЙ ВА ЭТНОГРАФИК РЕСУРСЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШНИНГ НАЗАРИЙ ВА МЕТОДОЛОГИК МУАММОЛАРИ

Z.O. Raximov – SamISI katta o‘qituvchisi i.f.n.,
A.Yu.Talibova – SamISI assistenti.

ERKIN TURISTIK ZONALARNI TASHKIL ETISH ORQALI SAMARQANDDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Аннотация: *в данной статье изложены теоретические основы развития туризма в Самарканде путем создания свободных туристических зон.*

Ключевые слова: *туристический потенциал, туристический сервис, туристический поток, свободная туристическая зона, проект, гостиничный комплекс, возможности, национальные традиции, туроператор.*

Annotation: *this article sets out the theoretical foundations of tourism development in Samarkand by creating free tourist zones.*

Key words: *tourist potential, tourist service, tourist flow, free tourist zone, project, hotel complex, opportunities, national traditions, tour operator.*

Samarqand viloyati ulkan sayyohlik salohiyatiga ega. Turizmni rivojlantirish, sayyohlik xizmati ko‘rsatish sifatini oshirish va yo‘nalishlarini kengaytirish yuzasidan izchil ishlar olib borilmoqda.

Bu boradagi salohiyatni yanada oshirish va sayyohlar oqimini ko‘paytirish maqsadida Samarqand shahrida erkin turistik hududni barpo etish bo‘yicha 2017-2019 yillarga mo‘ljallangan loyihalar ishlab chiqilgan.

Ushbu loyihalarga ko‘ra shaharning Amir Temur ko‘chasida sayyohlik-ko‘ngilochar mehmonxona kompleksi, Samarqand eshkak eshish kanali bo‘yida qishki dam olish maskan barpo etish mo‘ljallanmoqda.

Joriy 2019 yilning I-choragida viloyatga 65 ming xorijiy, 402 ming mahalliy hamda 43 ta martabali delegatsiya tashrif buyurgandi.

Sayyohlar uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish maqsadida I-chorakda 106 o‘rinli 4 ta yangi mehmonxona, 123 o‘rinli 13 ta mehmon uylari, 2 ta sog‘lomlashtirish maskanlari, 1 ta eko-agroturizm maskani, 1 ta axborot markazi va 3 ta zamonaviy sanitar gigienik shahobcha ishga tushirildi. Tadbirkorlar tomonidan 12 ta avtobus, 13 ta mikroavtobus va 2 ta kvadrotsikl olib kelindi, 9 ta turistik yo‘nalishida yo‘l ko‘rsatkichlari o‘rnatildi. Sayyohlar geografiyasidan kelib chiqib, 18 ta turoperator hamda 46 ta gid-ekskursovod firmasi ish boshladi.

O‘zbekiston respublikasida turizmni rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Shularning eng muhumi bo‘lgan “Ipak yo‘li” turizm xalqaro universitetini tashkil etish bo‘lib, O‘zbekistonning boy tabiiy, madaniy va tarixiy merosining mavjud resurslari va imkoniyatlaridan samarali foydalanish, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni joriy etish, investitsiyalarni faol jalb qilish turizmsohasini yanada rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy hamda tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, turizmbosqichma-bosqich mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmog‘iga aylanayotganligini hisobga olgan holda mintaqalarning salohiyatini turizmsohasiga to‘liq jalb etishni, xizmatlar sohasini rivojlantirishni, Buyuk ipak yo‘lida turizmyo‘nalishining jozibador markazi sifatida respublikaning ijobiy qiyofasini shakllantirishni ta’minlaydigan, yuqori malakali va jahon turizmindustriyasi bozorida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga ob’ektiv zarurat yuzaga kelmoqda.

Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish maqsadida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqdaligidan barchamizni xabarimiz bor. Bugungi kunda turizm sohasi mamlakat

iqtisodiyotining 2 %ni tashkil qilmoqda, bu ko‘rsatgich o‘tgan yillarga qaraganda ancha yuqoriladi. Bu ko‘rsatgich yildan yilga yuqorilashi ko‘zda tutilgan va bu borada mamlakitimizda juda ko‘plab o‘zgarishlar qilinmoqda. Turizm sohasini yanada rivojlanishi uchun Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasining faoliyatini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risida” 06.02.2018 yildagi PQ-3510-son qarorining 3 - bandiga binoan Buxoro, Samarqand, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahri Turizmni rivojlantirish departamentlari, shuningdek, Toshkent viloyati Turizmni rivojlantirish departamenti O‘zbekiston RespublikasiTurizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi hamda tegishli viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari tasarrufida bo‘lishi belgilangan.

Prezidentimizning yana bir 2019 yil 5 yanvardagi PQ-4095-sonli “Turizm tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida turizmtarmog‘ini rivojlantirish, shu jumladan bugungi kun standartlari va talablariga javob beradigan zamonaviy mehmonxonalar va shu kabi joylashtirish vositalarini (keyingi o‘rinlarda – mehmonxonalar) qurish bo‘yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish, respublikada mehmonxona xo‘jaligini rivojlantirishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish belgilangan bo‘lib, ushbu qarorning 11 – bandida Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo va Xorazm viloyati hokimliklari Madaniyat vazirligi, Qurilish vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi YUNESKO ishlari bo‘yicha Milliy komissiya bilan birgalikda Buxoro, Samarqand, SHahrisabz va Xiva shaharlarining tarixiy va qo‘riqlanadigan hududlarida rejalashtirilgan bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish bo‘yicha ishlarni YUNESKOning Butunjahon merosi markazi bilan avvaldan kelishish belgilangan.

Samarqand viloyati miqyosida ko‘radigan bo‘lsak, Samarqand viloyati hokimining o‘rinbosari B.Nurullaev xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyasida “Samarqand viloyatida turizmni rivojlantirish borasida olib borilayotgan ishlar to‘g‘risida”gi hisobotida ma’lum qildi. Unga ko‘ra, 2018 yilda Samarqandga 2017 yilga nisbatan ikki barobar ko‘p, ya’ni 2 million mahalliy hamda dunyoning 100 dan ortiq davlatidan 351 ming nafar xorijiy sayyoh kelgan va ularga 116,7 million dollarlik xizmatlar ko‘rsatilgan. Xorijiy sayyohlarning viloyatda qolishi o‘rtacha 2,5 kunni tashkil etdi.

2018 yil davomida viloyatda 215 milliard so‘mlik 75 ta loyiha amalga oshirildi. Jumladan, 439 o‘rinli 18 ta mehmonxona, 15 ta restoran va kafelar, 39 ta turoperatorlik sub’ektlari tashkil qilindi. 36 ta turistik avtobus va mikroavtobus, 6 ta elektromobil olib kelindi, sayyohlarga va shahar aholisiga sigveylar va velosipedlar ijarasi yo‘lga qo‘yildi. Sayyohlar tashrifi ko‘p kuzatiladigan maskanlarda “Wi-Fi” zonalari, axborot markazlari, sayyohlar uchun turistik xaritalar va boshqa tarqatma materiallar tashkil etildi, 64 ta valyuta ayirboshlash bankomatlari o‘rnatildi.

Joriy yilda Samarqandga keladigan sayyohlar oqimini va ular uchun xizmatlar ko‘rsatish ko‘lamini ikki barobar oshirishni nazarda tutuvchi yo‘l xaritasi ishlab chiqilgan. Hisob-kitoblarga ko‘ra, bu yil viloyatga 500 ming xorijiy hamda 2,5 million mahalliy sayyohlarning kelishi kutilmoqda. Ularga munosib xizmat ko‘rsatish, xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha zarur chora-tadbirlar ko‘rilishini ma’lum qildi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda shuni aytishimiz mumkin, Samarqandda erkin turistik hududni barpo etish bu Samarqandga keladigan sayyohlar oqimini va ular uchun xizmatlar ko‘rsatish ko‘lamini ikki barobar oshrishda katta hissa qo‘shishi ma’lum.

Z.O. Raximov – SamISI katta o‘qituvchisi i.f.n.,

MILLIY TURIZMNI TARTIBGA SOLISH VA RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Annotation: *The article provides information on ways and means of creating favorable conditions for the development of agriculture and ecotourism in rural areas of Uzbekistan. At the same time, the analysis of theoretical and practical aspects of alternative identification of the share of tourism services in the modern development of agriculture and agriculture in the Samarkand region.*

Keywords: *Innovation, tourism, agro-tourism, eco-tourism, rural tourism, countryside, national park.*

Аннотация: *В статье приводятся сведения о путях и средствах создания благоприятных условий для развития сельского хозяйства и экотуризма в сельской местности Узбекистана. В то же время проведен анализ теоретических и практических аспектов альтернативной идентификации доли туристических услуг в современном развитии сельского хозяйства и сельского хозяйства Самаркандской области.*

Ключевые слова: *инновации, туризм, агротуризм, экотуризм, сельский туризм, сельская местность, национальный парк.*

Mamlakatimizda milliy turizmni tartibga solishda asosiy bosh hujjat bu O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi hisolanadi. Undan so‘ng esa 1999 yil 20 avgustgda qabul qilingan O‘bekiston Respublikasining turizm to‘g‘risidagi qonunidir.Ushbu Qonunning maqsadi turizm sohasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish, turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish, shuningdek turistlar va turistik faoliyat subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Milliy turizmni tartibga solish va rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bir qancha normativ-huhuqiy hujjatlarda o‘z aksini topgan:

- O‘zbekiston Respublikasining qonunlari. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi (1996y.), “Turizm to‘g‘risida”gi (1999y.), “Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida”gi (1993y.), “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi davlat chegarasi to‘g‘risida”gi (1999y.), “Alohida faoliyat turlarini litsenziyalashtirish to‘g‘risida”gi (2000y.) qonunlari;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- “O‘zbekturizm”MKning (hozirda O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlatqo‘mitasining) buyruqlari va qarorlari;
- Boshqa vazirlik va idoralarning huquqiy hujjatlari.

Ayniqsa, turizm bozorida turistik faoliyatni huquqiy ta’minlash va tartibga solishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari muhim o‘rinni egallab kelmoqda. Hususan 2016 yil 2 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4861-son farmoni milliy turizmni rivojlantirishdagi ulkan qadam bo‘ldi.

Unda mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmog‘i sifatida turizmni jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish, hududlarning ulkan turizm salohiyatidan yanada to‘liq va samarali foydalanish, turizm tarmog‘ini boshqarishni tubdan takomillashtirish, milliy turizm mahsulotlarini yaratish va ularni jahon bozorlarida targ‘ibot qilish, turizm sohasida O‘zbekistonning ijobiy qiyofasini shakllantirish maqsadida: turizm sohasidagi davlat siyosatining maqsadli vazifalari va ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan.

Turizmni rivojlantirishning yaxlit konsepsiyasini shakllantirish va izchil amalga oshirish, turizmga iqtisodiyotning strategik sektori maqomini berish, ushbu sohani barcha hududlarni va o‘zaro bog‘liq tarmoqlarni kompleks ravishda jadal rivojlantirishning yetakchi kuchiga aylanishi lozim bo‘lgan iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, tarkibiy o‘zgartirish va barqaror rivojlanishning qudratli vositasiga aylantirish, yaratiladigan yalpi ichki mahsulotda, mahalliy byudjet daromadlarida turizmning ulushini ko‘paytirish, ish bilan bandlikni ta’minlash, aholining turmush darajasi va sifatini oshirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Turizm industriyasi subyektlari faoliyati uchun qulay shart-sharoitlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan turizm faoliyati sohasidagi qonun hujjatlarini va normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, turizmning rivojlanishidagi barcha to‘siq va g‘ovlarga barham berish, viza va ro‘yxatdan o‘tkazish tartib-taomillarini, pasport va bojxona nazoratini soddalashtirish, turizm sohasini davlat tomonidan boshqarish va bozorga xos tarzda tartibga solish mexanizmini maqbullashtirish, turizm sohasida tadbirkorlik faolligini rag‘batlantirish va turizm xizmatlari

bozorida raqobatni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, turizm sohasida statistik hisobga olish tizimini takomillashtirish;

Turizm xizmatlarini tashkil etishda, eng avvalo, turistlar joylashtiriladigan joylarda, ovqatlanish punktlarida, respublika hududi bo‘ylab harakatlanishda, turizm obyektlariga tashriflarni uyushtirishda turistlar va ekskursantlarning hayoti va sog‘ligi xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Mamlakatda turizmni jadal rivojlantirish, mavjud ulkan turizm salohiyatidan yanada to‘liq va samarali foydalanish, an’anaviy madaniy-tarixiy turizm bilan birgalikda turizmning boshqa salohiyatli turlarini – ziyorat qilish, ekologik, ma’rifiy, etnografik, gastronomik, sport, davolash-sog‘lomlashtirish, qishloq, sanoat, ishbilarmonlik turizmi va boshqa turlarini jadal rivojlantirish, bolalar, o‘smirlar va yoshlar turizmini, oilaviy turizmni, keksalar uchun ijtimoiy turizmni rivojlantirish hisobiga turizmning ijtimoiy ahamiyatini kuchaytirish, hududlarda yangi turizm yo‘nalishlarini tashkil etish, ularni pasportlashtirish, turizm yo‘nalishlari va turizm obyektlari bo‘yicha yagona milliy reestrlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ichki, kirish va chiqish turizmini kompleks rivojlantirishning milliy va hududiy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

Turizm faoliyati sohasida xalqaro hamkorlikni, birinchi navbatda, BMTning Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO), xorijiy mamlakatlarning turizm bo‘yicha nufuzli xalqaro va milliy tashkilotlari – turizm xizmatlari mintaqaviy va jahon bozorlarining faol ishtirokchilari bilan hamkorlikni kengaytirish, O‘zbekistonning turizm sohasida tartibga soluvchi universal xalqaro konvensiyalar va bitimlardagi ishtiroki, turizm faoliyati amaliyotiga xalqaro va davlatlararo standartlar va normalarni joriy etish;

Respublikaning barcha mintaqalarida zamonaviy jahon standartlariga, turistlarning ehtiyojlari va talablariga javob beradigan turizm industriyasi obyektlarini – mehmonxonalarni va joylashtirishning shu kabi vositalarini, umumiy ovqatlanish obyektlarini, transport-logistika tuzilmalarini, axborot markazlarini, madaniyat va sport muassasalarini jadal rivojlantirish, asosiy turizm yo‘nalishlari bo‘yicha yo‘l-transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini, yo‘l bo‘yi infratuzilmasini jadal qurish va rekonstruksiya qilish, ushbu maqsadlar uchun xorijiy investorlarni keng jalb etish;

Xalqaro turizm rivojlanishi tendensiyalarini va zamonaviy marketing vositalari qo‘llanilishini hisobga olgan holda, raqobatbardosh turizm mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqish, ularni ichki va xalqaro turizm bozorlarida targ‘ibot qilish bo‘yicha strategiyani ishlab chiqish, qulay turizm axborot muhitini tashkil etish va rivojlantirish, keng reklama-axborot faoliyatini amalga oshirish, mamlakat hududlarida turizm axborot markazlari va chet elda turizm vakolatxonalari ochish, Internet tarmog‘idan faolfoydalanish, har yili Toshkent xalqaro turizm yarmarkasini o‘tkazish yo‘li bilan turizm sohasida mamlakatimizning ijobiy qiyofasini shakllantirish;

Turizm tarmog‘i uchun, ayniqsa menejment va marketing sohasida malakali kadrlarni sifatli tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, gidlar (ekskursiya yetakchilari) tayyorlash, turizm faoliyati subyektlari xodimlarini muntazam ravishda qayta tayyorlash va malakasini oshirish.

«O‘zbekturizm» Milliy kompaniyasi negizida O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tashkil etish.

Bir nechta mamlakatlar uchun 30 kunlik vizasiz rejimni joriy qilish va boshqa bir qator masalalar o‘z yechimini topdi.

2017 yil 16 avgustdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori ham bugungi kunda milliy turizmni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalish yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Unga ko‘ra; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori qabul qilinishi davlatimiz tomonidan turizm sohasida amalga oshirilayotgan siyosatning mantiqiy davomi bo‘lib, turizm sohasini jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy, ma’muriy va huquqiy muhitni yaratgan holda, eng samarali tartibni joriy etish, hududlarning iqtisodiy salohiyati va daromadlari bazasini kengaytirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, yurtimizga keladigan turistlar oqimini ko‘paytirish, shuningdek, milliy turizm mahsulotlarini jahon bozorida faol va kompleks ilgari

surishga qaratilgan. Xususan, qaror bilan sohada me'yoriy-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, O'zbekistonga sayohatlarni arzonlashtirish, yurtimizning barcha hududlarida turizmni va soha bilan bog'liq infratuzilmani rivojlantirish, turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilish va yangi turizm obyektlari tashkil etish, shuningdek, milliy turizm mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarda faol va kompleks ilgari surishga qaratilgan 2018-2019 yillarda turizmni rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlardasturi tasdiqlandi.

Ayni paytda mamlakatimiz hududlarida zamonaviy turizm infratuzilmasini yaratish chora-tadbirlariga alohida e'tibor qaratilgan. Shu maqsadda dasturga muvofiq, Andijon viloyati Xonobod shahrida dam olish hududlari, Jizzax viloyati Forish va Arnasoy tumanlarida Aydar-Arnasoy ko'llari sohilida beshta yangi zamonaviy dam olish hududlari tashkil etish, Qashqadaryo viloyati Shahrisabz va Qarshi shaharlarida to'rt yulduzli mehmonxonalar, Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani Chimyon tog' massivida mehmonxona majmuasi barpo etish, shuningdek, Navoiy viloyatida To'dako'lning janubiy sohilida ichki turizm va Aydarko'l sohillarida xorijlik turistlar uchun plyajlar tashkil etish ko'zda tutilgan.

Shu bilan birga, qarorda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri rahbarligida 2018-2019 yillarda turizmni rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturiga kiritilgan tadbirlarning amalga oshirilishini muntazam o'rganish tizimini joriy qilish belgilangan. Shu maqsadda:

- Dastur ijrosi ustidan tizimli nazoratni amalga oshirish, vazirlik va idoralarning bu boradagi faoliyatini muvofiqlashtirish, yurtimizda turizm sohasi rivojiga to'sqinlik qilayotgan masalalarni tezkor ko'rib chiqish va hal qilish uchun Vazirlar Mahkamasi huzurida Muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etildi.
- Rejalashtirilgan chora-tadbirlarning o'z vaqtida, sifatli va to'liq ijro etilishini ta'minlash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari rahbarligida faoliyat yuritadigan turizmni rivojlantirish bo'yicha hududiy kengashlar tashkil etildi.

Qarorda turizmni rivojlantirish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlarni bajarishga yo'naltirilgan qator topshiriqlar belgilangan:

- O'zbekistondagi muqaddas qadamjolarga ziyorat turizmi yo'nalishi bo'yicha sayyohlarni jalb qilish, bunda logistika, jumladan, charter reyslarni tashkil etish masalalarini hal qilish;
- Buxoro va Samarqand shaharlaridagi turizm hududlari tajribasi asosida Urganch, Toshkent shaharlari va Farg'ona viloyatida turizm hududlari, shuningdek, Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida tog' klasterlarini bosqichma-bosqich tashkil etish;
- tashkil etilayotgan turizm hududlari va tog' (tog'oldi) turizm klasterlariga chet el sarmoyadorlarini jalb qilish, shuningdek, yangi mehmonxonalar qurish uchun yurtimizga yetakchi mehmonxona brendlarini taklif qilish yoki mamlakatimizdagi mehmonxona xo'jaliklarini ular boshqaruviga topshirish.

Shu munosabat bilan xorijlik turistlar uchun viza tartibotini soddalashtirish va ziyorat turizmini tashkil etish bo'yicha takliflarni muntazam kiritib borish ko'zda tutilmoqda. Mazkur vazifa ijrosini ta'minlash maqsadida xorijlik fuqarolar uchun viza va ro'yxatga olish tartibini bosqichma-bosqich soddalashtirish bo'yicha takliflarni ushbu davlatlar bilan ikki tomonlama munosabatlarning rivojlanish darajasidan, jahon turizm bozorining konyunkturasi hamda xalqaro va mintaqaviy vaziyatdan kelib chiqqan holda tayyorlash bilan shug'ullanuvchi doimiy faoliyat yuritadigan ishchi guruh tuzilmoqda.

Ushbu qaror mamlakatimiz turizm sohasining yanada rivojlanishiga yangi sur'at baxsh etib, unda belgilangan chora-tadbirlar ijrosiga xorijlik turistlar oqimi va turizm xizmatlari eksportini kengaytirish, tarmoqda yangi ish o'rinlari yaratish asosida aholining bandlik darajasini oshirish, mehmonxonalar, sayyohlarni joylashtirishning boshqa vositalari va turizm faoliyati subyektlari sonining ko'payishiga xizmat qiladi.

Alimov Atabek, PhD, Karakalpak State University

THE ROLE OF USTYURT PLATEAU IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekistonda sayyohlik salohiyatini rivojlantirishning ayrim masalalari va Ustyurt platosining ekoturizmni rivojlantirishdagi o‘rni muhokama qilinadi.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются некоторые вопросы развития туристического потенциала в Узбекистане и роль Устюртского плато в развитии экотуризма.*

Ecotourism is the fastest growing sector, with an estimated growth rate of 10-15%, of one of the largest industries in the world: tourism (Panos, 1997). Ecotourism has been defined as environmentally responsible, enlightening travel and visitation to relatively undisturbed natural areas in order to enjoy and appreciate nature (and any accompanying cultural features both past and present) that promotes conservation, has low visitor impact, and provides for beneficially active socioeconomic involvement of local populations (Ceballos-Lascurain, 1996).

According to this definition, ecotourism can involve both cultural and environmental tourism and, in addition, benefits to the local population should be an integral part of the activity.

The demands of increasingly affluent consumers for ‘remote’, ‘natural’ and ‘exotic’ environments have created an upsurge in ecotourism ventures, particularly in developing countries. Concurrently, within western countries wilderness areas and lands occupied by indigenous peoples have been opened up to the tourism industry. Of less developed tourism areas that ecotourists seek which are most vulnerable to cultural disruption and environmental degradation (Cater, 1993).

While some writers emphasise the potential for ecotourism to promote the well being of both local peoples and their environments, (Hoenegaard, 1994) others caution us from uncritically accepting ecotourism as a common good (Boo, 1990; Ziffer, 1989; Cater & Lowman, 1994). As Cater (p. 85) notes, ‘. . . there is a very real danger of viewing ecotourism as the universal panacea, and the ecotourist as some magic breed, mitigating all tourism’s ills’ (Cater, 1993). Yet romantic notions about the virtues of ecotourism do still seem to guide much of the interest in this sector:

. . . many governmental agencies and tourism academics have been caught up in the ‘sexy’, supposedly ‘new’, forms of tourism such as ecotourism and cultural tourism. There is...a somewhat mistaken belief that these forms of tourism are somehow ethically superior (Hall & Butler, 1995, p. 105).

Now a day demand for eco-tourism is increasing than ever in the worldwide, this sector as the recreational type is becoming one of the most advanced in the field of tourism.

Ecotourism is a kind of activity, belonging to most countries in the world and owing to it, not only the health of human is restored, but people embrace a number of aesthetic emotions with the help of the nature, flora, fauna and the environment. Today, the aim of the eco-tourism is to ensure present and future generations’ eco-safeguard and the sustainable development of tourism by an efficient use of natural resources. To be recognized as *Ecological tourism*, the subsequent rules should be followed: the service must be in the direction of environment, transport serving for tourists must be environmentally responsive, food and drink must be ecologically clean and their contend can consist of local products and qualified guides must lead travelers to ecological clean, natural and cultural places and tourist attractions.

According to the definition of ecotourism by World Tourism Organization (WTO) – ecotourism guarantees to preserve natural areas by travelling there responsibly and improves the living standards of the local people.

On the basis of ecological concept of Uzbekistan, eco-tourism development means not only a moral and spiritual aims to travel to exotic areas, but the journey into the world of fauna and flora, and the implementation of socio-economic issues and environmental problems associated with each other.

According to the summarized opinions of Uzbek ecologists and scientists, ecotourism includes educational and spiritual concepts under ecotourists’ visits to exotic natural areas, flora and

fauna, natural areas, historic monuments, archaeological findings, geological, paleontological remnants and trips related to the nature of such complex tours.

In 2005, the director of the Nukus branch of the International Fund for Saving the Aral Sea provided an offer regarding the prospects for socio-economic development of the Aral Sea and it says that "Integrated service places, industry points, small hotels, sports, hunting and fishing farms in convenient areas should be constructed along small ecological tours and permanent action programs need to be developed".

Like in many regions of Uzbekistan, the Republic of Karakalpakstan has big potential to develope not only general tourism, but also eco-tourism. Because there is no analogues in the region of Karakalpakstan nature, its unique flora and fauna, steppes, lakes and ponds, the Amu Darya banks, Badaytokay Reserve, Ustyurt plane, Kizylkum desert and newly appeared desert Orolkum, the Amudarya delta, remaining mountains of Sultan Uvays, Beltog hills and the existence of natural-regional ecosystems provide Karakalpakstan with competing priorities compared to other regions.

Especially in recent years, the Ustyurt plateau located in north-western of Karakalpakstan and bordering with Kazakhstan as well as the Russian Federation and between the Caspian and the Aral Sea is one of the globe's waterless desertlands, where farming is not possible. Despite such a difficult environmental nature, the remainings relating to periods from the Old Stone Age to the early twentieth century can be found in the Ustyurt. In particular, there are some fortresses in the Ustyurt Plateau which construction mysterious for science.

Ustyurt Plateau is located along the Great Silk Road and it is the ancient trade route of strategic importance and a single place between the Caspian Sea and the Aral Sea in the middle of the land. At present, it is the gate of the north-western region connecting East and West. Highway and railway located in the Ustyurt Plateau fit international standards and they are the blood vessels of the economy.

Ustyurt plateau's height is 300 m, which is adjacent to the flat space (the average length of 100-200 m), in which the height of 292 m in a series of hills (Aqtumsiq Karabayir) are found, the largest of them is Barsakelmes (-50 m) and Aseka-Audan (-29 m). The plane of the Aral Sea and the Amu Darya delta end with steep escarpments *(Chink-local name for cliffs, with the height of 350m and prevalent in Kazakstan and Central Asia (e.g Ustyurt).* In the south-west of the plateau, the northern part of the Sariqamis located deeper.

The western half of the territory of Ustyurt belongs to the Republic of Kazakhstan, and 70 km^2 of Ustyurt area situated in Karakalpakstan.

The Ustyurt plateau differs from the surrounding plains with its height. It confined to the almost vertical rock escarpment all the land around its sides. These rocks are called Escarpments in geographical literature. Ustyurt plateau does not fail to compete with the steep hills in Canada and America.

Ustyurt plateau crosses with streams, deep ravines, that some of them could used as a way out on top of the plateau. Sideway Koplon like a wave in the south of the plateau can be found and there is Karabaur sideway in the center of the plateau on the north side, extending from the north-west to south-east. The highest peak of the plateau is also there, where it is focused throughout the depth of the Barsakelmes Kungrad-Makat railway.

Among the abovementioned hills of the plateau, we can meet a few different sized depths including:

The depth of the North Ustyurt. Being located in the northern part of Ustyurt, it extends from the north-east to south-west. Different depths at a depth range of salty soils and sands are found there. There is Zharynkuduk sandy territory of our republic.

Barsakelmes depth. Being located in the central part of the plateau, its area consists of 1000 km^2. Barsakelmes salinity is located in the center. The central structure of the salinity has a height of 40-50 meters, becoming lower to the center of the edge and having the shape of the trays and plates. Its bottom (ultra) is 12-15 meters higher than the Aral Sea surface. During the period when it

rains and snow melts, the depth of some areas will have different sized small lakes. At this depth, since ancient times have very large reserves of salt, the salts people can use in diet and treatment.

Shaqpaqti depth – has a length of 6 km and a width of 3 km, and pitched with very steep slopes. There are the depths of the sand hills with a lot of salty soils. There also situated the Shaqpaqti gas mine.

Asakeaudan depth is located in the north of the lake Sariqamis, looks like the part of this lake. It occupies an area of depth, thought its basis is salty. Its basis has an average height of 40-50 meters above the sea level.

Ustyurt plateau has about 600 species of plants, which more than 70 are medicinal plants and also the raw material for the industry of the world pharmacy. Ustyurt plains have 5.2 million hectar, where 200 head of horses or cattle can be fed during the first nine months.

Ustyurt birds' fauna is unique, where more than 200 bird species can be met in different seasons and their 52 types nest there.

The largest reservoir "Sudoche" Lake is situated to the South-West of the city Muinak, in the east of the Ustyurt, to the north-west of the Kungrad district. In 1950 it occupied an area of 40 thousand hectares of natural appearance, in terms of the geographical location of a very wonderful and beautiful lake in the world. Every year 15-20 thousand centners of delicious fish were caught. Due to the fresh water of the lake, musquash was easy to storage. That is why the local population called this lake, "suvi dushshi kol" also called as "the fresh water lake". In the nineteenth century, the Russians moved and failed to call Moynak "suvi dushshi kol" and called "Sudochye". The length of the lake in the beginning of the twentieth century was 130-135 km and a width of 16-43 km and a depth of 0.6 meters to 3 meters.

Every year during the migration 8-10 million different groups of birds stop for rest and nutrition in Sudoche Lake. In the territory of Lake Sudoche and Ustyurt escarpment 187 birds belonging to 44 families are found.

According to surveys, the Ustyurt Plateau in Karakalpakstan has opportunities the establishment of scientific eco-tourism. In particular, the Russian Federation, Kazakhstan and Turkmenistan border areas of higher education institutions in the region, history, biology, geography, ecology and tourism students in summer training, field operations (archaeological excavations, depth, descend the hill and geographical coordinates measuring and fauna lifestyle, nutrition, growth, plants, etc.) to bring scientific research and to promote it among young people.

Based on the results of a survey, there are the following conclusions and recommendations:

- First, there is the prospect of plateau above the sands as the "Paris-Dakar" race, the development of tourism through the establishment of avtorallies for extreme;

- Secondly, based on the study of the life of the people living in the rural areas of the Ustyurt plateau and the foot of the plateau, cultural tourism can be developed;

- Thirdly, the deficiency of tourism development is caused by the lack of infrastructure development on the one hand, tourism companies, on the other hand due to the hospitality of the local people, the lack of services needed;

- Fourth, Kazakhstan's border city of Kungrad intermediate distance is long, cold winter months, the cold of the plateau and the hot summer months, temperatures in cars broken in order to avoid catastrophic situations on the road to open the service points (car repair, kitchen, motel, pharmacy, telephone, etc.), it is very important;

- Fifth, in order to attract tourists to the area guides should tell during expedition about history, legends and traditions of the ancient peoples who lived there, as well as the history of the city, which is one of the oldest cities in the Kungrad. in addition the prospectus of the Ustyurt plateau advertising leaflets or ready to print multiple copies of a centralized as well as one of the leading agencies in all regions of the corporation, for free distribution should be given.

В.Бердиқулов - и.ф.н.,доцент, СамИСИ“Маркетинг” кафедраси мудири

ЎЗБЕКИСТОНДА ЭКОЛОГИКТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МУАММОЛАРИ ВА УЛАРНИ ҲАЛ ЭТИШ ИМКОНИЯТЛАРИ.

Аннотация: *На данной статье изложены проблемы развития экологического туризма и возможностирешения, оценка потенциала развития экотуризма, совершенствование туристического законодательства и вопросы формирования стратегии развития экологического туризма в регионе*

Ключевые слова:*экотуризм, туристский потенциал, экотуристский регион, туристическая законадательства*

Abstract:*In the article on given problems of development of ecological tourism and decision possibility, an estimation of potential of development ecological tourism, perfection of the tourist legislation and questions of formation of strategy of development of ecological tourism in regions.*

Key words:*ecotourism, tourist potential, ecotourist region, tourist legislations*.

2019 йил юртимизда “Фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожланиш йили” деб номланади, туризм ва унинг йўналишларини ривожлантириш ижтимоий масала ҳисобланади, унинг ривожланиши ва тараққиёти ҳам бевосита мамлакатимизга киритилаётган инвестицияларга боғлиқ бўлади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947 сонли фармонида ҳам туризм соҳасини ривожлантиришга алоҳида урғу берилганлиги бежиз эмас.

Умуман олганда амалдаги вазият мамлакат ва унинг ҳудудларида инвестицион жозибадорликни оширишда маҳаллий ҳокимият ва бошқарув органлари фаолиятининг суст эканлигини кўрсатиб бермоқда.

Маълумки, Ўзбекистон кўплаб маданий ва табиий меҳмондорчилик объектларига эга. ЯИМда туризмнинг улуши 2016 йилда 2,4% ташкил этган бўлса, 2014 йилда 2,7%, 2015 йилда – 2,6% ташкил этган. Эскпорт таркибида эса 2017 йилда11,4%,2014 йилда эсабу кўрсаткич 7,8% ни ташкил этган.

Туризмни ривожлантириш давлат дастури доирасида амалга оширилган сиёсат натижасида 2017-2018 йилларда туристик хизматлар кўрсатиш икки маротабадан кўпроқ, хорижий мамлакатлардан ташриф буюрганлар сони 2 маротаба ортди. Амалга оширилган чора-тадбирлар ва хусусий мулк ва тадбиркорликни ҳимоя қилиш ушбу даврда янги туристик корхоналар очилишини рағбатлантирди.

Бироқ, жаҳон туризм бозорининг жадал суратларда ўсиши билан бир қаторда бугунги кунда туризм тармоғини такомиллаштиришва унинг ҳудудларни комплек ривожлантириш ва турдош тармоқлар учун локомотив вазифасини бажариши бўйича ҳал қилинмаган масалалар турибди.

Ундан ташқари Президентимиз Ш.Мирзиёев Олий Мажлисга қилинган Мурожаатномада : “Бизда туризм кўпинча қадимий шаҳарларимиз, тарихий-маданий ёдгорликлар доирасида чекланиб қолмоқда. Ва ҳоланки, мамлакатимизнинг бетакрор табиати, миллий қўриқхоналар, тоғли ҳудудларда туризмни ривожлантириш учун катта салоҳият мавжуд. Айниқса тиббиёт туризмни, зиёрат туризмни ва экотуризмни ривожлантириш нафақат иқтисодиёт, балки ижтимоий соҳалар ривожига ҳам катта туртки беради. Вазирлар Маҳкамаси 2019-2025 йилларда туризмни ривожлантириш миллий концепциясини ишлаб чиқиши ва ижросини таъминлаш зарур. Шу асосида 2025 йилда юртимизга ташриф буюрадиган хорижий сайёҳлар сонини 7 миллион нафарга, туризм экспортида келаётган йиллик даромади эса 2 миллиард долларга етказиш лозим” деб соҳага йўналиш ва маррани белгилаб бердилар.

Туризмнинг энг кенг тарқалган йўналишларидан бири экологик туризм ёки экотуризмдир. Саёҳат пайтида янги-янги жойларни кўриш, табиат гўзаллиги латофатидан тоғ

ёки ўрмон ҳавосидан симириш, “ёввойи” табиат бағрида дам олиш, ҳар хил ёввойи ҳайвонларнинг қизиқарли ҳаёт тарзларидан баҳраманд бўлишга ундовчи туртки, бу экотуризм турткисидир.

Халқаро миқёсда бу туризм йўналиши аллақачон ўзининг муносиб ўрнига эга, гўзал экзотик табиати ва бетакрор туристик ресурслари кўп бўлган Австралия, тинч океанида жойлашган ороллар, Ўрта ер денгизи атрофидаги гўзал гўшалар, Жанубий-Шарқий Осиёдаги саёҳатбоп жойлар ўзининг жозибадорлиги билан миллионлаб сайёҳларни ўзига жалб қилмоқда.

Мамлакатимизда экотуризм ривожланиши учун имкониятлар етарли, лекин бу имкониятлардан фойдаланиш салоҳиятини баҳолаш ҳанузгача тўлиқ ўрганиб чиқилмаган. Фикримизча, мамлакатимизда ҳудудларнинг экологик туризм салоҳиятини чуқур таҳлил қилиш ва улардан фойдаланиш имкониятларини баҳолаш мақсадга мувофиқ. Бунинг учун экологик ресурсларни қуйидаги йўналишларда таҳлил қилиш ва баҳолашни таклиф қиламиз:

– ҳудудларнинг туристик-рекреацион салоҳиятини технологик жиҳатдан баҳолаш ва ҳудуднинг ижтимоий-иқтисодий ва табиий ресурсларини аниқлаш ҳамда ҳудудий жиҳатдан қайта районлаштириш;

– экотуризм учун мавжуд шарт шароитларни ва иқлимий шароитларни баҳолаш. Бунда ёзги дам олиш, мавсумда экотуризмнинг фаол турлари билан шуғулланиш имкониятларини аниқлаш зарур бўлади;

– ҳудуднинг ресурс салоҳиятини тубдан таҳлил қилиш ва экотуризм учун қулай бўлган мавсумларни аниқлаш;

– табиий ва антропоген ландшафтларнинг эстетик жиҳати ва жозибадорлигини таҳлил қилиш. Бу ўлкашунослик, жой маркетинги, ҳудудлар маркетинги амалиёти асосида амалга оширилиб, ҳудуд ёки жойнинг туристлар учун жойнинг маданий ландшафти, географик қиёфаси, минтақавий ўзига хослиги, ҳудудий мифология воситасида ижобий тасаввурини уйғотишга хизмат қилади;

– экотуристик ресурслардан фойдаланишни иқтисодий баҳолаш. Бунда туристик хизматларни сотиш ҳажми, туристик оқим ва туристик сарфлар, экотуризмнинг моддий-техник базасининг ҳолати, турфирмаларнинг молиявий-иқтисодий имконияти ва халқаро туризмнинг ривожланиш кўрсаткичлари таҳлил қилинади;

– туризм соҳасида рақамли иқтисодиётни жорий этиш ва унинг самарадорлигини баҳолаш. Бундаатроф-муҳит ва экологик ресурслар ҳақида янги ахборотлар олишга қаратилган геоахборот технологияларидан кенг фойдаланиш, ушбу технологиялар асосида туристик маълумотлар базаси билан ишлаш, сўров ва статистик таҳлил ишларини бажариш, ҳудудларнинг экологик туризм фаолиятини амалга оширувчи муҳит шаклида тўлақонли визуал гавдалантириш.

Шу билан бирга экотуризм соҳасида давлатнинг олдида турган асосий масалалар фаолият соҳасини чеклаш билан боғлиқ масалаларга аниқлик киритиш ва бу билан боғлиқ ҳуқуқий механизмларни ишлаб чиқишдан иборатдир.Туристик қонунчиликни ишлаб чиқишнинг амалий жиҳатларига ўтиш аввало регламентлаш билан боғлиқ қатор масалаларни ҳал этишни талаб этмоқда.

Жаҳон амалиётига асосланган ҳолда хулосага келишимиз мумкинки, экологик туризм соҳасида қонунчилик унинг қуйидаги йўналишларида регламентлаш масалаларини ўз ичига олади:

– экологик туризм объектлари, энг аввало жойлаштириш воситалари фаолиятини чеклаш ва тартибга солиш масалалари;

–экологик туризм соҳасида касбий фаолият (туристик касб)ни амалга ошириш ва соҳада ишлаш шарт-шароитларини тартибга солиш;

–экологик туризм фаолияти иштирокчиларининг ҳуқуқ ва мажбуриятлари, туризмда истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш;

–экологик туризм соҳасида давлат кўмагидан фойдаланиш масалалари.

Фикримизча, экологик туризм ривожланган илғор мамлакатлар тажрибасини таҳлил қилиш замонавий бозор муносабатлари шароитида Ўзбекистонда экологик туризм соҳасини ривожлантиришга ёрдам берувчи қуйидаги амалий тавсияларни қўллаш мақсадга мувофиқдир:

– давлат органлари томонидан экологик туризм соҳасига тааллуқли масаларни ҳал этишда туристик бозорнинг барча иштирокчилари, туристлар, туристик корхоналар, туристик ҳудуд аҳолисига иқтисодий, ижтимоий ва экологик жиҳатдан наф келтиришни кўзда тутган ҳолда харажатларни камайтириш имконини берувчи тизимли ёндашувни қўллаш, шунингдек, ҳудудий ривожланишнинг комплекс давлат дастурларини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш;

–экологик туризмнинг мамлакат иқтисодиётига қўшган ҳиссасини ҳисобга олиш ва ҳисоб-китоб қилиш услубиятини ишлаб чиқиш;

– дам олиш кунларида қисқа муддатли экотурларни ишлаб чиқиш ва туристик бозорда силжитиш;

–экотуристик ҳудудларнинг моддий-техника базасини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратиш;

–халқаро туризм индустриясининг байналминаллашуви ва интеграциялашуви шароитида Ўзбекистонда суғурта, нарх ва хизмат кўрсатиш сифатини баҳолашнинг миллий хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда халқаро стандартларини жорий этиш.

Шу биланбиргамамлакатимизҳудудларидаэкологик туризмни самарали ривожлантиришнинг асосий омилларидан бириуни бошқариш моделини такомиллаштиришдир. Фикримизча, экологик туризмни ривожлантириш стратегиясини ишлаб чиқиш қуйидаги босқичларда амалга оширилиши мақсадга мувофиқ (1-расм).



1-расм. Экологик туризмни ривожлантириш стратегиясини ишлаб чиқиш босқичлари

Norkulova D.Z. - PhD, dots. v.b.
Qilichova O.Z. - MXT-118 guruh talabasi

ETNOGRAFIK TURIZM ATAMASI HAQIDA TUSHUNCHA

Аннотация*: в данной статье приведены данные о историческо-культурных объектах на территории Узбекистана, этнографические места, неизвестные большинству путешествующих, анализ определений этнографического туризма и его особенности.*

Ключевые слова*: этнография, этнические пунты, этнические группы, этногенез, анализ определения этнографического туризма и его особенности.*

Annotation: *This article presents data on historical and cultural sites in Uzbekistan, ethnographic places unknown to most travelers, an analysis of the definitions of ethnographic tourism and its features.*

Key words*: ethnography, ethnic punts, ethnic groups, ethnogenesis, analysis of the definition of ethnographic tourism and its features.*

Ma'lumki hozirgi kunda O'zbekistonda eng rivojlangan turizm turi bu ziyorat turizmi hisoblanadi. Yurtimizga tashrif buyuruvchi turistlarning aksariyat qismi aynan ziyorat turizmi maqsadida kelishadi. Tabiiyki turizm sohasining resurslari har bir mamlakatning milliy boyligi bo'lib, ular davlat mulki hisoblanadi. Ammo ulardan bir qismi jahon ahamiyatiga molik ob'yektlar hisoblanib,YUNESKO ning "Jahon me'rosi" ro'yxatiga kiritilgan. Bu ro'yxatdan O'zbekistonning 4ta shahri. va 31 dan ortiq tarixiy yodgorliklari o'rin olgan. O'zbekiston hududida 7000 dan ortiq tarixiy yodgorliklari va go'zal tabiiy-iqlimiy yodgorliklari mavjud. Ammo. bugungi kunda ushbu turistik resurslarning 1/3 qismigina turizm uchun faoliyat ko'rsatmoqda.[1] Bundan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston o'z turistik resurslaridan maksimal darajada foydalana olmayapti. Ta'kidlab o'tilganidek, yurtimizga tashrif buyurgan sayyohlarning ko'p qismi ziyorat maqsadida kelishgan va ular faqatgina Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz kabi shaharlarga borish bilan cheklanadi. Bunday jarayon esa sayyohlarning yurtimiz hududida kam vaqt bo'lishiga hamda doimiy bir xil marshrutlar orqali harakatlanishi zerikarli holatga aylanishiga olib keladi.

Tarixdan ma'lumki, Markaziy Osiyo ham siyosiy ham iqtisodiy jihatdan muhim hudud hisoblanadi. O'zbekiston insoniyat sivilizatsiyasining qadimiy o'chog'laridan biri. Yurtimiz hududi Buyuk Ipak Yo'li chorrahasida joylashgan. Qadimda bu hududlarda birinchilardan saklar, massagetlar, baqtriyaliklar istiqomat qilishgan. Ilk davlatlar hisoblangan Baqtriya, Xorazm, Dovon kabi davlatlar aynan mana shu hududda joylashgan. Mamlakatimiz hududida millatlar yoki etnik guruhlarning tarixiy-madaniy rivojlanish jarayonini yoritib bera oladigan tarixiy yodgorliklar hamda etnik punktlar mavjud. Bunday hududlarning ko'pchiligi turistik tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan, kuzatilmagan. O'zbekiston qadimiy tarixiy jarayonlarga, madaniyatning rivojlanish bisqichlariga guvohlik qilgan hamda hozirda ko'plab millat va elat yashaydigan hudud hisoblanadi. Qadimiylik qiymatiga ega bo'lgan maskanlar yurtimiz hududida ko'plab uchraydi, ammo shu kabi maskanlar haqida mamlakatimizning ko'pchilik aholisi ham ma'lumotga ega emas. Shunday maskanlardan biri: Amudaryoning qadimgi Okchadaryo deltasi yaqinidagi Kaltaminor kanali yaqinidan neolit davriga doir odamlar manzilgohi topilgan va Kaltaminor madaniyati degan nom berilgan. Kaltaminorliklar hayoti miloddan avvalgi 5-3 ming yillarga doir arxeologik madaniyat ekanligini ko'rsatdi. Kaltaminor madaniyatining eng muhim manzilgohlaridan biri Yondosh-4 hisoblanadi. Bu hududda maydoni 300 kv.m keladigan g'oyat katta turar joy- yarim yerto'la shaklidagi kulba ochilgan. Bu kulba xodalar va qamishlardan qo'rilganligi keyinchalik yonib ketganligi aniqlangan. Odamlarning uy-ro'zg'or buyumlari ham kulba ostida qolib ketgan, bu manzilgohda 100-120 ga yaqin kishi istiqomat qilishgan. Bundan tashqari bu yerda 20 dan ortiq o'choqlar ham da ularning atrofidan hayvon suyaklari va meva danaklari topilgan.Shu kabi maskanlar, etnik punktlar, yodgorliklar O'zbekiston hududining etnografik salohiyatini yanada oshiradi. Ammo yurtimizda sayyohlarni bu kabi hududlarga jalb qilish past ko'rsatkichlarni egallaydi. Zero butun dunyoda tarixda o'z ajdodlari yashab o'tgan yoki buyuk tarixiy shaxslar hayot

kechirgan joylarni borib ko'rish hamda tanishish istagida bo'lgan sayyohlar soni ko'pchilikni tashkil etadi.

Etnografik turizmning tarixiy yoki ziyorat turizmidan qanday farqli jihatlari mavjud? Etnografik turizm atamasiga manbaalarda quyidagicha ta'riflar keltirilgan:

"Turizm:nazariya va amaliyot" darsligida "Turli xalqlar, elatlar va hududlarning urf-odatlari, turmush tarzi, milliy taomlari, kiyim-kechaklari, ro'zg'or buyumlari, madaniy-tarixiy obidalari turizm sohasida eng ommallashgan xizmat ko'rsatish turlari sifatida namoyon bo'lib kelmoqda"[1]. Ushbu ta'rifda turli xalqlar va elatlarning turmush tarzini o'rganishga bo'lgan harakat tushuntirilgan. Ammo etnograkif turizmni yuqorida sanab o'tilganlar bilangina ifodalab bo'lmaydi, ular shunchaki etnografik turizm uchun vosita hisoblanadi.

Vikipediya, ochiq ensklopediyada "Etnografik turizm-etnik,til va madaniy tarkibiy qismlarga ega bo'lgan turizm yo'nalishlaridan biri. Etnik turizm ichki (masalan, shahar aholisi tomonidan arxaik dialektlar, folklor, mahalliy xalqlarning kundalik hayoti, ma'daniyati va mahalliy xalqlarning tillari bilan tanishish uchun shaharning chekka joylariga tashrif buyurish), tashqi turizmda tarixiy vatanga yoki qarindoshlarning tug'ilgan joylariga tashrif buyurish" [2]. Keltirlgan ta'rifda etnografik turizm bu ichki turizmda shahar aholisi mahalliy xalq etnografiyasini o'rganish uchun, tashqi turizmda qadimda ajdodlari yashagan joyga tashrif buyurish uchun amalga oshiriladigan sayohat ekanligi ta'kidlangan.

Vikipediya, ochiq ensklopediyada "Bu turizm ma'daniy turizmning yo'nalishlaridan biri. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki,turizmning ushbu turi insonning bir qator ma'naviy ehtiyojlarini qondirishi mumkin. Ma'lum bir xalqning an'anaviy madaniyati va hayotining xususiyatlarini saqlab qolgan mavjud aholi punktlariga tashrif. Ushbu aholi punktlarini namoyish deb atash mumkin"[3]. Ta'rifda keltirilishicha bu turizm turi insonning bir qator ma'naviy ehtiyojlarini qondirishi ta'kidlangan. An'anaviy madaniyat saqlangan punktlarni namoyish deb atash mumkinligi keltirilgan.

Yuqorida sanalgan ta'riflarga suyangan holda o'z xulosamizni keltiramiz:

"Etnografik turizm-sayyohlarning ma'lum bir etnik guruhlar ma'daniyatining rivojlanishi, shakllanish bosqichlarini, etnogenezini, etnik guruhlarning aynan o'ziga xos jihatlarini o'rganish va ular bilan tanishish maqsadida sayohat qilishidir"

Hozirgi texnologiya rivojlangan bir davrda har bir xalq, millat o'z milliyligini (urf-odatlari, milliy taomlari, kuy-qo'shiqlari, milliy liboslarini va b.q) saqlab qolishga, o'z milliy madaniyatini kengroq yoyishga harakat qilmoqda. Etnografik turizm turining rivojlanishi natijasida biz o'z milliy madaniyatimizni butun dunyoga yoyishga, olis hududlardagi aholining bandligiga ko'maklashishga, aholining ham iqtisodiy ko'nikmasini ham etnik madaniyatini oshirishga erisha olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] M R Boltaboyev, I S Tuxliyev, B S Safarov S A Abduhamidov. Turizm: nazariya va amaliyot-T.: "Fan va texnologiya", 2018 400-bet

[2]https://ru.wikipedia.org/wiki

[3]https://ru.wikipedia.org/wiki

[4]Q.Usmonov, M.Sodiqov, N.Oblomurodov O'zbekiston tarixi-T.: "Abdulla Qodiriy nomidagi merosi nashriyoti, 2002

Каримов А - СамИСИ Асс:

ҚИШЛОҚ ЖОЙЛАРДА ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА, ТУРИСТЛАРНИ ЖОЙЛАШТИРИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ХОРИЖ ТАЖРИБАЛАРИНИ ЎЗБЕКИСТОНДА ҚЎЛЛАШ ИМКОНИАТЛАРИ

Anatatsia: *В данной статье рассматриваются возможности развития сельского туризма, международный опыт размещения туристов в сельской местности и возможности их применения в стране.*

Ключевые слова: *туризм, сельский туризм, развитие, инфраструктура, услуги размещения, доход.*

Anatatsia: *This article discusses the possibilities of developing rural tourism, the international experience of placing tourists in rural areas and the possibilities of their application in the country.*

Key words: *tourism, rural tourism, development, infrastructure, accommodation services, income.*

Туризм XXI асрда жаҳон иқтисодиётига жуда катта ижобий таъсир қилувчи ижтимоий-иқтисодий соҳа бўлиб кириб келди. Бутунжахон туризм ташкилотининг маълумотлари бўйича дунёда ишлаб чиқариш ва сервис оборотининг 10 % ини туризм ташкил қилмоқда.

Кейинги 20 йилда халқаро туризмнинг ривожланиши дунё бозорида товар ва хизматларнинг кучли экспорт қилинаётганлиги кузатилмоқда.Яъни туристик хизматларнинг экспортда ўсиши 8 % га ўсиб умумий хизматлар савдосининг жаҳон бўйича 30-35 % ини ташкил килмокда.

Мамлакатимизда хизматлар кўрсатишнинг қишлоқларда иқтисодиётнинг бошқа тармоқларига нисбатан анча паст даражаларда эканлиги ва мамлакатимиз қишлоқларида хизматлар кўрсатишнинг янги йўналишларини, янги соҳа ва тармоқларини ташкил қилиш, қишлоқларда яшаётган маҳаллий аҳолининг иш билан бандлик даражаларини ошириш белгиланган. Ушбу қарорни амалиётга тадбиқ қилишнинг энг устивор йўналишларидан бири мамлакатимизда қишлоқ туризмини ривожлантириш ҳисобланади.

Шундай қилиб, XX асрнинг иккинчи ярмида атроф-муҳитни тоза сақлаб қолиш ва табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш, муҳофаза қилиш, сайёравий муаммоларга айланиб кетганлиги маълум бўлди. Шу билан бирга инсониятнинг тарихий, маданий меъросини сақлаш ҳам сайёравий чегараларда кун тартибига чиқди. Ушбу долзарб муаммолар натижасида қишлоқ туризми ривожланиш босқичини бошлади.

Қишлоқ туризми – фарм тоур, рирал тоур. Дам олиш вақти ҳар қандай шаҳарлик учун қишлоқдами ёки дала ховлидами жуда ҳам мароқлидир. Бу хаёт талаби бўлиб, доимо дала ховлиларини ёки бошқа жойларни кўп йиллар давомида синалган ва текширилган жойларда дам олиш учун ижарага олинади. Қишлоқ туризмининг ўзига хос томонлари шундаки, масалан, Сицилиянинг аграр вилоятларида ишчи кучи етишмаслиги туфайли меҳнатга лаёқатли ва дала меҳнатига қизиқувчи туристлар ёки студентларни иш ҳақи тўламасдан, бошпана ва овқат учун ишга ёллаши мумкин. Бундай «дам олувчи» уша ерга бориб қайтиши учун маблағ топса бўлгани. Йўл-йўлакай бир-икки кун пляжларда чўмилиши, музейларни, ёдгорликларни ва бошқаларни кўриши мумкин.

Ҳозирги вақтда қишлоқ туризми алоҳида даромад келтирадиган тур ҳисобланиб, дунё туризм хизмат бозорида алоҳида ўрин тутади.

Қишлоқ туризми денгиз курортлари каби катта ҳажмлар билан рақобатлаша олмаса ҳам, шунга қарамай туризм ишларида алоҳида ўрин тутиб, уни ўрганиб ривожлантириш алоҳида еътиборга лойиқ. Республикамизда қишлоқ туризми йўқ даражада. Қишлоқлардаги аҳолининг самимийлиги, табиатнинг тозалиги, экологик жиҳатдан қулайлиги туфайли унинг келажаги бор. Лекин, шунга қарамай, хорижий туроператорларнинг фидойилиги, туристларни ўз қишлоқларига тортиши, туристларни ўз халқининг ва давлатининг ривожланиши учун олиб келиши, иш жойларини ташкил етишлари, ўз юртининг туристлик ресурсларини мустаҳкамлаб, давлатга валюта олиб киришлари ва шу даромадларидан солиқлар тўлаб хазинани тўлдиришлари тахсинга лойиқ. Умуман қишлоқларда турист бўлиб туриш, санаторий-курорт зоналарида ёки машҳур туристлик марказларга нисбатан анча арзон. Ҳамма ҳам қимматбаҳо туристлик марказларда дам олаолмайди, шу жиҳатдан қишлоқ туризмини ривожлантириш катта аҳамиятга ега.

Қишлоқ туризми қуйидаги ҳолларда амалга оширилади:

- қишлоқ жойларда алоҳида категория одамлар учун уларнинг пул маблағлари миқдорига қарамай, оиласининг анъаналарига қараб амалга оширилади;

- шифокор маслаҳатига биноан қишлоқ иқлим шароитларида соғломлаштиришни олиб боришга қараб;
- табиат билан яқинлик, кўпроқ вақтни тоза ҳавода ўтказиш мақсадида;
- экологик тоза ва арзон маҳсулотлар билан овқатланиши мумкинлиги учун;
- қишлоқ хўжалиги ишлари билан банд бўлиши, ишлаш учун реал имкониятлар борлиги учун;
- бошқа ижтимоий тоифадаги одамлар билан мулоқотда бўлиши, уларнинг маданияти, урф-одатлари билан танишиш, байрамлари ва ўйинларида қатнашиш имкониятининг мавжудлиги учун.

Қишлоқда дам олиш – бу табиат қўйнида бўлиш, йиллар давомида шаҳар шароитида йиғилиб қолган чарчоқларни чиқариш, тозаҳаво, экологик тоза бўлган озиқ-овқатлар, иқлим шароитларини ўзгартириш, аҳоли сонининг камлиги, бошқа тартиб-қоида ва яшаш маданияти, қишлоқ хўжалик ишларида иштирок этиш, боғдорчилик, чорвачилик, табиат берган инъомларни тўплаш ва қолаверса, дам олишнинг арзонлигидан иборат. Шулардан келиб чиқиб, бу туризм тури ўз ҳарактерига кўра экологик туризмнинг бир кўринишига киради.

Шаҳар аҳолисининг ёзги иссиқ кунлардаги ва қишки қорли кунлардаги хордиқ олишларини тўғри ташкил етиш имконияти мавжудлигини еътиборга олиб, қишлоқ туризмини республикамиз ҳудудида қуйидаги тарзда ташкил етиш тавсия етилади: катта бўлмаган уйларни, қишлоқлардаги катта бўлмаган хоналарни, коттежларни, табиат манзаралари чиройли бўлган жойларни ижарага олиш йўли билан.

Европа қадимдан туризм юқори даражада ривожланган дунё региони ҳисобланади. Франсияга йилига 50 млн. дан ортиқ, Италия ва Испанияга 30 - 40 млн. киши туристик саёҳат қилади. Швецария, Португалия, Германия, Австрия, Буюк Британия, Греция ва бошқа шу каби мамлакатлар ҳам жаҳоннинг йирик туристик марказлари ҳисобланади.

Европа аҳолиси, шаҳарлари зич жойлашган, саноат ва қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариши юқори бўлган, транспорт ва туризм ривожланган региондир. Бу еса атроф-муҳитнинг ифлосланишига таъсир кўрсатади.

Бу борада биринчи ўринда ҳудуднинг асосий жойларини егаллаган ифлос саноат ишлаб чиқаришларни назарда тутиш керак. Масалан, кўмир конлари ҳамда Рейн, Рона, Луара ва бошқа дарёлардаги ГЕС лар шулар жумласидандир.

Регионнинг атроф-муҳитига тобора жипслашиб бораётган қишлоқ хўжалиги катта таъсир кўрсатмоқда. Автомобил саноатининг юқори даражада ривожланиши, ҳавода юк ташиш ҳажмининг кенгайиши, денгизда кема қатновларининг кўпайиши ҳам атроф-муҳитга таъсир етмай қўймайди. Охирги пайтда денгизбўйи ва тоғли раёнларда туризмнинг ҳам тез суръатлар билан ривожланиши атроф-муҳитга салбий таъсир кўрсатмоқда. Аммо, умумий ўхшашликларга қарамасдан, экология соҳасида Европа регионлари ўртасида, айниқса, Ғарбий ва Шарқий Европа ўртасида тафовут мавжуддир.

Қишлоқ туризмини ривожлантиришда қишлоқларда жойлаштириш хизматларини ташкил қилишда хорижий давлатларнинг тажрибалари.

Францияда қишлоқ туризмини ривожлантириш анча мураккаб ҳисобланади. Чунки, бу туризмни ривожлантиришнинг кўплаб вариантлари ишлаб чиқилган. Масалан, жанубда пляж туризми қишлоқ туризми билан биргаликда ташкил қилинган. Шунинг учун ҳам қирғоқ, соҳилларда кўплаб замонавий катеджлар қурилган ва қурилмоқда.

Марказда қишлоқ туризмининг боғдорчилик ва виночилик йўналиши мувофақиятли ишламоқда. Бу жойларда туристлар боғдорчиликда, узумзорларда ишлашади, қайтишда маҳсулотлар олиб кетишади.

Мамлакатимизда қишлоқ туризмини ривожлантиришнинг муҳим ўрни, аҳамияти ҳақида бир неча бор тўхталдик. Қишлоқ туризми ривожланган Европа давлатларининг тажрибаларидан маълум бўлдики, ушбу давлатлар қишлоқ туризмини ривожлантиришга бундан 50 йил олдин киришган.

Мамлакатимизда қишлоқ туризмини ривожлантиришдаги асосий муаммолар шундан иборатки, биз ҳанузгача қишлоқ туризмининг асл моҳияти ва мақсади, вазифаларини

тушуниб олганимиз йўқ. Европа давлатларининг қишлоқ туризмини ривожлантиришдаги асосий мақсади ва вазифаларини юқорида келтирдик.

Европа давлатлари қишлоқ туризмини ривожлантириш учун, дастлаб қишлоқ туризмини ривожлантиришнинг мақсади ва вазифаларини белгилаб олишган, сўнгра қишлоқ туризмини ривожлантиришга жавоб берувчи, давлат ваколатини олган ташкилот тузишган(масалан, Францияда – "Туризм ва қишлоқ ерлари ассоциацияси"; Британияда – "Британия туристик кенгаши ва "Қишлоқ ерларини ривожлантириш агентлиги"; Австрияда – "Австрия фермерлик туризми ассоциацияси" ва бошқалар).

Британияда асосий эътибор туристларга жойлаштириш воситаларини яратишга берилади. Шу билан бирга Британия усулини кўплаб Европа давлатлари қабул қилмоқдалар, қўлламоқдалар. Бунда 4 хил жойлаштириш усули тавсия қилинган:

Туристлар фермернинг уйига жойлашадилар ва нонуштани фермер оиласи билан билан бирга қиладилар (фарм Б&Б). Бу ҳолатда туристлар фермер оиласи билан дўстона муносабатларни ўрнатишга интилишадилар;

Туристлар алоҳида бинода жойлашадилар ва ўз – ўзига хизмат қиладилар (селф сатеринг унит). Бу бино қишлоқнинг оддий уйлари бўлиши мумкин;

Деворлар ёки четанлар билан ўралаган, ўртача 8 – 15 туристни жойлаштира оладиган (бункҳоусе) бинода туристлар жойлашадилар. Бу усулда жойлашиш ҳар бир турист учун 10 евро туради ва асосан ёшлар учун жуда оммавий ҳисобланади. Туристлар бу жойда жойлашиб фақат тунаш учун келадилар, кундузи кунлари асосан саёҳат, экскурсияларга чиқадилар;

Бой туристлар учун бой фермерлар ва бой қишлоқликлар замонавий катеджлар қуришади. Албатта бундай каттеджлардаги туристик хизматлар ҳам анча қиммат туради.

Энг муҳими қишлоқ туризмни ривожлантиришда мамлакатимиз аҳолисининг саводхонлигини, ахборотланганлигини таъминлашимиз, қишлоқ аҳолиси фарзандларини туризм коллежларида, туризм таълими йўналишидаги институт, университетларда ўқитишимиз ҳам мақсадли тадбирлардан бўлади.

Мамлакатимизда қишлоқ туризмни ривожлантиришдаги энг долзарб масалалардан яна бири қишлоқлардаги туристик ресурсларга туристик маршрутлар ва туристик экскурсия маршрутларини ишлаб чиқиш ҳисобланади.

Қишлоқ туризми Рассияда агро туризм деб юритилади. Бу ўлкада ҳам агро тиризм яъни қишлоқ туризмига етибор ошиб бормоқда. Алтай ўлкасини мисол қилиб оладиган бўлсак бу еркарда қишлоқ тирзмини ривожлантириш учун алоҳида *"Развитию туристско-рекреационного и санаторно-курортного комплексов"* номли ташклот иш олиб боради.

Ҳозирги вақтда Алтай ўлкасида деярли 200 дан ортиқ уйлар қишлоқ тизми учун мошлаштирилган ва қишлоқ туризми учун хизматларни таклиф қилмоқда. Алтай ўлкасининг туризмни ривожлантириш бўйича бошлиғи Юлия Захаровнанинг сўзларига кўра қишлоқ тиризмини ривожлантириш учун туристик рекриатсия ва курорт – санатория комплексларига катта эътибор бериш керак. Шунда ўлканинг бир нечта раёнларинда қишлоқ туризми бир мунча ривожланади ва шу жой аҳолиоси туристик даромадлармни ошириш имкониятларини ўйлай бошлайди.

Албатта бу маблағга бориб тақалади. Тўғри бошида асосий даромадларни қурилишга сарфлашга тўғри келади.

Алтай ўлкаси бўйича туризмдан тушётган даромаднинг бор йўғи 0.5 % и қишлоқ туризмига тўғри келади. Ўлканинг туризмни ривожлантириш бўйича бошлиғи Юлия Захарованинг фикрича бунга сабаб қишлоқ жойларда жойлаштирилган тиристларга кўрсатилаётган пуллик хизматларнинг камлиги ва шу билан бирга уларнинг нархи жуда арзонлигида.

Кимки туристни уйига қўйишга қарор қилса унда ривожланиш учун икки йўл мавжуд: хусусий тадбиркор сифатида рўйхатдан ўтиш (уй китобида жавобгарлик ёзувларини олиб бооришш, солиқ органи ва маҳаллий асминстратор рўйхатидан ўтиш) ёки томорқа ташкил

этиш. Ҳар иккала йўлнинг ҳам ўзига яраша манфий ва мусбат томонлари бор шунинг учун ҳам ўлкада туризм билан шуғулланувчи томорқа эгалари сохани тенг бўлиб олишган.

Эгалик ҳуқуқи тоғрисидаги қонун бўйича агар одам қишлоқда жойда яшаса ва ўз уйига эга бўлса у уйидаги хоналардан бирини туристга бериши ва ўзини томорқасидан етиштирган махсулотларини сотиш ҳуқуқига эга.

Шу билан бир вақтда бу ҳолатда ўз махсулотини сотиш қийин кечади – туристик фирма бундай уйлар эгалари билан ишлашни рад қилишади.

Турфирма бундай рўйхатдан ўтказилмаган томорқа эгалари билан ишлашни рад қилишга ҳақли. Чунки бундай мулк эгалари охуш вазият туғулса ўларига ҳеч қандай жавобгарликни олмайди ва шу билан бирга хусусий тадбиркор туристларни яшаши ва овқатланиши учун зарур шарт шароитларни яратиши керак. Аммо хусусий тадбиркорда бу вазиятда мавжуд етишмовчликлар бор, булар: қишлоқ туризмидан тушадиган даромад ҳар доим ҳам юқори эмас ва бу учун тўловларни ва нафақани кўтармайди, яъни йирик жамғарма билан нафақага чиқа олмайди.

Қишлоқдаги монмонхона уйлар унча катта бўлмаган ижара пули эвазига таклиф қилинади ва бу сумма турбазадагидан катта фарқ қилади. Энг арзон сумма 250 рублдан бошланади

Кўпчилик уй меҳмонхона эгалари ошиб борувчи суғурта суммаси сабабли бундан фойда олаолмайди. Шуунинг учун ҳам улар ўз уй меҳмонхоналарини рўйхатдан ўтказишмайди. тўғри улар нафақани шакллантирмайди улар бошлаган ишини риволантириб боради.

Мамлакатимизда туризмни ривожлантиришнинг бош омили туризм инфратузилмаларини яратиш ҳисобланади. Чунки туризмдаги барча хизматлар туризм инфратузилмалари орқали, аниқроғи туризм инфратузилмаларининг ичида кўрсатилади. Шунинг учун ҳам инфратузилмаларга тўхталамиз.

Инфратузилма сўзи бу – жамиятнинг ҳаёт фаолияти, шароити ва ишлаб чиқариш жараёнларини бевосита таъминлайдиган иқтисодиётнинг, илмий – техник билимларнинг ва жисмоний ҳаётнинг тармоқлари ҳисобланади

Туризм инфратузилмаси бу – туристик маҳсулотлар ишлаб чиқариш умумий шартларининг бирлашган моҳиятидир. Ишлаб чиқариш умумий шартлари тушунчаси моҳиятини очишда мутухассисларнинг фикирлари ва қарашлари турлича бўлиб улар бир–биридан фарқланади.

Мамлакатимиз қишлоқ жойларида туризмини ривожлантиришни имкоиятлари катта. Қишлоқ жойларда жойлашган диний зиёратгоҳлар, экологик тоза ва лаззатбахш гўшалар, қадимий ғорларга туристик маршрутлар ишлаб чиқиш керак, ҳамда бундай масканлар яқинида туристларни жойлаштириш воситаларини яратиш керак. Бунда биз Рассиянинг Алтай ўлкасида қўлланилаётган рўйхатдан ўтказилган уй меҳмонхоналарини ташкил этишмумкин ёки туристик ресурслар яқинида кичик мехмонхоналар, кемпинглар қуриш керак бўлади. Бундан ташқари халқимизнинг меҳмондоўстлигидан фойдаланишимиз ҳам мумкин. Яъни туристлар хавфсизлигии туроператорларга юклаган ҳолда (туристларга бериладиган овқатларнинг туристлар соғлиғига зарарли таъсири йўқлигини назорати, хонадондаги электр қурилмаларининг созлиги ва ҳоказоларни туроператор назоратга олган ҳолда) қишлоқлардаги хонадонларга жойлаштиришимиз мумкин.

R.S.Amriddinova-SamISI “ Turiz”mkafedrasikattao‘qituvchisi, i.f.n.
A.Yu. Talibova-“ turizm” kafedrasio‘qituvchisi.

EKSKURSIYA XIZMATINI TASNIFLASH

Аннотация: *Данная статья посвящена важности классификации экускурсионных услуг.*

Ключевые слова: *экскурсия, классификация, тема, картинная галерея, современные архитектурные образцы*

Annotation: *This article focuses on the importance of classifying excursion services.*

Keywords: *excursion, classification, theme, painting gallery, modern architectural examples*

Tasniflash deb, predmetlar, hodisalar, tushunchalarni sinflar, bo‘limlar, umumiy xususiyatlaridan kelib chiqib guruhlarga ajratishdir.

Ekskursiya xizmatini tasniflash masalasi har doim sohasi mutaxassislarining diqqat markazida bo‘lib, bu muammoni yechishda o‘tgan asrning 20 yillarining oxirida harakat qilishdi. Ekskursiyachi olim V.A.Gerd ekskursiya xizmati shakllarini tasniflashning o‘z variantida ekskursiyani guruhlar va guruhostilarga bo‘lishni va uni tayyorlashda gidga yo‘nalish olishga yordam beruvchi xususiyatlarini ajratishni tasniflashning asosiy maqsadi sifatida ta’kidlab o‘tgan.

Ekskursiya xizmati ham mustaqil faoliyat (dam olish uylarida, klublarda, maktablarda) ham turistik xizmat majmuasining bir qismi bo‘lishi mumkin (turfirmalarda).

Hozirda ekskursiya xizmati quyidagicha tasniflanadi:

- mazmuniga ko‘ra;
- qatnashuvchilar soni va tarkibiga ko‘ra;
- o‘tkazish joyiga ko‘ra;
- harakatlanish vositasiga ko‘ra;
- davomiyligiga ko‘ra;
- o‘tkazish shakliga ko‘ra.

Mazmuniga ko‘ra ekskursiyalar ko‘p rejali va mavzuli bo‘ladi. Ko‘p rejali ekskursiyalarda tarixiy va zamonaviy ma’lumotlardan foydalaniladi. Bunday ekskursiyalar turli xil ob’ektlarni ko‘rsatish negizida tuziladi (tarixiy va madaniy yodgorliklar, bino va inshootlar, tabiat ob’ektlari, mashhur voqea joylari, shaharsozlik, sanoat va qishloq xo‘jaligi korxonalari va shu k.).

Ko‘p rejali ekskursiyada voqealar batafsil yoritiladi va shahar, o‘lka, viloyat, respublika, davlat haqida umumiy tasavvurni beradi. Bunday ekskursiyada xronologik tartibda shaharning ilk paydo bo‘lishi tarixidan boshlab to kelajakdagi rivojlanishi haqida ma’lumotlar beriladi.

Ko‘p rejali ekskursiyalar o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, mavzuli ekskursiyadan farqli ravishda uning mavzusini belgilash murakkabroq. Tayyorlash va o‘tkazish joyidan qat’iy nazar ular tarkibiy jihatdan bir-biriga deyarli o‘xshashdir. Ularning har birida bir necha mavzuostilar mavjud (shahar tarixi, ishlab chiqarishning qisqacha tarixi, fan, madaniyat, xalq ta’limi haqida). Ekskursiyada aniq bir shahar, viloyat, o‘lka o‘ziga xos tarixiy rivojlanishiga qarab hikoya qilinadi. Masalan, harbiy-tarixiy mavzudagi ekskursiyalarda urushlar, qo‘zg‘olonlar bo‘lib o‘tgan Buxoro xonligidagi o‘zaro nizolar kabi shaharlar kiritiladi. Adabiy mavzudagi ekskursiyalarda esa yozuvchi, shoirlar hayoti va faoliyati bilan bog‘liq shahar, qishloq, ko‘chalar kiritiladi.

Mavzuli ekskursiyalar bitta mavzuning yoritilishiga bag‘ishlanadi. Agar bu tarixiy ekskursiya bo‘lsa, uning negizida yagona mavzuda birlashtirilgan bir yoki bir necha voqealar yotadi. Agar bu me’morchilik mavzusidagi ekskursiya bo‘lsa, unda shahar, ko‘cha va maydonlarida joylashgan qiziqarli san’at asarlari, o‘tgan asrlar me’moriy ansambllari kiritilishi mumkin.

Mavzuli ekskursiyalar tarixiy, ishlab chiqarish, tabiiy (ekologik), san’atshunoslik, adabiy, me’moriy – shaharsozlik ekskursiyalariga bo‘linadi.

O‘z mazmuniga ko‘ra *tarixiy* mavzudagi ekskursiya xizmatlari quyidagi guruhostilarga bo‘linadi:

- *tarixiy – o‘lkashunoslik* (masalan, «Samarqand shahrining ming yillik tarixi», «Moviy gumbaz ostidagi shahar» va sh.k.);
- *arxeologik* (masalan, Surxondaryo viloyatidagi Kampirtepa qadimiy shahri; Samarqand viloyatidagi Afrosiyob arxeologik majmuasidagi tarixiy qazilmalarni ko‘rsatish);
- *etnografik*, turli millat va elatlarning urf odatlari haqidagi ekskursiya;
- *tarixiy muzeylarda ekskursiya.*

Ishlab chiqarish mavzusidagi ekskursiya xizmatlari quyidagi guruhostilarga bo‘linadi:

- *tarixiy- ishlab chiqarish;*
- *iqtisodiy- ishlab chiqarish (masalan, bank, birja faoliyati);*
- *texnik- ishlab chiqarish;*

- *ekskursantlarni kasbga yo‘naltiruvchi.*

San’atshunoslik mavzusidagi ekskursiya xizmatlari quyidagi guruhostilarga bo‘linadi:

- *teatral – tarixiy* (masalan, «Samarqand shahri teatri hayoti», «A.P.Chexov nomli rus drama teatri tarixi» va sh.k.);
- *musiqiy – tarixiy* (masalan, «Hamid Olimjon teatriga bir kunlik sayohat» va sh.k.);
- *xalq amaliy san’ati* (masalan, O‘zbekistondagi kulolchilar, zardo‘zlar va boshqa usta hunarmandlar faoliyati bilan tanishish);
- *madaniyat arboblari hayoti va faoliyati bilan tanishtiruvchi joylar;*
- *kartinalar galereyasi, ko‘rgazma zallari, muzeylar, rassomlar va haykaltaroshlar ustaxonalarida va sh.k.*

Adabiy mavzudagiekskursiya xizmatlari odatda quyidagi guruhostilarga bo‘linadi:

- *adabiy biografik*. Bunday ekskursiyalar shoir, yozuvchi, dramaturglar yashab ijod etgan joylarda o‘tkaziladi (masalan, «Sadriddin Ayniy muzey uyi», «Andijon - Bobur yurti» va sh.k.).
- *adabiy – tarixiy*, o‘zbek adabiyotining rivojlanishining ma’lum davrini ochib beradi (masalan, «XX – asrda Buxoro adabiyoti», «Adabiy Toshkent» va sh.k.).

Me’moriy – shaharsozlik mavzusidagi ekskursiya xizmatlari quyidagi guruhostilarga bo‘linadi:

- *mazkur shaharning me’moriy qurilishini ko‘rsatuvchi ekskursiya;*
- *ma’lum tarixiy davrning me’moriy yodgorliklarini ko‘rsatuvchi ekskursiya;*
- *bitta me’mor ijodiyoti haqida ma’lumot beruvchi ekskursiya;*
- *zamonaviy me’moriy namunalarni ko‘rsatuvchi ekskursiya.*

Shuni ta’kidlash joizki, u yoki bu mavzuli ekskursiya xizmati bir – biridan kamdan-kam alohida mavjud bo‘ladi. Masalan, tarixiy ma’lumotni me’moriy-shaharsozlik mavzusidagi ekskursiya xizmatida ham foydalanish mumkin. Tabiatshunoslik ekskursiyalarining elementlarini qariyib barcha ekskursiyalarda uchratish mumkin bo‘lib, ekskursiyani o‘tkazish sharoiti, shahar yoki hududning resurslariga bog‘liqdir.

Qatnashuvchilar tarkibiga ko‘ra ekskursiyalar quyidagilarga bo‘linadi:

- *kattalar va bolalar uchun;*
- *mahalliy aholi va turistlar uchun;*
- *shaharliklar va qishloq aholisi uchun;*
- *guruhli va individual bo‘lishi mumkin.*

Har bir guruh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ekskursiya ma’lumotlari, uslubi va texnikasi, davomiyligiga o‘zgartirishlar kiritiladi.

O‘tkazish joyiga ko‘ra: shaharda, shahar tashqarisida, ishlab chiqarish korxonalarida, muzeyda, majmuali bo‘lishi mumkin.

Harakatlanish vositasiga ko‘ra: piyoda yoki turli harakatlanish vositasida bo‘lishi mumkin. Piyoda ekskursiya xizmatlarining afzallik tomoni shundaki, unda harakatlanishning zaruriy tezligini ta’minlab, ob’ektlarni ko‘rsatish va hikoya qilishda qulay sharoit yaratish mumkin.

Transportli ekskursiya xizmati (asosan avtobusli) ikki qismdan iborat bo‘ladi: to‘xtash joyida ekskursiya ob’ektlarining tahlili(asosiy ob’ektlar) va ob’ektlar oralig‘ida tarixiy joylar va yodgorliklar tavsifi bilan bog‘liq hikoyalardan iborat. Ba’zida ekskursiya xizmati amaliyotida suv va havo transportidan ham foydalanishadi. Ekskursiya xizmati davomiyligi bir akademik soatdan(45 daqiqa) bir sutkagacha bo‘ladi. Qisqa muddatli turlarni(1 kundan 3-4 kungacha) dam olish kunlari marshruti ham deyishadi va uning tarkibida bir necha ekskursiya xizmatlari nazarda tutilishi mumkin.

O‘tkazilish shakliga ko‘ra ekskursiya xizmatlari quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- *ommaviy ekskursiya.* Bunday ekskursiya xizmatlari qatnashuvchilari odatda 10-15 ta avtobuslarda (har bir avtobusda alohida gid) bitta marshrut bo‘ylab bir vaqtda harakatlanadilar. Bunday ekskursiyalar ommaviy teatrlashtirilgan tomoshalar, folklor bayramlarni o‘z ichiga olishi mumkin;
- *ekskursiya- sayr.* Bunday ekskursiya xizmati odatda o‘rmonda, daryo va dengiz bo‘ylab o‘tkaziladi, o‘rganish va dam olish elementlarini o‘zida mujassamlaydi;

- *ekskursiya-konsert*. Bunday ekskursiya xizmati musiqali mavzuga bag‘ishlanib, avtobus salonlarida musiqali asarlar ham eshitiladi;

- *ekskursiya-spektakl*. Bunday ekskursiya xizmati adabiy-badiiy ekskursiya xizmatini o‘tkazishning shakli bo‘lib, badiiy adabiyotning aniq bir asari bo‘yicha tayyorlanadi va sh.k.

To‘g‘ri tasniflangan ekskursiya xizmati gidning ekskursantlar bilan ishlashini yengillashtiradi, uslubiy to‘garaklar faoliyati uchun asos hisoblanadi.

Хошимова С.Х. - Пастдарғом Автомобил ва йўллар коллежи маънавият – маърифий ишлари бўйича директор ўринбосари
Хошимов А.Ш. - СамДАҚИ талабаси

БУЮК ИПАК ЙЎЛИ ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТУРИЗМ РИВОЖЛАНИШИНИНГ ТАРИХИЙ ВА МАЪНАВИЙ АСОСИ

Аннотация *В статье анализируется вопросы восстановления и развития традиций Великой Щёлковой пути в процессе развития национального туризма в Узбекистане.*
Ключевые слова: Великий Щёлковый путь, национальный туризм, Концепция восстановления Щёлковой пути, политика развития туризма, богатая культурная наследие и национальные традиции.

Abstrac: *The article analyzes the issues of restoration and development of the traditions of the Great alkaline path in the development of national tourism in Uzbekistan.*
Keywords: The Great Silk Road, national tourism, The Concept of Restoring the Silk Road, tourism development policy, rich cultural heritage and national traditions.

Марказий Осиёдаги минтақавий ва халқаро муносабатларнинг ривожланишида, сайёҳлик алоқаларининг тараққий этишида Буюк Ипак йўли муҳим аҳамият касб этиб келган. ХХаср охири ва XXI асрнинг бошларида замонавий халқаро муносабатларда Ипак йўлини қайта тиклаш ва шу асосда давлатлар ўртасидаги ўзаро иқтисодий-сиёсий, маданий, транспорт-коммуникация муносабатларини Ипак йўли концепцияси доирасида мувофиқлаштириш масаласига катта эътибор қаратила бошланди. Ҳозирги даврда Буюк Ипак йўли ўтган ҳудудларни ўзаро бир-бири билан иқтисодий, транспорт-коммуникация жиҳатидан боғлайдиган халқаро ҳамкорлик дастури ТРАСЕКА қабул қилинган бўлиб, “Европа-Кавказ-Осиё” транспорт йўлаги Ўзбекистонда ички ва ташқи туризмнинг ривожланишига катта таъсир кўрсатмоқда. ТРАСЕКА дастурининг амалга ошиши Хитойнинг “Бир макон – бир йўл” стратегиясини амалга ошириш режалари билан боғлиқ бўлиб, Хитойдан Европага юклар ва йўловчилар ҳаракат қиладиган транспорт маршрути – “янги Ипак йўли”нинг очилиши Шарқ ва Ғарб мамлакатлари ўртасидаги туризмнинг ривожланишига бевосита таъсир кўрсатмоқда. Бугунги кунда Ўзбекистон туризмни ривожлантириш бўйича жуда катта имкониятларга эга бўлиб, республикада 7,3 мингдан зиёд маданий мерос объектлари мавжуддир. Ушбу маданий мерос объектларидан 209 таси ЮНЕСКОнинг Бутунжаҳон мероси объектлари рўйхатига киритилган бўлиб, бундан ташқари Ўзбекистонда 11 та миллий боғ ва давлат қўриқхонаси, 12 та қўриқхона, 106 та музей ва сайёҳларни ўзига жалб қилиши мумкин бошқа кўплаб объектлар ҳам мавжуддир.

Бугунги кунда Ўзбекистонда мамлакатнинг туризм салоҳиятини тубдан янгилаш, туризм инфраструктурасини шакллантиришда ягона давлат сиёсатини амалга ошириш, халқимизнинг бой тарихий-маданий меросини кенг тарғиб қилиш, мамлакатимизда хавфсиз туризмни таъминлаш, миллий туризм маҳсулотларини халқаро туризм бозорига олиб чиқиш каби масалаларга катта эътибор қаратилмоқда. Ўзбек халқининг тарихий моддий ва маънавий мероси, урф-одат ва анъаналари, маросим ва байрамлари, тарихий тараққиёт жараёнида шаклланиб, такомиллашиб, аждодлардан авлодларга ўтиб ҳозирги даврга қадар етиб келган бўлиб, бу жараёнга маданиятлараро мулоқотнинг муҳим омили сифатида Буюк Ипак йўли катта таъсир кўрсатган.

Буюк Ипак йўлининг цивилизациялар тарихида ўзига хос ўрнини хисобга олган ҳолда ЮНЕСКО “Ипак йўли – мулоқот йўли” дастурини қабул қилиб, 1990 йил октябрда Самарқандда “Ўтмишда ва ўрта асрлардаги Марказий Осиё Буюк Ипак йўлининг ривожланиши ва шаклланиши”, 1994 йил октябрда “Буюк Ипак йўлида туризм тараққиёти”, 1996 йил 21-22 февралда Бухорода “Ипак йўлини қайта тиклаш”, 2019 йил 21-23 февраль кунлари Бухоро ва Самарқандда I Халқаро зиёрат туризми форуми, 2019 йил 11-13 июль кунлари Марғилонда “Буюк Ипак йўли” халқаро мусиқа фестивали, 2019 йил 24-25 май Самарқандда “Буюк Ипак йўли чоррахасида зиёрат туризмининг ренессанси” каби халқаро сиёсий ва илмий анжуманлар ташкил этилди. Ўзбекистон тарихий ва замонавий Ипак йўлининг марказидаги, геосиёсий ва геоиқтисодий муҳим маконда жойлашган бўлиб, туризмни ривожлантириш масаласида катта салоҳиятга эгадир. Ўзбекистон Ипак йўли ва ипак йўли анъаналарини қайта тиклаш ва ривожлантиришнинг йирик ташаббускори ва тарафдори бўлиб келмоқда.

Ўзбекистон ҳудудидаги қадимги меъморий обидалар, турли мақсадлар учун хизмат қилиб келган туристик объектлар, топилаётган осори-атиқалар халқимизнинг бой тарихга ва юксак маънавиятга эга эканлигини кўрсатиб, фуқароларимиз онги ва қалбида миллий ғурур ва ифтиҳор туйғуларининг юксалишига хизмат қилади. Ўзбекистондаги муқаддас қадамжолар зиёрат туризмининг ривожланишига хизмат қилса, бой тарихий маънавий мерос, қўлёзма асарлар, музейлар маърифий туризмнинг ривожланишига хизмат қилмоқда.

Буюк тарихда ҳеч нарса изсиз кетмайди. У халқларнинг қонида, тарихий хотирасида сақланади ва амалий ишларида намоён бўлади. Шунинг учун ҳам у қудратлидир, - дейди Президент Шавкат Мирзиёев, - Тарихий меросни асраб-авайлаш, ўрганиш ва авлодлардан авлодларга қолдириш давлатимиз сиёсатининг энг муҳим устувор йўналишларидан биридир[1].

Бугунги кунда Ўзбекистонда туристларга хизмат кўрсатувчи ташкилотлар, давлат музейлари, галереялар, маданий мерос объектлари ва қўриқланадиган табиий ҳудудларни реклама қилишга катта эътибор қаратилмоқда. Ўзбекистон халқларининг бой маданий мероси ва анъаналарини тўлиқ сақлаб қолиш ва кўпайтириш, миллий ҳунармандчилик, халқ бадиий ва амалий санъатини янада ривожлантириш, миллий урф-одат, анъана, удумлар, маросимларни тиклаш ва такомиллаштириш, ички ва ташқи туризмни янада юксалтиришда “Шарқ тароналари” халқаро мусиқа фестивали”, “Мақом санъати фестивали”, “Халқаро бахшичилик санъати” фестивали, “Халқаро ҳунармандчилик фестивали”, “Буюк Ипак йўли чоррахасида зиёрат туризмининг ренессанси” халқаро анжумани, Халқаро туризми форуми, “Буюк Ипак йўли” халқаро фольклор мусиқа фестивали каби миллий мусиқамиз, маданиятимизни тарғиб ва ташвиқ қилувчи тадбирлар ўтказилиб, Ўзбекистонда миллий туризмнинг тараққий этишига ўзининг муносиб ҳиссасини қўшиб келмоқда. Ўзбекистонда ишбилармонлик, тадбиркорликни ривожлантириш, аҳолининг турмуш даражасини ошириш, муносиб ҳаёт даражасини таъминлаш, янги иш ўринларини яратиш туризм инфраструктурасини янада такомиллаштиришни, соҳани ривожлантирадиган мутаҳассис кадрлар тайёрлаш тизимини янада юксалтиришни талаб қилмоқда.

[1] Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. Тошкент, Ўзбекистон, 2017 йил, 29 бет.

Хамитов М.Х – СамИСИ мустақил изланувчиси

МЕҲМОНХОНАЛАР ХЎЖАЛИГИДА СЕРВИС ХИЗМАТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Аннотация: *В данной статье описывается роль гостиничного бизнеса в сфере туристических услуг, специфика основных и дополнительных услуг, предоставляемых отелем.*

Ключевые слова: *бронирование, бизнес-центр, фитнес-центр, медицина, «Reception», Front office, клерки, late arrival, overbooking, farm out, стандарт, охрана, кейтеринг, Room service, консьерж, швейцар, паж, телефонные операторы.*

Annotation: *This article describes the role of the hotel business in the field of tourism services, the specifics of the basic and additional services provided by the hotel.*

Keywords: *booking, business center, fitness center, medicine, "Reception", Front office, clerks, late arrival, overbooking, farm out, standard, security, catering, Room service, concierge, doorman, page, telephone operators.*

Мамлакатимизда туризм соҳасини ривожлантириш борасида янги иш ўринларини яратиш, иқтисодиётни диверсификация қилиш, ҳудудларни жадал ривожлантириш, валюта тушумларини кўпайтириш, аҳоли даромадлари ва турмуш даражасини ошириш каби энг муҳим ижтимоий-иқтисодий вазифаларни яқин истиқболда ҳал қилиш учун кенг салоҳиятга эга бўлган изчил чора-тадбирлар амалга оширилмоқда.

Шу маънода Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2018-2019 йилларда туризм соҳасини ривожлантириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида»ги қарорининг қабул қилиниши давлатимиз томонидан туризм соҳасида амалга оширилаётган сиёсатнинг мантиқий давоми бўлиб, туризм соҳасини жадал ривожлантириш учун қулай иқтисодий, маъмурий ва ҳуқуқий муҳитни яратган ҳолда, энг самарали тартибни жорий этиш, ҳудудларнинг иқтисодий салоҳияти ва даромадлари базасини кенгайтириш, янги иш ўринлари яратиш, юртимизга келадиган туристлар оқимини кўпайтириш, шунингдек, миллий туризм маҳсулотларини жаҳон бозорида фаол ва комплекс илгари суришга қаратилган.[2]

Туризм соҳаси жадал ривожланаётган мамлакатларда биринчи навбатда бу соҳани ҳаракатга келтирувчи меҳмонхона хизматларига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Замонавий меҳонхона корхоналарида сервис фаолиятини бошқариш муҳим омил ҳисобланади. Бунга сифат стандартларини ишлаб чиқиш ва жорий этиш, персонални ўқитиш, меҳмонхона фаолиятининг барча жабҳаларида хизмат кўрсатишни назорат қилиш, тўғрилаш, такомиллаштириш киради.

Меҳмонхона хўжалиги ўзининг сервис хизмат кўрсатиш турлари бўйича турли даражада бўлсада, лекин барча меҳмонхоналарда асосан: қабул қилиш ва жойлаштириш, савдо хўжалик ишлари, мухандислик, хавфсизлик, сотиб олиш, овқатланиш ва бошқа сервис хизматлари йўлга қўйилади. Албатта, меҳмонхона тури, қуввати, даражасига қараб бундай хизматлар турини камайтирилиши ёки кенгайтирилиши мумкин. Масалан, бронлаш хизмати алоҳида бўлиши ёки коммерция ишлари билан қўшилиши, харид қилиш хизмати молиявий хизмат билан, банкет хизмати овқатланиш хизмати билан бўлиши мумкин.

Меҳмонхона даражасига қараб янги хизмат турлари: бизнес-марказ, фитнес-марказ, тиббиёт, SPA хизматлари, дам олиш ва бошқа сервис хизматларини ташкил этилади.

Меҳмонхоналарда қабул қилиш ва жойлаштириш сервис хизмати инглиз тилида «Reception» деб аталади ва меҳмонхона команда пункти ҳисобланган Front office таркибида бўлиб, меҳмонхона юзи, меҳмонларнинг меҳмонхона билан танишиши ва улар билан хайрлашиш жойи ҳисобланади. Унинг таркибида консьерж, швейцарлар, багаж ташувчилар,

[2] Ўзбекистон Республикаси Президентининг "2018-2019 йилларда туризм соҳасини ривожлантириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПҚ-3217 сонли Қарори

пажлар, телефон операторлари, меҳмонхоналар билан ишлаш менеджери, кассир ва кўп ҳолда бронлаш хизмати киради.

Бундай сервис хизматидан клерклар (меҳмон кутувчилар) яхши психолог бўлиб, меҳмонлар билан тез тил топиши, уни ўрганиши (масалан, меҳмон жимжитликни хуш кўрадими ёки кўнгил очар ишларними) лозим бўлади.

Қабул хизмат кўрсатишда ходимлар меҳмонхона ҳақида барча маълумотларни (номерларнинг тавсифини, камчилиги ва яхши томонларини, барча хизмат кўрсатиш жойларини ва уларнинг ишлаш режимини) шаҳардаги диққатга сазовар жойларни, уларга бориш йўлларини, транспортларнинг юриш жадвалини, театр, музейлар ва ҳ.к. билиши лозим.

Қабул қилиш ва жойлаштириш сервис хизматининг асосий вазифаси келган меҳмонларни қайд қилиш, номерларга бўлиш, уларни жойлаштириш, мижозларни кетишини белгилаш ва яна турли қўшимча хизматлар кўрсатиш ҳисобланади. Бундай хизмат кўрсатиш кеча-кундуз иш режимида ишлайди. Кечки сменада ишчилар сони кундузгига нисбатан бир мунча оз бўлиши мумкин.

Front office да мижозлар ҳақида маълумотлар (уларнинг нимани яхши кўриши, туғилган кунлари) йиғилади ва сақланади. Шу билан бирга улар ўзларининг сервис бўйича ҳамкорлари (экскурсион бюролар, автомобил ижара фирмалари, туристик агентлиги ва ҳ.к.) билан мунтазам алоқада бўлади.

Қабул қилиш ва жойлаштириш хизматида бронлаш ҳам муҳим ҳисобланади. Чунки, бунда турли алоқа воситалари ёрдамида (электрон почта, факс, телефон, телекс) номер фондига бюртмалар келиб тушади ва компьютерда ёки журналда уларнинг фамилияси, манзили, неча киши эканлиги, қанақа номер бўлиши, муддати ва тўлов кафолати ким томонидан тўланиши (махсус тилаклари) ёзилиб борилади. Ҳар бир бюртмага алоҳида номер берилади. Бундай маълумотлар олингандан сўнг, бўлажак мижоз ҳақида таҳлил олиб борилади. Унинг олдин шу меҳмонхонада яшаганми, йўқми ва у ҳақидаги маълумотлар кўздан кечирилади. Агар бюртма кўп номерга бўлса, бунинг учун алоҳида шуғулланадиган ходим тайинланади.

Меҳмонхонада бўш номерлар борлиги ҳақида мижозларга албатта, жавоб берилади ва брони тасдиқланади. Бунда жойлашиш куни, номер типи, яшаш муддати, буюртма номери кўрсатилади. Агар яшаш муддати кўрсатилмаса, унда номер фақат бир кунга бронланади. Мижоз меҳмонхонага соат 18 гача келиши керак, агар кеч келадиган бўлса, у ҳақда олдиндан хабар бериши керак. Умуман олганда, бюртма, бу ёзма контракт ҳисобланади.

Мижозларнинг бронни бекор қилишлари яшаш муддатидан 48 соат олдин хабар берилиши сўралади. Амалиётдан шу маълумки мижозларнинг 10 % бронни бекор қилишади, 5 % айтилган вақтда келмайди. Шунинг учун меҳмонхоналарда керагидан 10 % кўпроқ брон берилади. Бундай ҳолатлар меҳмонхона администрацияси томонидан мижознинг томонига ҳал этилади.

Чет эл меҳмонхоналарида бундай вазиятлар: бронни тасдиқлаш – confirmation, кеч келиши ҳақида белгилаш – late arrival, қайта бронлаш – overbooking, меҳмонхонанинг ўз ҳисобидан бошқа меҳмонхоналардан жой топиб бериши – farm out, маълумотларни хўжалик хизмати маълумотлари билан таққослаш – housekeeping айтилади.

Қабул қилишда бронлаш усули икки томон: меҳмонхона ва мижоз ўртасида қулай бўлган муносабат ҳисобланади. Бунда меҳмонхона ўзининг иш фаолиятини олдиндан режалаштирса, мижозлар ортиқча оворагарчиликдан ҳоли бўлишади.

Меҳмонларнинг келиши билан рўйхатга олиш ишлари олиб бориладики, бунда меҳмоннинг меҳмонхонада яшаши учун қонуний ҳужжатлар: қайд этиш карточкаси тузилиб, икки томондан имзоланади, яъни шу билан меҳмонхона ва мижоз ўртасида шартнома тузилади. Бу ҳақидаги маълумот кассирга узатилиб, меҳмонга меҳмонхона визиткаси берилади. Шундан сўнг меҳмоннни хонасига жойлаштирилади.

Меҳмоннинг меҳмонхонадан кетиши вақтида, у меҳмонхона рўйхатидан чиқарилади. Бу ҳақда меҳмонхонанинг барча хизмат кўрсатувчиларига хабар берилади.

Меҳмонхона хўжалик хизмати, меҳмонхонанинг ва унинг номерлари тозалигига жавоб беради. Меҳмонхона хоналарини тозалаш бўйича махсус кўрсатма ишлаб чиқарилиши керак. Уни бажарувчи меҳмонхона ходималари бунга қатъиян амал қилишади.

Меҳмонхоналар хавфсизлик хизмати, меҳмонларни ҳимоялаш, меҳмонхона моддий бойлигини турли жиноятлардан ҳимоялаш вазифасини бажаради. Бу борадаги ишлар тўғри йўлга қўйилмаса меҳмонхона қийин ҳолатга тушиши ва ўзининг имиджини йўқотиши мумкин. Масалан, 1974 йили америкалик эстрада хонандаси Кони Френсиз беш юлдузли меҳмонхонада зўрланганлиги ва кейинги судлашишдан сўнг отел 1,5 млн. доллар тўлаган. Кўп ҳолда, меҳмонларнинг ўзлари ҳам номернинг сочиғини, чойшабини ёки сувинер жойида кулдонини олиб кетишади. Бундай меҳмонларни меҳмонхона администрацияси қора рўйхатга олиб, келгусида назорат ишларини олиб боради. Худди шундай, бундай рўйхатга профессионал арзқилувчиларни ҳам киритишади.

Хавфсизлик хизматининг асосий вазифаси ножўя ишларни ахтариш, сўров эмас, балки олдини олиш ҳисобланади. Улар сўров ўтказиши, тинтув ва бошқа ҳаракатлар қилишга ҳақли эмас. Бу хизмат ходимлари бошқа хизматлар билан айниқса, молиявий департамент ва персонал бўлими ҳамда маҳаллий ички ишлар бўлими билан ҳамкорликда бўлиши керак.

Хавфсизлик хизмат ходимлари меҳмонхонани хавфсизлигини ошириш бўйича лойиҳа – дастур ишлаб чиқиб, меҳмонхона директори томонидан тасдиқланиб иш фаолиятида қўллаб боришлари лозим. Бу хизматнинг албатта, меҳмонхонада ўзининг алоҳида хонаси, гардероби ва ҳужжатлар сақлаш хонаси бўлиши керак.

Хавфсизлик хизматининг функцияси турли хил бўлиб, унда хоналарни текшириб туриш, айниқса кечки вақтда номерлар эшикларнинг очиқ қолмаслигини, хизмат кириш эшигини назорати, меҳмонхона бошлиқларини, инкассани ҳимояси, калитларни назорати, ходимларнинг шахсий қўллашларига берилган моддий бойликларини сақланишини назорати, эвакуация вақтида тартибни ыва моддий бойликни сақлаш ва ҳ.к. функцияларни бажаради. Вақти-вақти билан меҳмонхона администрациясига ҳисобот бериб боради.

Меҳмонхонанинг харид қилиш бўлимининг функциясига, меҳмонхона керакли товрларни талаб даражасидаги сифатда, ўз вақтида келишган нархда олиш ҳисобланади.

Меҳмонхона фаолиятини юргизишда мунтазам равишда керак бўладиган товарлар қуйидаги гуруҳларга бўлинади:

1. Маҳсулотлар.
2. Ичимликлар.
3. Жиҳозлар ва мебеллар, идиш-товоқ, чойшаблар.
4. Сарф моддийлари (асосан номерларни ва жамоавий хоналарни тозалашда керакли материллар).

Бу товарларни олишда бўлим менеджерлари: мол етказувчининг репутациясига (обрў-эътиборига), товарларнинг баҳоси ва сифатига, оладиган партиянинг ҳажми, тўлов шартига (яхшиси кредитга, олдиндан тўловсиз), олинган товрларга сервисли хизмат кўрсатилишига ва етказиб бериш баҳоси ва етказувчининг узоқ яқинлигига эътибор бериш зарур.

Юқорида келтирилган меҳмонхона асосий хизматларидан яна бири бу овқатлантириш хизмати ҳисобланади.

Меҳмонхона овқатлантириш хизмати, асосан шу меҳмонхона таркибидаги овқатланиш корхонаси (ресторан, кафе, ошхона, буфет, бар ва ҳ.к.) томонидан бажарилади. Унинг асосий вазифаси меҳмонларни ўз вақтида қулай, сифатли, ақл даражасидаги нархда юқори сервис даражасида овқатлантириш ҳисобланади. Бунда овқатларнинг тайёрлаш муддати, санитария нормалари талабига жавоб бериши, ишлаб чиқариш сарф-ҳаражатини камайтириш, мижозлар талабини юқори қўйиш, бошқалар билан рақобатда бўлиш лозим бўлади.

Norkulova D.Z. - PhD, dots. v.b.
Xushvaqtov.D - Magistrant
Qilichova O.Z. - MXT-118 guruh talabasi

YOSHLAR VA MILLIY AN'ANA: ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Аннотация*: В данной статье рассматриваются способы повышения национальной гордости молодежи, сохранения и расширения традиций, их истоков и значимости.*

Ключевые слова: *традиция, ценности, духовность, национальные игры, молодежь, общество, чувство родины.*

Annotation: *This article discusses ways to increase the national pride of youth, the preservation and expansion of traditions, their origins and significance.*

Key words: *tradition, values, spirituality, national games, youth, society, sense of homeland.*

Bugungi kundagi turli zararli ta'sirlardan saqlanish, har qanday sharoitda ham xalqimizga azaldan xos bo'lgan milliy qiyofa, betakror fazilatlar egasi bo'lib qolishimizda qadimiy an'ana va qadriyatlarimizni asrab-avaylab, ularga amal qilib yashash o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Yer yuzidagi har bir millat faqat uning o'ziga xos bo'lgan an'ana va qadriyatlari bilan alohida ajralib turadi, tabiiyki, har qaysi xalqning bebaho boyligi bo'lgan bunday qadriyat va an'analar bir-ikki kunda paydo bo'lib qolmagan. Insoniyatnrng necha ming yillik tarixiy tajribasi shuni ko'rsatadiki, biror-bir narsaning an'anaga, ayniqsa, qadriyatga aylanishi uzoq davrni talab qiladi. Yillar, asrlar davomida muayyan qarash, odat, tushuncha, tajribalar zamonlar, avlodlar sinovidan o'tadi, sayqal topib boradi. Agar ular keyingi avlodlar tomonidan ham qabul qilinsa, davom ettirilib, urf-odatga aylansa, demakki, endi ularni milliy an'ana va qadriyat deb atash mumkin bo'ladi[1]

An'ana – o'tmishdan kelajak-ka meros qoladigan, avloddan avlodga o'tadigan, jamiyat hayotining turli sohalarida namoyon bo'ladigan moddiy va ma'naviy qadriyat. Milliy, madaniy, maishiy, ijtimoiy-siyosiy, diniy va boshqa an'analar mavjud. An'analar xalqlarning tarixiy rivojlanishi jarayonida shakllanadi. Odamlarning turmush tarzi, moddiy sharoitlari turli A.larning shakllani-shiga ta'sir qiladi. An'analarni: a) ijtimoiy-tarixiy hodisa; b) jamiyat hayotidagi jarayonlarning tarkibiy qismi; v) kishilar hayoti va faoliyatini belgilash mezoni; g) jamiyat va odamlarni boshqarishning ma'naviy omillaridan biri sifatida tavsiflash mumkin. An'analar yoshlarni tar-biyalash, ularni keksa avlod tajribalariga o'rgatish vositasi hamdir[2]. Millat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq qadriyatlar **milliy qadriyatlar** deyiladi. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati hamda madaniyati bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi.[1]

Qadimdan me'ros bo'lib qolgan milliy an'ana va qadriyatlarimiz qay darajada e'zozlanmoqda?

O'zbek xalqining asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan milliy qadriyatlari ham uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Jumladan, o'zi tug'ilib o'sgan ona yurtiga ehtirom, o'z taqdirini mana shu yurtsiz tasavvur qila olmaslik, o'tgan ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga doimiy hurmat ko'rsatish, har qanday sharoitda ham hayo va andishani saqlash, turmushda poklikka alohida e'tibor berish singari ko'plab fazilatlar bizning milliy qadriyatlarimiz asosini tashkil etadi. Xalqimiz juda qadim paytlardan boshlaboq ko'chmanchilikdan o'troq hayot kechirishga o'tgan, shunday hayot tarziga o'rgangan. Odamlar o'zi o'rnashib qolgan yerni, uning atrofidagi suv manbalarini qadrlashni, asrashni odat qilganlar. Chunki mana shu yer va suv yordamida olinadigan hosil insonlarning rizqi, tirikchiligina muhim manbayi hisoblangan. Bunday o'troq hayot tarzi odamlarni jamoa bo'lib, bir-biriga yelkadosh bo'lib yashashiga, mehnat qilishi mehnat mahsullarini o'zaro ayirboshlash orqali savdo munosabatlari kirishishiga olib kelgan. Shu tariqa qishloq xo'jaligi hamda shahar madaniyati yuksala borgan. Yurtimizda bunyod etilgan Samarqand, Qarshi, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Andijon, Marg'ilon, Termiz va Qo'qon singari o'nlab shaharlarning yoshi ming yillar bilan o'lchanishi ham bejiz emas. Tarixan tarkib topgan milliy an'ana, rasm-rusum, tamoil, marosiumlarning vujudga kelishi va rivojlanishiga bir qancha omillar bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Xalqimizning tarix sinovlaridan o`tgan bayramlari marosimlari, urf-odatlari xalqimizning ajoyib fazilatlari, milliy xususiyatlari, qadriyatga aylangan xalqchilik ruhi bilan sug`orilgan jihatlarini, halollik, poklik, mehnatsevarlik xuslatlarini namoyon etadi. Xalqning o`ziga xos milliy, ruhiy ko`rinishlarining barchasi xalq bayramlari, qadriyatlari hamda urf-odatlarida o`z ifodasini topadi[3] Bularga misol qilib, mehmondorchilik, kattalarni hurmat qilish, nonni e'zozlash, suvni qadrlash, lola sayli, xashar, hosil bayrami, hayit bayrami, beshik tuyi, aqiqa tuy kabi bayram, tuy va qadriyatlarni olish mumkin.Shulardan ba'zilariga alohida to'xtalib o'tamiz.

Hashar — o‘zbeklar, ayrim boshqa turkiy xalqlar orasida udumga aylangan ijtimoiy hamkorlik va beg‘araz yordam shakllaridan biri. Asosan, tezkorlik bilan bajarish zarur bo‘lgan ishlar (hosilni zudlik bilan yig‘ib olish) va katta mehnat talab insho-otlarni bunyod etish (kanal qazish, yo‘l va ko‘priklar qurish)da qo‘llangan. Hashar. ariq qazish, imorat qurish kabi ishlarda bir necha kun ham davom etgan. Masalan, O‘zbekistondagi Katta Farg‘ona kanali umumxalqhashar. vositasida bunyod etilgan. 1966 yil 26 aprelda Toshkentda ro‘y bergan zilzila oqibatlari ham umumxalq hasharorqali tugatilgan. O‘zbekiston istiq-lolidan so‘ng hasharyangicha mazmun kasb etib, Ro‘za va Qurbon hayitlari, Navro‘z, Mustaqillik bayramlari yoki muhim sanalar oldidan umumxalq xayriya hashar.i o‘tkazish an'anaga aylandi.[4]https://uz.wikipedia.org/wiki/Hashar

Hosil bayrami – qishloq xo‘jaligi xodimlarining an'anaviy bayrami (O‘zbekistonda 1972 yilgacha "Paxta bayrami" deb atalgan). Xo‘jaliklar, tumanlar, viloyatlar miqyosida o‘tkaziladi. Ko‘pgina joylarda hosil bayrami kech kuzda qishloq xo‘jaligi ekinlari hosili yig‘im-terimi tamomlanishiga qarab nishonlanadi. Bayram kunlari ko‘rgazmalar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yarmarkalari uyushtiriladi; badiiy va sport o‘yinlari, ot sporti musobaqalari, ommaviy sayillar o‘tkaziladi. Mehnat ilg‘orlariga mukofotlar topshiriladi. Hosil bayramida qishloq xo‘jaligi xodimlari bilan birga shahar aholisi, keng jamoatchilik ham ishtirok etadi[5].

Hayit bayrami - Iyd (عيد) arabcha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida *"bayram"*, *"hayit"* degani va Fitr so‘zi esa ro‘za tutish deganidir. Iyd al-Fitr (عيد الفطر) yoki ro‘za hayiti Ramazon oyining tugashi bilan nishonlanadigan bayramdir. Ramazon oyida musulmonlar tong otgandan kun botguniga qadar ro‘za tutadilar, ya'ni yeyish, ichish va jinsiy aloqadan tiyiladilar. Ro‘za hayiti Ramazon oyining oxirgi kuni kun botgandan so‘ng boshlanadi. Ushbu bayram O‘zbekistonda ham musulmonlar tomonidan keng nishonlanib, umumxalq bayrami sifatida dam olish kuni deb e'lon qilingan.[6]

Barkamol va vatanparvar yosh avlodni tarbiyalashda milliy o'yinlarning ahamiyati juda katta sanaladi. Afsuski, hozirgi kunda "ommaviy madaniyat" tasirida kirib kelayotgan ma'naviy saviyati past, maqsadsiz kompyuter va internet o'yinlarining ko'payib ketishi natejasida yoshlarning ma'naviy ongining pasayishiga va mafkuraviy bo'shliq paydo bo'lishiga olib kelmoqda. O'z millyligini hamda mentaletetini aks ettira olgan milliy o'yinlarning qayta tiklanishiga bo'lgan ehtiyoj bugungi kunda ayniqsa yuqori. Bu kabi o'yinlarga quyidagilarni misol qilib olish mumkin: "Quloq cho‘zma", "Oq terakmi, ko‘k terak", "Podachi", "Charxpalak", "O‘rda to‘p", "Chigi", "Qo‘tir echki", "Uzuk olish", "Igna sanchish", "Poyondoz", "Sultonchalar jangi", "Igna, ip, angishovna" va b.

- туризмда мавсумий даврни узайтириш, кўрсатиладиган хизмат турларини ва самарадорлигини ошириш;
- туризм соҳасига инвестицияларни кенг жалб қилиш;
- жалб қилинган инвестициялар самарадорлиги кўрсаткичлари тизимини илмий жиҳатдан ишлаб чиқиш,
- республикамизда «маданият туризми», «агротуризм», «хабарлар туризми», «ишбилармонлик туризми» табиий ресурслар туризими концепцияларини ишлаб чиқиш ва амалиётга кенг жорий этиш;
- мамлакатимизда туризмни ривожлантиришда хориж тажрибаларидан кенг фойдаланиш;
- соҳа учун кадрлар тайёрлаш сифатини ошириш бўйича алоҳида инвестицияларни киритиш мақсадга мувофиқдир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2018 йил 28 декабрь, http://www.xabar.uz/siyosat/prezident-shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlisga murojaatnomasi.
2.https://knoema.ru/atlas/topics/Туризм/Туристские-государственные-расходы/ Государственные- расходы-доля-percent.
3. https://knoema.ru/atlas/topics/Туризм/Туристские-расходы-резидентов- внутри-страны/ Расходы-резидентов-внутри-страны-доля-percent).

Маркова Г.- СамИСИПрепод.
Тухтаев С. - Сам ИСИ Старший препод.

КУЛЬТУРА НАРОДОВ СРЕДНЕЙ АЗИИ

Abstract*: This article is relevant, the history of the culture of the peoples of Central Asia is analyzed, saturated with vivid events that goes back to ancient times. Mixing cultures during the formation and development of ancient states with the advent of Alexander the Great, the emergence and functioning of the Great alkaline path, the invasion of Arabs and Mongols, the restoration and development of Uzbek statehood in the era of Temur and Temurids. It is within this framework that the nature of the Central Asian civilization can be explained, which constitutes the core of the political history, material and spiritual culture of the region.*

История культуры народов Средней Азии, насыщенная яркими событиями, которая уходит в глубокую древность, эпохи раннего палеолита.Первобытная культура - самая длинная в истории человечества. Первобытная культура бесписьменна, следствием этого являются очень медленные накопления информации и соответственно культурного и социального развития. Она была магической, жизнь первобытного человека проходила в выполнении множества ритуалов, которые представлялись столь же необходимыми как трудовые действия. На закате первобытной культуры у человека развивается мифологическое мировосприятие, человек переносит на окружающий мир свойства, которые замечает в самом себе, предметы представляются ему одушевленными наделенными волей, сознанием и эмоциями. Говоря о первобытной культуре, мы имеем в виду развитие, как материальной ,так и духовной культуры. Одомашнивание животных и создание сельскохозяйственных культур, овладение огнем, изобретение орудий труда – все это проявления первобытной культуры, зачатки рациональных знаний, становление первобытного искусства, зарождение ранних форм религии, формирование мифов.

Первобытное искусство, речь идет, прежде всего, о наскальных рисунках – изображения на стенах пещер, на открытых каменных поверхностях и на отдельных камнях. Главными «живописцами» той эпохи стали кроманьонцы. Рисунки, сделанные при помощи естественных красителей и окисей металлов.

Наряду с искусством в первобытном обществе возникает и религия. Среди конкретных причин происхождения религии называют страх перед природными явлениями и представление сверх естественной силы, влияющие на человека.

На ранних стадиях развития общества, мифология была единственно возможным универсальным способом постижения мира. Она соединяла реалистические линии, художественные образы, религиозные верования, социальные нормы и образы поведения.

Древняя культура характеризуется единством обрядов, ритуалов, мифов Вера в действительное совершение описанных в мифе событий, в присутствие мифологических персонажей, индентификация с ними была основой культа, определяя его содержание. Культ возвышал человека над обыденностью бытия. Самым древним объектом культа был огонь, что связано с огромной значимостью в жизни древнего человека. В дальнейшем миф перестает быть универсальным и единственным способом объяснения действительности. Появляется религия, мораль, право. Одни мифологические сюжеты дают начало народному эпосу и сказке, другие входят в содержание религиозных представлений, третьи обыгрываются в искусстве.

В разные периоды границы Среднеазиатских стран смещались и не соответствуют современным границам. Поэтому сегодня важно изучить процесс сложения этнических пластов, который привел к формированию народов, а затем наций, что обусловило сложение современных государств в Средней Азии.

Культура Средней Азии развивалась не изолированно и замкнуто, а в русле больших и длительных историко-культурных взаимодействиях и постоянных широких связях. Поэтому историю культуры Средней Азии следует изучать как в целом, так и отдельных ее частях.

В Средней Азии до принятия ислама, существовали несколько религий: зороастризм, буддизм, манихейство и др. Переплетение и взаимодействие религий на территории проходило параллельно с взаимовлиянием различных народов и этносов, что отразилось на их духовной культуре. Современный исторический поворот показывает, что многие из самых древних образов, знаков, символов и элементов, они не утратили своей жизненности, постоянно воплощаясь в новые художественные образы и наполнялись новым художественным смыслом, что сказалось впоследствии на сложении культа святых ислама.

Этнический состав народов Средней Азии так же был многообразен. Хорозмийцы, бактрийцы и согдийцы говорили на разных языках, которые приняты относить к северо-иранской восточной ветви и соединившись образовывали местный диалект. Именно в этих рамках можно и объяснить природу среднеазиатской цивилизации. Оно составило стержень политической истории, материальной и духовной культуры региона.

Благодаря Шелковому пути уже в древности начался обмен материальными и духовными достижениями между самыми различными народами.

Культурные, духовные, политические и экономические связи так же, как системы определенных караванных дорог, соединяющих различные страны и историко-культурные области Ближнего и Среднего Востока. Об этом свидетельствуют разнообразные находки, чаще всего украшения и предметы утвари, далеко от мест их происхождения.

Но было бы совсем неоправданно сводить значение Великого шелкового пути в истории мировой цивилизации исключительно к торговле шелком. Его роль была значительно шире и разнообразнее , ибо по нему проходили караваны не только с различными восточными и западными товарами, но проникали духовные ценности и религиозные идеи.

Этот процесс еще более углубился благодаря походам Александра Македонского, который впервые в истории человечества стал реально воплощать в жизнь идею объединения народов Востока и Запада.

В 1987 году ЮНЕСКО в рамках Всемирной декады ООН по культурному развитию приняла международную программу «Шелковый путь – путь диалога», предусматривающую широкое и всеобъемлющее изучение истории цивилизации народов Центральной Азии. Но главная ее цель – установление более тесных культурных и экономических контактов между Востоком м Западом, улучшение взаимоотношений между многочисленными народами, населяющими эти великие континенты.

D. J. Norboyeva - SamISI.

NAVOIY VILOYATI “SANGIJUMON” TOSHLARI TABIAT DURDONALARIDA TURIZM INFRATUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH.

Аннотация: *В данной статье дана информация об удивительном и загадочном камне “Сангижумон”, который находится в регионе Навоинской области. Исследуя регион и изучая архитектурный памятник, в статье рассматривается усовершенствование туристической инфраструктуры данной местности и правильное использование региональных ресурсов.*

Ключевые слова: *культурное наследие, музей, туристическая инфраструктура, геотуризм, агротуризм, этнографический туризм.*

Abstract: *This article aims to draw attention to the cultural heritage sites in our country and to introduce them to the world. The idea of creating an infrastructure for visitors around the Sangijumon gemstones in the Navoi region.*

Key words: *cultural heritage sites, unique gemstones, museum under the skygeo-tourism, agro tourism, ethnographic tourism, guest hause.*

Turizm o‘zining ko‘p qirrali tarkibi bilan jamiyat hayotining barcha sohalariga faol ta'sir o‘tkazib kelmoqda. U iqtisodiyotning ko‘pgina jabhalarini rivojlantirishga imkon tug‘diradi.

Masalan, transport tarmoqlari, aloqa, yo‘l qurilishi, umumiy ovqatlanish korxonalari, kommunal xo‘jaligi, maishiy xizmat ko‘rsatish, servis sohasi, savdo tarmoqlari va eng asosiylaridan biri mehmonxonalarni misol keltirishimiz mumkin. Turizmni rivojlantirish bir vaqtning o‘zida o‘ziga xos dam olish, xordiq chiqarish, ko‘ngil ochar maskanlar industriyasini tashkil etib, o‘z o‘rnida sayyohlarga sifatli xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq bir qator sohalarni qamrab olgandir. Butunjahon turizm tashkiloti (BTT)ning ma’lumotlariga ko‘ra, jahon YaIM ning 10 %, jahon eksportining 7 % va xizmatlar eksportining 30 %, hamda yer shari aholi bandligida o‘nta ish o‘rnining bittasi turizm tarmog‘iga to‘g‘ri kelmoqda. Xalqaro sayyohlar soni esa 2018 yilda 1 milliard 400 million kishidan oshgan bo‘lib buning natijasida dunyoda sayyohlik xizmatlaridan olingan daromad miqdori 1,6 trln. AQSH dollarini tashkil etgan [13].

Turistlar oqimining holatidagi o‘zgarish O‘zbekistonda ham yildan yilga ijobiy tomonga o‘sib borayotgan bo‘lib, jumladan, mamlakatimizga 2017 yilda qariyb 2 million 700 ming turist tashrif buyurgan bo‘lsa, 2018 yilda ularning soni 5 million 300 ming nafarni tashkil etgan. Bu esa, mamlakatimizga tashrif buyurgan sayyohlar soni bir yilda 97 foiz o‘sishni ko‘rsatib, ikki baravarga oshganligini ko‘rsatadi.[14]

Yurtimizda ko’plab madaniy me’ros obyektlari borligi barchamizga ma’lum. Ammo ushbu obyektlar haqidagi ma’lumotlar tashrif buyuruvchi mehmonlarga qay darajada yetkazib berilmoqda? Hattoki ichki turistlarning ko’p qismi ham bilmaydigan obyektlar mavjud. Aynan shunday obyektlardan biri Navoiy viloyatining Xatirchi tumanidagi Sangijumon qishlog‘ida, Oqtov tizmasining janubiy tarafida, soy bo‘yida joylashgan bu darada shamoldan doimo tebranib turuvchi ulkan xarsang barchani o‘z sir-sinoati bilan hayratlantirib kelmoqda.Garchi xarsang 270 tonna bo‘lsada, inson qo‘li bilan tebrata olishi- bir mo‘jiza emasmi?

Sangijumon massivining paydo bo‘lishi tarixi olimlar tomonidan turlicha qarashlarni ilgari surishga olib keldi. Ba’zilarni fikricha massiv bundan 280 million yil avval, yer qa’ridan ko‘tarilgan suyuq va magmatik jinslardan paydo bo‘lgan. Ular o‘z vaqtida yer qobig‘ini yorib chiqa olmasdan, taxminan, 250 million yil avval ma’lum chuqurlikda qotib qolgan. Sodir bo‘lgan kuchli va murakkab tektonik harakatlar hamda eroziya natijasida massivning to‘shi ochilgan. Bu yerdagi jinslar bundan kamida 10 ming yillar ilgari yuzaga chiqqan. Shu bilan birgalikda bu yerda paleozoy davrida shovullab turgan Tetis dengizi o‘rtasidan yuqoriga ko‘tarilgan tog‘ jinslari yarim oy shaklda orolni vujudga keltirganini ham qayd etishadi. Keyinchalik orolning turli xil tashqi va ichki ta’sirlar natijasida parchalanishidan mazkur toshlar vujudga kelgan degan fikrlar ham mavjud. Nima bo‘lganda ham ushbu toshlar hamon o‘z sirini saqlamoqda. Aslida qishloq nomi ham ushbu harsang bilan bog‘liq. Sangijumon- fors-tojik tilidan “sang”- tosh, “jumon”-qimirlamoq ya’ni “qimirlovchi tosh” degan ma’noni anglatadi. Ushbu tosh Sangijumon soyi bo‘yida 900 metr balandlikda joylashgan bo‘lib, aylanasi 20 metr, diametri 9, balandligi 6 metr, 19 metr uzunlikda bo‘lib, ogirligi 270 tonnadan ziyod. Sangijumonni g‘arb tarafga qarab ko‘tarsa qimirlaydi va 7-10 martagacha qimirlab turadi. Ushbu ulkan xarsang-tosh shunchalik yengil tebranadiki, uni hatto 12-14 yoshli bola ham bir qo‘lda qimirlatishi mumkin[15].

Tabiatning bunday noyob toshlari dunyo bo‘ylab sanoqlidir. Ulardan biri Argentinada Buenos-Ayres shahrining chekkasida, ikkinchisi Isroilning Quddus shahrida va uchinchisi O‘zbekistonda Sangijumonda joylashgan. Aytish joizki qolgan toshlar Sangijumon bilan na tebranish tezligi, na g‘aroyib shakllari bilan bellasha olmaydilar. Tebranadigan toshning janubida ulkan granit xarsang bo‘lib, ularning orasidan o‘tgan tor yo‘lakda yurgan inson tepaga qarasa, o‘zini 20 metrli quduq ichida turgandek his qiladi. Harsangning turtib chiqqan uchi uzoqdan qo‘nayotgan burgut shaklini eslatadi[16].

Bu daraga qadam ranjida qilgan kishilarning aksari yana bir toshga o‘z e’tiborilarini qaratishlari mumkin. Bu toshni ajdarho og‘zi deb atashadi. Toshning umumiy og‘irligi ming tonnadan ortiq.

[13]Jahon turizm tashkiloti hisoboti http://tourlib.net/wto/WTO highlights 2018

[14] O’zbekistonda turizm (statistik to’plam). – T.: O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasi, 2018, 28-bet.

[15] Хошимов М “Санги-Жуман – геотуристический памятник природы Узбекистана” Учебно-методическое пособие 2017 26 с.

[16]NargisQosimova “Hayotiy lavhalar”- « Zarafshon» gazetasi № 7. 2018.

Ushbu katta toshning tepa qismida katta chuqur kovak hosil bo‘lgan. Mahalliy aholiga ko‘ra, shayton odamga zarar bermasligi uchun, uning og‘ziga uchta tosh tashlanishi kerak va ular yana qaytib kelmasligi kerak.

Sangijumon qishlog‘ining tarixi juda uzoqqa borib taqaladi. Sangijumon darasining tabiati juda maftunkor. Bu gozallikka turli hayvon hamda har xil buyum shaklidagi xarsang toshlar o‘zgacha fusun bag‘ishlaydi. Tuya, qo‘y, toshbaqa, kobra, burgutboshi, qo‘ziqorin kabilar shaklidagi toshlarni ko‘rib hayratlanasiz. Mutahassislarning qayd etishicha, xarsanglarning tarkibi ohaktosh, qumtosh, kvarts kabi jinslardan iborat. Yomg‘ir va qor ta’sirida toshlarning yumshoq joyi erib, shamol va bo‘ronlarda yemirilishi natijasida, shunday tabiat ajoyibotlari hosil bo‘lgan. Ularga boqib tabiatning naqqoshligidan lol qolmasdan iloj yo‘q, nazarimda. Darani bemalol “Ochiq osmon ostidagi muzey” deyish mumkin. Undagi nodir ekspanatlarning esa o‘xshashi yo‘q.

Sangijumon toshining qimirlashiga nima sabab bo‘ladi? Sangijumon toshi tog‘ jinsi bo‘lmish granitdan iborat. Granitning sirti tabiatan silliq, shakli esa aylanasimon. Shuning uchun quyosh nurlari ta'sirida granitning kichik zarralari asosiy massaning atrofidan yemirila boshlaydi. Ushbu jarayonlarni uzoq vaqt davomida takrorlanishi granit qoldiqlarning yumaloq shaklga ega bo‘lishiga olib keladi. Bundan tashqari, granitlar asosan kvarts, dala shpati, mika va boshqa minerallarning minimal miqdoridan iborat. Va ularning har biriga tashqi muhitning o‘ziga hos xususiyatlari turli xil ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda tog‘lar va toshlar, mo‘jizaviy ko‘rinishga ega bo‘lgan bahaybat cho‘qqilar-u qoyalar, tosh-u qirlar behisob desak, yanglishmaymiz. Dunyoda esa mashhur ehromlar bisyor. Masalan, Misr ehromlari. Bu ehromlarga dunyoning ko‘pchilik kishilari: xoh sayohatchi-turist, xoh ilmiy xodim bo‘lishidan qat’iy nazar, uni bir bor ko‘rish uchun sahrolarni kesib o‘tishni o‘zlariga majburiyat va sharaf deb bilishadi. Bir qarashda oddiy tosh. Ammo Sangijumon toshining Misr ehromlaridan farqi u inson qo‘li bilan emas, balki tabiat tomonidan yartilganida. Bundan tashqari butun dunyoga mashhur bo‘lgan Londondagi Stonehenge toshlarini barcha biladi, ushbu toshlarni ko‘rish uchun yiliga necha minglab turistlar tashrif buyurishadi. Bizning yurtimizdagi shu kabi toshlardan, tabiatning mo‘jizasidan esa dunyo ahli behabar.

Sangijumon qishlog’ida mavjud imkoniyatlaridan foydalangan holda, turistik- triadani taklif qilmoqchiman:

1.Geo-turizm

2.Agro-turizm

3.Etno-turizm

- Birinchi navbatda Sangijumon qishlog’ida joylashgan ushbu ajoyib toshlar atrofida turistik infratuzilmani yaratish lozim. Buning uchun esa birinchi bajariladigan ish turistlarning transport vositalari uchun - to’xtash joyi tashkil qilish.

- Keyingi bajarish lozim bo’lgan vazifa: obyekt atrofi qirlardan iborat bo’lganligi sababli toshlarga olib boruvchi yo’lak va zinalar tashkil qilish.

- Turistik obyekt yaqinida ovqatlantirish korxonasi bo’lishi zarur, albatta. Turistlar yo’ldan horib-tolib kelganda, issiq kunda salqin dam olish, ovqatlanish maskani bo’lishi turistlarning sayohatini yanada maroqli o’tishiga sharoit yaratib beradi. Shu sababli turistik obyekt yaqinida ovqatlantirish korxonasi tashkil qilishni rejalashtirdik.

- Va albatta yuqoridan turib ushbu go’zal manzarani, Sangijumon tabiatini, ajoyib-u g’aroyib toshlarni tomosha qilish, fotosuratlar olish uchun mo’ljallangan ayvonni ham tashkil qilish lozim.

«Turizm tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida« gi Prezident qarori bilan 2019–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasida mehmonxonalar qurilishining maqsadli parametrlari tasdiqlandi. Unga binoan 2019 yilda umumiy xonalar soni 4664 ta bo‘lgan yana 212 ta yangi mehmonxonalar quriladi. Eng ko‘p mehmonxonalar Toshkent (41 ta), Samarqand (30 ta) va Buxoroda (29 ta) bunyod etiladi. 2021 yilga qadar bosqichma-bosqich ularning soni oshirib boriladi va shu davrga qadar umumiy xonalar soni 30 212 ta bo‘lgan yangi 1508 ta mehmonxonaga asos solinadi. SHu tariqa 2021 yilga borib O‘zbekistonda mehmonxonalar soni 2 394 taga etadi.

Ulardagi xonalar soni esa 50 044 tani tashkil etadi. 2018 yil yakuniga ko‘ra O‘zbekistonda 886 ta mehmonxona bo‘lib, ularda 19 ming 832 ta xonalar bor.[17]

Sangijumon qishlog‘ida tashkil etiladigan uy-mehmonxonalarning interyeri ham, eksteryeri ham milliy uslubda bo‘lishi maqsadga muvofiq. Sababi ushbu uy –mehonxonalar ko‘hna toshlar va qishloq hayoti bilan uyg‘unlashib, birgalikda bir kompleksni tashkil qilishi zarur. Yana bir sababi kelayotgan turistlar shahardan, uning murakkabligidan charchab keladi. Bu milliy ruhdagi uylar esa mehmonlar uchun ayni muddao. Mazkur uy-mehmonxonada ajoyib muhit yaratilgani bir qarashdayoq sezilishi kerak. Bu yerda mehmonlar ro‘yxatdan o‘tkaziladi va xonalarga joylashtiriladi. Har bir xona orom olishga mo‘ljallangan bo‘lib, alohida-alohida yotoq karavoti o‘rnatiladi. Har bir mehmonxona bir yo‘la 6 nafar turistni qabul qila oladi. Boshlanishiga 5ta yoki 7 ta shu kabi uylarni tashkil qilish mumkin.

Agroturizm Ispaniya, Italiya, Buyuk Britaniya, Gretsiya va Fransiyada yaxshi rivojlangan. Bu mamlakatlarga borgan sayyohlar muayyan vaqt davomida qishloq joylarda yashab, mahalliy xalq madaniyati, urf-odatlari, turmush tarzi bilan tanishishadi, an'anaviy qishloq xo‘jalik ishlarida ishtirok etishadi. Masalan, Buyuk Britaniyada fermerlarning 60 foizi turizm sohasidan tizimli ravishda daromad olishni yo‘lga qo‘yishgan, o‘rtacha yillik daromad 10-50 ming AQSh dollarini tashkil qiladi.

Sangijumon qishlog‘ida esa agro-turizmni rivojlantirish uchun asosiy manba bor. Bu uning bag‘rida yetishtirilayotgan barchaga mashhur uzumlari hisoblanadi. Uzumchilik bu qishloq aholisiga ota-bobolaridan meros desak adashmaymiz. Ularning asosiy moddiy ta’minoti ham uzumchilik va chorvachilik orqalidir. Bu manbadan unumli foydalangan holda qishloqda uzumchilik jarayoniga turistlarni jalb qilsak, ularni jarayon bilan tanishtirish va bevosita bu jarayonda ularning qatnashishini ta’minlasak mehmnlar bu hodisadan zavqlanishadi. Uzum dalasida o‘z qo‘llari bilan uzumlarni terishlari va o‘zlari tergan yurtimizning novotdek shirin uzumlardan bahramand bo‘lishlari bu ajoyibku! Keyinchalik esa vinochilik sanoatini yo‘lga qo‘yish bu tarmoqni yanada takomillashtiradi, albatta. Qishloqda gastronamik turizm, degustatsiya yanada rivojlanadi. Yaqinlari ham bu mazzali uzumlarni ta’midan ta’tib ko‘rishini istagan turistlar uchun sovg‘a tariqasida esa mayizlarimiz taklif qilinadi.

Ushbu chora-tadbirlar orqali nafaqat yurtimizni naqadar jannatnamo ekanligini turistlarga ko‘rsatishimiz mumkin, balki qishloq aholisini turmush tarzini yanada yaxshilash, uning farovonligini ta’minlashimiz mumkin.

Norkulova D.Z. – SamISI PhD, dots. v.b.
Qilichova O.Z. – SamISI MXT-118 guruh talabasi
Suyunov R.G’ –SamISI Ass.

ETNIK MEHMONXONALARNING TURIZMDAGI AHAMIYATI

Аннотация*: данная статья посвящена этническим средствам размещения, понятия определений средств размещения, особенности этнических гостиниц и оказанных услуг. Кроме этого приведены преимущества и недостатки этнических гостиниц.*

Ключевые слова*: гостиница, этнография, этническая гостиница, историческое наследство, культура, этнический ландшафт, традиции, туризм.*

Annotation: *This article is devoted to ethnic means of accommodation, the concept of definitions of means of accommodation, especially ethnic hotels and the services provided. In addition, the advantages and disadvantages of ethnic hotels are given.*

Keywords: *hotel, ethnography, ethnic hotel, historical heritage, culture, ethnic landscape, traditions, tourism.*

[17] 2019–2021 yillargamo’ljallangan «Turizmtarmog‘inijadalrivojlantirishgaoidchora-tadbirlarto‘g‘risida« giPrezidentqarori

Jahon turizmi bugungi kunda iqtisodiyot sohalari ichida adromad keltirishi bo'yicha yuqori o'rinlardan birini egallaydi, mehnatga layoqatli aholining kop'pgina qismini ish bilan bandligini, ijtimoi-iqtisodiy ko'rsatkichlarning yuqori bo'lishini ta'minlaydi va shu jihatdan ham u har doim barqaror rivojlanishga ega. Turizm sohasi jadal rivojalnayotgan mamlakatlarda birinchi navbatda bu sohani harakatga keltiruvchi vositalar turistik obyektlar hamda mehnat resurslaridan samarali foydalanish yo'llariga alohida e'tibor talab etiladi. [1]

Ma'lumki turist o'z sayohati davomida ovqatlantirish korxonalari, transport xizmatlari va joylashtirish vositalaridan foydalanishga majbur. Bu xizmatlar esa turizmda asosiy xizmatlar sanaladi. Joylashtirish vositalari turizm sohasining (industriyasining) muhim obyekti bo'lib, bu sohada alohida e'tiborni talab etadi. Shunday ekan mehmonxonalarning ichki va tashqi dezayni, ixtisoslashuvi, undagi xizmatlar assartementi va sifati, bu borada ma'lum tajribalardan foydalanish turizm istiqbolini belgilab beruvchi vosita hisoblanadi. Sir emaski, hozirgi kunda dunyoda turistlarning oqimi nafaqat turistik obyektlarni ko'rish, tanishish, o'rganish uchun, balki aynan ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarida tunab qolish maqsadida amalga oshirilmoqda. Demak, mehmonxona atamasiga to'xtalib o'tamiz.

Mehmonxona — **1)** turar joylarda (yashash maskani, boshpana joy, uyjoy binolarida) mehmon uchun mo‘ljallab alohida qurilgan katta xona. O‘rta Osiyo xalqlarida mehmonxona qadimdan mavjud bo‘lib, odatda, tashqi hovlida eng qulay joyda 2 xona yani *dahliz* hamda ichki xona qilib qurilgan. Mehmonxona *hovli* va uy mujassamotining asosiy va muhim o‘rnini egallagan, boshqa xonalarga nisbatan keng, baland, hashamatli qilib qurilgan, bo‘yama va o‘yma naqshlar bilan serhasham bezatilgan. Har bir viloyatning mehmonxonalari o‘ziga xos tuzilishga ega bo‘lib, *taxmon* va *tokchalar* ishlangan. *Palak*, *gulko‘rpa*, *choyshab*, *zardevor*, *gilam* va boshqa mehmon kutish uchun kerakli bo‘lgan bu-yumlar bilan jihozlangan.

2) Boshqa joydan mehmon bo‘lib kelgan kishilar uchun vaqtincha yashab turishga mo‘ljallab qurilgan maxsus bino. Dastlabki mehmonxona ko‘rinishidagi binolar Ossuriyada (miloddan avvalgi 10-asr) bo‘lgan. Bu turdagi binolar turli xalqlarning yashash sharoitlari bilan bog‘liq ravishda turlicha atalgan. Masalan, O‘rta Osiyoda *karvonsaroy*, *rabot*, "zoviya", arablarda "xon", Rossiyada "Gostiniy dvor", "korchma", Fransiya va Ispaniyada "taverna", "harchevna", inglizlarda "inna", yaponlarda "ryokan" kabi. 18-asrdan boshlab Fransiyada "otel" nomi bilan yuritila boshladi. Keyinchalik bu nom boshqa mamlakatlarga ham tarqaldi. [1]

Dahliz — me'morchilikda turar joy va mehmonxonalarga tutash quriladigan qo'shimch xona.Asosan, 3,5 metrli, bolor (to‘sin)li kichik xona bo‘lib, ko‘pincha, bir xona yoniga yoki ikki xona o‘rtasiga kuriladi, shu xonalarga dahliz orqali kiriladi. Dahlizlarda poyabzal, ustki kiyimlar yechib qo‘yiladi. Dahliz ichki xonalarga sovuq yoki issiq xavo kirishiga ham ma'lum darajada to‘sqinlik qiladi. Dahliz Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan.

Hovli — me'morlikda atrofi devor bilan o‘ralgan uy-joyli sahn, maydon. Oila yashaydigan uy, shu uyga qarashli sahn va maydon ham hovli deb ataladi. Musulmonlar dunyosida hovli ichki (ichkari) va tashqi (tashqari) qismlardan iborat. Ayrim xonadonlarda tandirxonali, o‘tinxonali, molxonali orqa hovlilar ham bo‘ladi.

Taxmon — xona devoridagi ko‘rpato‘shak yig‘ib qo‘yiladigan maxsus joy. O‘rta Osiyo turar joy me'morligida mehmonxona to‘rining o‘rtasiga (2 yoni tokchali, chinnilar terilgan), yotoqxonaning 2 yoniga (o‘rtasi tokchali, kiyimlar taxlangan) ishlangan. Taxmonning eni va bo‘yi taxlanadigan ko‘rpa va sandiq joylanishiga mo‘ljallangan. Yuqori qismi ravoq va to‘rtburchak shaklda qurilib, ganchkori bezak, muqarnas kosachalar va turli rangdagi yorqin bezaklar bilan pardozlangan.

Tokcha — xona devoriga ishlangan, uyro‘zg‘or buyumlari terib qo‘yiladigan maxsus joy. O‘rta Osiyo turar joy me'morligida mehmonxona to‘rining 2 yoniga (o‘rtasiga taxmon), yotoqxonaning o‘rtasiga kiyimlar taxlash uchun (2 yoniga sandiq qo‘yilib ko‘rpayostiq taxlangan) ishlangan. Tokchaning eni va bo‘yi taxlanadigan buyumlarning shakliga qarab, 3—5 pog‘onali bo‘lib, turli naqshinkori bezaklar bilan pardozlangan.

Palak — qo‘lda yoki mashinada kashta tikib tayyorlanadigan badiiy buyum. Xonani bezatish uchun devorga osiladi. Ip-gazlamaga bosma va boshqa chokda kashta tikiladi. To‘lin oyli

osmon aks ettiriladigan naqsh mujassamoti osmon, oy va yulduzlarni ifodalovchi ramziy shakllardan iborat. Gullarning yirikligi va zamini ham kashta bilan quyuq qoplab tikilishiga ko'ra suzanadan farq qiladi.

Choyshab (fors. — tun chodiri, ro'yjo) — ro'zg'or buyumi. Taxmonga tutish, to'shak ustidan to'shab qo'yish, yotganda yopinish uchun ishlatiladi. Choyshabning to'shak ustiga yoziladigan oq surp va oq malla bo'zdan kashtasiz, ba'zan kam kashtali qilib, taxmonga tutiladigani esa satin, shoyi, baxmal va boshqa matolardan kashta bilan bezab tikiladi.

Zardevor — kashta tikib bezatiladigan badiiy buyum; uy bezagi. Eni 40— 70 sm, uzunligi uy devorini qamrab oladigan qilinadi. Uy devorining yuqori qismiga shiftga taqab gir aylantirib qoqiladi. Baxmal, sidirg'a shoyi, satinga yo'rma, bosma, ilma choklarda rangbarang ipaklar, zar ip Zardevor bilan qo'lda kashta tikib, gajim tutib bezatiladi.

Rabot (arab.) O'ta asrlarda arablarning mustahkamlangan qarorgohi. Tarhi to'rtburchak, devorlarida minoralari bo'lgan. Dastlab (Islom dini tarqala boshlagan davrda) g'oziylarga mo'ljallab qurilgan maxsus bino. Keyinchalik rabot faqat qo'rg'on, istehkom ma'nosidagina emas, balki mehmonxona (karvonsaroy) mazmunida ham tushunilgan.

Etnik ko'rinishdagi mehmonxonalarning boshqa turdagi mehmonxonalardan qanday ustun va kamchiliklari mavjud?

Sayohat paytida biz nimani orzu qilamiz? Unutilmas taassurotlar, olis yerlar, ajoyib diqqatga sazovor joylar haqida, shuningdek, biz tunashni yoqtiradigan joy haqida. Bu joy qanchalik g'ayrioddiy va rang-barang bo'lsa, sayohat taassurotlari shunchalik kuchli bo'ladi.

Ryokan -Yaponiyadagi an'anaviy mehmonxonadir, ammo u Osiyoning boshqa mamlakatlarida ham mavjud. Ryokanda qolib, siz darhol eski Osiyoning ajoyib atmosferasiga kirib borasiz. Qoida tariqasida, xonalar juda keng va ichki narsalar bilan to'ldirilmaydi, xonadagi barcha odatiy Evropa mebellaridan past stol bo'lishi mumkin. Hammom o'rniga siz umumiy oftobni topasiz va tatami ustida uxlashingiz kerak bo'ladi. Albatta, bunday uy-joylarni hamma ham yoqtiravermaydi. Ryokanda siz faqat bir kechada turishingiz va keyin Yaponiyadagi odatiy Evropa uslubidagi mehmonxonada joylashishingiz mumkin.

O'tov - Tyan-Shanning ochiq maydonchalarida uylar maydan sentyabrgacha qozoq ko'chmanchi cho'ponlar haqiqiy uylarni o'rnatdilar. Barcha an'anaviy gilam va choyshablar bilan bezatilgan an'anaviy uylar qo'lda o'rnatiladi.Uning ichi doimo issiq bo'ladi, hattoki sovuq paytlarda ham. Qalin kigiz uyning o'rtasida o'rnatilgan kichkina pechkadan issiqlikni ushlab turadi. To'shaklar to'g'ridan-to'g'ri erga yotqizilgan qalin zambil.

Chum-Bugungi kunda zamonaviy Skandinaviyada chumda hech kim yashamaydi, ammo aholisi ularni nafaqat o'zlari uchun, balki sayyohlar uchun ham katta zavq va mehr bilan qurmoqdalar. Ko'p Saami uchun, chumlar yozgi uy yoki turli xil qurilishlar uchun xizmat qiladi. An'anaviy chum tekis va yumaloq nurlardan iborat bo'lib, turar joy yumaloq yoki ko'pburchak shaklga ega bo'lishi mumkin. Zamonaviy chumlarning derazalari, skameykalari bor va markazda kamin o'rnatilgan.

Igloo Ice mehmonxonalari - Qor malikasining uyi.Sovuqlar va muzlar haqida o'ylarkan, sovuqlar sizni muz uyida tunash haqida gaplashganday his qiladi! Bir vaqtlar igloo Skandinaviya xalqlarining an'anaviy uyi bo'lgan, ammo bugungi kunda muz mehmonxonalari faqat sayyohlar uchun qurilgan. Ushbu g'ayrioddiy kvartiralarning aksariyati Shveytsariya, Skandinaviya va hatto Ruminiyada qurilmoqda. Haroratning keskin kontrasti tufayli bunday xonada uxlash juda yaxshi va ertalab barcha mehmonlarni issiq sauna kutmoqda.

Trulli - italiyaliklarning dehqon uylari. Trulli - italiyalik dehqonlarning an'anaviy uy-joylarini o'rganish uchun ajoyib imkoniyat. Bugungi kunda siz farovonlikni tejashga qodir emassiz, lekin bir paytlar trulli eng kambag'al odamlarning uylari hisoblangan. Bunday uylar qalin devorlari va konussimon tomi bilan yumaloq shaklga ega. Yashash uchun trulli tanlash yozda eng yaxshisidir, chunki dizayn xususiyatlari tufayli isinish qiyin.

Marokash chodirlari. An'anaviy Marokash chodirlari uzoq vaqt davomida Afrika ko'chmanchilarining uyi bo'lib xizmat qilgan - Berberlar. Chodirda uxlash pechka va yostiqlarga tayanadi. Sayyohlar uchun qurilgan zamonaviy hashamatli chodirlarda haqiqiy karavot va stullar

mavjud, ammo Berberlar doimo polda o'tirishadi. Kechasi, sovuq havodan mahkam yopilgan chodirning soyaboni o'choq ichidagi qulay haroratni mukammal darajada ushlab turadi.

Azores uylari. Orollarda joylashgan uylar atrofdagi landshaftga juda mos keladi. Ularning barchasi kichik o'lchamdagi va bo'yalgan oq rangga ega, bu qora bazalt bilan birlashtirilgan. Ichki makon juda katta yorug'ligi va xonalarning kattaligi bilan ajablantiradi.

Ikukwane - an'anaviy Zulus kulbalari. An'anaviy Zulu kulbalari birinchi qarashda ko'rinmas bo'lib tuyuladi. Derazasiz uylar, zamin go'ng va qum aralashmasidan, ba'zan esa devorlar bir xil tarkibdan qilingan. Qo'rqmang, sayyohlar uchun Zulu kulbalarining zamonaviy taqlidlari barcha qulayliklarga ega.[2]

Etnik ko’rinishdagi mehmonxonalarning kamchilik tomonlari shuki, unda ko’proq muddat tunash, keng xizmatlar assartementidan bahramand bo’lish imkoniyati yo’q. Bu turdagi mehmonxonalarning ma’lum bir hududda ko’pligi ya’ni ma’lum bir landshaftni hosil qilishi, uning noodatiy dezayni, har bir millatning o’ziga xos an’analaridan kelib chiqqan holda qurilishi, bu kabi qurilishlar uchun kam vaqt va mablag’ning sarflanishi uning ustun tomonlari hisoblanadi. Bundan tashqari etnik mehmonxonalar xalqning tarixiy madaniyatini, ijtimoiy hayoti va milliy mentaletetini ifodalab beruvchi, bir muddat mozeyda ayshab ko’rish imkoniyatini yaratuvchi vosita hisoblanadi.

Zamonaviy texnologiyadardan holi, tabiat bilan hamohang, ham jismonan ham ruhan ozuqa bera oladigan mehmonxonalarga bo’lgan talab hozirgi kunda butun dunyoda juda yuqori. Dunyodagi barcha mamlakatlar o’z tarixiy-madaniy rivojlanishi, etnogarfiyasi hamda milliy etikasidan kelib chiqqan holda o’z etnografik landshaftini yaratmoqdalar. Yurtimiz hududi yetarli darajada sevelazatsiya, etnik madaniyat va hududlarning o’ziga xos jihatlariga ega sanaladi. Etnik landshaftni bunyod etishdan oldin xalq etnografiyasi haqida aniq va asosli ma’mumotlarning mavjudligi muhim. Etnik bilimlar asosida etnik mehmonxonalar shahar hududidan tashqarida, tarixiy maskaqnlaryonida yoki tabiat quynida bunyod etilishi maqsadga muvofiq. O’zbek etnografiaysiga asoslangan holda etnik mehmonxonalarni o’tovlar, paxsa uylar, gumbazli imoratlar, kichik saroylar, eski bozor rastalari timsolida ko’rish mumnkin. Bu kabi uylarni ma’lum bir hududda joylashtirilishi natejasida landshaft bilan uyg’unlashgan holda etnik mehmonxonalar bunyod etiladi. Etnik mehmonxonalarda ovqatlanish korxonalari ham choyxona yoki milliy oshxonalar ko’rinishida bo’lishi mumkin. Bu kabi mehmonxonalar hududida ko’plab animatsion dasturlarni amalga oshirish imkoniyati yuqori sanaladi. Buning natijasida esa mehmonlarni ko’proq vaqt mehmonxonada bo’lishi ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotalr:

[1] R.S.Amriddinova, Z.O. Rahimov, M. T. Aliyeva, N.E.Ibadullayev, S.A. Abduxamidov. Mehmonxonalarda xodimlar faoliyatini boshqarish. O’quv qo’llanma.-T.:”Fan va texnologiya”, 2018

[2]https://www.google.com/search?rlz

[3]https://www.google.com/search?rlz

J.S. Sadilloyev – SamISI talabasi
S.S. To’xtaev –SamISI katta o’qituvchisi

YOSHLARNI TARBIYALASHDA MA’NAVIY VA MA’RIFIY MEROSIMIZNING TUTGAN O’RNI

Anatomy: This article analyzes the philosophical methodological implications of the spiritual education of the younger generation. The educational significance of the unique pearls of our rich spiritual heritage, created by our thinkers, is described in detail in the article.

Mustaqillikka erishganimizdan so’ng yurtimizda inson, uning manfaatlari, huquq va erkinliklari oliy qadriyat deb e’lon qilindi. O’zbekistonda yangi hayot, yangi jamiyat barpo etish masalasi qanchalik dolzarb va muhim vazifaga aylangan bo’lsa, ma’naviyat haqidagi qarashlarni ham butunlay o’zgartirish, bu borada zamon talab qilayotgan azaliy mezonlarni, bu noyob hodisaning asl ma’no-mazmuni, ijtimoiy ahamiyatini tiklash ham o’tkir zaruratga aylandi.

Mustaqil respublikamizning bugungi ma’rifiy va ma’naviy hayotida asrlarga teng sezilarli o’zgarishlar yuz bermoqda. Milliy an’analarimiz va asriy qadriyatlarimiz tiklanmoqda, ularning hayotimizdagi o’rni yanada mustahkamlanmoqda. Jamiyat ma’naviyatini yanada yuksaltirish rivojlanishning o’ziga xos yo’lidan borayotgan mamlakatimiz taraqqiyotining ustuvor yo’nalishlaridan biri ekanligini bugun yaqqol ko’rib turibmiz. Kuchli, qudratli davlat kuchli ma’naviyat zamirida vujudga keladi. Mustaqillik qo’lga kiritilgan dastlabki kunlardanoq, ajdodlarimiz tomonidan ko’p asrlar mobaynida yaratib kelingan g’oyat ulkan, bebaho ma’naviy va madaniy merosimiz, milliy qadriyatlarimizni tiklash davlat siyosati darajasiga ko’tarildi. Natijada, xalqimiz o’z taqdirining chinakam egasi, o’z tarixining ijodkori, o’ziga xos milliy qadriyatlarning, madaniyatning sohibi sifatida tan olindi. Qisqa vaqt ichida jamiyatimizning barcha sohalarida, shu jumladan, ma’naviy-madaniy sohada ham ko’zga ko’rinarli o’zgarishlar amalga oshirildi. Eng quvonarlisi shundaki, tarixiy, milliy va axloqiy qadriyatlar hamda an’analarning, muqaddas dinimizning jamiyatni ma’naviy yuksaltirishdagi o’rni va ahamiyati qayta tiklandi.

So’nggi vaqtlarda dunyo hamjamiyatida ayrim kuchlarning o’z ta’sir doirasini har qanday yo’l bilan kengaytirishga harakat qilayotganligiga guvoh bo’lmoqdamiz. Shunday urinishlar natijasida kata ma’naviy yo’qotishlar yuz berayotgani millatning asriy qadriyatlari, milliy tafakkuri va turmush tarsi izdan chiqayotgani, axloq-odob, oila va jamiyat hayoti, ongli yashash tarsi jiddiy xavf ostida qolayotganini kuzatish mumkin. Eng yomoni, bu yovuz kuchlarning asosiy ta’siri obyekti sifatida mamlakat yoshlarini qamrab olishga intilayotganligi tashvishlidir. Shu bois aholining huquqiy savodxonlik darajasining oshishi mamlakat taraqqiyotining ma’naviy lokomotivi sifatida xizmat qilishi va ijtimoiy barqarorlikning tamal toshi sifatida namoyon bo’lishini unutmaslik lozim. Shuningdek, huquqiy savodxonlik jamiyatda g’oyaviy bo’shliq yuzaga kelishiga qarshi xos omil bo’lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugun mamlakatimiz aholisining 60 foizdan ziyodini yoshlar tashkil etadi. Ularning manfaatlarini ta’minlash, iste’dod va salohiyatini yuzaga chiqarish uchun huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy shart-sharoitlar yaratilmoqda. Ayniqsa, “Ta’lim tog’risida’gi Qonunning hayotga izchil tadbiq etilayotgani yoshlarning jahon andozalari darajasida bilim olish, qiziqqan sohalari bo’yicha kasb-hunar egallashi, turli fan yo’nalishlarida ilmiy izlanishlar olib borishi, intellectual salohiyatini namoyon etishda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Brinchi prezidentimiz I.A. Karimov “Asosiy qonunimizda birinchi navbatda shaxs manfaatining davlat manfaatidan ustun qilib eng oliy qadriyat sifatida muhrlab qo’yilganligini yana bir marta ta’kidlab o’tish o’rinli deb bilaman. Aynan ana shu qat’iy talabni nafaqat qonunlarimiz va huquqiy ma’yoriylarimizda belgilab berish, balki bu prinsipni hayotimizga tadbiq qilish o’ta muhim ahamiyatga egadir”, deb ta’kidlaganlari be’jiz emas. Zero, konstitutsiya va qonunlarga rioya qilmaslik davlat tomonidan belgilangan qoidalarning huquqiy me’yorlarning buzilishiga olib keladi.

Mamlakatimiz qaramlik holatiga tushib qolganda ajdodlarimizning boy ma’naviy merosiga noo’rin munosabatda bo’lindi va ulardan ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanishga bo’lgan e’tibor pasayib ketdi. Ta’lim-tarbiya jarayonida ajdodlarimiz ma’naviy merosidan foydalanmaslik o’zini ko’plab salbiy oqibatlarini keltirib chiqaradi.

O’zbekiston kelajagida kata rol o’ynaydigan har tomonlama yetuk avlodni voyaga yetkazishning imkoniyatlari xilma-xil bo’lib, ular orasida ma’naviy merosning o’rni va ahamiyati kattadir.

Ma’rifat tushunchasi esa bilish, bilim, ma’lumot, tanish, tanishish ma’nolarini bildiradi. Umuman, uning lug’aviy ma’nosi bilimdir. Atama sifatida esa u tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli-tuman bilimlar, malumotlar majmuasini bildiradi. Ma'rifatli degani bilimli, muayyan sohada ma’lumoti bor, degani bo’lib, insonparvarlik ma’naviyati zaminidagina o’z mohiyatiga ega bo’ladi. Kishilarning bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta’lim-tarbiyaga ham ma’rifat deb qaraladi. Bu so’z ilm-u urfon ma’nolarida ham ishlatiladi. Boshqacha qilib aytganda, ma’rifat bilim va madaniyatni yoyish va yuksaltirishning hamma turlari va sohalarini o’ziga qamrab oladi. Ma’rifat – kishilarning ong-bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya, maorifhamdir. Maorif umumiy va o’rta maxsus ta’lim beruvchi maktab va o’quv yurtlari tarmoqlarini qamrab oladi.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРИРОДНЫХ и ЭТНОГРАФИЧЕСКИХ РЕСУРСОВ В РАЗВИТИИ ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ.

Юсупова Н. - СамИЭС,магистрантка 1 курса группы МТФ 119

Abstract: *This article discusses the theoretical and methodological problems of effective use of natural and ethnographic resources in the development of tourism in Uzbekistan. The aim of the study is to reveal the concept and analysis of Ethnography of Uzbekistan as a research problem, and also describes the concept of tourism development in Uzbekistan.*

Ключевые слова: *этнография, культура, туризм, концепция развития Этнотуризма.*

Keywords: ethnography, *culture, tourism, the concept of development of ethnic tourism*

Узбекистан — сокровищница архитектурных памятников, средоточие древнейших городов, один из центров легендарного Шелкового пути. Здесь можно увидеть настоящий древний Восток — в Хиве, Самарканде и Бухаре. Можно отведать настоящий узбекский плов, приготовленный по рецепту, которому больше тысячи лет. Сюда летают множество прямых рейсов из многих Стран. Так чем же объяснить популярность этой необыкновенной страны.

Посещение Узбекистана – уникальный шанс окунуться в древнюю историю региона на Великом Шелковом пути, пройти дорогами великих завоевательных походов персов, греков, монголов. Увидеть и прикоснуться к сокровищам материальной культуры – великолепным памятникам, дошедших до нас сквозь толщу веков как наследство разных исторических эпох и династий. А сколько возможностей дарит любителям природы дивная красота окрестностей! Мягкие очертания гор, извилистые русла рек, несущих свои хрустальные воды через оазисы и пустыни, ярко-зеленые долины и голубые озера. Только здесь под жарким азиатским солнцем поспевают и наливаются соком самые вкусные в мире фрукты и овощи.

Впрочем, если уж лакомиться, так перепробовать все богатство национальной узбекской кухни, ставшей знаменитой далеко за пределами своей страны. Это и янтарный плов, и тающие во рту манты, и хрустящая самса, и лепешки, источающие дивный аромат. Вот уж где настоящий рай для гурманов!

И это далеко не все, что таит в себе Узбекистан – удивительная страна, настоящая восточная сказка, живущая по законам современности.

Этнический туризм иногда называют также этнографическим, поскольку этнография («народоведение») – это наука, изучающая культурные и бытовые особенности разных народов мира(народов-этносов), а в данном случае турист непосредственно знакомится с этими особенностями и в определенной мере изучает их.

Современное определение этноса является общепризнанным и восходит к определению, данному еще в 1923 г. С. М. Широкогоровым:

"***Этнос*** - есть группа людей, говорящих на одном языке, признающих свое единое происхождение, обладающих комплексом обычаев, укладом жизни, хранимых и освященных традицией, и отличающаяся ею от таковых других групп".

Основываясь на понятиях объекта этнографии и определениях этноса, можно сформулировать понятие "этнографический объект". Этнографическим объектом является культурно-исторический объект (явление), содержащий информацию об этнических проявлениях традиционно-бытовой культуры. Этнографический объект необходимо рассматривать как систему признаков, характеризующих культуру этноса в сочетании его оригинальных и специфических конкретных форм. К оригинальным формам относятся явления и предметы традиционно-бытовой культуры, соответствующие данному хозяйственно- культурному типу и характеризующие неповторимые черты этноса (украшения, орнаментация и т.п.).

Культурное наследие народа составляют произведения художников, архитекторов, музыкантов, писателей, ученых, мастеров народного творчества - совокупность ценностей, дающих смысл существованию человека. Оно охватывает как материальные, так и нематериальные произведения, выражающие творчество народа, его язык, обычаи, верования и т.п.

Этнический туризм – одно из направлений культурно-познавательного туризма, являющееся в настоящее время заманчивым для многих стран. Мировая практика доказывает, что подобный вид туризма способен удовлетворить целый ряд духовных потребностей человека.

Особый интерес вызывают этнографические музеи под открытым небом, в которых содержатся образцы традиционной архитектуры, предметы быта и проводятся национальные праздники. При этом человек может своими глазами увидеть предмет, принадлежащий к той или иной культуре и эпохе, узнать о его деловом и символическом назначении, иногда даже потрогать его и ощутить причастность к культуре своего и других народов

Этнотуризм может рассматриваться как одно из возможных стратегических направлений сохранения и развития экономики традиционного хозяйства. Развитие этнотуризма должно способствовать сохранению культурного наследия и являться фактором устойчивого развития территорий проживания.

Пока ещё новый для Узбекистана этнографический туризм постепенно завоёвывает свою популярность. Предпосылки для этого - богатый историко-культурный потенциал страны **,** устойчивые народные традиции, передающиеся из поколения в поколение, наличие разнообразных этнических поселков (таджикские, казахские, узбекские, кыргызские и смешанные), в которых сохранился национальный дух, обычаи предков и образ жизни, которые могут привлечь в регион иностранных визитеров. Этнографический туризм способствует улучшению жизни и самих семей, принимающих у себя туристов.

Перспективно объединение этно- и экологического туризма в один пакет , ибо невозможно путешествовать по заповедным уголкам страны не соприкасаясь с народами, их культурой, традициями, бытом. Это даст возможность турфирмам разрабатывать все новые и новые туры по Узбекистану, делая акцент на комбинации "Человек-Природа", но для этого необходимо готовить специалистов или кадры, хорошо ориентирующихся в обоих направлениях, а также умеющих грамотно обслуживать туристов. Турфирмам необходимо помнить, что, формируя пакет и готовя базу для приема туристов, важно начинать работу с образовательно-информационного компонента как для гидов и сотрудников охраняемых природных территорий, так и для сельских жителей. Он должен быть основой для всех проектов по развитию этно- и экологического туризма.

При условии создания условий и базы для развития этнотуризма в стране (профессиональные кадры, обучающие программы в селе и заповедниках, разнообразие ориентированных на этот вид туризма турфирм) и государственной поддержки, туризм мог бы реально стать тем альтернативным источником дохода для Узбекистана, который уже не один десяток лет является основным источником для многих стран, ориентированных на туризм.

Новый для нашей страны этнографический туризм уже завоевывает популярность. Этот вид туризма основан на интересе туристов к подлинной жизни народов, к ознакомлению с народными традициями, обрядами, творчеством и культурой. Основа для него в Узбекистане - не только старинные города.



Сегодня туристические кампании Узбекистана в рамках этнографического тура предлагают программу, во многом отличающуюся от стандартного классического маршрута. Цель таких программ оторваться от городской суеты почувствовать покой и умиротворение, ощутить гармонию и душевное равновесие, окунуться в национальную атмосферу, непосредственно соприкоснуться с культурой и бытом народа через участие в жизни семьи и села.

Разработаны этнографические маршруты. Вот лишь некоторые из них:

· Ферганская долина (селения Риштан, Кува)

· Хребет Нуратау (селения Хаят, Ухум, Меджерум)

· Озеро Айдркуль (селения Янгигазган, Донгелек)

· Байсун (селения Рабат, Дербент, Педанг, Коферун)

· Предгорья Тянь-Шаня (селения Хумсан, Бричмулла)

Особенности тура:

· Поселение в узбекских кишлаках

· Размещение в гостевых домах и юртах

· Участие в жизни села (приготовление лепешек в тандыре, ткать ковры, вышивать сюзане, лепить кувшины, собирать хлопок, овощи и фрукты, ловить рыбу и т.д.

· Знакомство с обычаями и традициями (участие в традиционных играх, фольклорных представлениях, свадебных обрядах и т.п.).

· Участие в традиционных праздниках «Навруз» ,«Курбан байрам», фестивалях «Шарк тароналари», «Байсун Бахори», «Шелк и специи», «Культура древнего Хорезма»

· Пешие и конные прогулки по окрестностям кишлака

· Посещение природных и культурных памятников (наскальные рисунки, руины древних крепостей, поселений и т.д.)

· Посещение восточного базара

Для более успешного развития этнотуризма в стране должны быть решены следующие задачи:

1.Разработка специальных законов и их правового механизма для формирования индустрии этнотуризма;

2.Разработка теоретических основ науки, образования и практики в сфере этнотуризма;

3.Повышение культуры населения посредством этнотуризма;

4.Решение вопросов социальной защиты местного населения с помощью этнотуризма;

5.Подготовка и переподготовка специалистов по этнотуризму;

6.Всесторонняя оценка этнотуристических объектов и ведение их кадастра;

7.Налаживание мониторинга и перспектив этнотуризма;

8.Изучение тактических планов, стратегических программ и мероприятий в сфере этнотуризма других стран и мирового сообщества;

Выводы

Итак, благодаря этническому туризму человек получает возможность увидеть традиционные жилищные и хозяйственные постройки, местных жителей в национальной одежде, а также принять участие в традиционных праздниках, попробовать блюда национальной кухни и купить в качестве сувениров предметы традиционного быта. Вернувшись из поездки, туристы показывают своим родственникам и знакомым приобретенные изделия, делятся впечатлениями об особенностях культуры этносов посещенного региона. Все это в целом способствует укреплению толерантного отношения между представителями разных этносов.

К сожалению, существует тенденция, при которой из-за неожиданно быстрого и глобального скачка в развитии современного туризма зачастую наблюдается дефицит профессионалов, способных удовлетворить запросы этого успешно развивающегося направления, в том числе и в области этнографического туризма.В селах, где уже есть гостевые дома или планируются, люди нуждаются в профессиональной поддержке с организацией ответственного туризма, не приносящего ущерба окружающей среде, содействующего экономическому и культурному развитию села, в тренингах для персонала гостевых домов по процедуре визовой поддержки и регистрации иностранных гостей и туристов, обучению навыкам эффективной рекламы и продвижению своего туристического продукта на международный рынок.

II ШЎЪБА. ЎЗБЕКИСТОН МИНТАҚАЛАРИДА ЖОЙЛАШГАН ТАБИИЙ ТУРИСТИК ҲАМДА МИЛЛИЙ МЕРОС РЕСУРСЛАРИДАН ТУРИСТИК МАҚСАДЛАРДА САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ МУАММОЛАРИ

И.С.Тухлиев – СамИСИ и.ф.д., профессор
С.А.Абдухамидов – СамИСИмустақил тадқиқотчи

МИНТАҚАВИЙ ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА РЕЖАЛАШТИРИШНИНГ ИЛИМИЙ-НАЗАРИЙ ЖИХАТЛАРИ

Аннотация: *В данной статье рассматриваются теоретические аспекты планирования развития регионального туризма. В статье также описаны функции планирования туризма на национальном и региональном уровнях, а также компоненты региональных планов развития туризма.*

Ключевые слова: *туризм, экскурсия, планирование туризма, географический район, туристические возможности, социально-экономическая сфера, гостеприимство, инфра-структура.*

Abstract: *This article discusses the theoretical aspects of regional tourism development planning. The article also describes the functions of tourism planning at the national and regional levels, as well as the components of regional tourism development plans.*

Key words*: tourism, excursion, tourism planning, geographical area, tourist opportunities, socio-economic sphere, hospitality, infrastructure.*

Туризмни режалаштириш ҳамиша муайян географик ҳудудга боғлиқ бўлиб, бу ҳудудлар туристик фаолият учун қизиқиш уйғотиши ва туристик имкониятлар ҳамда ўзига хос хусусиятлар ва тафсияларга туристик ресурсларга бой бўлмоғи керак. Туризмни режалаштириш туризмга боғлиқ бўлмаган ўзга ҳудудлардан алоҳида ажралиб туриши ва муайян туристик режаларни амалга ошириш, уларни назорат қилиш, бу ишларнинг келажагини башорат қилиш ёки ўзгаришини кўра билиш каби аниқ сиёсатни олиб бориш имкониятларига эга бўлиши лозим.

Минтақавий туристик режалаштиришнинг моҳияти, ўзида аниқ ушбу минтақанинг махсус шароитларини ҳисобга олган ҳолда, туризмни ривожлантиришнинг минтақа сиёсати, дастури ва режаларини ишлаб чиқишни ўзида номоён этади.

Туризмнинг жуда мураккаб ва кўп қиррали, кўп омилли ижтимоий – иқтисодий соҳа эканлигини эътиборга олиб, шуни такидлаш зарурки, бу омилларнинг бирортасини ўзгартириш ёки уларнинг мавқеини пасайтириш туризм индустриясини режалаштиришда тузатиб бўлмайдиган салбий оқибатларга олиб келиши мумкин.

Минтақавий туризмни ривожлантириш мураккаб масала, бу аввало минтақа иқтисодиётда туризмнинг тутган ўрни ва аҳамиятини ёритишга қаратилган илмий-услубий ишларнинг етарли эмаслиги билан изоҳланади. Бозор муносабатлари тараққий этган мамлакатларда туризмни бошқаришнинг самарали тажрибаси сифатида қўлланилаётган усуллар, Ўзбекистондаги миллий ва маданий ўзига хосликлар ҳамда шу каби омиллар ҳисобига самарасиз ҳисобланади. Буни шу билан изоҳлаш мумкинки, туризм яққол намоён бўладиган минтақавий хусусиятига эга, мамлакатимизда туристик ресурсларнинг бир ёки бир нечта маъмурий бирлик ёки минтақа доирасида жойлашганлиги ҳамда ҳар бир минтақада ўзига хос режалаштириш тамойилларига урғу берилганлиги сабабли минтақавий туризмни режалаштиришни янада мураккаблаштиради.

Туризм ялпи ҳудудий маҳсулот, давлат ва маҳаллий бюджетнинг шаклланишида, ишсизликнинг камайишига муҳим таъсир кўрсатади. Бироқ, туризмнинг ушбу таъсири намоён бўлиши учун режалаштириш, мувофиқлаштириш ва рағбатлантириш йўналишларида муайян чора-тадбирларни ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқ.

Иқтисодиёт ривожланишининг бугунги босқичида минтақавий туризмни режалаштириш мажмуавий ёндашув асосида, туризм соҳасининг мақсади ва маҳаллий аҳоли манфаатлари, миллий ва минтақавий иқтисодиётнингбарқарор ривожланиш йўналишлари уйғунлаштирилган ҳолда амалга оширилиши керак.

Режалаштириш турли муқобил вариантларни кўриб чиқиш, танлов имкониятини оширади, масъулият, ваколат ва жавобгарликнинг самарали тақсимланиши ҳамда вақт омилининг эътиборга олинишига имкон беради. Туризмни режалаштириш жамиятни тубдан ривожлантириш, шу билан бирга атроф-муҳитга ҳам катта таъсир кўрсатади.

Бутунжаҳон туристик ташкилоти (WTO) маълумотларига кўра миллий ва минтақавий даражаларда туризмни режалаштириш қуйидаги функцияларни амалга оширади:

– туризмни ривожлантиришнинг умумий вазифа ва йўналишларини белгилаб олиш;

– туризмни минтақанинг мавжуд табиий ва ижтимоий-маданий ресурсларини келгуси авлодга сақлаб қолишга қаратилган “барқарор туризм” йўналишида фаойдаланишни таъминлаш;

– туризм ривожланишини мамлакат ва минтақанинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишига муайян даражада акс эттириш ва оқилона уйғунлаштириш, туризм ва унга турдош тармоқларнинг узвий алоқадорлигини сақлаб қолишни таъминлаш;

– давлат ва хусусий сектор даражасида туризмниривожлантириш бўйича оқилона қарорлар қабул қилиш;

– туризм соҳасининг барча элементларининг ўзаро мувофиқлашган ҳолда ривожланишига эришиш. Бу туристик меҳмондорчилик, турли тадбирлар, туристик бозорнинг янада деталлашув имконини берувчи бошқа хизмат турларининг ўзаро алоқадорлигини таъминлаш имконини беради;

– туризмдан келадиган иқтисодий, ижтимоий ва экологик нафлиликни адолатли тақсимлаш, туризм билан боғлиқ муаммоларни энг кам даражага тушириш;

– туристик, меҳмондорчилик объектлари, инфратузилма ва турли хизматларни яратиш, жойлаштириш, танлаш ва ривожланиш даражасини белгилаш билан шуғулланувчи ташкилий тузилмани ташкил қилиш;

– минтақада туризмни ривожлантириш дастури билан уйғунлашган ҳолда ҳамда бир-бирини тўлдирувчи турли стандарт ва йўриқномаларни ишлаб чиқиш;

– туризмни ривожлантириш режаси ва туристик сиёсатни самарали амалга ошириш, туризм соҳасини доимий бошқариш имконини берувчи ташкилий ва бошқа институционал тузилмаларни ташкил қилиш;

– туризмни ривожлантириш соҳасида давлат ва хусусий секторнинг ивестицион фаолиятини самарали мувофиқлаштиришни таъминлаш;

– туризм ривожланиш жараёнининг мунтаззам равишда мониторинг қилишни таъминлаш.

Янги иқтисодий муносабатларда минтақавий режалаштиришнинг услубий масалаларини тадқиқи қилиш асосида мақсадли минтақавий дастурлар Ўзбекистон ҳудудларида туристик-рекреацион зоналарни ривожлантиришнинг ҳал қилувчи омили бўлишини таъминлайди.

Минтақаларнинг туризм асосида комплекс ва барқарор риворжланишини таъминлаш учун унинг ривожланишини режалаштириш ва прогнозлаштириш стратегиясини ишлаб чиқиш зарур. Бушбу стратегияни ишлаб чиқиш учун туристик хизматларнинг талаби ва таклифи кўрсаткичларини баҳолаш мақсадга мувофиқдир.

Аввало алоҳида турли ижтимоий гуруҳ(сегмент)лар, ҳудудлар ва ялпи таклиф ҳажми бўйича ялпи туристик талаб ҳажмини, товар айланмаси, соҳада банд аҳоли сони, туристик хизматлар кўрсатишдан тушган даромад ва турдош тармоқларда яратилган товар ва хизматлар кўрсатишдан тушган даромадни баҳолаш зарур. Ушбу баҳолаш асосида минтақани туристик дестинация сифатида мижозларга йўналтирилганлик тамойилига

асосланган ривожланиш стратегиясини ишлаб чиқиш зарур ва албатта туристик дестинация имижи ушбу стратегия асосини ташкил қилиши керак.

Туризм соҳасининг самарадорлигини баҳолаш туризмнинг минтақа (ҳудуд, жой)ларнинг ривожланишига қанчалик ҳисса қўшганлигини аниқлашга имкон беради. Бундан ташқари бошқа иқтисодий кўрсаткичларнинг ҳам туризмнинг иқтисодий самарадорлигига таъсирини баҳолаш, уларни самарали назорат қилиш ва ижобий натижа берувчи кўрсаткичларни аниқлаш имконини беради. Ушбу кўрсаткичларни ҳисоблаш асосида муайян омиллар ўзгариши натижасида туризм ривожланишига баҳо бериш ва назорат қилиш мумкин бўлади.

Туризм минтақаларнингижтимоий-иқтисодий фаолиятига таъсир кўрсатар экан, табиат ва жамият каби ҳисоблаш мураккаб бўлган элементларни режали ёндашув асосида кўриб чиқиш минтақа ривожланишига салбий таъсирларни камайтириш ва иқтисодий нафлиликни ошириш имконин беради.

Режанинг иқтисодий элементида иқтисодий нафлилик қуйидаги йўналишларда ўсиши кўзда тутилади:

1) туризмнинг иқтисодиётнинг бошқа тармоқлари билан алоқадорлигини ошириш(маҳаллий аҳолининг бандлигини ошириш, туризмга турдош бўлган бошқа тармоқлар ривожланишини рағбатлантириш ва б.);

2) “туризм мутахассислиги” нуфузини ошириш орқали маҳаллий аҳолининг соҳадаги бандилини ошириш, таълим ва ўқитиш дастурларини кенгайтириш ва такомиллаштириш;

3) туристик талабнинг мавсумийлигини пасайтириш (йил фасилларига хос бўлган жозибадор туристик маҳсулотларни шакллантириш);

4) туристлар харажатларини рағбатлантириш (туристларнинг ҳар бир қилаётган харажатлари учун максимал даражада хизматларни ташкил қилиш, туристлар талаб ва эҳтиёжларини тўлақонли қондириш);

5) маҳаллий аҳолининг туристик объектларга эгалик улушини ошириш ва б..

Минтақанинг туризм соҳасини режалаштиришда якуний хужжат ҳисобланган – ривожланиш режаси муҳим аҳамиятга эга. Амалиётда туризмни ривожлантириш режаси минтақаларнинг муайян даврга мўлжалланган ижтимоий-иқтисодий ривожланиш дастурларида қисман ўз аксини топади. Режалаштириш жараёнида минтақада туризмни ривожлантиришга қаратилган энг батафсил ва нисбатан кенг бўлган режанинг таркибий тузилиши қуйидаги бўлимлардан иборат бўлиши лозим (1-расм).

1-расмда келтирилганидек минтақавий туризмни ривожлантиришни режалаштириш 14 та бўлимдан таркиб топган режалаштириш жараёнини амалга ошириш мақсадга мувофиқдир. Ушбу расмда келтирилган режалаштириш бўлимлари таркибий қисмларида қуйидагилар инобатга олиниши лозим:

1. **Туризмни ривожлантириш мақсади:** иқтисодий, ижтимоий-маданий, табиий ва бошқа мақсадлар.

2. **Ресурс базаси:** минтақанинг тарихий, маданий, географик, иқлимий, демографик экологик тавсифи; минтақаларнинг табиий ресурслари ҳамда муайян ҳудудларининг фойдаланилмаётган ер ва табиий ресурслари ҳолати; маҳаллий ривожланиш дастури, режа ва стратегияларининг мавжудлиги; минтақа иқтисодиётининг ривожланиш тенденциялари.

3. **Ташкилий элементлари:** двлат ва хусусий ташкилий тузилмалар, туристик корхоналар ва расмиятчилик; ресурсларни жалб қилиш мақсадида туризмни инвестициялаш; кадр ресурслари ва таълим ҳамда ўқитиш дастурлари.



1-расм. **Минтақавий туризмни ривожлантириш режасининг таркибий қисми**

4. **Маркетинг:** мавжуд маблағлар асосида турмаҳсулот ва минтақанинг туристик жозибадорлигини ошириш, туристик маҳсулотларини сотиш каналлари ва стратегиялари.

5. **Иқтисодий хусусиятлар:** туристик харажат турлари ва миқдори; туризмнинг лойиҳалаштирилаётган турларини ривожлантиришнинг даромадлилик даражаси; туризмдан тушадиган иқтисодий нафлиликни ошириш бўйича тавсиялар.

6. **Атроф-муҳит:** туризм таъсирида атроф муҳитда содир бўладиган ўзгаришлар ва муаммолар ҳамда уларни камайтириш бўйича тавсиялар; атроф муҳит муҳофазаси, уни сақлаб қолиш дастурлари, махсус туристик лойиҳаларнинг табиатга таъсирини камайтириш бўйича тавсиялар.

7. **Ижтимоий-маданий жиҳатлар:** туризмнинг ижтимоий-маданий таъсири, ижтимоий-маданий ҳаётга салбий таъсирларни камайтириш, туризмни ривожлантириш орқали аҳолининг яшаш даражаси ва сифатини ошириш бўйича тавсиялар.

8. **Туризм ҳажми ва шакли:** туристик оқимнинг транспорт имконияти, туристларни жойлаштириш имконияти ва б..

9. **Бозорни лойиҳалаштириш:** глобал ва минтақавий туристик йўналишлар ва лойиҳалар; туристларнинг минтақага ташрифи ва ташриф йўналишлари; туризм йўналишига рақобатнинг таъсири; бирламчи ва иккиламчи бозорларни аниқлаш, туристлар ташрифига таъсир кўрсатувчи асосий омиллар; бозор мақсадларини аниқлаш; турмаҳсулотлардан маҳаллий аҳолининг фойдаланиш даражаси; туристик объектларнинг миқдори, тури ва яшаш шароитларининг сифати.

10. **Туризмни ривожлантириш сиёсати ва дастури:** атроф муҳитни сақлаб қолишга қаратилган сиёсатнинг иқтисодий, сиёсий, табиий, тарихий-маданий омиллари; туристик объектлар, ҳудуд, зоналарнинг жойлашуви ва транспорт таъминоти; ривожланиш босқичлари; туристик йўналишг ва маршрутларни белгилаб берувчи модел ва дастурлар;

туризмни кенг жамоатчиликка тарғиб этиш ва хабардор этиш режалари; давлат ва хусусий сектор ўртасида ваколатларнинг тақсимланиши; туристик ахборот таъминоти ва хизмати.

11. **Инфратузилма бўйича тавсиялар:** минтақанинг транспорт тизими бўйича қулайлиги; ички транспорт тизими; туризмни ривожлантириш бўйича инфратузилма ва дастурлар.

12. **Туристик объектлар фаолияти ва уни яхшилаш:** мавжуд ва истиқболли туробъектлар; туристларни жалб қилишнинг салбий ва ижобий жиҳатлари; туристик объектларни ҳимоя қилиш ва яхшилаш.

13. **Туристик хизматлар, имконият ва уларни яхшилаш йўллари:** мавжуд ва режалаштирилган жойлаштириш воситалари ва истиқбол кўрсаткичлари (сони, тури, жойлашуви ва сифати) ҳамда уни яхшилаш бўйича тадбирлар.

14. **Режани амалга ошириш ва мониторинг қилиш:** харажатлар сметаси ва бажарувчи маъсулларни ўзида акс эттирувчи ривожланиш дастури; амалга ошириш чора-тадбирлари ва молиялаштириш манбалари; туризмни ривожлантириш буйича меъёр ва стандартлар; режани амалга оширилишини техник жиҳатдан назорат қилиш ва яхшилаш чора-тадбирлари.

Шундай қилиб минтақавий туризмни режалаштириш туризм ривожланишини режалаштириш жараёнидан бошлаб, уни самарали ташкил қилиш, бошқариш ва назорат қилиш имконини берувчи кўпбосқичли тизимни акс эттиради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 февралдаги “Ички туризмни жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори.

2.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 январдаги “Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги фармони.

3.Болтабаев М.Р., Тухлиев И.С., Сафаров Б.Ш., Абдухамидов С.А.. “Туризм: назария ва амалиёт”. Дарслик. Т.: “Фан ва технология” 2018 й.

4.Тухлиев И.С., Қудратов Ғ.Ҳ., Пардаев М.Қ. Туризмни режалаштириш. Дарслик. – Т.: “Иқтисод-молия”, 2010. – 264 б.

Пардаев О. М., - СамИСИ, и..ф. д.
Аблаизов А.А- СамИСИ методисти

ЎЗБЕКИСТОННИНГ ТАБИАТ МИНТАҚАЛАРИДА ЭКОТУРИЗМНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШ ВА РИВОЖЛАНТИРИШ СТРАТЕГИЯСИ

Аннотация: *Статьи приведены муждународные концепции и стратегические планы развития экотуризма по материкам земли. А также, отмечены необходимости применения современные международные технологии развития экотуризма и рекомендованы стратегический план и тактические задачи развития экотуризма в Узбекистане.*

Annotation: *The article presents international concepts and strategic plans for the development of ecotourism across continents. The need for the use of advanced technologies in the organization and development of eco-tourism in Uzbekistan has been highlighted and the strategic plan and tactical tasks for the development of eco-tourism in Uzbekistan have been recommended.*

Ключевые слова: *Стратегия, концепция,тактика, модел экотуризма, государственная программа, экотехнология, экологические проблемы.*

Keywords: *Strategy, concept, tactics, model of ecotourism, state program, ecotechnology, environmental problems.*

Давлатларнинг халқ хўжалигидаги барча соҳалар ва тармоқларининг ривожлантирилиши албатда стратегик режаларга асосланади. Ўзбекистон иқтисодиётидаги янги истиқболли соҳа бўлиб бораётган экотуризм ҳам ўзининг ривожлантириш

стратегиясига эга бўлиши керак. Экотуризм Ўзбекистонда эндигина шаклланиб бормоқда. Шунинг учун ҳам, ватанимизда миллий экотуризмни ташкил қилиниши билан боғлиқ мураккаб муаммоларнинг биринчиси-мамлакатимизда экотуризмни ривожлантиришнинг стратегик режаларини ишлаб чиқишимиз ҳисобланади. Лекин, бу муҳим вазифани бажаришда тажрибаларимиз камлиги туфайли биринчи навбатда экотуризмнинг халқаро ривожланиш концепциялари ва стратегияларини ўрганишимиз зарур.

Ўзбекистонда экотуризмни ривожлантириш Концепцияси ишлаб чиқилган. Аммо то ҳозиргача бу муҳим ҳужжатни, давлат аҳамиятига молик бўлган дастурни ўрганиш, амалда бажариш қониқарсиз ҳолатларда давом этиб келмоқда. Экотуризм ривожланган ва экотуризмни ривожлантираётган давлатларнинг экотуризмни ривожлантириш концепцияларини умумлаштириб жаҳонда экотуризмнинг замонавий коцепциясини ва амалиётини қуйидаги йўналишларда кўриш мумкин:

Экотуризм кучли ривожланган АҚШ ва Канада давлатларининг экотуризми кучли амалиётга асосланган ва экотуризмни ривожлантиришнинг стратегик ва тактик режалари мукаммал асосларда ишлаб чиқилган. Бу мамлакатларда экотуризмни ривожлантириш ушбу стратегик режалар бўйича амалга оширилмоқда:

- Экотуризм ривожланган Ғарбий Европа давлатлари экотуризми кучли илмий назария ва амалиётга асосланганлиги, экотуризмнинг стратегик ва тактик режаларга асосланиб ривожлантирилиши;
- Экотуризмни ривожлантиришда Австралия моделининг устиворликга эришиб бораётганлиги ва экотуризмни ривожлантириш давлатлар сиёсатига айлантирилиб борилаётганлиги;
- Экотуризмни ривожлантиришга киришаётган Осиё давлатларининг асосий қисмида экотуризмни ривожлантириш ўзининг дастлабки босқичида ва бу давлатларда экотуризмни ривожлантиришнинг концепцияси ва давлат дастурларини ишлаб чиқиш суст кечаётганлиги;
- Африка давлатларида экотуризм нотекис ривожланаётганганлиги ва бу давлатлар ўзларида табиат минтақаларидаги экотуризм ресурслари салоҳиятларига қараб ривожлантиришнинг Ғарбий Европа давлатлари экотуризми дастурлари ва моделларини экотуризм амалиётида қўллаётганлигини келтириш мумкин.

Келтирилган ахборотлардан маълум бўладики, экотуризмни ривожлантиришга давлатлар ҳар хил қарашмоқда. Лекин энг муҳими, жаҳондаги давлатлар ўзларининг экотуризм ресурсларидан имконият борича экотуризмни ривожлантиришда фойдаланишга киришиб бормоқдалар.

Иккинчидан, экотуризмнинг замонавий концепцияси ва амалиёти экотуризм ривожланган давлатларда тобора такомиллашиб бориши кузатилмоқда[18].Бу такомиллашишлар экотуризмнинг тамойилларини мукаммаллаштириш, экологик турларни экологиялаштириш, экотуристларни табиатни сақлаш ва табиий ресурсларни муҳофазаси қилиш ишларидаги ихтиёрий ҳамкорлигини, ташаббускорлигини кучайтириш асосий омиллардан ҳисобланаяпти.

Туризм ривожланган давлатларда экотуризмнинг замонавий коцепцияси ва амалиётига ҳозирга келиб қуйидаги тартиблар билан такомиллаштирилди-яъни, экотурлар қуйидагиларга амал қилинганда экотуризм тури ёки экотуризм дастури дейилиши белгиланди[19]:

- экотуристлар фойдаланадиган транспорт воситаси экотур талабларига тўлиқ жавоб бериши;
- туристларнинг озиқ-овқатлари экологик тоза ва фойдали бўлиши, бу озиқ-овқат хилларида махаллий озиқ-овқатлар ва мевалар бўлиши;

[18]. Guidelines for Protected Area Managament Categories. Gland IUCN Com.on Nat. Parks and Protected Areas. Cambridge. UK. World Conservation Monitorng Centre, 1994. 212 p.

[19]. Дроздов А.В., Основы экологического туризма. Москва, Гардарики,2005, 271 стр.

- экомаршрутларда юқори малакали гид-экскурсиячилар экотуристларни уларда қизиқиш ва ҳайратланиш ҳосил қилувчи табиий ландшафтларга бошлаши;
- экотурлар дастурига қуйидагилар- экологик ўқув сўқмоқларига бориш, табиатшунослик, ўлкашунослик музейларига билан таништириш, экотехнологик хўжаликларга бориш ва албатда маҳаллий экологик муаммолар билан танишиш мавзулари киритилиши;
- экотур маршрутларида ҳосил бўлган чиқиндилар умумий чиқиндилар уюмига ташлаб кетилмаслиги ва махсус қутиларда тўпланиб экотехнологик қайта ишлашга юборилиши;
- экотурларда ва экомаршрутларда дам олиш ва гулханлар ёқиш кўнгил ҳоҳлаган жойларда, дам олиш учун тўхташ жойларида эмас балки, махсус мослаштирилган, тайёрланган жойларда ташкил қилиниши ва ўтказилиши;
- экотурларда қўзиқоринлар, мевалар, гуллар, шифобахш ўтлар ва табиий, ўзига хос, қизиқарли кўринишларга эга бўлган нарсалар фақат рухсат берилган жойларда терилиши;
- экотуристлар тўхтайдиган отеллар, кемпинглар ёки бошқа хил жойлаш тириш воситалари атроф табиий муҳитнинг табиий, экологик барқарор ривожланишига зарар келтирмаслиги, халақт бермаслиги;
- экотуристлар тўхтайдиган отеллар, кемпинглар ва бошқа жойлаштириш воситалари экологик тоза қурилиш материалларидан қурилиши;
- маҳаллий аҳолини экотуризмга ва унинг бизнесига, тадбиркорлигига жалб қилиш, маҳаллий ишлаб чиқаришни, маҳаллий анъанавий хўжалик шаклларини экотурлар орқали кучайтириш;
- экотуристларнинг маҳаллий–маданий анъаналарга ҳурмат билан қараши ва бу анъаналарнинг, урф-одатларнинг моҳиятига тушунишга ҳаракат қилиши;
- экотуристларнинг маҳаллий экологик муаммоларни ечишга ёрдам бериш имкониятларининг яратилиши;
- экотурдан олинадиган даромадлар тўлиқ маҳаллий бюджетга берилишининг таъминланиши.

Экотуризмни ривожлантиришга киришаётган Осиёдаги давлатлар шу жумладан Ўзбекистон ҳам экотуризмнинг ҳозирги замонавий талабларини бажаришга албатда тайёр эмаслар. Шунинг учун ҳам, бу давлатлар экотуризмнинг замонавий концепцияси талабларини ўта қаттиқ, муаммоли талаблар ўрнида қабул қилиб экотуризмни оммавий туризмга қўшиб ривожлантиришмоқда.

Бу ҳолатнинг бош сабаби албатда, бу давлатлардаги аҳолининг экологик саводхонлиги ва экологик маданиятининг анча паст даражаларда эканлигидир. Шу билан бирга бу давлатлардаги аҳолининг табиат муҳофазасидаги тушунчалари ва давлатнинг табиатни сақлаш ва муҳофаза қилиш қарорларига ва тадбирларига бефарқ қараши ҳисобланади. Шунинг учун ҳам экотуризмнинг мақсади ва вазифаларини тўғри тушунган ва англаган АҚШ, Канада, Австралия, Япония ва Европа давлатларида экотуризм жадал ривожланишга эга.Экотуризмнинг замонавий концепцияси ва амалиёти масалаларини ўрганар эканмиз биз биринчи навбатда, “Ўзбекистонда экотуризмни ривожлантириш Концепция”сидаги талабларни бажаришимиз керак[20].

Экотуризмнинг замонавий концепцияси ва амалиёти масалаларини ўрганар эканмиз мамлакатимизда экотуризмнинг стратегик ва тактик вазифаларини давлат миқёсида ишлаб чиқишимиз талаб қилинмоқда. Бизнинг фикр мулоҳазаларимиз, лойиҳаларимиз бўйича мамлакатимизда экотуризмни ривожлантиришнинг *стратегияси* қуйидагилардан иборат бўлиши лозим:

[20].Хайитбоев Р. Экологик туризм.Ўқув қўлланма, «Баркамол медиа файз», Тошкент, 20018.-248 б.

- Ўзбекистондаги табиат минтақаларининг ва бу табиат минтақаларидаги экотуристик ресурсларнинг экотуризмда фойдаланиш тавсифларини яратиш;
- “Ўзбекистонда экотуризмни ривожлантириш Давлат дастури” асосида вилоятларда экотуризмни истиқболда ривожлантириш дастурларини ишлаб чиқиш;
- “Халқаро экотуризм ташкилоти” ишлаб чиқган экотуризмни барқарор ривожлантириш талабларини қабул қилиш;
- Экотуризм ривожланган давлатларнинг илғор тажрибалари замонавий технологияларини ўрганиш ва миллий экотуризмда жорий қилиш;
- Юқори малакали экотуризм мутахассисларини тайёрлашга киришиш.

Ўзбекистонда экотуризмни ривожлантиришдаги муҳим тактик вазифалар. Экотуризмни ривожлантиришдаги тактик вазифалар қисқа муддатли,босқичма-босқич бажарилиши лозим бўлган режаларни ишлаб чиқиш бажариш орқали амалга оширилиши мақсадли бўлади. Хулосаларимиз бўйича Ўзбекистонда экотуризмни ривожлантиришдаги муҳим тактик вазифалар қуйидагилардан иборат:

- Мамалакатимизда экотуризм мутахассисларини тайёрлаш;
- Экотуризм бўйича ички ва ташқи туризм бозори учун табиат минтақалари бўйича рақобатбардош турмаҳсулотлар ва тур дастурлар ишлаб чиқиш;
- Ўзбекистон экотуризмини табиат минтақаларидаги экотуристик ресурслар бўйича халқаро экотуризм бозорига ҳаракатини босқичма- босқич таъминлаб бориш;
- Экотуризмни ривожлантиришда табиат минтақаларидаги экотуристик ресурсларнинг жойлашиши ва улардан фойдалниш бўйича ишончли баҳо сиёсатини шакллантириш ва жорий қилиш;
- Экотуризмни ривожлантиришда табиат минтақаларидаги экотуристик ресурсларда тадбиркорликни, ташаббускорликни давлат имтиёзлари асосида қўллаб-қувватлаш, ташкил қилиш ва ривожлантириш;
- Экотуризмнинг табиат минтақаларидаги экотуристик ресурслар бўйича мукаммал ахборот рекламаларини яратиш ва туризм бозорига чиқариш;

Ўзбекистонда экотуризмни ривожлантиришга киришган эканмиз биринчи навбатда экотуризм ривожланган давлатларнинг илғор тажрибаларини ўрганишимиз ва иккинчи навбатда экотуризмнинг замонавий коцепцияси ва амалиёти талабларини бажаришдан орқада қолмаслигимиз лозим. Биз Ўзбекистонда экотуризмни ривожлантиришган киришган эканмиз экотуризмнинг замонавий концепциясини жаҳонда экотуризмнинг моҳияти, мақсади ва вазифалари, тамойилларининг йилдан–йилга такомиллашиб, мукаммаллашиб бориши деб тушунишимиз ва бу муҳим халқаро ҳужжатдаги талабларга амал қилишимиз, унинг талабларини бажаришимиз лозим бўлади.

МатякубовУ.Р – Урганч давлат
университетидокторанти, и.ф.н., доцент

ХОРАЗМ ВИЛОЯТИ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНИШИДА ЭТНОГРАФИК РЕСУРСЛАРНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ

Аннотация: *В этой статье раскрыта роль и значение этнографических ресурсов в развитии туристической отрасли в Хорезмской области. В частности, подробно освещены история и характер формирования в области фольклорного искусства, народного ремесленничества, традиционных народных игр. Также, учитывая специфические этнографические ресурсы Хорезмской области, рекомендована разработка экскурсионных и туристических маршрутов*

Ключевые слова:*туризм, этнографический туризм, фольклор, туристический маршрут, экскурсия*

Abstract:*This article explains the role and importance of ethnographic resources in the development of tourism in Khorezm region. In particular, the history and description of folk art,*

folk crafts, traditional folk games are presented in the region. It is also recommended to develop excursions and tourist routes taking into account the specific ethnographic resources of the Khorezm region.

***Key words**: tourism, ethnographic tourism, folklore, touristic itinerary, excursion*

Хоразм вилояти жуда бой туристик имкониятларга эга бўлиб, агар улардан оқилона фойдаланилса, туризм соҳасидан кутиладиган даромадларни олиш мумкин. Шунинг учун ҳам туристик ресурсларнинг асл моҳияти тарихий-ҳудудий таркибланишдаги маданий меросларимизнинг мавжудлигида деб ҳисоблаш лозим ва бу тўғри бўлади.

Вилоятида ҳозирги кунгача рўйхатга олинган 208 та маданий мерос объектлари, шу жумаладан, 28 археология, 124 та тарихий-меъморчилик ёдгорликлари, 7 та ансамбль, 28 та диққатга сазовор жойлар ва зиёратгоҳлар, вилоятдаги табиий биологик хилма-хиллик, иқлимий ресурслар, дарё соҳиллари ресурслари, 2 та табиат буюртмаси, ҳалқ ҳунармандчилиги, миллий ўйинлар ва урф-одатлар вилоятда туризмни халқаро миқёсда ривожлантиришнинг асосий объектлари ҳисобланади[1].

Юқорида қайд қилиб ўтилган туристик объектлар ичида этнографик туристик ресурслар, Хоразм вилояти туризм соҳасини ривожланишида муҳим аҳамият касб этади. Минтақада туризм самарадорлигини ошириш йўлларини тадқиқ қилиш, аниқлаш ва истиқболини белгилашда бу ҳудудларда яшаётган халқларнинг азалий урф-одатлари, миллий ўйинлари, фольклор санъати, ҳунармандчилик, кулолчилик санъат турларини туризмга таклиф қилиш ва туризм ривожида фойдаланиш йўлларини ишлаб чиқиш бу ҳудудлардаги аҳолини ҳам туризмга қизиқтиради, ҳам маҳаллий аҳолининг меҳнатга лаёқатли қисмини бандлигини таъминлайди.

Мамлакатимизнинг туризм соҳасида олимлари халқимизнинг қадимий ҳаёт кечириши давомида ҳозиргача сақланиб келинган ва янада ривожланиб бораётган ижодкорлик, яратувчилик меҳнати, касбий йўналишлари, соҳалари, миллий урф-одатлари, миллий ўйинлари, фольклор санъати ва бошқа йўналишларини туризмдаги махсус турлар, деб номлаганлар ва туризмда фойдаланишни таклиф қилганлар[2].

Тарихий манбалардан бизга маълумки, мусиқа санъати кенг доимий ривожланишда албатта, марказий шаҳарлар муҳим аҳамият касб этган. Ўз-ўзидан маълумки, фан, адабиёт санъат ва маданият тараққиётига ҳар томонлама эътибор диққат марказида бўлган. Тошкент, Фаргона, Бухоро, Хоразм ижрочилик мактаблари вужудга келган.

Кейинги даврда Хоразм маданияти ва санъатининг энг юксак ривожланиш даври бўлди, Ал Хоразмий, Ал Беруний, қомусий олимлар Ал Фаробий, Ал Розий, Ибн Сино, Аз Замахшарий, математика илмига асос солган Абу Абдуллох Муҳаммад Хоразмий IX-XIII асрларда яшаб ижод қилганлар ва Хоразм санъати, тўй ва маросимлари ҳақида турли мусиқий жанрлар, мақомлар, чолғучилар ва чолғу асбоблар турлари, уларнинг номлари, ашулачилар ҳақида қимматли маълумотлар қолдирганлар.

Хоразм халфачилик санъати

Хоразмда саводхон, гапга чечан, айни пайтда хонандалик қобилиятига эга бўлган зукко аёлларни “халфа” деб юритишади. Ушбу атама арабча сўз бўлиб, унинг маъноси шариат ақидаларини яхши билувчи, ўқимишли киши тарзида шаклланган. Халфа қўшиқлари халқ руҳини, халқ орзу-армонларини ёркин акс эттириб, одамлар юрагига таъсир этиб хусусан аёллар томонидан ижро этиладиган санъат тури ҳисобланади. Айнан халфа қўшиқлари меҳнаткаш омманинг озодлик ва бахт учун кўрашида мададкор бўлиб, халқнинг дарди айниқса, аёлларнинг ҳаёти, ноҳақлик, аёлларнинг манфаати куйланган, ғояларни жонли гавдалантириб содда, равшан тил билан куйларга солиб бадиий шаклда тараннум қилган жанрдир.

Ҳар бир маҳаллий услуб ўз хусусиятлари ва анъаналарига эга. Фақат Хоразм маҳаллий услубига хос бўлган халфачилик санъат тури анъаналари эса узоқ даврлар мобайнида шаклланган бўлиб, улар халқимизнинг турли шароитлардаги турмуши, меҳнат машғулотлари маросим ва урф-одатлар жараёни билан узвий боғлиқ ҳолда юзага келган.

Узоқ даврлардан буён Хоразмдаги тўй, сайл, аза маросимларида хотин-қизлар даврасида “халфа”лар санъати ижоди маълум бўлиб келган. Бир вақтлар зардуштийликнинг муқаддас китоби “Авесто” ни ўқиб уларни хотин-қизлар даврасида тарғиб қилган аёлларни ҳам “қалпа” деб юритишган. Бироқ бу ўқимишли аёллар фақат диний мавзудаги китобларни тарғиб қилиш билан кифояланмасдан, буюк шоирлар асарларини, шунингдек, китобга кўчирилган халқ достонларини ҳам куйга солиб ўқишган ва хотин-қизлар дилини хушнуд қилиб келганлар.

Хоразм бахшичилик санъати

Бахши – терма, қўшиқ ва достонларни сақловчи, ёддан куйловчи, айтувчи, авлоддан-авлодга етказувчи санъаткор, халқ достончиси. Унинг ширали овози, дўмбирасидан таралаётган куй инсон қалбини беихтиёр тўлқинлантиради, жунбушга келтиради. Бахши халқ турмуши ва маданиятини, ўзи яшаб турган юрт тарихини ва бирор чолғу чалишни билиши, хонандалик санъатини пухта эгаллаган бўлиши керак. У жонли халқ тилининг турли шаклларидан, сўз ўйинлари ва қочиримларидан, халқ мақоллари ва ибораларидан унумли фойдалана олиши лозим. Хоразм бахшичилик мактабини бошқа минтақалар бахшичилик мактабларидан фарқи шундаки, унда қўшиқ баланд овозда, такрорланмас оҳанг ва ўзига хос мусиқада ижро қилинади.

Хоразм рақси

Хоразм рақси – ўзбек халқ рақс услубларидан бири ҳисобланади. Хоразм воҳасида қадим замонлардан шаклланиб асрлар давомида ривожланиб келган. Ушбу йўналиш ҳаракатларга бой, эркаклар ва аёллар рақсларида бармоқларни шақиллашиш, гавдани тик тутиш, қўлларни силкитиш ва бошқа ҳаракатлар, тиззага сакраш, қайроқ билан маром бериш ва бошқа усуллар мавжуд. Бизгача етиб келган "Чағалоқ", "Норим-норим", "Аликамбар", "Оразибон", "Мўри", "Хўббимбой", "Ширинновот" ўйинлари ижросида ўғлон раққослар ва масхарабозлар ўзини кўрсатган бўлса, "Ашшадароз", "Мақом уфори" каби рақсларда раққосалар устунлик қилган. "Лазги" рақс туркуми ижросида эркак ва аёл рақс усталари бирдай маҳорат билан ўйнайдилар.

Гўзал ўзига хос ажойиб халқ рақси **"Лазги"** устида алоҳида тўхталиб ўтиш ўринли. Рақс секин ва оддий ҳаракатлар билан бошланади – олдин бармоқлар, билаклар, елка ва кейин бутун тана жонлана бошлайди. Сўнгра бирданига қўл, оёқ, тана иштирок этадиган мураккаб ҳаракатлар уланиб кетади. Куйнинг бир қисми такрорланган ҳолда рақс ҳаракатлари алмашиб боради. Куй характери ўзгариши ва суръат тезлашиши билан рақс тобора қизғинлаша бориб, кескин ҳолда тамом бўлади. Эркаклар (жанговар, қаҳрамонлик руҳида) ва аёллар (лирик, ҳазиломуз) рақслари билан фарқланади. Ҳозирги даврда Хоразмда лазги рақсининг 9 тури мавжуд: "Қайроқ лазгиси", "Кимнинг севар ёрисан", "Лойиқ", "Сани ўзинг бир ёна", "Гал-гал" ва бошқалар.

Хоразм рақс санъатини кенг тарғиб қилиш, вилоятда туризмни янада ривожлантириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлиги, Туризмни ривожлантириш давлат қўмитаси, Хоразм вилояти ҳокимлиги ва бошқа ташкилотлар ҳамкорлигида ҳар йили Хоразм вилоятининг Хива шаҳрида “Рақс сеҳри” халқаро фестивали ўтказилиб келинмоқда. йилда 14-16 сентябрда ўтказилган “Рақс сеҳри” фестивалида Англия, Италия, Франция, Голландия, Россия, Малайзия, Ҳиндистон, Хитой, Индонезия, Польша, Грузия, Озарбойжон, Қозоғистон, Туркманистон, Тожикистон каби 10 дан ортиқ хорижий давлатдан 50 га яқин раққос ва рақс гуруҳлари қатнашган.

Хоразмхалқҳунармандчилигиваамалийсанъати

Ўзбекистон кулолчилик санъатининг энг бой меросини сақлаб қолган маскан ҳисобланади, чунки замонавий анъанавий ва ноанъанавий кулолчилик санъати (XIX асрда тарихан шаклланган) вакилларида маҳаллий маданиятнинг тарихий қатламларига қизиқишлари кузатилган.

Ўзбекистонда қадимдан ҳар воҳанинг ҳунармандчилик марказлари вужудга келиб шаклланган.XX асрдан ҳозирги Ўзбекистон ҳудудларида асосий мактаблар ва марказлар қуйидагилар кирган:

- Самарқанд-Бухоро мактаби, Тошкент, Самарқанд, Ургут, Бухоро, Ғиждувон, Шаҳрисабз, Китоб, Каттакўрғон, Денов марказлари;
- Фарғона мактаби Риштон ва Ғурумсарой марказлари;
- Хоразм мактаби Хонқа, Модир қишлоғи, Каттабоғ, Чимбой марказлари.

Ҳар бир марказ ўзига хос маҳаллий хусусиятларини сақлаган. Уларда ҳозирги вақтда сопол идишларнинг ясси (косалар, лаганлар), баланд, яъни юқорига қараб йўналтирилган (кўзалар, хумлар) турлари ва уй-рўзғор буюмлар ишлаб чиқарилмоқда.Тарихи неча минг йилларга бориб тақаладиган кўҳна Хоразм кулолчилик, наққошлик, ёғоч ва ганч ўймакорлиги санъати билан машҳур бўлиб, бетакрорижод намуналари яратган усталар ўзларидан ёрқин из қолдирганлар.

Ўзбекистон Республикаси *Президентининг 2017 йил 17 ноябрдаги "Ҳунармандчиликни янада ривожлантириш ва ҳунармандларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ–5242-сонли Фармонига биноан[3], вилоятда халқ ҳунармандчилиги ва амалий санъатини намойиш этиш, ҳунармандларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш ҳамда ҳунармандчилик маҳсулотларини ички ва ташқи бозорларда сотишларига кўмаклашишда муҳим аҳамият касб этди.*

*Хоразм воҳаси*да ҳунармандчиликни ривожлантириш, уни кенг тарғиб қилиш, кичик бизнес ва хусусий секторнинг ривожланишида фаол иштирок этаётган шижоатли, ташаббускор уста-ҳунармандларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, улар фаолиятларига ҳар томонлама кўмаклашиш ижодий ишларини вилоятда ва хорижда намойиш этилишига кўмаклашиш ҳамда ёшларни миллий анъаналарга садоқат руҳида тарбиялаш,туризмни ривожлантириш, ҳунармандлар ва халқаро экспертларнинг маълумот ва тажриба алмашинувларига ёрдамлашиш,иллий ҳунармандчилик маҳсулотлари савдоси ҳам ташкил этиш юқоридаги Фармоннинг аҳамияти жуда катта ҳисобланади. Бугунги кунда Хоразм вилоятининг Ичан давлат музейида, “Улли ҳовли” туристик мажмуаларида ҳунармандчилик расталари ташкил қилинган.

Халқ ўйинлари

Аксарият халқ ўйинлари қадим ўтмишдаёқ турли халқлар ўртасидаги куч синашувлари, мусобақалар, байрамона сайр-томошалар, халқ сайиллари натижасида шаклланиб улгурган.Натижада икки кўринишдаги халқ ўйинлари шаклланган: турли байрам тадбирлари мобайнида уюштириладиган оммавий ўйинлар ҳамда болалар ўйнайдиган оммабоп ўйинлар. Бу ўйинларни ёш, жинс, иштирокчилар сони, шунингдек йил фаслларидан келиб чиқиб ўйнаш йўлга қўйилган.Бугунги кунда Хоразмда жуда машҳур бўлган халқ миллий ўйинлари ҳисобланган кураш, тош кўтариш, хўроз уриштириш, қўчқор уриштиришлартурли байрам ва оммавий тадбирларда ўтказилиб келинади.

Биз юқорида қайд қилиб ўтган Хоразм вилоятининг*халқ ҳунармандчилиги*,фольклор санъати, миллий ўйинлари ва урф-одатларини ўрганиш ва томоша қилиш учун туристик маршрутларини ишлаб чиқилиши бевосита туризмни ривожлантиришда истиқболли йўналишлардан бири ҳисобланади.

Тадқиқотларимиз натижасида, Хоразм вилоятининг ўзига хос бўлган этнографик ресурсларини инобатга олиб, минтақада экскурсия ва туристик маршрутларни қуйидаги йўналишларда ишлаб чиқиш тавсия қиламиз:

- Хоразм ҳунармандчилик марказларига экскурсия маршрутларини ишлаб чиқиш;
- миллий мусиқасозлик ва фольклор (Хоразм бахшичилиги, халфачилиги миллий рақс санъати) марказларига экскурсия маршрутларини ишлаб чиқиш;
- металлга расм чизиш, ганчкорлик ва дурадгорлик устахоналарига экскурсия маршрутларини ишлаб чиқиш;
- халқ миллий ўйинлари (кураш, тош кўтариш, хўроз уриштириш, қўчқор уриштириш)ни ўрганиш ва томоша қилиш мақсадида туристик экскурсия маршрутларини ишлаб чиқиш;

Юқорида қайд қилинган экскурсия маршрутларини ишлаб чиқишда Хоразм вилояти ҳокимлиги, Хоразм вилоятитуризмни ривожлантириш департаменти, маданият ва спорт бошқармалари, санъат мутасаддилари, маҳалла фуқаролар йиғини ҳамкорлик дастурларини ишлаб чиқиши ва туристларга экскурсия маршрутлари рекламаларини, ахборотларини рангли тасвирларда тарқатиш, туристик меҳмонхоналарда сотишни ташкил қилиш туризм ривожида кутиладиган самарадорликни беради, деб ўйлаймиз.

Ҳайитбоев Р., - СамИСИ катта ўқитувчи

ЎЗБЕКИСТОННИНГ ЧЎЛ МИНТАҚАЛАРИДАГИ ЭКОТУРИСТИК РАЙОНЛАРДА ЭКОТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Аннотация: *В статье приводятся рекомендации по развитию экологического туризма в экотуристических районов Узбекистана которые находиться в пустыне.*

Annotation: *This article provides recommendations for development of ecotourism in ecotourism districts of Uzbekistan's desert areas.*

Ключевые слова: *экотуристический район,Чинки Устюрта, эпоха неолита, трекинг, экосан,экосантур, темпа, сардоба, бархан, флора и фауна.*

Keywords: *ecotourism district, Usyurt canyon, era of neolit, tracking, ecosan, ecosan tour, pace, water reservoir, dune, flora, fauna*

Ўзбекистон Республикасининг экотуристик районлари ва бу районларнинг экотуристик тавсифини А.Ниғматов ва Н.Т.Шомуратовалар яратдилар.[21].[22].Харитага мувофиқ бутун мамлакатимиз ҳудуди XIV экотуристик районга ажратилган: Устюрт, Орол ва Оролбўйи, Амударё, Қизилкум, Нурота,Зарафшон,Айдаркул,Сирдарё,Чирчиқ-Оҳангарон, Фарғона, Туркистон, Қашқадарё,Ҳисор,Сурхондарё экотуристик районлари киритилган(1-Чизма).

Ҳар бир экотуристик район ўзининг экотуристик ҳолати, экотуристик ресурслари, экотуризмни ривожлантириш имкониятлари, шарт-шароитлари ва ривожланиш истиқболлари нуқтаи-назаридан ажралиб туради. Ўзбекистоннинг чўллари ва адир ҳудудларида Устюрт,Орол ва Оролбўйи, Нурота, Зарафшон, Қизилқум ва Айдаркўл экотуристик районлари жойлашган.

Устюрт экотуристик райони Ўзбекистоннинг шимолий-ғарбида-Қорақолпоғистонда жойлашган плато бўлиб,унинг умумий майдони 200 минг км^2 ни ташкил этади.Бу жойлар дунёда энг катта ва ягона 60-150 метрлик тик қояли жарлари-Устюрт Чинклари, даволаш хусусиятига эга бўлган жуда катта-1000 кв. км. ли тузли Борсакелмас шўрхоги билан машҳур.

Ўсимлик қоплами сийрак, ош тузи ва балчиқли тузнинг қатлами 16-27,5 м гача боради. Янги қуриб битказилган Қўнғирот сода заводи айнан ана шу тузлар ҳисобига ишлайди.Неолит давридан колган«Устюрт макони» ҳам ноёбдир.Унда кадимий одамлар яшаган 60 та табиий объектлар аникланган. Уларнинг ичида ҳам тарихий, ҳам экотуристик аҳамиятга мойил «Темпа»макони бўлиб, ундан Хоразм археология экспедецияси қадимий меҳнат ва ов қуролларини топган.

Орол ва Оролбўйи экотуристик райони экологик инқирозли экотуристик ҳудуд бўлгани учун ҳам экстремал экотуристик объект бўлиб ҳисобланади.Экотуристик маршрутлар бир пайтнинг ўзида ҳам Оролнинг қуриган, ҳам унинг таъсирида бўлган Орол отрофи ҳудудларини камраб олади. Экотурлар нафакат трекинг (пиёда) ёки туя ва отларда, балки самолёт ва вертолётлар орқали ҳам амалга оширилиши мумкин.

---

[21]Шомуротова Н. Т.,Ўзбекистонда экологик туризм ва унинг табиий географик жиҳатлари, г.ф.н. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати, Тошкент, 2011,22 б.

[22]НиғматовА.,ШомуротоваН.,Ўзбекистонни экотуристик районлаштириш тажрибаси. Экология хабарномаси, ж.№ 2,2007,Тошкент.-45-54 б



1-Чизма.Ўзбекистон Республикасининг экотуристик районлари

Нурота экотуристик райони ўзининг ажойиб табиат манзаралари, тарихий архитектура ёдгорликлари билан кишиларни мафтун этади.1975 йилда ташкил этилган ва майдони 17,8 минг га бўлган "Нурота тоғ ёнғоқзор қўрикхонаси" мавжуд.Оқтоғнинг жанубий ён бағрида жойлашган шамол таъсирида тебраниб турувчи баҳайбат харсангтошли «Сангижумон», «Кориз қолдиқлар» каби табиат ёдгорлиги экотуризмнинг муҳим объектларидан бўлиб ҳисобланади. Кўп асрлик зиёратгоҳ«Чашма булоқ»яқинида«Чилустун» масжиди, мадраса, Абул Хасан Нурий мақбараси ва қалъаси жойлашган. Қоратоғ тизмасининг жанубий ён бағрида «Сармиш дараси»даги қояларда авлодларимизнинг қадимий ҳаёти ва маданиятини акс эттирувчи 3000 дан зиёд лавҳалар, расмлар ишланган.

Жанубий Нурота тизмасида узунлиги 110 м, абсолют баландлиги 1060 м,майдони 163 м келадиган «Майдон карст ғори»,Шимолий Нурота тизмаси даги узунлиги 130м, баландлиги 1100 м, майдони 70 м келадиган «Хонаихудо карст ғорлари»да ғоршунослик туризмини ривожлантириш мумкин.Булардан ташқари, XI асрда бунёд этилган ва XVIII аср бошларигача турган«Работи Малик карвонсаройи»сайёҳларнинг тўхташ жойи шунингдек, савдогарларнинг савдо қилиш жойи бўлган.Работи Малик ёнида минг йиллик тарихга эга бўлган маданий ёдгорлик-сардоба учрайди.Ер ичига 12 м ботирилган сардобада бутун ёз бўйи муздек ва тоза сув сақланган.

Зарафшон экотуристик районида Бухоро вилоятининг Шофрикон ўрмон хўжалиги ҳудудида жойлашган қум чўл ландшафти,у ердаги ўсимликлар ва ҳайвонлар ҳамда тарихий ёдгорликлар (Варданза шаҳар харобалари) давлат томонидан қўриқланади.

«Варданза қўриқхонаси»,«Тўдакўл флора ва фаунасини бойитиш буюртмахонаси»,Қоравулбозор хўжалигида жойлашган «Жайрон экомаркази»,сув ва ботқоққа мослашган қушларни кўпайтирувчи «Денгизкўл буюртмахонаси», Зарафшон тоғ тизмаларидаги Омонқўтон ва Темур карст ғорлари, Зирабулоқ-Зиёвуддин тоғ тизмаларидаги кўп қаватли «Ғунтак ғори» ва бошқалар диққатга сазовордир.

Қизилқум экотуристик райони Ўзбекистоннинг бошқа экотуристик районларидан табиий-иқлимий хусусиятлари бўйича ажралиб туради.Чунки бу экотуристик район Республикамиздаги энг катта чўлнинг ҳудудларида жойлашган.Сайёрамиздаги энг катта чўллардан ҳисобланувчи Қизилқум чўлининг майдони 32,5 млн.га.Шундан, 7 млн. га майдони Ўзбекистон ҳудудларида. Қизилқум чўлида чўлнинг барча типлари ва релъеф шакллари учрайди.Майда қум тепали массивлар ва кўчма қум барханлари ҳам Қизилқумнинг

асосан марказий қисмида жойлашган.Ўсимликлари ва ҳайвонот дунёси Марказий Осиёнинг чўлларидаги ўсимликларни ва ҳайвонларни ифодалайди.

Айдаркўл экотуристик райониасосан серёғин бўлган1969 йилдаги сувларнинг ва Мирзачўлни пахтачилик мақсадларида ўзлаштириш натижалари,ташлама сувларнинг кўпайиши натижасида Айдаркўл ва Арнасой тизимидаги кўлларининг қўшилиб кетиши ва Чордара сув омборидаги ортиқча сувларнинг ташланиши ҳисобига юзага келди.Бу экотуристик районнинг сув билан банд қисми 600 минг га. Ҳозирда бу сув ҳавзаларидан балиқчилик ва халқаро миқёсда қишловчи қушларнинг муҳофазаси мақсадларида фойдаланилмокда.Бу жойда экотуристик инфратузилмалар яратилган ва маҳаллий,халқаро экотуристларни қабул қилиш бошланган.

Экотуристик районларда экотуризмни ривожлантиришдаги вазифалар. Ўзбекистоннинг экотуристик районлари харитасининг ишлаб чиқилиши ҳам мамлакатимизда экотуризмни ривожлантиришдаги жиддий тадқиқотлардан ҳисобланади.Шу билан бирга бу экотуристик районларда экотуризмни ривожлантиришда қуйидаги муаммо ва масалаларни, вазифаларни ҳал қилишга тўғри келади:

1.Экотуристик райондаги экотуризм ресурсларидан экотуризмни ривожлантиришда фойдаланишнинг ҳуқуқий-мъёрларини ишлаб чиқиш.

2.Экотуристик районда туризмда фойдаланиш мумкин бўлган барча русурсларнинг рўйхатини тузиш ва таъриф-тавсифларини тайёрлаш.

3.Экотуристик райондаги экотуризм ресурсларининг рўйхатини тузиш ва таъриф-тавсифларини тайёрлаш.

4.Экотуристик районда экотуризмни ривожлантириш йўналишларини, имкониятларини, илмий, амалий ва ташкилий жиҳатлардан ишлаб чиқиш.

5.Экотуристик районнинг экотуристик ресурслари рекламаларини ишлаб чиқиш.

6.Экотуристик райондаги экотуризм ресурсларига экотуристик экскурсия ва экотуристик маршрутлар ишлаб чиқиш.

7.Экотуристик районда экотуризмни ривожлантиришнинг ташкилий, экологик ва иқтисодий тизимларини ишлаб чиқиш.

8.Экотуристик районда аҳолини экотуризм соҳасига тайёрлашда бепул ўқитиш ва экотуризм тадбиркорлиги марказларини ташкил қилиш.

9.Экотуристик районда экотуризмни ривожлантиришнинг ҳудудий дастурлари ва стратегик режаларини ишлаб чиқиш.

10.Экотуристик районлардаги экотуризм ресурларида (объектларида) эктуристик инфратузилмалар яратишга киришиш.

11.Республикамиздаги вилоятлар ўзларининг ижтимоий ва иқтисодий ривожалантириш дастурларига экотуризмни ривожлантириш дастурларини ҳам қўшиши.

Ўзбекистоннинг экотуристик районларида экотуризмни ривожлантиришни туризмда қисқа муддатларда ҳал қилинадиган масалалар қаторига киритиб бўлмайди. Чунки, юқорида келтирилган вазифалар мукаммал илмий тадқиқотларни ўтказишни ва ташкилий-иқтисодий тизимларни ишлаб чиқишни талаб қилади.Шунинг учун ҳам, экотуризм мутахассислари дастлабки босқичда мамлакатимизнинг вилоятларида экотуризмни ривожлантириш муаммоларини ўрганишни бошлашлари лозим бўлади.Бу йўналишда дастлабки натижалар юзага(Навоий вилояти бўйича) чиқди[23].

Тавсиялар:

1.Экотуристик районларда экотуризмни ривожлантириш муаммоларини ўрганиш,бу муаммоларнинг ечимларини топиш, фойдаланишни бошлаш масалаларини ўрганишни бошлашдан аввал туристик фирмалар ёки туристик ташкилотлар ёки тадбиркорлар биринчи навбатда аниқ экотуристик районда ички экотуризмними ёки халқаро экотуризмни ривожлантиришни яхшилаб ўйлаб кўришлари лозим.

[23] Исломова Р.А.,Экологик туризмни ривожлантириш муаммолари.Тошкент «Иқтисодиёт»,2014,131 б.

Бундай талаб шунинг учун ҳамки, экотуристик районларда экотуризмни ривожлантириш аниқ ҳисоб-китобларни талаб қилади. Айниқса, ички экотуризмдаги турларнинг, туристик хизматларнинг нархлари халқаро экотуризмдаги турларнинг ва туристик хизматларнинг нархларидан кескин даражаларда фарқланади. Шунинг учун ҳам экотуризм билан шуғулланадиган туристик фирмалар ва туристик ташкилотлар ўз фаолиятларини биринчи навбатда ички экотуризм ёки халқаро экотуризмга ихтисослашувини ҳал қилишлари керак бўлади.

2.Экотуристик районларда экотуризмни ривожлантиришда туристик фирмалар Ўзбекистоннинг табиати ва табиий иқлим шароитларини, экотуристик манзил-маконнинг жойлашган ўрнини, бориш ва қайтиш йўлларини яхши билишлари шарт.

3.Экотуризм турларининг дастурларини ички экотуризмда ҳам халқаро экотуризмда ҳам, тур хизматларини классли баҳолаш талабларига асосланиб тузиш керак. Айниқса, экотурлардаги транспорт хизматлари нархлари кўплаб муаммоларни келтириб чиқариши аниқ.

Экотурларнинг дастурларини табақалашган (мактаб, лицей ўқувчилари, коллеж ва олий таълим талабалари, нафақадаги кексалар ва бошқ..) талабларда тузишда,яъни давлатимизнинг ҳуқуқий-меъёрий ҳужжатларида белгиланган имтиёзларни излаб топиш(ижтимоий туризм,масалан, Германияда мактаб ўқувчилари учун экотурларнинг нархлари 10% га пасайтирган фирмаларга имтиёзли солиқлар белгиланган), табиатни муҳофаза қилувчи ташкилотларнинг ҳомийлигидан фойдаланиш имкониятларини излаб топиш керак.

4.Экотуристик районларга экотурларни ташкил қилувчи туроператорлар экотуристик райондаги соғлиқни сақлаш муассасалари, ички ишлар ташкилотлари ва экотуристик объектлар жойлашган қишлоқлар, маҳаллалар раҳбарлари билан доимий алоқада бўлиш тизимларини ташкил қилишлари талаб қилинади.

Норкулова Д.З. – СамИСИ и.ф.ф.д., доц. в.б.

ЎЗБЕКИСТОНДА ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МИЛЛИЙ ЭТНОГРАФИК ЖОЙЛАШТИРИШ ВОСИТАЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИ

Аннотация: *В данной статье представлены возможности национальных этнографическихсредств проживания в развитии туризма в Узбекистане с акцентом на роли и важности для туристов. Также анализируются особенности этнических средтв размещения, которое привлекает туристов по всему миру.*

Ключевые слова: *традиции, нация, ценности, жилье, Азия, Европа, Америка, Африка*

Annotation: *This article presents opportunities for using national ethnographic placement tools in tourism development in Uzbekistan, with a focus on the role and importance of local accommodation for tourists. It also analyzes the peculiarities of ethnic accommodation that attracts tourists around the world.*

Keywords: *traditions, nation, values, accommodation, Asia, Europe, America, Africa*

Халқимизнинг асрлар давомида яратган миллий урф-одатларимизни қайта тиклаш ва ёшлар онгига сингдириш, уларнинг иқтисодиётимизнинг турли соҳаларига бўлган ижобий таъсирларини кучайтириш бугунги куннинг асосий масаласига айланди. Ҳозирги кунда туризмни ривожлантиришга эътиборнинг кучайтирилганлигини инобатга олган ҳолда анъаналаримиз, урф-одатларимизни кенг тарғиб қилиш катта аҳамиятга эга.

Дунёдаги ҳар бир миллатнинг ўз урф-одати бор. У ҳар бир халқнинг ҳулқидан, яшаш тарзидан келиб чиққан. Одамларнинг урф-одатга риоя қилишига қараб кишини қайси миллатга мансуб эканлигини осон айтиш мумкин. Ҳар бир миллат ўзининг тили, урф-одати, анъанаси, маданияти, тарихи билан миллат ҳисобланади.

Халқаро туризм соҳасида эса миллий анъана ва қадриятлар катта аҳамият каб этади. Туристик саёҳатга отланган инсонлар биринчи навбатда ташриф буюрадиган мамлакатларнинг ўзига хосликларни ўрганишга, маҳаллий одатларни кўришга ва бошқа мамлакатлар билан солиштиришга ҳаракат қилишади. Бунда туристларни маҳаллий аҳолининг турар жойлари, кундалик ҳаёт тарзи, турли байрамлар ва урф-одатлар қизиқтиради. Маҳаллий аҳолининг турар жойлари ва улардаги ҳаёт тарзи ушбу қизиқишларнинг катта улушини ташкил қилади. Ҳар бир ҳудуднинг иқлим шароитлари, табиати, ресурслари, қишлоқ хўжалигининг ўзига хосликлари, турмуш тарзидан келиб чиқиб шакллантирилади.

Халқаро туризмда иштирок этувчиларнинг катта қисми қўйидаги маҳаллий турар жойларга катта қизиқиш билдиришади:

Осиё минтақасида

Аблайша – қозоқларда қўлланиладиган йўл ўтови. Унинг рамкаси ёғоч ҳалқанинг юқори қисмига - бакадан ўрнатилган кўплаб тиргаклардан иборат. Бутун структура кигиз билан қопланган. Илгари, шунга ўхшаш турар-жойлар қозоқ хони Абайлнинг ҳарбий юришларида ишлатилган, шунинг учун бу ном берилган.[24]

Аил ("ёғоч ўтов") - Жанубий Олтой аҳолиси - теленгитсларнинг анъанавий уйи. Тупроқли ер ва қайин пўстлоғи билан қопланган баланд томли олти бурчакли лог тузилиши. Заминнинг ўртасида - ўчоқ[25].

Ариш - Форс кўрфази соҳилидаги араб аҳолиси учун хурмо баргларининг пояларидан тўқилган ёзги уй. Томга бирон бир мато трубкаси ўрнатилган бўлиб, у жуда иссиқ иқлим шароитида уйни шамоллатишни таъминлайди[26].

Балаган - якутларнинг қишки уйи. Лой билан қопланган юпқа тиргакларнинг йиғимли деворлари лог рамкасида мустаҳкамланди. Секин пастга туширилган пештоқ қобиғи ва тупроқ билан қопланган эди. Кичкина дераза ларга муз бўлаклари қўйилган эди. Кириш шарққа қаратилган ва чодир билан қопланган. Ғарбий томонда, чодирга мол чорваси қўйилган эди[27].

Барасти - Арабистон ярим оролида хурмо баргларидан тўқилган кулбалар учун кенг тарқалган исм. Кечаси, барглар ортиқча намликни ўзлаштиради ва кун давомида аста-секин қурийди, иссиқ ҳавони намлайди.[28]

Валкаран ("Чукчи шаҳридаги жағнинг уйи") - Беринг денгизи қирғоқлари (Эскимос, Алеуц ва Чукчи) халқлари яшайдиган уй. Катта кит суякларидан ясалган, ер ва торф билан қопланган рамкаси бор бўлган, ярими ерда қазилган чуқурдан иборат бошпана. Унинг иккита кириш жойи бор эди: ёз - томдаги туйнук орқали, қишда - узун ярим ер ости йўлаги орқали[29].

Дяолоу - Хитой жанубидаги Гуангдонг провинциясида мустаҳкамланган кўп қаватли бино. Биринчи Диаолоу Хитойнинг Минг сулоласи даврида, Жанубий Хитойда қароқчилар тўдалари ишлаётган пайтда қурилган. Кейинчалик ва нисбатан хавфсиз бўлган даврларда бундай мустаҳкам уйлар анъанага биноан қурилган[30].

Иглу - бу зич қор блокларидан ташкил топган гумбазли эскимос уяси. Ер ва баъзан деворлар терилар билан қопланган эди. Кириш учун қор ичида туннел ёрилган эди. Агар қор чуқур бўлмаса, кириш туннели деворга ўрнатилди, унга қўшимча қор блоклари йўлаги қурилмоқда. Ёруғлик хонага тўғридан-тўғри қор деворлари орқали киради, гарчи дераза лар муҳрланган ичак ёки муз қатлами билан ёпилган бўлса. Кўпинча бир нечта иглулар бир-бирларини узун қорли йўлаклар билан боғлаб туришарди[31].

---

[24] http://xn----stb8d.xn--p1ai/abylajsha/

[25] https://ru.wikipedia.org › wiki › Аил_(значения)

L'aéroport de Juliana est desservi par plusieurs transporteurs tels que Air France-KLM, Continental Airlines, American Airlines. En 2014, l'aéroport a accueilli deux nouvelles compagnies : Air Canada et United Airlines.

Le tourisme est pratiquement le seul levier de développement de l'île. Bien que les stratégies en matière touristique n'aient pas été clairement précisées, la partie française de Saint-Martin souhaite, aujourd'hui, se démarquer de l'offre de la partie hollandaise en se positionnant sur un tourisme haut de gamme, dans un souci de développement durable. Par ailleurs, la coopération entre St Martin et St Marteen ou avec les îles voisines (Anguilla, Saba, St Eustache, St Barthélémy) permet la mise en place ponctuelle d'actions de promotion. Dépendante du marché américain à près de 70%, l'île souhaite renforcer son image auprès du marché européen.

Mamatqulova K.A. - SamISI katta o'qituvchi
UlashevN.N.- TFT-316 guruhtalabasi

LES GRANDS VILLES DE L'OUZBEKISTAN

Anotatsiya:*O'zbekistonning iqtisodiy va siyosiy mustaqilligi unga izlanishlar sohasida, fan va texnika, savdo-sotiq, iqtisod va xalqaro aloqalarni va turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratib berdi. Maqolada O'zbekistonning turizm salohiyati, qadimiy shaharlari, mashhur obidalari, qadamjolari bilan tanishtiradi.*

Kalit so'zlar:*Buyuk ipak yo'li, qadimiy , savdo-sotiq, siyosat, kelajagi porloq, dur, gavxar, mashhur, maqbara, astranom, faylasuf.*

Анотация:*Экономическая и политическая независимость Узбекистана дала большие возможности решить самому вопросы в сфере исследования, науки и техники, в бизнесе, в экономике и развитии международных отношений, развитию туризма в Узбекистане. В докладе говорится о развитии туризма, о старинных городах, об исторических памятниках Узбекистана.*

Ключевые слова:*наука, техника, бизнес, туризм, богатства, цивилизация, этнография, оазис, мавзолей, мечет, многонациональная, традиции, ценности.*

Annotation:*L'Ouzbékistanest un pays de vieillecivilisation. La Grande Route de la Soie, voie du dialogue commercial, économique, politique et culturel entre l'Orient et l'Occidentpassait par le territoire de l'Ouzbékistanactuel.*

L'indépendanceéconomique et politique de l'Ouzbékistandonne la possibilité de résoudre par lui-même les questions de la recherche, des sciences et de la technique, du commerce, de l'économie, des relations internationales. Les hommes d'affairesétrangersont le droit de propriétéenOuzbékistan.L'Ouzbékistanétait célèbre pour les commercants.

La Grande Route de la Soie, voie du dialogue commercial, économique, politique et culturel entre l'Orient et l'Occidentpassait par le territoire de l'Ouzbékistanactuel. L'Ouzbékistanest un pays développé. Il a un avenirbrillant, puisque la républiquesouverainepossède de grandesrichessesnaturelles: de riches gisements de houille, de manganèse, de cuivre, d'or, de gaz naturel, etc.

L'Ouzbékistanest un pays de vieillecivilisation. Il a donné au monde beaucoup de savants et d'hommes de lettresdont le mathématicien et astronome AI-Khorazmi, le médecinAbou-AIi-ibn-Sina, célèbre en Orient sous le nom d'Avicenne, Oulug-Beg — le grand mathématicien et astronome, le poèteAlicherNavoï et beaucoup d'autressontconnusdans le monde entier. EnOuzbékistanil y a beaucoup de grandesvilles. Ce sont :Tachkent, -Samarkand, Bouhara, Khiva, Kokand, Àndijan, Namangan, Ferghana, Termez et d' autres.

Tachkent est la capitale de l'Ouzbékistan. C est une ville tres anciennie qui s'est développée pendant des siècles. Elle a plus de 2 500 ans. Tachkent se trouve à 480 m au-dessus du niveau de la mer. Elle occupe une superficie de 220 km carrés, elle est entourée de tous côtés par des vergers et des vignobles. Les représentants de plus de cent peuples et ethnies vivent actuellement à Tachkent.

Tachkentest le centreculturel et scientifique de la république.A Tachkentil y a beaucoup de théâtres, de cinéma, de Maisons de la culture, de clubs, de musées, de parcs de culture et repos. Les lignesinternationales reliant l'Europe à l'Asie Centrale passent par Tachkent. Les liens internationaux serenforcentd'annéeenannée.

Les grands musées de TachkentsontMuséed'histoire des peuplesd'Ouzbékistan, Musée des Beaux-Arts, Musée des Arts décoratifs.Musée de la nature, Musée de la littératureAlicherNavoï etc.

Tachkentest la première villd'Asie Centrale oùil y a un beau et jolimétro qui a près de 30 stations. La construction du métro continue. Les stations du métro de Tachkentrappellent des palais.

Tachkent a conservé les monuments historiques des XVeetXIXe siècles. Ce sont les médersasKoukeldach (XVIe s.), Barakkhane (XVe ss.), Moni-Moubbarak (fin du XIX s.), la mosquéeDjamie (XVe s.). Le grand ensembleculturelKhazreth-Imam (XVe s.) etcelui de Cheikhantaour (XVve s.).

De nombreuxreprésentants des peuplesétrangersfaisantpartie de délégations et de groupes de touristesviennentenOuzbékistan, àTachkentafin de voir les succès du peupleouzbekdans la vie économique et culturelle.

Samarkand — villeorientale, situéedans la vallée du Zéravchanaattiré pendant des siècles les voyageurs. Ville-musée, incarnation de l'histoire, elleestaussiconnue que BabyloneouThèbes, Athènesou Rome. Des siècles ont passé, mais Samarkand a conservésestrésors. Au milieu du 1-er millénaireavantnotreèrecette oasis donna naissance à la Sogdianeglorieusedont la capitalefutMaracanda.

L'ensemble du Réghistanest le coeur de la ville. C'estun des plus beaux témoignagesarchitecturaux du monde oriental. Trois médersas: Oulug Beg, Chir-Dor, Tilla-Kari décorent la place de Réghistan. Cesmédersas, construites au XVeet au XVIe siècles se distinguent par leurbeautéorientale. Les merveilleuxéléments de décorationsontconservéjusqu'ànosjourstoute la fraîcheur des tons. La mosquée de Bibi-Khanym (1404) construite sur l'ordre de Timour pour perpétuer le souvenir de sa femme préférée, se dresse à proximité du Réghistan.

Unpeu plus loin, on voitl'ensemble de Chakhi-Zindacomportantonzeédificesbâtis aux XVI—

XV siècles. Le mausolée du Gour-Emir, tombeau des Timuridesoùreposent les restes du Tamerlan (Timour) et du savant Oulug Beg (petit-fils de Timour).

Parmi les monuments de Samarkand l'observatoired'Oulug Beg, le grand astronomeetmathématicien du XVe siècle occupeune place à part. Pendant plusieurs siècles les astronomes de l'Orientet de l'Occidentconfrontaient les résultats de leurs observations avec la table stellairedressée par cet admirable savant. Aujourd'huil'observatoireest un musée.

Samarkand c'est le passé et le présent, la tradition et l'actualité. Déjà au II-e siècle les marchands de la Sogdianecontrôlaient le commerce sur un immense troncon de la "Route de la Soie". Les soieriesfabriquées par les artisans de Samarkand faisaient concurrence à celles de Chine, le veloursbrodé au fil d'orétaittransporté par les caravanes de châmeaux à Moscou, à Vienne, à Stockholm et à Rome.

Samarkand étaitjadisun grand centre de hautesétudes et que sesmédersas et ses savants jouissaientd'uneréputationmondiale.

Actuellement Samarkand estdevenue un grand centreindustriel et culturel. Son institutd'élevage des moutons caraculs estconnudans le monde entier. Les coutumesancienneset les traditions ontconservétouteleur puissance au fameux bazar de Samarkand. On appelle Samarkand — "la perleprécieuse de l'Orient".Unevieillelégendeorientaleaffirme que: "qui a vu Samarkand unefois, voudra sans cesserevenir".

La ville de Khiva — c'est le musée naturel. Khiva, quelâge a-t-elle?Durant de longuesaimées les archéologuesontcherché à répondre à cette question. Après avoirréuni des preuves indispensables, flssontarrivés à cette conclusion: Khiva, une des villes les plus anciennes de la planète, compte non moins de vingt-cinq siècles d'existence.IstakhrietMakdici, voyageurs arabes, mentionnerent, au X –emsiecle, la ville de Khiva. Cependant, elleavaitetefondee beaucoup plus tot. Pendant plus de trios siecles , ellefutl'un des plus grands centers islamiques de l'Asie Centrale. C'estunevieille cite avec ses minarets, sescoupoles de ses mosques et de sesmedersas. Il existe a Khiva encore pluss de monuments raresqu'a Samarkand. Beaucoup ont plus de mille ans. Depuis le Moyen Age, Khiva étaitdiviséeendeux parties: intérieure, ouItchan-Kala etextérieureouDichan-Kala. La mosquéeDjouma, qui se trouve à l'Itchan-Kala, joyau du vieil art de l'Asie Centrale. Le mausolée de SéyidAlaouddineest le plus vieux. Le mausolée de Pakhiavan-Makhmoudaétéconstruiten 1701. Le minaret Islam-Khodjaest visible de tous les coins de la ville. Sesmurssontrevêtus de carreaux de céramique bleus et verts.

Boukharaestaussi un des centresculturels, administratifs et industriels de l'Ouzbékistan. Boukharaestconnugrâce à ses objects brodésenfilsd'or, à son cuivrefrappé, ses articles de joaillerie et de bijouterie, son bois sculpté, etc.

Boukharaestunevilletrèsancienne. Elle estconnue par ses savants, écrivains, artistes et poètescélèbrescommeRoudaki, Firdaoussi, Farabi, Avicenne.

Bonkharaestriche en monumentshistoriques. Le minaret Kalian, le "grand minaret" a plus de 900 ans. Au centre de la ville se trouvel'ancien bastion des derniersémirs, la citadelled'Arc qui abrite à présent le Muséed'histoire et de civilisationrégionales. Le mausolée des Samanides, le plus vieux souvenir-témoin.Il a "plus de mille ans. Non loin du mausolée se trouve le mazarTchachmaAyoub. Les médersasTchor-Minor, Abdoullakhan, la mosquée Bolo-Haouze, les coupoles, les minarets montrent la beautéorientale.LemausoléeIsmaïlSamaniesttrèsimpressionnant. Sesmursenbriqueschangent de couleur et de motifs à toutes les heures du jour.**Ferghana**estunevillerelativementjeune. Elle estverte. Partout, il y a beaucoup de vergers et vignobles. De grands plataneset des peupliersombragent les rues. C'estpourquoitoute la valléeest un grand espace vert. Les fruits de Ferghanasonttrèssavoureux. Les grenades sontexellentesettrèsbonnes pour la santé; on donne au jus de grenade le nom d'élixir de la vie. Ferghanaest un grand centreindustriel et culturele. On y trouvecesusines, des fabriques, des universités, des instituts, des établissementsculturelsetmédicaux. Les environs de la villesonttrès beaux. Shakhimardanest un lieu trèspittoresque, lieu préférédés habitants de Ferghana.

Зоҳидов Ф.Ф. - СамИСИ PhD докторанти

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ИЧКИ ТУРИЗМНИНГ РИВОЖИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ

Аннотация: *В данной статье описывается развитие и перспективы внутреннего туризма в Республике Узбекистан, а также представлены особенности внутреннего туризма, мероприятия, проводимые в Узбекистане в этой области, и предложения по устранению существующих недостатков.*

Ключевые слова: *Внутренний туризм, неповторимый туристический ресурс, туристическая инфраструктура*

Annotation: *This article describes the development and prospects of domestic tourism in the Republic of Uzbekistan and presents specifics of domestic tourism, the work being done in Uzbekistan in this area, and suggestions for addressing the existing shortcomings.*

Key words: *Domestic tourism, unique touristic recourses, touristic infrastructure*

Ички туризм – худудларнинг ижтимоий – иқтисодий ривожланишида муҳим омилларидан бири хисобланади. Унинг ёрдамида номавсумий даврлардаги туристик ўзгаришларни мутаносиблигини таъминлаб бориш имкони мавжуд.

Ички туризм жамиятнинг хар бир бўғинида мухим ўрин эгаллайди хамда иқтисодий кўриниш касб этади, хусусан:

- индустриал кўринишга эга бўлиб, туризм халқ хўжалигининг бошқа секторлари билан алоқаларни мустаҳкамлаш ва кенгайтиришга хизмат қилади;
- махсус туристик худудлар улушига даромадларни тақсимлаш механизмини ўзида акс этади;
- ҳудудда янги иш ўринларини яради;
- киритилган инвестицияларнинг юқори нафлилик даражасини ифода этади;
- мультипликатив кўринишдаги аҳоли миллий даромадининг ошиши, уларнинг хаёт даражаси ва иш билан таъминланишига таъсир этади;
- миллий кўринишдаги бойликларни асраб авайлаш ва атроф – муҳитни сақлаб қолиш каби хусусиятларни мужассам этади.

Юқоридаги фикрларни инобатга олиб, ички туризм фаолият кўрсатаётган ҳудуд ҳамда умимий қилиб олганда мамлакат иқтисодиёти ривожланишига фаол таъсир кўрсаташини англаймиз. Шунингдек, у ижтимоий ва гуманитар соҳалар ривожига ҳам катта таъсир кўрсатади.

Ривожланган мамлакатлар тажрибаси шуни кўрсатадики, ички туризмни ривожлантириш иқтисодий самарадорликнинг асосий омили ҳисобланади. Хусусан, Европа худудининг туристик оқимининг 50% ни ички туризм ташкил этса, Хитойда 3 млрд. кишидан ортиқ, АҚШда 80% аҳоли мамлакат ичида саёҳат қилишади. Экспертларнинг хулосасига кўра, 5 етакчи - ички туризм ривожланган мамлкатларда умумий сарф-харажатлар миқдори 2017 йилда 2252,7 млрд.АҚШ долларини ташкил этган. Бу ички туризм мамлакат бюджетини тўлдириб боришда халқаро туризмдан кам бўлмаган даромад манбаи эканлигини кўрсатади.

Дунё бўйича Ўзбекистон Республикаси ички туризмга сарф этилган маблағлар бўйича 121-позицияни эгаллаган.

Таъкидлаш жоизки, ҳозирги кунда кунда мамлакатда туризм соҳаси, шунингдек ички туризмни ривожлантиришга қаратилган салмоқли ишлар амалга оширилиб келинмоқда.

Хар бир иқтисодий соҳанинг модернизация қилишдан олдин, аниқ ишлаб чиқилган стратегия ва норматив ҳуқуқий база шакллантирилади.



1 – жадвал. Ички туристларнинг харажатлари (млрд. АҚШ доллари) 2017 й.

Хусусан, 2018 йил феврал ойида “Ички туризмни тезкор ривожлантиришга қаратилган чора-тадбирлар тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси президентининг фармони қабул қилинди. Хужжатда ички туризмни комлекс ривожлантиришга қаратилган дастур қабул қилинган, унда ички туризмга оид тадбирларни амалга ошириш механизмлари кўрсатилган, шунингдек ички туризмни ривожлантиришга катта салохиятга эга шаҳар ва туманлар белгиланган.

Таъкидлаш жоизки, 2019 йил 2 феврал куни 14/1-401 – сон билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикаси туризм статистикаси тизимини такомиллаштириш бўйича чора-тадбирлар режасини бажариш мақсадида давлат статистика қўмитаси билан биргаликда Ўзбекистон Республикаси туризмнинг минтақавий статистикасини шакллантириш методологияси ишлаб чиқилди. Шу орқали ички туристик оқимни статистик тахлил этиш имкони янада кенгаймоқда.

Ўзбекистон Республикаси ҳудудига ташриф буюрувчи чет эллик сайёхлар оқимининг номавсумий даврида, хусусан июл – август ойлари ҳамда ноябр – март ойлари давомида камайиши ҳисобида, айнан шу муддатларда ички туристик махсулотни сотувчи туроператорлар томонидан чегирмалар орқали сотилиши номавсумийлик омилини камайтиради.

2018 йилдан бошлаб мамлакат миқёсида ташкил этиб келинаётган “Ўзбекистон бўйлаб саёхат қил!” дастури доирасида 77 та амалий лойиҳалар амалга тадбиқ этилиб, ички туризмнинг ривожланишига хиссасини кўшиб келмоқда, хусусан:

1. 70 га яқин катта саноат марказларига ёшлар учун ташкил этилган индустриал туристик дастурлар 5,5 минг нафар иштирокчиларни қамраб олди;

2. ички туризмни мамлакат аҳолиси миқёсида кенг тарғиб қилиш мақсадида 800 та тарғибот баннерлари ўрнатилди;

3. мамлакат миқёсида саёхат қилувчиларга енгиллик яратиш мақсадида таътил кунлари узайтирилди;

4. байрам кунлари ички туристларга Ўзбекистон темир йўллари, Ўзбекистон хаво йўллари миллий авиакомпанияси хамда мехмонхоналарда чегирмалар тақдим этиш амалиёти жорий этилди;

5. тижорат банклари томонидан 400 млн. сўм миқдорида Ўзбекистон бўйлаб саёхат қилишни истаган резидентларига кредит маблағлари ажратилди.

Ички туризмни ривожлантиришга қаратилган чора-тадбирлар натижасида 2017 йилда 10,6 млн. нафар саёхатчидан 2018 йилда 15,5 млн. саёхатчига ўзгаргани, хусусан ўсиш кўрсаткичи 46% ни ташкил этишини айтиш лозим.

Ички туристик оқимнинг таҳлили шуни кўрсатадики, асосан мамлакат бўйлаб саёхат қилувчилар Бухоро, Хоразм ва Самарқанд вилоятлари етакчи 3 ликни эгаллайди.



2-жадвал. Ички туризмда 2018 йилда амалга оширилган ташрифлар сони (минг. хисобида)

Амалга оширилган тадқиқотлар натижасида, айрим ҳудудларнинг ички туризмни ривожлантиришга қаратилган чора-тадбирларини кучайтиришлари, давлат дастурини амалга ошириш билан бирга, аниқланган хато ва камчиликларни ечишга қаратилган ишларни амалга оширишни талаб этади, хусусан:

- вилоят, ҳудуд миқёсида ички туристик объектларни аниқлаб, уларнинг бошқа вилоятлар ҳудида фаол тарғиб этилишини таъминлаш;
- халқаро тажрибага таянган холда худуднинг хусусиятидан келиб чиқиб, такрорланмас туристик ресурс, масалан: дам олиш жойи, гастрономик марказлар, сувенир ва хунармандчилик махсулотлари ва ҳ.к.) ёки оммавий тадбирлар, фестивалларнинг доимий тарзда ўтказилишини таъминлаш;
- мавжуд туристик инфротузилмани ривожлантириш;
- жойлаштириш воситаларини кўпайтириш, уларнинг фаолиятини арзонлаштириш ва сифатли хизмат кўрсатилишини таъминлаш;
- чет эл ва маҳаллий саёҳлар оқимини кўпайтиришга қаратилган, ҳудудларнинг брендинг, ребрендинг сиёсатини олиб бориш, туристик бозорда фаолият кўрсатувчи туроператорлар орқали худуднинг туристик салохиятини кенг тарғиб қилиш, туристик дастурларга киритилишига эришиш;
- Wi-Fi интернет зоналари сонини кўпайтириш;
- худудларда дам олиш зоналари купайтириш;
- арзон ва сифатли овқатланиш масканлари сонини кўпайтириш;
- туристик транспорт тизимида фаолият кўрсатувчи автобус, микро автобус хамда бошқа транспорт воситалари хизмат тарификациясини ва тулов миқдорини мавсумийлик хисобида ишлаб чиқиш;

Юқорида таъкидланган муаммоларнинг тўғри ечими, ички туристик оқимининг прогнозлаштирилган 2019 йилнинг сўнггида 2,5 млн. кўрсаткичига олиб келиши мумкин.

Таъкидлаш жоизки, бугунги кунда мамлакатимизда ички туризмни ривожлантиришга қаратилган чора -тадбирлар бугунги куннинг замон талабига мос келиб, бу соҳанинг ривожи аниқ худудларнинг иқтисодий манбаига айланади.

Ким Евгения Андреевна - СамГУдокторант

ПРИРОДНЫЕ И КУЛЬТУРНЫЕ ТУРИСТСКИЕ РЕСУРСЫ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ И ИХ РОЛЬ В РАЗВИТИИ ОТРАСЛИ

Annotation:*The article considers the classification of tourism resources. The natural and cultural tourism resources of the Samarkand region are analyzed and their role in the development of tourism in the region is evaluated.*

Keywords: *natural resources, cultural resources, diversification, ethno-tourism, agrotourism.*

Туризм сегодня – динамично развивающаяся отрасль народного хозяйства Узбекистана. Но, как и любая сфера деятельности, туризм не может возникнуть, не имея предпосылок для своего развития. Одной из основных предпосылок является наличие туристских ресурсов, которые могут быть различными в зависимости от особенностей региона.

Следует отметить, что среди всех видов туризма важнейшую социально-экономическую роль приобрел туризм, основанный на рекреации и направленный на восстановление и развитие физических и духовных сил человека, его трудоспособности и здоровья. Для рекреационно-ориентированного сектора экономики природные ресурсы имеют решающее значение, так как от их качества и количества зависят тип рекреационных услуг и специализация туристско-рекреационных комплексов в целом.

В научной литературе подробно описаны отдельные виды рекреационных ресурсов, которые в зависимости от типа местности называют туристскими или курортными.

Всемирная туристская организация предложила все ресурсы разделить на семь больших групп:

- природные богатства;
- энергетические богатства;
- человеческие ресурсы (с точки зрения демографических данных и аспектов культуры);
- институциональные, политические, юридические и административные аспекты;
- социальные аспекты, особенности социальной структуры, уровень и традиции в сфере образования, здравоохранения и отдыха;
- информационные ресурсы;
- экономическая и финансовая деятельность.

Такая группировка ресурсов позволяет наиболее рационально и комплексно подойти к формированию и оценке туристских продуктов на разных уровнях, включая национальный, региональный и местный.

Особую роль, бесспорно, играют природные ресурсы, которые формируют туристско-рекреационную специализацию региона.

Природные ресурсы с точки зрения их происхождения – это сумма всех физических, биологических и энергоинформационных ресурсов, использование которых зависит от рекреационного спроса и специализации региона.

С точки зрения экономики природными ресурсами являются элементы и силы природы, которые могут использоваться в производственной и непроизводственной сфере для удовлетворения потребностей людей. Общественная полезность природных ресурсов положительно или отрицательно изменяется в результате деятельности человека. Среди многочисленных функций природных ресурсов как средств производства большую актуальность приобретает их использование в качестве средств восстановления духовных и физических сил человека.

Природные ресурсы обладают рекреационным и туристским потенциалом.

Природные рекреационные ресурсы можно классифицировать следующим образом [1]:

- по происхождению;
- по видам рекреационного использования;

- по скорости исчерпания (быстро исчерпаемые, медленно исчерпаемые, неисчерпаемые);

- по возможности самовосстановления и культивирования (возобновимые, относительно возобновимые, невозобновимые);

- по возможности восполнения (восполнимые и невосполнимые);

- по возможности замены одних ресурсов другими

Историко-культурный потенциал страны является основой культурного (познавательного) туризма и включает всю социокультурную среду с традициями и обычаями, особенностями бытовой и хозяйственной деятельности. Минимальный набор ресурсов для познавательного туризма может дать любая местность, но для его массового развития требуется определенная концентрация объектов культурного наследия [1]:

- памятники археологии;
- культовая и гражданская архитектура;
- памятники ландшафтной архитектуры;
- малые и большие исторические города;
- сельские поселения;
- музеи, театры, выставочные залы и др.;
- социокультурная инфраструктура;
- объекты этнографии, народные промыслы и ремесла, центры прикладного искусства, технические комплексы и сооружения.

При посещении другой страны туристы воспринимают в целом культурные комплексы, составной частью которых является природа.
Особенности культуры различных регионов мира все чаще побуждают людей проводить отпуск в путешествии. Объекты, посещаемые туристами, способствуют их духовному обогащению, расширению кругозора. Культура является одним из основных элементов туристского интереса.
Многие регионы богаты такими уникальными историческими территориями, как древние города, усадебные и дворцово-парковые ансамбли, комплексы культурной архитектуры, исторические постройки, историко-культурные памятники и др. Они не должны оставаться застывшими образованиями. При организации уникальных территорий следует сочетать традиционные формы деятельности, исторически сформировавшие эти территории, с инновационными видами, к числу которых относится и туризм. Причем новые виды деятельности должны дополнять, а не подавлять сложившиеся хозяйственные, социокультурные и природные процессы.

При развитии туристской инфраструктуры важно не нарушать исторический облик территории. Каждый вновь создаваемый туристский центр (объект) должен соответствовать национальным особенностям и традициям и одновременно иметь свой неповторимый облик. Создание природно-исторических парков должно содействовать спасению ценнейших памятников истории и культуры как целостных архитектурно-ландшафтных и культурных комплексов. Необходимо осуществлять охрану и восстановление памятников культуры и истории рукотворного, природного и традиционного ландшафтов, которые также рассматриваются как непреходящие исторические ценности, национальноедостояние.

Культурное, историческое и природное наследие принято делить на следующие категории:

- достояние, используемое в основном туристами (фестивали, представления, памятники и др.);

- достояние смешанного пользования (менее значительные исторические памятники и музеи, театры, заповедники и др.);

- достояние, используемое в основном местным населением (гражданские сооружения, культовые объекты, кинотеатры, библиотеки и др.).

В настоящее время в Узбекистане ведется полномасштабная работа по эффективному использованию имеющегося в стране туристского потенциала, его дальнейшему

укреплению и совершенствованию. Об этом свидетельствуют и цифры, по данным Госкомтуризма, за 8 месяцев текущего года посетило более 4,3 млн. иностранных туристов, что на 26,7 процента больше, чем за аналогичный период прошлого года. Растущий интерес туристов к нашей стране связан в первую очередь с имеющимися на её территории туристскими ресурсами.

Узбекистан располагает ресурсами для развития различных видов туризма. Богатое культурно-историческое наследие, древние традиции ремесел и искусства привлекают в страну поклонников культурно-познавательного, археологического и этнографического туризма. Наличие значимых для последователей трёх крупнейших мировых религий (ислама, христианства и буддизма) мест поклонения служит основой для развития паломнического туризма. В Узбекистане находится огромное количество уникальных природных объектов (озёр, горных вершин, речных пойменных лесов, степных и пустынных ландшафтов), что способствует развитию приключенческого и экологического туризма.

Одним из лидеров туристской индустрии в республике, бесспорно, считается Самаркандская область. Ведь именно Самарканд признан одним из 50 городов мира, которые необходимо посетить. На территории Самаркандской области расположено 473 архитектурных сооружений и 5 археологических памятника. С 2001 года эти археологические памятники были внесены в Список Всемирного наследия ЮНЕСКО под названием «Самарканд – перекрёсток культур». Кроме исторического наследия в регионе имеется огромный потенциал для развития такого перспективного направления как паломнический туризм, здесь находится 23 объекта, которые представляют значительный интерес для этой категории туристов.

Кроме того в области функционирует 7 лесных хозяйств, 5 заповедников и 3 экопарка. Также в связи с активным развитием экологического туризма в настоящее время в Самаркандской области действуют 5 объектов экоагротуризма, а до конца года их количество планируется увеличить до 9.

По итогам 2018 года область посетило 2,456 млн. иностранных и местных туристов, прогноз на 2019 год составляет более 3 млн. человек.

Принятая в сентябре текущего года «Дорожная карта» по дальнейшему развитию туризма в Самаркандской области на 2019-2022 годы определила следующие приоритетные направления работы по достижению поставленных целевых параметров:

1. Дальнейшее развитие сферы туризма и увеличение количества иностранных и местных туристов;
2. Создание и строительство новых инфраструктурных объектов в сфере туризма;
3. Развитие придорожной инфраструктуры на основных автомагистралях, проходящих через Самаркандскую область;
4. Развитие этно, агро, экстремального, горного и экологического туризма в области;
5. Продвижение туристкого бренда«Samarkand»;
6. Подготовка и повышение квалификации кадров в сфере туризма[2].

Исходя из вышеперечисленного, можно сделать вывод о том, что только наличие туристских ресурсов конечно важный, но далеко не единственный фактор успешного развития туристского региона. Используемый в «Дорожной карте» комплексный подход предполагает развитие не только туристкого потенциала Самаркандской области, но необходимой для его эффективного функционирования инфраструктуры, начиная со средств размещения и предоставления услуг питания, заканчивая мельчайшими деталями, например, такими как установка туристских дорожных знаков.

При этом необходимо не забывать и про диверсификацию туристкого продукта. Самарканд, несомненно, всегда ассоциировался с культурно-познавательным туризмом, но на сегодняшний день не только это должно привлекать в регион туристов. Нужно развивать альтернативные виды туризма, тем более что объектов, вызывающих интерес достаточное количество. Например, этнотуризм на территории поселков «Эрганкли» и «Гиждувон», агротуризм в селах «Кук-ота» и «Мавлум», экстремальный и горный туризм в Миронкуле и

Агалыке, экологический туризм в Аманкутане и т.д. Развитие данного направления в будущем позволит сглаживать сезонные туристские колебания спроса, который является самой острой проблемой в сфере туризма.

В целом в регионе за последние 3 года уже проделана огромная работа по наращиванию туристкого потенциала с использованием всех имеющихся на территории области ресурсов. В течение следующих трех лет ожидается рост всех основных показателей, например экспорт туристских услуг должен увеличиться с 139 млн.дол. до 558, а количество иностранных посетителей удвоится. При достижении такого уровня можно будет говорить не только о количественных, но и о качественных изменениях в сфере туризма, которые повлекут за собой кардинальные преобразования всей экономики региона.

Список использованной литературы

1. Биржаков, М.Б. Введение в туризм: Учебник. – Издание 7-е, переработанное и дополненное. – СПб.: «Невский дом Герда», 2004

2. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по эффективному использованию и развитию туристского потенциала Самаркандской области» 30.09.2019. URL: http://lex.uz/ru/docs/4532224

Остонов Ў.Я - СамИСИ катта ўқитувчиси

ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДА ТУРИЗМ ИНФРАТУЗИЛМАСИ САЛОҲИЯТИ

Аннотация: *В данной статье описывается высокий уровень туристической инфраструктуры, туристической инфраструктуры в Узбекистане: высококачественные гостиничные,транспортные, продовольственные, рекреационное, лечебные и другие развлекательные услуги и также эффективное использование ресурсов сельского туризма.*

Ключевые слова: *питание, отдых, лечение, развлекательные услуги, сети связи, морские и речные дороги, тепло, электрические и телефонные коммуникации, службы пограничного контроля.*

Abstract:*This article describes the high level of tourism infrastructure, tourism infrastructure in Uzbekistan: high qualityservices of hotel, transport, food, recreation,treatment and other entertainment and also other efficient use ofrural tourism resources.*

Keywords: *Food, Recreation, Treatment, Entertainment Services, Communication Networks, Sea and River Roads, Heat, Electrical and Telephone Communications, Border Control Services.*

Туризмни ривожлантириш учун мавжуд туристик ресурслардан самарали фойдаланишни таъминлаш билан бирга, ҳар бир минтақанинг туризм инфратузилмасини талаб даражасида ривожлантириш муҳимдир.[71]

Туризм инфратузилмаси деганда–туристларнинг туристик ресурсларидан фойдаланишни таъминловчи бинолар тизими, муҳандислик ва коммуникация тармоқлари, шу жумладан, йўллар, туризмнинг хилма-хил корхоналари ҳамда туризм корхоналарининг ишлатилишини таъминлаш учун имкон яратишга хизмат қиладиган объектлар мажмуи тушунилади. Бу автомобил ва темир йўллари, йўл ҳаракатини, ҳаво йўлларини, денгиз ва дарё йўллари ҳаракатини тартибга солувчи тизимлар, иссиқлик, электр ва телефон алоқалари билан таъминлаш ва бошқалардир. Бугунги кунда Ўзбекистон Республикасида “Туризм тўғрисида”ги қонун, ҳамда 2006-2010 йилгача Ўзбекистонда туризмни ривожлантириш бўйича давлат дастури тўғрисида қатор меъёрий ҳужжатлар туристик инфратузилмаларни ривожлантириш учун кучли давлат дастури бўлиб хизмат қилмоқда. Лўнда қилиб айтадиган бўлсак, бу муаммони ҳал қилишнинг қонуний асослари яратилди.

[71]Тураев Б.Х. Теоретико – методологические основы развития туризма. -Т.: изд. «Фан», 2008.– 89 с.

Республикамизда 20 дан зиёд туристик йўналишлар чет эллик туристларни ўзига жалб этиб келмоқда. Бу йўналишлар асосан ЮНЕСКО томонидан ишлаб чиқилган маданий танишувлар дастури асосида тайёрланган бўлиб, бунда Ўзбекистон Марказий Осиёдаги мувофиқлаштирувчи марказлардан бири сифатида кўрсатилган.

Ўзбекистонда туризм инфратузилмасини ривожлантиришда барча инфратузилма объектларини жаҳон андозалари даражасига етказиб, туристлар талабини қондирадиган даражага кўтариш керак. Бунинг учун туризм инфратузилмасининг таркибий қисмлари: меҳмонхона, транспорт, озиқ-овқат, дам олиш, даволаш ва бошқа кўнгилочар хизматларни юқори даражада ташкил этиш лозим бўлади.

Қишлоқ туризми туристик ресурслардан самарали фойдаланишда***транспорт тузилмасининг***роли ваҳиссаси катта.[72]Ўзбекистонда туризмнинг ривожланишига «Ўзбекистон Ҳаво Йўллари» миллий авиакомпаниясининг ҳам салмоқли улуши қўшилмоқда. Ҳозирга кунда миллий авиакомпаниямиз тасарруфида 12 та аэропорт мавжуд бўлиб, улардан олтитаси - Тошкент, Самарқанд, Бухоро, Урганч ва Термиз аэропортлари халқаро мақомга эга. Бу даражага ҳозирги кунда Навоий шаҳри аэропорти ҳам қўшилмоқда.

Тошкент аэропорти 2001 йилда қайта таъмирдан чиқарилган бўлиб, унда соатига 1000 йуловчига хизмат кўрсатиш имконияти пайдо бўлди. Ҳар йили Тошкент аэропорти хизматларидан 2 миллиондан ортиқ киши фойдаланади. Тошкент аэропортида йўловчилар учун кенг ва қулай мебеллар билан жихозланган кутиш майдонлари, кун бўйи ишловчи паспорт, божхона, чегара назорати хизматлари, маълумотхона, юкларни конвейерда ташиш хизматлари, халқаро телефон, чипталарни сотиб олиш ва бандлаш кассалари, Duty-free дўконлари, ресторанлар, барлар, тамаддихоналар, валюта айирбошлаш пунктлари, ўта нуфузли меҳмонларга хизмат кўрсатиш VIP майдони, қулайлиги оширилган CIP майдони каби хизматлар ташкил этилган. Тошкент аэропорти дунёда ишлаб чиқарилаётган барча самолёт турларини қабул қилиши мумкин.

Самарқанд аэропорти соатига 400 йўловчига хизмат кўрсатиш салоҳиятига эга. Самарқанддан Тошкент, Москва, Санкт-Петербург, Симферопол, Қозон шаҳарларига, шунингдек, Япония ва Европа мамлакатларига учиш ва улардан авиайўловчиларни қабул қилиш мумкин. Аэропортда VIP ва CIP майдонлари, кутиш майдонлари, она ва бола хонаси, тиббиёт пункти, авиакассалар, почта хизмати хонаси, халқаро ва шаҳарлараро телефон хизмати, барлар, ресторан, валюта айирбошлаш шоҳобчаси каби хизмат турлари мавжуд. Ҳозирги кунда янги «Duty-free» дўкони очилиши устида иш олиб борилмоқда.

Бухоро шаҳрининг янги аэропорти 1997 йилда ишга туширилиб, халқаро мақомга 1999 йилда эришган, соатига 150 йўловчига хизмат кўрсатади. Унда кенг кутиш майдони, буфетлар, дўконлар, тиббиёт пункти, юкларни сақлаш хонаси, миллий анъаналарда безатилган VIP ва CIP майдонлари мавжуд. Бухоро аэропортидан Тошкент, Москва, Санкт-Петербург каби йирик шаҳарларга, шунингдек МДҲ мамлакатлари ва бошқа давлатларга учиш мумкин.

Янги Урганч аэропорти соатига 300 йуловчига хизмат кўрсатади. Унда кутиш майдони, тиббиёт пункти, барлар, кафе, валюта айирбошлаш шоҳобчаси, сувенирлар дўкони мавжуд. Аэропортдан Тошкент, Москва шаҳарларига ва дунёнинг бошқа мамлакатлари билан алоқа ўрнатилган.

Ўзбекистон туризмининг ривожланишига «Ўзбекистон темир йўллари» давлат акциядорлик темирйўл компанияси ҳам ўзининг ҳиссасини қўшмоқда. Бу ташкилот 1994 йилнинг 7 ноябрида ташкил этилган бўлиб, Ўзбекистон ҳудуди бўйлаб 4000 километрга яқин узунликдаги темир йулларга эга. Ташкилот томонидан Тошкент-Самарқанд, Тошкент-Бухоро, Тошкент-Қарши шаҳарлари орасида шинам тезюрар поезд қатнашининг ташкил

[72]Ўзбекистонда меҳнат ва бандлик. Ўзбекистон республикаси давлат статистика қўмитаси статистик тўплами. Т.: 2015,19-21б.

этилиши туристлар учун катта қулайликлар яратиб берди. Ташкилот томонидан Самарқанддан Сурхондарё вилоятига ўтувчи темир йул тизими такомиллаштирилмоқда, бу ҳам туристларнинг ҳаракатланишини енгиллаштиради. Шунингдек, мустақил Ўзбекистон асосий тармоғи бўлиб ҳисобланган халқаро Трасека лойиҳаси асосида Тошкентдан Фарғона водийси орқали қўшни мамлакатларга чиқиб кетувчи темир йўлнинг қурилиши ҳам Ўзбекистонга келувчи халқаро туристик оқимини орттириши мумкин. Кейинги йилларда барпо этилган, умумий узунлиги 633 километрни ташкил қиладиган Навоий-Нукус, 233 километрлик Тошгузар-Бойсун-Қумқўрғон темир йўл магистраллари, Қамчиқ довони орқали ўтадиган тезкор автомобиль йўли ҳам чекка ҳудудлардаги туристик ресурслардан фойдаланишга имкон беради. Бу йўллар мамлакатимизнинг барча ҳудудларини ягона транспорт тармоғига ишончли тарзда бирлаштириб, туризм инфратузилмасини ривожлантиришда муҳим омил бўлади.

Қишлоқ туризми туристик ресурслардан фойдаланиш самарадорлигини оширишда **меҳмонхона хизматларини** ривожлантириш асосий ўринни эгаллайди. Мехмонхона хизматларининг сифатини бошқариш масалаларини ҳал қилишда мехмонхоналарни шинамлик даражасига караб таснифлаш катта роль уйнайди. Бундан ташқари, ходимларга ва уларнинг тайёргарлиги: маълумоти, малакаси, ёши, соғлиги, чет тилларни билиши, ташқи кўринишига ҳам бир қанча талаблар қўйилади. Мамлакатимизда ҳозирги кунда кўплаб меҳмонхоналар қурилмоқда. Айниқса, хусусий туристик меҳмонхоналар сони ошиб бораяпти, жумладан, биргина Самарқанд шаҳрида ҳозирги кунда 50 тадан ортиқ замонавий ва миллий услубда қурилган меҳмонхоналар фаолият кўрсатмоқда. 2008 йил мобайнида замонавий ва миллий услубда қурилган 10 та меҳмонхона ишга туширилиб, меҳмонхоналарни қабул қилиш қуввати яна 320 ўринга кўпайди. Бу ҳолат 2008-2010 йилларда ҳам давом этди. Бу ерда асосий мақсад сифатли хизмат кўрсатишни таъминлашдир.

Овқатлантириш инфратузилмасида меҳмонхоналар қошидаги ёки якка тарзда ресторан, бар, кафелар, яхши ишлаб нафақат туристларга, балки маҳаллий аҳолига ҳам хизмат кўрсатмоқда. Айрим овқатлантириш объектлари юқори даражада хизмат кўрсатиш усулларини ўзлаштирган бўлсада, айримларида эса аҳвол талабга жавоб бермайди. Уларда хизмат кўрсатиш-нинг сифат даражаси анча паст. Агар овқатлантириш объектларида санитария ҳолати назорат қилиниб, овқатлар ва хизмат кўрсатишнинг турли иш шакллари жорий этилса, янада каттароқ ижобий ютуқларга эришиш мумкин.

Ҳозирги пайтда туризмнинг ривожланишида **банк ва молиявий ташкилотлар** хизматларининг ўрни катта. Туристлар саёҳатда ва дам олишда хилма-хил молиявий хизмат турларидан фойдаланишни ҳоҳлайди-лар. Яъни, ўз ҳоҳиши бўйича бирор нарса сотиб олишни исташади. Бунда улар кўнгил очиш учун ҳар куни кўп микдорда пул сарфлашади. Шу сабабли бу хизмат турини такомиллаштириш туристларга қўлайликларни яратади. Бу соҳада ҳам такомиллашиши лозим бўлган катта имкониятлар мавжуд.

Ахборот хизмати ҳам қишлоқ туризми туристик ресурслардан унумли фойдаланиш учун жуда зарурдир. Турист саёҳатга тайёрланаётганда ҳамда саёҳат вақтида ўзи борадиган жой ҳақида, ўша мамлакат ёки борадиган ҳудуднинг қонун-қоидалари, одатлари, меҳмондўстлиги ҳақидаги қўшимча маълумотларга, шунингдек, ўша жойнинг харитасига, транспорт магистраллари схемасига мухтож бўлади. Саёҳат ва туристларнинг саргузаштлари ҳақидаги маълумотлар оммабоп ва махсус адабиётлар кўринишида чоп этилади ва бу ҳолат туристларни саёҳат қилишга чорлайди. Туризмда бўлажак туристларга бепул тарқатиладиган ахборотларни ранг-баранг кўринишида чоп этишга эътибор қаратиш лозим. Бунда туристлар ва туризм хизматлари учун ахборот CD ROM дискларини чоп этиш катта самара беради.

Туризм инфратузилмасини замонавий компьютер хизматисиз тасаввур этиб бўлмайди. Тезкор ахборот ва сўзлашув, янгиликлардан хабардорлик туризмнинг муҳим талабидир. Замонавий электрон воситалари, шу жумладан, туристик хизматлар, туристик марказлар ҳақидаги маълумотлар жойлашган миллионлаб сайтларга эга бўлган интернет тармоқлари нафақат саёҳат ва туристик агентликларни танлаш, ҳаттоки, тур саёҳатнинг чипталари,

хизматлар учун тўловларни ҳам олдиндан тайинлаб қўйиш мумкин. Туризм ташкилотчилари ахборот хизматидан кенг кўламда фойдаланишни янада такомиллаштиришлари лозим.

Турсунов А. А. - Ўзбекистон Республикаси
Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви
академиясининг Қарши ҳудудий филиали
бош мутахассиси

ЎЗБЕКИСТОНДА МАДАНИЙ-МАЪРИФИЙ ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МИЛЛИЙ МЕРОС РЕСУРСЛАРИНИНГ РОЛИ

Аннотация: *Роль ресурсов национального наследия в развитии духовного-культурного туризма в Узбекистане*

Ключевые слова*: Туризм, ІА Каримов, Самарканд, ООН, Ш.М. Мирзиёев, ЮНЕСКО, Самарканд, Бухара, Хива, Шахрисабз, Ибн Сина, Амир Темур, ИСЕСКО.*

Annotation: *The role of national resource in the national economy in Uzbekistan*

Keywords: *Tourism, IA Karimov, Samarkand, UNO, Sh.M. Mirziyoyev, UNESCO, Samarkand, Bukhara, Khiva, Shakhrisabz, Ibn Sina, Amir Temur, ISESCO.*

Туризм XX асрнинг охирларида жаҳон иқтисодиётининг энг муҳим тармоқларидан бирига айланиб улгурди ва бугунги кунда унинг аҳамияти тобора ортиб бормоқда. Туризм тараққиёти ҳар қандай давлат иқтисодиётига сезиларли ижобий таъсир кўрсатади ва валюта тушумлари ҳажмининг ўсишига олиб келади. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти И.А. Каримов Самарқанд шаҳрида БМТ Жаҳон Сайёҳлик ташкилоти Ижроия кенгаши 99-сессиясининг очилиш маросимидаги нутқида шундай деган эди: “Туризм қадим замонлардан бошлаб сайёрамиз халқлари ўртасида дўстлик ришталарини мустаҳкамлашга хизмат қилган. Одамлар янги ўлкаларни кашф этиш, дунёни кўриш ва билиш, савдо-сотиқни ривожлантириш, маданий ва дипломатик алоқаларни ўрнатиш мақсадида саёҳатга чиққанлар. Савдо карвонлари йўллари кесишган, маданиятлар ва цивилизациялар туташган чорраҳада жойлашгани учун Марказий Осиё минтақаси бу жараёнда муҳим ўрин тутган”[73].

Президент Ш.М. Мирзиёевнинг мазкур тармоққа бўлган алоҳида эътибори туфайли Ўзбекистоннинг бой туристик имкониятларидан самарали фойдаланиш, сайёҳлик салоҳиятини ошириш мақсадида узоқ истиқболга мўлжалланган ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Хусусан, 2016 йилдан бошлаб туристик соҳани ривожлантириш мақсадида Ўзбекистон ҳукумати томонидан бир қатор меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинди. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 2 декабрдаги ПФ-4861 сонли “Ўзбекистон Республикасининг туризм соҳасини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 16 августдаги ПФ-3217 сонли “2018-2019 йилларда туризм соҳасини ривожлантири бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги фармони, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 3 февралдаги ПФ-5326 сонли “Ўзбекистон Республикаси туризм салоҳиятини ривожлантириш учун қулай шароитлар яратиш бўйича қўшимча ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги фармони, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 6 февралдаги 3509-сонли “Кириш туризмини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 февралдаги ПҚ-3514 сонли “Ички туризмнинг жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори кабиларни киритиш мумкин[74].

Марказий Осиёнинг қоқ юрагида жойлашган Ўзбекистонда қадимий маданиятлар бешиги бўлган, ЮНЕСКОнинг бутунжаҳон мероси рўйхатига киритилган Самарқанд, Бухоро, Хива, Шаҳрисабз каби тарихий шаҳарларимиздан ташқари, мамлакатимизнинг

[73] Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг БМТ Жаҳон сайёҳлик ташкилоти Ижроия кенгаши 99-сессиясининг очилиш маросимидаги нутқи // «Халқ сўзи”, 2014 йил 3 октябрь.
[74] Lex.uz.

бошқа исталган ҳудудида экологик туризм, агротуризм, зиёрат туризми, гастрономик туризм ва бошқа йўналишларни ривожлантириш имкониятлари катта.

Маълумки, маданий-маърифий туризм туризмнинг энг оммавий турларидан ҳисобланади. Бу туризмнинг бош мақсади тарихий, меъморий, санъат ёдгорликлари, табиий ва этник ўзига хосликлар, бирор халқнинг замонавий турмуши кабилар билан танишишдан иборат. Айнан маданий-маърифий туризм бугунги кунда дунёда тобора катта қизиқиш уйғотмоқда.

Ҳақиқатан ҳам, Ўзбекистон ўзининг бой тарихи ва маданияти билан туризмнинг ривожланиши учун юқори имкониятларга эга. Мамлакатимиз ҳудудида 4000 га яқин моддий-маънавий обида умумжаҳон меросининг ноёб намунаси сифатида ЮНЕСКО рўйхатига киритилгани ҳам бу фикрни тасдиқлайди[75]. Эътиборлиси шундаки, ушбу меъморий ёдгорликларнинг кўпчилиги мустақиллик туфайли қайта таъмирланди. Ушбу ёдгорликларнинг кўпчилиги XII – XX асрларга мансуб, бироқ улар орасида IV – IX асрларга оид ёдгорликлар ҳам учрайди. Шунингдек, ундан ҳам қадимийроқ маданий ёдгорликлар ҳам юртимиз ҳудудлари бўйлаб сақланиб қолганки, бу дунё сайёҳларининг Ўзбекистонга бўлган қизиқишини янада орттиради. Жумладан, Бухоронинг шимоли ва шимоли-шарқида жойлашган Сармиш, Нурота тоғ тизмаларида, Сурхондарё вилоятида ибтидоий жамоа тузумига хос ёдгорликлар шулар қаторига киради.

Самарқанд, Бухоро, Хива, Шаҳрисабз каби шаҳарлардаги тарихий обидалар дунё тарихчилари ва сайёҳларининг доимо диққат марказида бўлиб келган. Бу шаҳарлар нафақат ўзларининг ёдгорликлари, масжидлари, мадрасалари, мақбаралари билан, балки бу ҳудудларда Ал Хоразмий, Беруний, Ибн Сино, Ат Термизий, Амир Темур, Улуғбек, Навоий, Бобур каби буюк алломаларимиз яшаб ижод қилганлиги боис ҳам машҳурдир.

Юртимизга келаётган сайёҳларнинг кўпчилиги халқимизнинг бой маданияти, фольклори ва этнографиясига, миллий қадриятларимизга катта қизиқиш билан қарайдилар. Шундан келиб чиқиб, Самарқандда маданий-маърифий туризм маршрутига “Шарқ тароналари” халқаро мусиқа фестивали, Шердор ва Мирзо Улуғбек мадрасаларида фольклор гуруҳларининг концерт дастурлари, туманларда “Чавқи”, “Бешқарсак”, “Сарбози” фольклор жамоаларининг чиқишлари, Регистонда 3D шоуси, “Эл-мероси” миллий маданий театри, “Улоқ-кўпкари” ўйинлари, алла айтиш, чақалоқни бешикка белаш маросимларини намойиш этиш қўшилди. Шунингдек, янги – таълим туризми ҳам киритилган бўлиб, бунда энг оммалашган маскан Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази ва Ҳадис илми мактабидир[76].

Минтақадаги қадимий цивилизация бешикларидан бири бўлган Бухорода ҳам туризм салоҳиятини ошириш мақсадида маҳаллий ва чет эллик сайёҳлар учун ҳар йили «Ипак ва зираворлар» фестивали, «Палов сайли», «Қовун сайли», Ибн Сино таваллудига бағишланган илмий-амалий конференция, «Миллий анъаналар» фестивали каби тадбирлар доимий ўтказилиб келинмоқда. Хусусан, 2016 йил 26–28 май кунлари XV халқаро «Ипак ва зираворлар» фестивали ва унинг доирасида «Бухорога хорижий сармояларни, замонавий технологиялар ва инновацион лойиҳаларни жалб қилиш – туризм соҳасини ривожлантириш, хизмат кўрсатиш тизимини янгилаш ҳамда халқаро тан олинган маданий мерос объектларини сақлаб қолишнинг бош мезони сифатида» мавзуидаги халқаро илмий-амалий конференция ўтказилди[77].

Шунингдек, кўплаб қадимий шаҳарлар қолдиқларида олиб борилган археологик қазишма ишлари, табиий қўриқхоналаримизда кўпайтирилаётган ноёб ҳайвонлар билан танишиш ҳам маданий туризм ихлосмандларида кўплаб таассуротлар қолдириши мумкин. Республикамиз ҳукумати шу ҳолларни инобатга олган ҳолда кўплаб хайрли тадбирларни

[75] Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. – Тошкент: “Маънавият”, 2008. – Б. 22-23.

[76] http://uza.uz/oz/society/samar-and-zha-on-turizm-markaziga-aylanadi--22-07-2019

[77] Халилова М. Бетакрор улуғвор маданий мерос // O’zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. – №3. – 2017. http://evu.uz/magazine/betakror-va-ulug-vor-madaniy-meros.html

амалга оширмоқдаки, бу ишларнинг натижаси туризмнинг ривожланишига бевосита турки бермоқда. Масалан, кўплаб диний-маданий зиёратгоҳларимиз капитал таъмир этилди ва мутафаккирларимизнинг муборак юбилейлари нишонланди(Ал-Бухорий, Абдухолиқ Ғиждувоний, Баҳовуддин Нақшбандий, Ал-Мотуридий, Амир Темур ва бошқалар). Бухоро, Хива, Шаҳрисабз шаҳарларинг юбилейлари, «Алпомиш» достонини юбилейини нишонлаш тадбирлари натижасида кўплаб ёдгорликларимиз янада равнақ топишди.

Шу ўринда Президентимиз ташаббуси билан 2018 йилда Самарқанд халқаро “Ипак йўли” туризм университети ташкил этилганини алоҳида таъкидлаш керак[78]. Шубҳасиз, мазкур университет туризм соҳасида юқори малакали кадрлар тайёрлаш орқали мамлакатимизнинг туризм тараққиётига хизмат қилади. Шунингдек, Президентимиз ташаббуси билан Шаҳрисабзни йирик туризм марказларидан бирига айлантириш, ҳудуднинг сайёҳлик салоҳиятини ошириш мақсадида у “Фестиваллар шаҳри” деб эълон қилинди. Шундан келиб чиқиб, тегишли вазирлик ва идоралар, маҳаллий ҳокимликлар билан ҳамкорликда йил давомида ўтказиладиган тадбирлар ва фестиваллар режаси ишлаб чиқилди. Шаҳарда экотуризм, экстремал туризм, этнотуризм, гастрономик туризм, зиёрат туризмини ривожлантириш учун табиий имкониятлар етарли. Мамлакатимиздаги энг баланд чўққи ва энг катта музлик Ҳисор тоғ тизмаларида эканлиги, Тошқўрғон қишлоғида динозаврларнинг тош қотган излари сақланиб қолингани, сир-синоатларга бой Амир Темур ғорининг Шаҳрисабзга яқинлиги юқоридаги туризм турларининг ривожланишига имконият туғдиради[79]. Хусусан, биргина Шаҳрисабз шаҳрининг ўзида Халқаро мақом фестивали, Наврўз умумхалқ байрами кунларида Халқаро миллий либослар фестивали, кўпкари ва кураш халқ ўйинлари ўтказилади. Шунингдек, “Шаҳрисабз – ҳунармандлар маскани” фестивали, “Shahrisabz music dance” мусиқа фестивали, “Ҳисор тоғлари” экофестивали, “Анор” агротуризм фестивали ташкил этилади[80].

Кейинги йилларда дунё миқёсида муқаддас жойлардан фойдаланган ҳолда этнографик, экологик ва зиёрат туризмини ривожлантириш масаласи етакчилик қилмоқда. Туризмнинг энг фаол ва ривожлантиришда катта имкониятларга эга турларидан бири зиёрат туризми бўлиб, давлат томонидан катта аҳамият берилган. Чунки саёҳатчилар (зиёратчилар) зиёрат давомида озиқ-оавқат истеъмол қилади, яшаш учун пул тўлайди ва турли хизматлардан фойдаланади, шу асосда зиёратгоҳ ҳудудида янги иқтисодий инфраструктуралар шаклланади. Бу борада Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 16 август кунги "2018-2019 йилларда туризм соҳасини ривожлантириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида"ги фармони, 2019 йил 13 августдаги “Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасиини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармонлари аҳамиятга эга[81].

Зиёрат туризми бу турли хил конфессияларнинг ўз динига бўлган ҳурмати ва эътиқоди нуқтаи назаридан муқаддас қадамжолар, шаҳарлар, қабристон ва азиз саналган масканларга зиёрат қилишдир[82].

Чиндан ҳам, зиёрат туризми, яъни муқаддас жойларни зиёрат қилиш икки асосий, яъни маърифий саёҳатларга йўналтирилган ҳаж ва диний туризмдан иборат. Шу маънода, “Ислом динининг қуввати” дея эътироф этиладиган Бухорога саёҳат қилиш учун ҳар йили дунёнинг турли бурчакларидан минглаб сайёҳлар келадилар. Улар пайғамбаримиз Муҳаммад саллолоҳу алайҳи вассаламдан бошланган “олтин силсила”нинг давомчилари бўлган етти

[78] Ўзбекистон Республикаси Президенти Қарори “Ипак йўли” туризм халқаро университетини ташкил этиш тўғрисида // «Халқ сўзи”, 2018 йил 29 июн, № 131. – Б. 1-2.

[79] “Фестиваллар шаҳри” сайёҳликнинг янги марказига айланмоқда // «Халқ сўзи”, 2019 йил 13 феврал июн, № 30. – Б. 1, 4.

[80] “Фестиваллар шаҳри” сайёҳликнинг янги марказига айланмоқда // «Халқ сўзи”, 2019 йил 13 феврал июн, № 30. – Б. 4.

[81] Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармони “Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасиини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармон // «Халқ сўзи”, 2019 йил 15 август, № 167. – Б. 1-2.

[82] Бабкин А.Б.Специальные виды туризма. Учебное пособие. – Ростов-на-Дону, 2008. – С.11-12.

пир – Абдуҳолиқ Ғиждувоний, Муҳаммад Ориф Ревгарий, Маҳмуд Анжир Фағнавий, Хожа Али Ромитаний, Муҳаммад Бобойи Самосий, Саййид Амир Кулол ва Баҳоуддин Нақшбанд зиёратгоҳлари, шунингдек, табаррук манзилларни зиёрат қиладилар[83].

Президент Ш.М.Мирзиёев ташаббуси билан шу йилнинг 21-23 феврал кунлари Бухорода илк маротаба I Халқаро зиёрат туризми форуми бўлиб ўтди. Ислом дунёсидаги Қуръони Карим намуналаридан бир – Ҳазрати Усмон Мусҳафи Ўзбекистонда сақланаётгани, ҳадис илми олимларининг устози Муҳаммад ал-Бухорий, Нақшбандия тариқатининг кўплаб етук издошлари юртимиздан етишиб чиққан, бир қанча диний марказларнинг мавжудлиги Ўзбекистоннинг зиёрат туризми бўйича салоҳияти юқорилигини билдиради[84].

Мазкур форумда икки томонлама учрашувлар давомида мамлакатнинг туристик имкониятлари ва салоҳияти тарғиботига йўналтирилган ҳамкорлик масалалари ҳамда қўшма лойиҳалар муҳокама қилинди. Шунингдек, Ўзбекистоннинг ислом оламида зиёрат туризмининг энг йирик марказларидан бири сифатида халқаро эътироф этилиши масаласига урғу берилди. Айниқса, бир неча асрлардан буён ислом маданияти пойтахти сифатида намоён бўлиб келган "Қуббатул Ислом" – Бухоро шаҳри 2020 йили Ислом ҳамкорлиги ташкилоти Таълим, фан ва маданият масалалари бўйича Ислом ташкилоти (ISESCO) томонидан Бухоро бошқа шаҳарлар қаторида Ислом маданиятининг пойтахти деб эълон қилингани эътиборга сазовор[85]. Бу ҳам Ўзбекистонга хорижий сайёҳлар ва зиёратчиларнинг янада кўпроқ ташриф буюришига хизмат қилади.

Мазкур Халқаро форум доирасида Ўзбекистоннинг зиёрат туризм марказларидан бири сифатида тан олинишига доир Бухоро декларацияси имзоланди. Бухоро декларациясининг имзоланиши Ўзбекистон тарихидаги муҳим ҳодиса бўлиб, ушбу ҳужжат республикада сайёҳлик инфратузилмасининг ривожланишига ва умуман туристик оқимнинг янада кўпайишига кучли туртки беради.

Юқоридагилардан келиб чиқиб Ўзбекистонда маданий туризмни янада ривожлантириш имкониятлари юқори бўлиб, унинг ривожланиши мамлакатимизнинг халқаро алоқаларини ривожланишига ижобий рол ўйнайди. Халқаро алоқаларнинг ривожланиши эса халқимизнинг бошқа миллатлар билан янада яқинлаштиради, ўзаро ҳамкорликни кучайтиради. Ўзаро ҳамкорликнинг кучайиши Ўзбекистонга кириб келаётган хорижий инвестицияларнинг ўсишига олиб келади.

KITOB DAVLAT GEOLOGIK QO'RIQXONASINING TURIZM SOHASIDAGI O'RNI

Egamberdiyev S. S - SamISI talabasi
Tursunova G.R - SamISi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: *Maqola O'zbekiston Respublikasining Qashqadaryo viloyatida joylashgan tabiiy, etnografik va arxeolik-tarixiy resusrlardan tashkil topgan Kitob davlat Geologik qo'riqxonasi va uni turizm sohasi rivojlanishidagi o'rni haqida yoritilgan.*

Kalit so'zlar*: turizm, Kitob davlat geologik qo'riqxonasi, ekskursiya, milliy bog', arxeologiya.*

O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi sayyohlar uchun noyob sayyohlik yo'nalishi bo'lgan «Kitob davlat geologik qo'riqxonasi»ni ochishni rejalashtirmoqda. Qo'riqxonadagi xududlar, tozalangan yo'llar va kuzatuv maydonchalari 370-470 million yil oldin shakllangan qadimgi marjonlarni, dengizdagi cho'kindi jinslarni ko'rish imkonini beradi. Ular mavjud bo'lgan davrda qazilma organizmlar va o'simliklar tuzilishining noyob qoldiqlari saqlab qolingan. Qo'riqxona tashkil qilishdan maqsad xududidagi geologik qismni butun dunyoga tanishtirish va uning ilm-fan, tarix, madaniyat,

[83] Ўзбекистон зиёрат туризмининг янги марказига айланмоқда // «Халқ сўзи", 2019 йил 22 феврал июн, № 37. – Б. 3.
[84] Ўзбекистон зиёрат туризмининг янги марказига айланмоқда // «Халқ сўзи", 2019 йил 22 феврал, № 37. – Б. 1.
[85] Бухоро Декларацияси: Ўзбекистон зиёрат туризми марказларидан бири сифатида эътироф этилди // «Халқ сўзи", 2019 йил 23 феврал июн, № 38. – Б. 1, 4

qolaversa, turizm sohasi uchun ahamiyatini namoyish etishdir. Qayd etilishicha, hozirgi kunda Vazirlar Mahkamasi ushbu qo'riqxonani Milliy bog' maqomiga o'zgartirish to'g'risidagi taklif loyihasini ko'rib chiqdi. Bu esa noyob tabiiy zonani o'z ko'zlari bilan ko'rish istagini har bir tashrif buyuruvchiga yaxshi imkoniyat eshigini ochadi.

Dunyoda ko'plab noyob tabiiy yodgorliklar mavjud. Kitob davlat geologiya qo'riqxonasi shular jumlasidandir. 1979 yilda Qashqadaryo viloyati Kitob tumanida tashkil etilgan ushbu qo'riqxona tabiiy geologiya asoslari - stratigrafiya, paleontologiya, sedimentologiya va boshqa sohalarni qayta ishlash uchun tabiiy tadqiqot maydoni bo'lib xizmat qiladi. Oddiy sayyohlar uchun bu - antiqa dunyo sirlarini o'rganish va yer yuzida hayot qanday paydo bo'lganligini bilishga imkon beradigan joy hisoblanadi.

Kitob qo'riqxonasi Tiyan-Shan tizmasining janubi-g'arbiy qismida, Jindidaryoning chap qirg'og'ida joylashgan. Qo'riqxona egallagan yer maydoni 3938 gektarni tashkil etadi. Obi-Safit, Xodjaqo'rg'on, Zinsilban, Navobek, Kushnova, Qizilalma, Kule va Jarshafi daralari o'z go'zalligi bilan tabiatning betakror burchaklaridir. Bu yerda qorli tepaliklarning panoramali ko'rinishi bo'lgan Shirdargning go'zal uyasi joylashgan.

Qo'riqxona bo'ylab turli yo'nalishlarda oqadigan Karasu va Shirdargsoy daryolari oqib o'tadi. Qoyalardan tushadigan suvlar ajoyib go'zal sharsharalarni hosil qiladi.

Kitob davlat geologik qo'riqxonasi hududida 120-140 million yil davomida iliq dengiz havzasi bo'lgan. Shuning uchun asosiy diqqatga sazovor joylari paleontologik va stratigrafik bo'limlardir. Bu tog' jinslarining paydo bo'lishi ketma-ketligini kuzatish va ularda saqlanib qolgan qadimiy organik shakllarning qoldiqlarini o'rganish mumkin bo'lgan ob'ektlardir.

Xo'jaqo'rg'on daryosi Kitob milliy qo'riqxonasining eng go'zal joylaridan biridir. Xo'jaqo'rg'on vodiysi nafaqat yovvoyi tabiatning birinchi epizodlaridan biri, balki paleozoy davriga oid 140 million yildan ortiq davom etgan hayotiy voqealar toshga yozilgan. U yerga tashrif buyurganlar toza tog' havosidan bahramand bo'lishlari, muzli suvda suzishlari mumkin.

Shirdag trakti - bu tabiatning yana bir noyob go'zalligidir. Bahorda tog'larning soyalari gullagan lolalar, irislar, peonies, momaqaymoqlar bilan bezaladi. Shuningdek, u yerda tabiat tomonidan yaratilgan hayvonlarning noyob tosh yodgorliklaridan bo'lgan, «Ayiq», «Kublar bilan gorilla», «Timsoh», «Bashmak», «Sfenks»larni ko'rish mumkin.

Kitob milliy qo'riqxonasining yovvoyi hayoti boy, qiziqarli va o'ziga xosdir. Qalin o'rmonlari, turli xil daraxtlar va butalar o'simliklari, hududdan oqib o'tadigan daryolar, tog'lar, turli balandlikdagi daralar, sharsharalar, subalp peyzajlar biologik xilma-xillikning mavjudligini ta'minlaydi.

Kitob milliy qo'riqxonasining yovvoyi hayotida 168 turdagi umurtqali hayvonlar va 128 turdagi qushlar o'rin olgan. Ular orasida Tyan-Shan jigarrang ayig'i (6-7 tur), griffon qushqo'nmas, qora vahshiy, soqolli qush va burgutlar shular jumlasidandir. Qo'riqxonada doimiy yashovchi hayvonlar burgut-mitti, laylak va ilondir.

Bundan tashqari sharsharalar yaqinidagi baland tog'larda ko'k qush ham yashaydi. Kitob milliy qo'riqxonasi manzilgohida O'rta Osiyo kobrasi va chiziqli bo'ri iloni topilgan. Quyon-tolay, chakalak, bo'rsiq, toshbo'ron, tulki va bo'rilarning asosiy yashash manzili ham xuddi shu xududdir.

Qo'riqxonadagi iqlim subtropik bo'lib, yog'ingarchiliklarning aksariyati, qoida bo'yicha bahor mavsumida tushadi. Butun yoz davri yuqori harorat bilan ajralib turadi. Qishda qor qoplami 1 metrdan oshishi mumkin. Namlik 33% dan 63 % gacha, iyulda havo harorati +35°C darajaga yetadi, eng kami yanvarda bo'lib, -30°C daraja va undan pastga tushadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, yurtimizga tashrif buyuruvchi turistlarning maroqli dam olishlari va ziyorat qilishlari uchun yetarlicha sharoitlar yaratilgan. Turizm sohasini rivojlantirish esa yurtimiz ravnaqi va fuqarolar uchun foyda keltirishi mumkin. Ammo, yurtimizning Janubiy viloyatlari bo'lgan Qashqadaryo va Surxandaryo viloyatlarida turistik ob'yektlar yetarli bo'lishiga qaramay turizm sohasida yetarlicha muammolar mavjud. Yuqorida nomi zikr etilgan Kitob davlat geologik qo'riqxonasi qadimgi davrlar tarixini o'zida mujassam etgani bilan boshqa sayohat ob'yektlaridan ajralib turadi.

Hozirgi kungacha ushbu sayohat ob’yektiga faqat olimlar va arxeologlar kirishiga ruhsat etilgan. Turizm sohasini rivojlatirish maqsadida yurtimiz fuqorolari va har bir yurtimizga tashrif buyurgan turist uchun ushbu tarixiy qo’riqxonani tamosha qilishga ruhsat etilishi maqsadga muvofiq bo’ladi. Ushbu imkoniyat mahalliy aholi uchun ham yaratilishi turizm sohasini rivojlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlarga yetarlicha ta’sir etishi mumkin.

Рахмонов Р.Р - Бухоро давлат тиббиёт институти ўқитувчиси.
Ёрқулов Ж.М - Бухоро давлат университети ўқитувчиси.
Рахимова М.Р- Бухоро давлат университети талаба

ОВЧИЛИК ХЎЖАЛИКЛАРИДА ОВ ТУРИЗМИНИ ЖОРИЙ ЭТИШНИНГ ИСТИҚБОЛЛАРИ.

Аннотация:*в статьебылипринимая во внимание высокий туристический потенциал Бухары и наличие мест для охоты, для этих возможностей в этом месте определены туристические возможности охотничьих животных.*

Ключевые слова*:Охотничье, популяция, животные, кабан, гуси, лисица, шакал, заяц толай, фазан.*

Annotation*: Taking into account the high tourist potential of Bukhara and the availability of places for hunting, for these possibilities in this place have been determined tourism’s capacity of the hunting animals.*

Key words: *hunting, population, animals, savage pig, geese, fox, wolf, wild rabbit, pheasant.*

Туризм дунё иқтисодиётида, жумладан, кўпгина давлатлар ялпи ички маҳсулотининг шаклланишида етакчи ўринни эгалайди. Бугунги кунда биздаги анъанавий туризм ва кўрсатилаётган хизматлар истеъмолчиларнинг эҳтиёжларини тўлиқ таъминлаш учун етарли эмас.Бу ҳолат туризм бозорида истеъмолчининг талабларига мос туризм шаклларини, жумладан, ов туризмини жорий этишни ҳам талаб этади.

Бугунги кунда дунё миқёсида ов қилиш ва балиқ овлашга йўналтирилган ов туризми кенг оммалашиб бормоқда. Ов туризмини ривожлантириш нафақат ов хўжаликларининг иқтисодий аҳволини яхшилашга, балки қўшимча ишчи ўринларини яратиш орқали аҳолининг бандлигини таъминлашда ҳам алоҳида аҳамият касб этиши билан долзарбдир. Ов туризми соҳасидаги муаммоларни ҳал этиш ва соҳани халқаро илғор тажрибалар асосида шакллантириш ов хўжаликларининг ривожланишига, овланадиган ҳайвонлардан барқарор фойдаланишга, ҳайвонлар популяцияси деградацияланишининг олдини олишга олиб келади [1; 227-236-б., 2; 243-249-б., 3; 292-б., 4; 177-179-б.,].

Бухоро вилоятида овланадиган ҳайвонларнинг асосий қисми асосан кўлларда ва уларнинг қирғоқ зоналарида ташкил этилган ов хўжаликларида учрайди. Бундай хусусият ов қилиш ва балиқ овлаш туризмини бир жойда ташкил этиш учун жуда қулайлик яратади.

Ов туризми Австралия, Австрия, Руминия, Венгрия, Ботсвана, Аргентина, Қирғизистон, Тожикистон, Танзания, Канада, Африка ва Жанубий-Шарқий Осиёдава бошқа қатор давлатларда ривожланган бўлиб, ушбу давлатлар ов қилиш ва балиқ овлаш туризми инфратузилмасининг шаклланиши ва ривожланиши жиҳатидан ўзаро фарқланади [5; 200-201-б., 6; 62-б.].

Ов қилиш ва балиқ овлаш туризмининг асосий мақсади ёввойи ҳайвон турини қидириш, таъқиб қилиш, уни қўлга киритишдан иборат бўлиб, бунда спорт ови туридан фойдаланилади ва иқтисодий фойда олиш кўзда тутилмайди. Бундай туризм ихтисослашган овчилик ва балиқчилик хўжаликлари, туристик ташкилотлар томонидан пуллик хизмат асосида ташкил этилиши мумкин. Туризмнинг бу турида тегишли рухсатномаларга эга бўлган сайёҳлар уларни кузатувчилар ҳамроҳлигида маълум муддатга овчилик ва балиқчилик хўжаликларига боришади ҳамда у ерда ов қилиш ва балиқ овлаш билан бир қаторда, белгиланган маршрутлар бўйича саёҳат қилишади.

Ўрганишлар натижасида Бухоронинг туристик салоҳияти юқорилигини ҳамда ов қилиш учун қулай бўлган жойларнинг мавжудлигини инобатга олган ҳолда, бу ерда ов

туризмини йўлга қўйиш имкониятларининг кенглиги аниқланди. Ов туризмини ташкил этишда, биринчи навбатда, овчилик хўжалигида овчиларнинг маълум муддат яшашини таъминловчи инфратузилма зарурлигини, овланиши режалаштирилган турнинг хўжаликда учраши ва унинг овланадиган турлар рўйхатига киритилганлигини эътиборга олиш муҳим аҳамиятга эга. Иккинчидан, тур операторлар ва овчилик хўжалигининг раҳбарлари белгиланган турни овлаш учун қулай бўлган маршрут ёки жойнинг олдиндан аниқланган режасини, овланиши режалаштирилган ҳайвонни овлаш сингари хизматлар учун тўланадиган тўлов миқдорини, туристнинг ҳудудда бўлиш муддати билан ов қилиш муддатининг ўзаро мос келишини, ов жараёни ва техника хавфсизлиги учун зарур воситалар билан таъминланганлик даражасини ҳамда овнинг атроф- муҳитни муҳофаза қилиш соҳасига тегишли қонунлар ва бошқа меъёрий ҳужжатлар асосида амалга ошишини ва умуман шу каби муҳим масалалар бўйича ўзаро келишиб олиб фаолият юритиши зарур.

Ов қилиш ва балиқ овлаш туризмининг бошқа туризмлардан фарқли томонларидан яна бири унинг мавсумий хусусиятга эгалигидир. Ўзбекистонда овлашга рухсат этилган Бухоро вилоятида учрайдиган ов ҳайвонларини овлаш 15 августдан *(Columba livia, Coturnix coturnix)* бошланади ва 1 февралгача (сувда сузувчи қуш турлари ва бошқ.) давом этади. Бу муддат тўлиқ куз ва қисман қиш мавсумига тўғри келади. Одатда, бу мавсумда Ўзбекистон, жумладан, Бухорога анъанавий туризм иштирокчиларининг оқими нисбатан камаяди ва ов туризмига хизмат кўрсатиш учун имкониятлар кенгаяди. Шу билан бирга, вилоятдаги овчилик хўжаликлари замонавий меҳмонхоналарга эга бўлган шаҳар ва туман марказларидан узоқ масофада жойлашмаганлиги учун хўжаликларга кунлик қатнаш ҳам мумкин.

Ҳар бир давлат ўзининғҳайвонот дунёсининг хилма-хиллиги, турланинг муҳофазаланиш мақоми, иқтисодий ҳолатидан келиб чиққан ҳолда, ов туризми қизиқувчилари учун турли турларни таклиф қилади. Европада оммабоп бўлган ов объекларига буғуларнинг турли турларини, айиқларни, ёввойи чўчқаларни, Россиядатовуқсимонларнинг турларини, лось ва ёввойи чўчқани, Марказий Осиёда асосан ёввойи қўйлар ва ёввойиэчкиларни киритиш мумкин. Ов туризми ривожланган давлатлар овчиларни жалб қилиш учун ов обектлари ва уларни овлаш ҳамда хизмат кўрсатиш учун сарфланадиган маблағлар тўғрисидаги маълумотлардан иборат рекламалар эълон қилишади. Бухоро вилоятидаги овчилик хўжаликларида ов туризми учун етарли шароитлар яратилмаганлиги сабабли бундай рекламалар ва таклифлар амалиёти йўлга қўйилмаган.

Бугунги кунда ов туризми овчидан профессионал ов қуроллари, тегишли лицензия, рухсатномалар ва хизматлар кўрсатиш учун анча маблағ сарфлашни талаб этадиган ривожланиб бораётган соҳа бўлиб, у жаҳонда дам олишнинг элитар тури саналади. Жумладан, Ғарбий Сибирда туристик ов иштирокчиси бир бош сибир буғусини овлаши учун ташкил қилинадиган бир ҳафталик ов учун ўртача 36.000.000 сўм, каркур ва ғозлар учун 7.440.000 сўм сарфлайди. Нархлар ов объектларининг тури, миқдори, кўрсатиладиган хизматлар шакли, ўлжаларни олиб чиқиб кетиш ва бошқа кўрсатиладиган хизматларнинг тури ҳамда сифатига белгиланади ва ўзгариб туради. Шундай имкониятлар республикамиздаги қатор овчилик хўжаликларида, жумладан Бухоро вилоятида ҳам мавжуд. Вилоятда ов туризмини жорий этиш ва уни ривожлантириш натижасидаовчилик хўжалигининг иқтисодий самарадорлиги ошади; турларни муҳофаза қилиш, қайта тиклаш, барқарор фойдаланиш ва маҳсулдорлигини оширишга йўналтирилган биотехник тадбирларўз муддатида ва етарли даражада ўтказилади; биологик хилма-хилликни сақлаб қолиш имкониятлари кенгаяди; браконъерликнинг олдини олиш ва назорат қилиш бўйича фаолият кучаяди; овчилик хўжаликлари ҳудудида чорва молларини боқиш, ўсимликларни пайҳон қилиш ва бошқа антропоген таъсирларнинг олди олинади, овни илмий асосда ва тегишли режа асосида амалга оширишга эришилади, хўжаликнинг атрофини чегаралаш, тегишли тартибда кардонлар ўрнатиш ва бошқа шу каби масалалар ҳал этилади.

Маълумотларга қараганда, Ўзбекистонга ов туризми билан шуғулланиш мақсадида 2015-2018 йилларда жами 27 та чет эллик фуқаролар ташриф буюрган ва улардан кўрсатилган хизматлар учун жами 9.799 млн. Сўм тўлов ундирилган.

Мамлакатимизда табиий кўлларнинг балиқчилик соҳаси билан шуғулланувчи тадбиркорлик субъектларига бириктирилиши, балиқ ови туризми йўналишини ривожлантиришда муҳим ўрин эгаллайди. Тадқиқотлар ўтказилган овчилик хўжаликларининг сув ҳавзалари, уларнинг қирғоқ зонасида жойлашганлиги ва асосий ов объектлари сувда сузувчи қушлардан ташкил топганлиги ҳам балиқ ови билан бирга, турли турдаги қушлар овини биргаликда олиб бориш учун қулайлик яратади.

Ов қилиш ва балиқ овлаш туризмининг самарадорлиги овчилик хўжаликларининг жойлашган ўрни, уларга бориш йўлининг қулайлиги, у ерда мавжуд шароитлар ва яратилган қўшимча имкониятлар, хўжаликдаги турларнинг хилма-хиллиги каби омилларга узвий боғлиқ [7; 161-173-б.]. Мазкур омилларни максимал 3 баллик тизимда баҳолаш орқали вилоятдаги овчилик хўжаликларининг ов туризмидаги самарадорлигини ҳисоблаш мумкин.

Қорақир, Шўркўл ва “Peshku Qoraqir Qo`rg`oni” МЧЖ ларда ов туризмини ривожлантириш самарадорлиги нисбатан юқори (7-9 балл)

Бир пайтлар овчи қуш иштирокида амалга ошириладиган спорт ва ҳаваскорлик ови Венгрияда оммалашган бўлиб, бу йўналиш кейинги йилларда қатор давлатларда янада ривожланиб бормоқда [8; 159-161-б.]. Ўрта Осиёнинг айрим регионларда кундузги йиртқич қуш турларидан (*Aquila chrysaetos, Accipiter nisus, Accipiter gentiles*)ов мақсадида фойдаланиш бугунги кунгача сақланиб қолган. Аниқланишича, вилоятдаги овчилик хўжаликларида йиртқич қушлар иштирокида ов уюштириш амалиётини йўлга қўйиш мумкин. Бунда овни амалга ошириш учун ҳудуд рельефининг текистлиги, ҳамдақушлар билан овлаш мумкин бўлган ов объектларининг мавжудлиги (тулки, чиябўри, қум товушқони, қирғовул, қорабовур, йўрға тувалоқ ва сувда сузувчи қуш турлари) каби омиллар қулайлик яратади. Жумладан, йиртқич қуш турлари билан ов қилиш амалиёти, ҳозирда вилоятнинг чўл зонасида йўлга қўйилган йўрға тувалоқларни овлаш мақсадида амалга оширилмоқда ва бундай овни тўлиқ ов туризми сифатида тавсифлаш мумкин.

Н.А. Боровая таъкидлашича, орнитологик туризмга ихтисослашган туристик фирмаларни ташкил этиш овчилик хўжаликларида 4-5 ой давом этадиган ов мавсумидан ташқари йил бўйи қушларни кузатиш имконини беради[9; 81-82-б.].Ўзбекистонга, жумладан, Бухоро вилоятига 1990 йиллардан бери орнитологик туризм йўналишида хорижий сайёҳлар маҳаллий орнитологлар билан биргаликда келиши кузатилади. Уларнинг асосий мақсади, ўз мамлакатида учрамайдиган ва ўзларини қизиқтирган қуш турларини суратга олиш, уларнинг овозларини ёзиш, экологиясининг айрим жиҳатларини ўрганишдан иборатдир. Шу асосда қушларнинг кўпайиши, айниқса, уларнинг миграция даврида орнитологик туризмни амалга ошириш ва туризмнинг бу турини ҳам вилоятдаги овчилик хўжаликларига уюштириладиган ов туризми соҳасига уйғунлаштириш мумкин.

Вилоятдаги барча овчилик хўжаликларида уюштириладиган ов кўпроқ, ҳаваскорлик ови бўлиб, бу жараёнда, асосан,сувда сузувчи қушлар овланади. Шу нуқтаи назардан қараганда, халқаро амалиётнинг илғор тажрибаларини жорий этиш орқали овчилик хўжаликларининг ихтисослашувини таъминлаш масаласи ҳам долзарблигича қолмоқда.

Ҳозирги вақтда вилоятидаги чўл зонасидахорижий овчилар учун йўрға тувалоқ *(Chlamydotis undulate)*ови амалга оширилади. Келгусида кафолатли овлаш имкониятларининг кенглиги ва овлаш жараёнида бошқа турларга қараганда таваккалчиликнинг нисбатан камлигини инобатга олган ҳолда вилоятда “Товушқон ови”, “Ғоз ва ўрдак ови” “Ёввойи чўчқа ови”, “Йўрға тувалоқ ови” каби алоҳида ов турлари билан шуғулланишга ихтисослашган овчилик хўжаликларни ташкил этиш тавсия этилади. Худди шундай, муайян турларни овлашга ихтисослашган хўжаликларни балиқчилик соҳасига ҳам татбиқ этиш мақсадга мувофиқ бўлади. Овчилик хўжаликларининг ихтисослашуви овчиларнинг қизиқишларини ва ўз олдига қўйган мақсадининг амалга ошишига бўлган ишончини ошириши билан бирга, хўжаликнинг иқтисодий самарадорлигини яхшиланишига хизмат қилади.

Imomov N.P.- SamISI o’qituvchisi.
Sharifboyev D, G’afforov Sh. - SamISI
Mxt-118 guruh talabalari

O’ZBEKISTONDA TURIZMNI JADAL RIVOJLANTIRISHDA EKOTURISTIK RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH.

Annotation: *The article outlines the main tasks for the development of tourism and the processes for the effective use of eco-tourism resources.*

Key words: tourist, resources, landscape, recreation, ecosystem, geosystem, ecotourism, extremal, tour operator.

Аннотация:*В статье изложены основные задачи развития туризма и процессы эффективного использования ресурсов экотуризма*

Ключевые слова: турист, ресурс, ландшафт, рекреатсия, экосистема, геосистема, экотуризм, экстремал, туроператор.

Hozirgi kunga kelib yurtimizda turizm jadal rivojlanib bormoqda. Bunga yaqqol misol qilib, yurtimizga tashrif buyurgan sayyohlar sonini yildan yilga oshib borayotganini keltirish mumkin. Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasining yakuniy hisobotiga ko‘ra, 2018 yilda O‘zbekistonga 5,3 mln nafar sayyoh tashrif buyurgan. 2017 yilda ularning soni 2,69 mln nafarni qayd etgan, ya'ni sayyohlar soni bir yilda 97 foizlik o‘sishni ko‘rsatib, ikki baravarga oshgan. 2016 yilda esa ularning soni 2,07 million nafarni qayd etgan.

2018 yilda O‘zbekistonga tashrif buyurgan 5 346 219 nafar sayyohdan 5 020 392 nafari MDH mamlakatlaridan kelgan, uzoq xorijiy mamlakatlardan tashrif buyurganlar soni esa 325 827 nafarni tashkil qildi. O‘zbekistonga kelgan sayyohlar orasida eng katta ko‘rsatkich qo‘shni Qozog‘iston fuqarolari tomonidan qayd etilgan: 2 293 077 nafar. Undan keyingi o‘rinda 1 095 505 fuqarosi bilan Tojikiston va 1 055 688 fuqarosi bilan Qirg‘iziston kelgan. Uzoq xorijiy mamlakatlardan tashrif buyurganlar orasida esa Turkiya fuqarolari yetakchilik qilmoqda: 41 299 nafar. Keyingi o‘rinlarda 32 444 kishi bilan Xitoy va 27 269 sayyoh bilan Janubiy Koreya qayd etilgan.



Tabiiy turistlik resurslarni asosiy ahamiyati shundan iboratki, insonlarning jismoniy va ruhiy qobiliyatlarini tiklashda foydalanish vositalari bo‘lib xizmat qiladi. Turistlar asosiy ehtiyojlarini tabiatdan qondiradilar. Turistlik faoliyatni tashkillashtirishda landshaftlar, iqlim, suv ob’ektlari, dengizlar, mineral suv va davolovchi botqoqlar asosiy resurs vazifasini bajaradi. Bu resurslar o‘zi yoki inson tomonidan qayta tiklanishi mumkin. Bu resurslarni geografik, biologik, geologik va boshqa jihatlarga ko‘ra baholash mumkin. Dam olishni tashkil etish uchun tabiiy turistlik resurslarni tahlil etishni talab qiladi. Tabiiy resurslar sifatida alohida tabiat komponentlari yoki bir butun tabiat kompelkslarini olish mumkin. Barcha tabiiy resurslarni rekreatsiya yoki turistlik potensial nuqtai nazardan qarash lozim. Ammo tabiiy resurslardan foydalanish darajasi mintaqa ixtisoslashuviga ko‘ra har xil bo‘lishi mumkin.

Tabiiy turistlik resurslarning tasnifi mavjud bo‘lib, u ikki yoqlama xususiyatga ega, bir tomondan tabiiy kelib chiqishi bilan bog‘liq, ikkinchi tomondan turizm uchun iqtisodiy ahamiyati tomonidan aks etishidir. Tabiiy resurslar qo‘yidagicha guruhlanadi:

Kelib chiqishiga ko‘ra:

- tabiiy (geologik, iqlimiy, gidrologik, termal suvlar);
- biologik – tirik tabiat (tuproq resurslari, flora, fauna);
- energoinformatsiyali, tabiatdan o‘ziga xos maydon va landshaft sifatida foydalanish bo‘lib, bu resurslar madaniy, ziyoratli kabi turizm turlarini rivojlantirishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Rekreatsiya sifatida foydalanish turiga ko‘ra:

- mineral suvlar;
- botqoqlar;
- tuzlar;
- o‘rmonlar.

Resurslarning davomiylik darajasiga ko‘ra:

- tugaydigan tabiiy resurslar, ular o‘z navbatida yangilanib turadigan (chuchuk suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi) va yangilanmaydigan (minerallar) turlarga bo‘linadi.
- tugamaydigan tabiiy resurslar, ularga quyosh energiyasi, shamol, dengiz to‘lqinlari, suvlari kiradi.

O‘zi qayta tiklanishi va o‘sishi imkoniyatiga ko‘ra:

- qayta tiklanadigan resurslar, bunga o‘rmonlarni misol keltirish mumkin, o‘rtacha 10 yilda qayta tiklanadi.
- qayta tiklanmaydigan resurslar.

Tabiiy turistlik resurslar orasida asosiy o‘rinni rekreatsiya resurslari egallaydi, ular mamlakat aholisini, hamda turistlarni dam olishi va davolanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Undan tashqari tabiiy resurslardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanish natijasida bir qancha muammolar ham kelib chiqmoqda. Bunda tabiatdan noto‘g‘ri foydlanish, ko‘plab qurilishlarni amalga oshirish tufayli bo‘lmoqda. Natijada ekosistemalar muvozanati buzilib, ekologik muammolarni kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda.

Bugungi kunda ilmiy va ommabop adabiyotlar, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida ekoturizmning o‘rni va ahamiyatini ochib berishga qaratilgan ko‘plab qarashlar olg‘a surilmoqda. Shu o‘rinda, “O‘zbekiston Respublikasida tabiiy turistik resurslardan foydalanishning ahamiyati nimalardan iborat?” degan savol tug‘iladi. Buning bir necha asoslari bor:

Birinchidan, xalqaro maqomdagi tashkilot va muassasalarning ma'lumotiga ko‘ra, ko‘pgina turizm turlari yiliga o‘rtacha 5 foizga ortib borayotgan bo‘lsa, ekoturizm yiliga o‘rtacha 20-30 foizga ko‘payib bormoqda. Ko‘pgina mutaxassis va tadqiqotchilarning ilmiy tajriba va xulosalari shuni ko‘rsatmoqdaki, ekoturizm turizmning yangi va yosh yo‘nalishi bo‘lishiga qaramasdan, ommalashuvi boshqa turistik yo‘nalishlarga nisbatan 2-3 barobar jadal kechmoqda;

Ikkinchidan, O‘zbekistonda turizmning tarixiy turizm, diniy turizm, madaniy turizm kabi turlari bo‘yicha muayyan yutuq va tajribalar bazasi shakllandi;

Uchinchidan, ayni paytda O‘zbekistonda 800 ga yaqin turizm faoliyatini ko‘rsatuvchi turoperatorlik firmalari, 900 dan ortiq mehmonxonalar, 30dan ortiq muhofazaga olingan hudud (qo‘riqxona, milliy bog’, nodir tabiat yodgorliklari va h.k.)lar, 60 ta o‘rmon xo‘jaliklari, faoliyat ko‘rsatmoqda. Shuningdek, O‘zbekistonda 400 dan ortiq tabiatning noyob yodgorliklari mavjud.

Ekoturizmni rivojlantirishdan ko‘zlangan maqsad quyidagilardan iborat:

- jahon turistik xizmat bozorida O‘zbekistonning ekoturistik salohiyati, tabiiy potensiali va resurslarini namoyish qilish;
- hududlarning, ayniqsa tabiatning, geotizimlarning ekoturistik resurslari va imkoniyatlarinidan yanada samarali foydalanishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borishni rag‘batlantirish;
- turizmni rivojlantirishda ekoturizmning ahamiyati va ulushini oshirish;

- O‘zbekistonda joriy etilgan turistik faoliyatda ekoturistik xizmatlar sifatini tubdan takomillashtirish va ekoturistik xizmatlar hajmini jadal oshirish;
- istiqbolda ekoturizmni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy, innovatsion va metodik ishlanmalarni yaratish;
- O‘zbekistonning turizm sohasidagi ijobiy qiyofasini shakllantirishda ekoturizm rolini oshirish va h.k.

O‘zbekiston ekoturistik resurs va imkoniyatlarga juda boy. Turoperatorlik firmalari tomonidan “Toshkent-Chorvoq-Toshkent”, “Toshkent-Bildirsoy-Chimyon-Toshkent”, “Toshkent-Zomin-Toshkent”, “Toshkent-Aydarko‘l-Toshkent” kabi marshrutlarda o‘tkazilgan ekoturlar, cho‘l hududlardagi tuyadagi sayr, nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyo turistlarining katta e'tibor va e'tiroflariga sazovor bo‘lmoqda. Tahlillarga ko‘ra, ekoturizm xizmatlarini ko‘rsatayotgan turoperatorlik firmalari asosan, Chimyon-Chorvoq rekreatsiya zonasi doirasida faoliyat ko‘rsatmoqda xolos. Biroq, O‘zbekistonning Hisor, Bobotog‘, Ko‘hitangtog‘ (Surxondaryo), Chaqchar (Qashqadaryo), Nurota (Navoiy-Jizzax), Zarafshon (Samarqand), Turkiston (Jizzax), Oloy (Farg‘ona), Qurama, Chotqol (Namangan) tog‘lari, Qizilqum cho‘lidagi qoldiq tog‘lar, Qizilqum cho‘li, Orol dengizining qurigan tubi va qodiq sho‘r ko‘llar, Ustyurt platosi, Borsa kelmas sho‘rxogi, Mingbuloq botig‘i, Aydarko‘l, Dengizko‘l, Amudaryo va Sirdaryo sohilidagi to‘qaylar, Muruntov kareri va tabiatning noyob yodgorliklari bo‘ylab majmuali va mavzuli ekoturlar tashkil etish to‘laqonli yo‘lga qo‘yilmagan.

O‘zbekistonda o‘ziga xos joziba va takrorlanmas manzaralarga boy bo‘lgan speleoturizm (g‘or turizmi) katta imkoniyatlarga ega. Ayni paytda O‘zbekistonda 500dan ortiq g‘orlar bo‘lib, ma'lumotlarga ko‘ra, yetarli turistik infratuzilmaga ega bo‘lmaganligi sababli ularning birortasiga ham ekoturlar tashkil etilmayapti. O‘zbekiston cho‘llari va tekislik hudlarida barxan, dyuna, to‘qay, sho‘rxok, taqir, quduqlarni, shuningdek mahalliy cho‘ponlar yashash tarzini namoyon qiluvchi o‘tovlarni tomosha qilishga qaratilgan tuya sayrini tashkil etish katta imkoniyatlarga ega.

Katta Chimyon, Zomin, Chotqol, Ko‘ksuv, Piskom, Turkiston, Hisor, Zarafshon, Oloy, Qurama, Nurota tog‘larida piyoda, trekking turlarini hamda alpinizmni tashkil etishga tabiiy geografik shart-sharoit mavjud. Shuningdek, tog‘lardan oqib tushuvchi ko‘plab serostona va sharqiroq daryo va soylar (Ugam, Chotqol, Piskom, Ko‘ksuv, To‘polondaryo, Shoximardon, Sangzor, Zarafshon va h.k.)larda rafting turizmini rivojlantirish imkoniyatlari katta. Ilmiy tadqiqot muassasalari va mutaxassislarning ma'lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda ekoturizmning rivojlanish yo‘nalishlari va istiqbollari tabiat qonuniyatlari va geotizimlar barqarorligi bilan bog‘liq holda shakllanmoqda. So‘ngi yillarda O‘zbekistonda ekoturizmning ilmiy va metodologik asoslarini ochib berishga qaratilgan bir qator ilmiy izlanishlar olib borildi, nomzodlik va magistrlik dissertatsiyalari himoya qilindi, ilmiy va o‘quv adabiyotlar nashr qilindi. An'anaviy ustoz-shogird tizimida ekoturizm va o‘lkashunoslikning nazariy jihatlari o‘rganildi.

Ammo, bu boradagi tahlillar ekoturizm yo‘nalishida tabiatni, geotizimlarni yaxshi biladigan, tabiatda va tabiatning ekstremal sharoitlarida guruhni boshqara oladigan, zurur bo‘lganda birinchi tibbiy yordamni ko‘rsatish malakasiga ega bo‘lgan bakalavr kadrlar tayyorlash dolzarbligini ko‘rsatmoqda. Sababi, tarixiy turizm, diniy turizm, tibbiyot turizmi, madaniy turizm kabi turizm turlari asosan shahar joylarda, turistik infrastruktura va servis obektlari yetarli joylarda o‘tkazilsa, ekoturlar asosan tabiat qo‘ynida va geotizimlarda olib boriladi, aksariyat ekoturlar ekstremalligi bilan xarakterlanadi.

Bir so’z bilan aytganda yurtimiz turistik salohiyatini turistlar ko’z o’ngida faqatgina tarixiy obidalar, yoki ziyorat turizmiga ixtisoslashgan emas, balki turizmni barcha yo’nalishlarida sayohat qilish mumkinligini ko’rsatishimiz lozim. Buning uchun esa turoperatorlar o’rtasida kuchli va halol sof raqobatni shakllantirish, turizm sohasi mutaxassislarini malakasini yanada oshirish, mavjud turistik resurslar infratuzilmasini yanada shakllantirishimiz lozim.

Eshquvvatova N.A – SamISI talabasi
Abdiqobilov Sh. X. – SamISI talabasi
To'raqulova Q.Il.– SamISI talabasi

GASTRONOMIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASINI QO'LLASH

Аннотация: *В этой статье предлагается ввести в нашу страну гастрономический туризм, изучив опыт и уникальные пути развития зарубежных стран.*

Ключевые слова: *гастрономический туризм, сервис, еда, вино, туристы, эффективность.*

Abstract: *This article proposes that gastronomic tourism be introduced to our country by examining the experiences and unique ways of developing foreign countries.*

Keywords: *gastronomic tourism, service, food, wine, tourists, efficiency.*

Hozirgi Kunda yurtimizda bo'layotgan tub islohatlar har bir soha va tarmoqlarda yaqqol namunasi sifatida yurtimizda turizmga bo'lgan e'tiborni aytishimiz mumkin. Turizm iqtisodiyotimizni ko'tarishi u soha turlarini yanda kengayishiga olib keladi. Jumladan, gastronomik turizm ko'plab davlatlarda o'zining asosiy o'rnini egallagan bo'lib, ushbu turizm orqali ko'plab rivojlangan mamlakatlar yetarlicha daromad manbaiga ega bo'lishmoqda. Albatta barcha davlatning o'ziga xos ya'ni joylashgan o'rni, an'analari yoki iqlimidan kelib chiqqan holda bir-biridan farqlanib turuvchi taomlari yoki ichimliklariga ega. Gastronomik turizmning eng mashhur manzillari sifatida biz Fransiya, Italiya hamda Ispaniya kabi mamlakatlarni keltirishimiz mumkin. Buni biz ushbu davlatlarning ba'zi statistikalaridan ham bilib olishimiz mumkin. Birgina Fransiyani olib qaraydigan bo'lsak, u yerda vino sanoatining gastronomik turizmdagi ahamiyatini yiliga 24 million chet ellik turistlar tashrifidan bilib olamiz.[86] Ispaniya esa o'zining tansiq taomlari hamda ichimliklaridan keladigan daromad 44 mlrd yevroga yaqin qiymatni tashkil etadi [87]. Albatta bu ozmuncha ko'rsatkich emas. Italiya sayohatchilarning 30% i esa faqatgina gastronomik turizm maqsadida tashrif buyurishar ekan[88]. Bundan ko'rinib turibdiki, ushbu davlatlarda gastronomik turizm muhim ahamiyat kasb etadi va o'zining taomlari hamda ichimliklari bilan ko'plab sayyohlarni jalb etib kelishmoqda. Bu natijaga ular albatta o'zining mahalliy taomlari hamda ichimliklari orqali erishgan. Fransiya o'zining minglab turiga ega vino va pishlog'i bilan mashhur bo'lsa, Ispaniya hamda Italiya o'zining azal-azaldan meros bo'lib kelayotgan, o'zining bir necha ming yillik tarixiga ega taomlari bilan sayyohlarni jalb qilib kelmoqda.

Turizm – ijtimoiy rivojlanishning asosiy poydevori sifatida insonlarning bo'sh vaqtlarida xordiq chiqarishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish va bu orqali yuqori daromad olishni ko'zlaydi. Insonlarning ehtiyojlari oshgan sayin mahsulotlar turi va sifati ham oshib boradi. Bu narsa orqali esa jamiyatda infrastrukturaviy hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish hosil bo'ladi [89]. Turizm xalqlarga, insonlarga va ularning bir-biriga bo'lgan munosabatlarga ta'sir ko'rsatadi, bundan tashqari madaniyat, qadriyat, iqtisodiyot va atrof-muhit fenomenasini ko'rsatib beradi. Shuning uchun ushbu omillarni rivojlanish yo'lida nazorat qilinib katta muammolar bartaraf etilishi mumkin.

Turizmni bir necha turlarga bo'linadi. Bular quyidagilar:

- Ekoturizm
- Qishloq turizmi
- Sport turizmi
- Ziyoratgoh turizmi
- Shahar turizmi
- Diniy turizm

[86] www.visitfrenchwine.com
[87] www.statista.com
[88] https://igcat.org/report-food-tourism-italy-gastronomy-key-factor-decision-making-process/
[89] Hall, M., Mitchell, R., Sharples, L.,(2003a). Consuming places: the role of food, wine tourism in regional development, Food Tourism Around The World, London;

❖ Gastronimik turizm va boshqalar

Har bir turizm turi hududdagi mavjud imkoniyatdan kelib chiqqan holda rivojlanadi. Xususan, gastronomik turizm ham mahalliy aholining turmush tarzi va milliy qadriyatlaridan kelib chiqqan holda takomillashadi. Shu jumladan, bizning mamlakatimiz ham o'zining dunyoning hech bir burchagida takrorlanmas ta'mga ega milliy taomlari bilan gastronomik turizm uchun qulay hudud deyish mumkin. Ammo biz haligacha mamlakatimizning ushbu imkoniyatlaridan to'la-to'kis foydalana olganimiz yo'q. Shu bilan birgalikda gastronomik turizmning asl mohiyati va ahamiyati haqida aholimizning ko'pchiligida tushuncha mavjud emas. Fransiya, Turkiya, Yaponiya, Italiya, Xitoy kabi mamlakatlarni olib qaraydigan bo'lsak, ushbu mamlakatlarga tashrif buyurayotgan sayyohlarning aksariyati aynan ularning taomlarini iste'mol qilish maqsadida kelishadi. Biz ham o'zimizdagi mavjud imkonkiyatlardan foydalangan holda milliy taomlarimiz dong'ini yanada keng taratish yo'llarini topishimiz lozimdir.

Gastronomik turlar ma'lum hududning taomlari va ovqatlanish madaniyatini tanishtirgan holda sayyohlarda hudud haqida o'chmas taassurot qoldirishda asosiy rol o'ynaydi va hududning xususiyatlarini ko'rsatib beradi. Fransiya, Avstraliya, JAR, Italiya, AQSH, Angliya va shu kabi mamlakatlarda vino turizmi rivojlangan; Kanadada pivo turizmi hamda Italiyada pitsa va pasta kabi taomlar mashhur. Bundan tashqari Italiyadagi Taskana, Kaliforniyadagi Napa, AQSH, Avstraliya, Chilidagi Burgundiya va Fransiyadagi Shampan vodiylari ko'plab yillardan beri gastronomik turizm manzillari sifatida nom qozongan.

Hududning tabiiy va gastronomik salohiyatini saqlab qolishda maxsus nazorat yo'lga qo'yilgan. Bunga misol tariqasida Partugaliyadagi Barroza zotidagi qo'zichoqlarni olsak bo'ladi. Ushbu qo'zichoqlar uchun shunaqangi nazorat mavjudki, ularni mahalliy ya'ni o'sha hudud ozuqasidan boshqa ozuqalar bilan boqish mumkin emas. Chunki boshqa organik moddalar hamda boshqa hududlarning ozuqalari qo'zichoqlarning go'sht tarkibiga o'zgartirish kiritishi mumkin. Keyinchalik ushbu zotdor qo'zichoqlarning mahsulotlari o'z ta'mini va qiymatini yo'qotishi ehtimoli mavjud ekan. Shu narsaning oldini olish maqsadida, shuningdek yillar davomida shakllangan bir xil mahsulotni saqlab qolish uchun ushbu nazorat yo'lga qo'yilgan [90].

Bundan tashqari gastronomik tadbirlar, festivallar, turli xil kurslar, master-klasslar, muzeylar va boshqa shu kabilar hududning gastronomik qiymatini saqlab qolishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Gastronomik turizm hududlarning taomlari, turizmi va madaniyati, shuningdek, moddiy holatining bir-biriga tizimli bog'langani natijasida rivojlanadi. Shuning uchun, bu omil orqali gastronomiya tarixiy-madaniy boyliklarni saqlab qolib, keyingi avlodga o'zgarmas meros qilib qoldiradi. O'zbekistonda ham bu borada ko'plab izlanishlar amalga oshirilgan. Mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassalaridagi servis, xizmatlar sohasi va turizm ta'lim yo'nalishlarida, shuningdek oziq-ovqat va xizmat ko'rsatish sohasiga oid ilmiy tekshirish institutlarida aynan gastronomik turizmga alohida ahamiyat qaratilgan. Ammo qilinadigan ishlar hali ko'plab topiladi. Biz o'z maqolamizda quyidagilarni taklif qilishimiz mumkin.

- Izlanishlar, o'quv va nazariy-amaliy loyihalar aynan gastronomiya, gastronomik turizm va uning mamlakatimizda rivojlanish tendensiyasiyalar ustida tadqiqotlar olib borish;
- Har bir tadqiqot milliy hamda xalqaro miqyosda amalga oshirilishi zarur;
- Gastronomik hududlarni namoyon qilish maqsadida xalaqaro va milliy marketing tadqiqotlarini amalga oshirish;
- Master-klasslar, seminar va turli anjumanlar hududlarning gastronomik imkoniyatlarini sayyohlarda boricha aks ettirish maqsadida, shuningdek gastronomik turizmni yoritish orqali turistlar sonini ko'paytirishga bag'ishlash;
- Mamlakatimizning har bir hududida gastronomik festivallar amalga oshirilishi va bu orqali turistlarning diqqatini hududga qaratish judayam muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, har bir davlatning o'zini mentalitetidan hamda joylashgan o'rniga qarab turizm sohasi turlicha rivojlangan. Bizning O'zbekistonimiz har bir davlatda mavjud

[90] Hall, M., Mitchell, R., (2005). Gastronomic tourism: comparing food and wine tourism experiences, İcinde M. Novelli (Editor), Niche Tourism, Contemporary Issues, Trendsand Cases, ss. 89-100

bo’lgan tabiiy sharoitga ega, uning boyliklarining sanog’i cheksiz, tarixiyligi bilan esa butun dunyoni o’ziga jalb etib kelmoqda. Ammo Vatanimizda yuqorida keltirilgan takliflarni amalda qo’llasak yurtimizni dunyoga tanitishda hamda iqtisodiy jihatdan yuksaltirishda juda ham o’rinli bo’lgan bo’lar edi.

O.Z.Xaydarov – SamISI o‘qituvchisi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI VA UNING SOHA RIVOJLANISHIDAGI IMKONIYATLARI

Аннотация: *в этой статье рассматриваются вопросы концепция развития туризма в стране и ее потенциал для развития туризма.*

Ключевые слова: *туризм, экономика, концепция, экономические условия, реформы, ускоренное развитие туризма, приоритетные цели и задачи.*

Annotation: *this article discusses the concept of tourism development in the country and its potential for tourism development.*

Key words: *tourism, economy, concept, economic conditions, reforms, accelerated tourism development, priority goals and objectives.*

2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi qulay iqtisodiy sharoitlar va omillarni yaratish bo‘yicha, olib borilayotgan islohotlarning samaradorligini oshirish, turizm sohasini jadal rivojlantirish bo‘yicha ustuvor maqsad va vazifalarni belgilash, uning iqtisodiyotdagi o‘rni va ulushini oshirish, xizmatlarni diversifikatsiyalash va ularning sifatini oshirish hamda turizm infratuzilmasini takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni o‘z ichiga oladi. Daslab Turizm sohasining bugungi kundagi holati tahlilini ko‘rib chiqamiz.

O‘zbekiston juda katta turizm va rekreatsiya salohiyatiga ega, unda jami 7,4 ming madaniy meros obyektlari mavjud, ulardan 209 tasi to‘rtta muzey shaharlar “Xiva shahridagi Ichan-qal’a”, “Buxoro shahrining tarixiy markazi”, “Shahrisabz shahrining tarixiy markazi”, “Samarqand shahri” hududida joylashgan bo‘lib, YUNESKO butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan.

2010-2017 yillar davomida turizm xizmatlari eksporti hajmi ikki baravar oshdi va 2017 yilda 546,9 million AQSh dollari, 2018 yilda esa 1 041 million AQSh dollarini tashkil etdi. 2016 yilgacha xorijiy tashrif buyuruvchilar sonining o‘sish sur’ati o‘rtacha yillik 8 foizni, 2017 yilda 7 foizni tashkil qilib, 2,69 million nafardan oshdi. 2018 yil yakunlari bo‘yicha respublikaga 5,3 million xorijiy turistlar tashrif buyurdi. Xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash va muhofaza qilishga qaratilgan choralar ko‘rilgani natijasida, 2015 yilda 398 tani tashkil qilgan turizm tashkilotlari soni 2018 yil yakuni bo‘yicha 950 taga, mehmonxona xo‘jaliklari soni 661 tadan 900 taga yetdi.

So‘nggi yillarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha yirik investitsiya loyihalari amalga oshirildi, shu jumladan Toshkent shahrida “Hyatt Regency Tashkent” va “Lotte City Notel Tashkent Palace” brendli mehmonxonalar ochilishi, Andijon, Urganch va Toshkent shahrida madaniy-ko‘ngilochar bog‘larning tashkil etilishi, “Angren-Pop” temir yo‘li ochilishi, Buxoro, Qarshi, Shahrisabz va Xiva shaharlariga tezyurar poyezdlar uchun elektrlashtirilgan temir yo‘llari ochilishini aytib o‘tish joiz.

Brinchidan, turizm sohasida davlat siyosati istiqbolda hududlar va ularning infratuzilmasini kompleks jadal rivojlantirishda turizm sohasi yetakchilik qilishi, dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni echish, ish o‘rinlarini ko‘paytirish, hududlar diversifikatsiyasi va rivojlanishini ta’minlash, aholining daromadlari, yashash darajasi va sifatini oshirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va imidjini yaxshilashga qaratilgan.

2018 yilda kirib kelayotgan xorijiy turistlar sonini ikki baravarga oshirishning muhim omillari sifatida viza rejimi, O‘zbekistonda bo‘lish qoidalari hamda tadbirkorlik faoliyatini olib borish tartibi soddalashtirilgani, turizm sohasida infratuzilmaning rivojlanishi va turizm salohiyatini targ‘ib qilish choralari ko‘rilgani ko‘rsatish mumkin, shu jumladan:

- qo‘shimcha 9 ta (umumiy 18 ta) davlatga vizasiz rejim joriy etilgani, fuqarolariga kirish vizalarini berishning soddalashtirilgan tartibi joriy etilgan davlatlar soni 12 tadan 50 taga ko‘paygani;

- elektron kirish vizalarini rasmiylashtirish va taqdim etish tizimi ishga tushirilgani, O‘zbekiston hududidan tranzit bilan o‘tayotgan 101 davlat fuqarolariga O‘zbekistonga vizasiz kirish, vaqtincha bo‘lish va fuqarolarni o‘tkazish punktlari orqali chiqib ketish tartibi joriy qilingani;
- xorijiy fuqarolarni respublika hududida vaqtinchalik ro‘yxatga olish tartibi soddalashtirilgani, mazkur tartib “E-MEHMON” tizimi orqali to‘liq elektron shaklga o‘tkazilgani;
- mehmon uylarini sertifikatsiya qilish tartibi bekor qilingani;
- respublika hududiga olib kirilayotgan 8 va undan ko‘proq yo‘lovchi tashishga mo‘ljallangan turistik klassdagi avtotransport vositalarini sertifikatsiya qilishning yangi mexanizmi joriy etilgani hamda buning natijasida 2018-yilda turistik klass avtotransport vositalarining parki 128 donaga ko‘paytirilgani ko‘rishimiz mumkin.

Ikkinchidan, turizmni rivojlantirish konsepsiyasida turizm sohasini rivojlantirishning asosiy maqsadlari va bosqichlari belgilab berilgan bo‘lib,

2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasi turizm sohasini rivojlantirishning maqsadlari turizmni milliy iqtisodiyotning strategik sohasiga aylantirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiyalash va sifatini oshirish hamda turistik infratuzilmani, shu jumladan xorijiy sarmoyalarni jalb qilish va samarali reklama-marketing ishlarini olib borish evaziga takomillashtirish orqali yuqorida ko‘rsatilgan maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish ko‘zda tutilgan.

Turizm sohasini rivojlantirishning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat:

- 2019- 2025 yillarda turizmni rivojlantirish uchun mustahkam qonunchilik bazani yaratishga qaratilgan institutsional islohotlar, infratuzilmani modernizatsiyalash va mamlakat brendini targ‘ib qilish;
- 2019-2025 yillarda mamlakat iqtisodiyotida turizm industriyasi ulushini ko‘paytirish. Ushbu yo‘nalishda zarur infratuzilmani rivojlantirish va dunyo bozorida respublikaning turizm salohiyatini targ‘ib qilish orqali mamlakatning yalpi ichki mahsulotida turizm ulushini 5 foizgacha (2017 yil yakuni bo‘yicha 2,3%) yetkazish, shuningdek, 2025 yil yakuniga qadar 9 milliondan ortiq turistlarni, shu jumladan uzoq xorijdan 2 million turistni jalb qilish belgilab quyilgan.

Uzoq istiqbolda O‘zbekiston turizmi milliy iqtisodiyotdagi yutuqlar bilan cheklanib qolmasdan, mintaqa va dunyo turistik xizmatlari bozoriga eng raqobatbardosh davlatlar qatorida kirib borishi mumkin.

Uchinchidan, Turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari.

Bu sohasida qisqa muddatli istiqbolga mo‘ljallangan maqsadli vazifa va ustuvorlardan kelib chiqib, quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha chora-tadbirlarni faol amalga oshirish ko‘zda tutilgan:

1) turistik faoliyat sohasiga oid normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan xalqaro me’yor va standartlarni joriy etish, shu jumladan:

- turistik faoliyatni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish, bunda qonunchilik asosini kuchaytirish va turizm sohasida tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlovchi normalarni yagona hujjatga birlashtirishni nazarda tutish;
- respublikaga asosiy turistik oqimini ta’minlovchi, iqtisodiy barqaror va xavfsiz davlatlarning fuqarolari uchun viza rejimini yanada liberallashtirish bo‘yicha bosqichma-bosqich chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- xususiy sektorni jalb qilish va tadbirkorlar faolligini rag‘batlantirish bo‘yicha manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish, sohani barqaror rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;
- davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish va keng qo‘llash.

Yuqorida sanab o‘tilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish mamlakat normativ-huquqiy bazasini xalqaro standartlar va me’yorlar bilan uyg‘unlashtirish, turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, iqtisodiyotda turizm sohasining rolini oshirish uchun iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish, shu jumladan 2025 yilda turizm eksportini 951 mln. AQSh dollaridan 2,2 mlrd. AQSh dollarigacha oshirishni ta’minlaydi.

2) turistlarning ehtiyojlari va talablarini inobatga olgan holda, mamlakatning barcha hududlarida turizm infratuzilmasi va yondosh infratuzilmani rivojlantirish, xususan:

- talabni inobatga olgan holda, yangi joylashtirish vositalarini qurish va mavjudlarni rekonstruksiya qilish bilan bir qatorda yondosh infratuzilmani (umumiy ovqatlanish obyektlari, transport-logistika tuzilmalari, ko‘ngilochar maskanlar industriyasi, madaniy va sport muassasalari, turistik namoyish obyektlari va boshqalarni) rivojlantirishga qaratilgan turizm industriyasini rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- mehmonxonalar va boshqa turizm infratuzilmasi obyektlarini qurishga oid loyihalarni amalga oshirish mexanizmini soddalashtirish, tadbirkorlarga o‘z xizmatlarining sifatini oshirish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, jahonga mashhur mehmonxona biznesi brendlarini O‘zbekistonga jalb qilishni rag‘batlantirish;
- joylashtirish vositalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish, yirik, o‘rta, kichik mehmonxonalar va xostellarni qurishni rag‘batlantirish hamda mavjud mehmonxonalarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga alohida e’tibor qaratish;
- zamonaviy xalqaro standartlarni hisobga olgan holda ko‘cha infratuzilmasini (o‘tish yo‘llari, trotuarlar, kichik arxitektura shakllari, sanitar-gigiyenik shoxobchalar, jismoniy imkoniyati cheklangan insonlar uchun obodonlashtirish elementlari va boshqalarni), shu jumladan turizm-rekreatsion markazlarda yaratish;
- turizm navigatsiyasining yagona unifikatsiyalashtirilgan tizimini joriy etish va rivojlantirish, ko‘chalarda, hududlarda, turizm namoyishi obyekti hisoblangan bino va inshootlar ichida, transport vositalari va tarmoqlarida hamda avtomobil yo‘llarida turizm navigatsiyaning unifikatsiyalashtirilgan ko‘rsatkichlarini o‘rnatish.

Yuqorida sanab o‘tilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish:

- turoperatorlar soni 860 dan 1 676 tagacha hamda turizm sohasining boshqa subyektlari sonini oshirish evaziga xalqaro standartlarga mos turizm infratuzilmasini rivojlantirish, shuningdek joylashtirish vositalari soni 850 dan 3000 tagacha o‘sishini;
- turizm xizmatlari sifati, xilma-xilligi va eksport hajmining o‘sishi, jahon bozorining yirik vakillari (brendlarini) jalb qilish va xorijiy investitsiyalar oqimini ko‘paytirishni ta’minlaydi.

3) transport logistikasini rivojlantirish, tashqi va ichki yo‘nalishlarni kengaytirish, transport xizmatlari sifatini oshirish, shu jumladan:

- yo‘lovchilar tashuvini rivojlantirish, shu jumladan doimiy transport qatnovini yo‘lga qo‘yish, turli transport vositalarining qulay tutash bog‘lamalarini tashkil etish, turizm markazlarini birlashtiruvchi respublika va mintaqaviy ahamiyatga molik yangi avtomobil yo‘llarini qurish va mavjudlarni rekonstruksiya qilish, tutash yo‘l infratuzilmasi (kemping va servis xizmat ko‘rsatish obyektlari, umumiy ovqatlanish markazlari, tibbiy va sanitariya shoxobchalarini) yaxshilashga qaratilgan davlatlararo shartnomalar bilan tasdiqlangan dasturni shakllantirish, transport tariflarini optimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- yirik xalqaro aviatashuvchilarni jalb qilish, budjet aviatashuvlarni tashkil qilish;
- respublika hududlari o‘rtasida aviaqatnovlarni rivojlantirish;
- yangi temir yo‘llarni qurish va mavjudlarni takomillashtirish, yuqori tezlikda harakatlanadigan elektropoyezdlardan foydalanishni kengaytirish;
- sifatli transport xizmatlarini ko‘rsatish uchun transport vositalarining harakatlanuvchi tarkibini muntazam yangilab borish.

Yuqorida sanab o‘tilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish:

- xalqaro parvozlar va to‘g‘ridan-to‘g‘ri, shu jumladan mamlakatning tarixiy shaharlariga reyslarning geografiyasini kengaytirish, aviaqatnovlar sifatini oshirish va qiymatini pasaytirish;
- o‘z ichiga havo, temir yo‘l va avtomobil transportini qamrab olgan qulay va arzon transport logistikasini ta’minlash, respublika hududlariga va xorijiy davlatlarga sayohatlarni amalga oshirishda qulay shart-sharoitlar yaratish;
- mamlakatni yo‘lovchilar tashish sohasida yirik mintaqaviy transport “xabi”ga aylantirishni ta’minlaydi.

4) quyidagilarni ta’minlash maqsadida turizm bozorining turli qatlamlariga mo‘ljallangan turistik mahsulotlar va xizmatlarni diversifikatsiya qilish orqali mavsumiy omillar ta’sirini kamaytirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni qabul qilish:

- turizm yo‘nalishlarini tizimlashtirish va pasportlashtirishni amalga oshirish, O‘zbekiston Respublikasining marshrutlari tarmog‘i va turizm namoyishi obyektlarining yagona axborot bazasini shakllantirish;
- O‘zbekiston Respublikasining xilma-xil hamda yilning turli fasllarida jozibador va raqobatbardosh turistik mahsulotlari, shu jumladan mamlakat hududlarida tematik turistik zonalari va klasterlarni yaratish orqali hamda turizmning istiqbolli turlari (ziyorat, ma’rifiy, ekologik, etnografik, gastronomik, sport, davolovchi-sog‘lomlashtiruvchi, qishloq, sanoat, ishbilarmonlik va boshqalarni) hisobga olgan holda, yangi turizm dasturlarini ishlab chiqish;
- zamonaviy va raqobatbardosh hunarmandchilik-suvenir mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda “MICE – turizm”ni rivojlantirish bo‘yicha dasturiy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

Yuqorida sanab o‘tilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish:

- bir nechta turizm turlarini birlashtirish hamda turli-tuman tadbirlar bilan boyitish orqali taklif etiladigan turistik turlarining jozibadorligini oshirish, mamlakat bo‘ylab turistik turlarining o‘rtacha davomiyligini kamida ikki sutkaga oshirib, 8 sutkagacha yetkazish, shaharlar bo‘yicha esa amaldagi 1,5-2 sutkadan 3 sutkagacha ko‘paytirish;
- turizmning barqaror rivojlanishi va mamlakatimizga takroriy tashriflar soni oshishini ta’minlaydi.

5) respublika ichida turizm xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojni qondirishga qaratilgan turizm faoliyati subyektlarining faolligini rag‘batlantirishni ta’minlaydigan ichki turizmni rivojlantirish, xususan:

- turistik-ekskursion xizmatlar iste’moliga aholining keng qatlamlarini jalb qilish, ichki turizm harakatining ommaviyligini qayta tiklash, turizm xizmatlarini ishlab chiqish hamda mavsumiy notekislik oqibatlarini yumshatishda keng miqyosli ta’sirdan foydalanish maqsadida “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil” Dasturining amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish;
- ijtimoiy, madaniy-rivojlantiruvchi, ekologik, etnomadaniy hamda qishloq turizmi dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- umumiy va kasb-hunar ta’limi dasturlariga turistik ekskursiya tadbirlarini kiritish.
- Yuqorida sanab o‘tilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish:
- sifatli turistik mahsulotlarni shakllantirish, mavsumiy omillarga bo‘lgan qaramlikni kamaytirish hamda mehmonxonalar yuklovini, ayniqsa yilning nomavsumiy oylarida oshirish maqsadida ichki resurslardan samarali foydalanish;
- hududlar o‘rtasida turistlar ichki oqimini kengaytirish, ular sonini yiliga 14 milliondan 19 milliongacha oshirishga imkon beradi.

6) Quyidagilar orqali O‘zbekiston Respublikasi turistik mahsulotini ichki va tashqi turizm bozorlarida ilgari surish, uning sayohat va dam olish uchun xavfsiz mamlakat sifatidagi imidjini mustahkamlash:

- O‘zbekiston Respublikasining yagona milliy turizm brendini yaratish hamda unga asosan har bir hududning o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, hududlarning turizm brendlarini yaratish;
- barqaror, asosan muhim hamda yo‘naltiruvchi turistik bozorlarga qaratilgan milliy turistik mahsulotni ilgari surish bo‘yicha samarador strategiyasini ishlab chiqish;
- milliy turizm bozorida mintaqadagi eng yirik turizm ko‘rgazmalaridan birini tashkil qilish maqsadida sohadagi ko‘rgazma faoliyatini jipslashtirish va qo‘llab-quvvatlash;
- mamlakatda va xorijda imidjni targ‘ib qiluvchi reklama-axborot kampaniyasini o‘tkazish;
- turistik xarakterga ega xalqaro tadbirlarda turizm tashkilotlarining o‘zi ishlab chiqargan mahsulotlarini ilgari surish bo‘yicha ishtirokini rag‘batlantirish;
- respublika bo‘yicha bepul faoliyat ko‘rsatuvchi, shu jumladan bron qilish, suvenirlar, kitoblar va turizm xaritalari bo‘yicha ma’lumot beruvchi axborot shoxobchalari sonini oshirish;

- yuqori turistik salohiyatga ega bo‘lgan hududlarda xavfsiz turizmni ta’minlash bo‘yicha ichki ishlar organlarining maxsus bo‘linmalarini tashkil qilish, ularni zamonaviy texnika va transport vositalari bilan ta’minlash.

Yuqorida sanab o‘tilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish mamlakatimizni rivojlangan turizm industriyasi hamda boy turistik salohiyatga ega bo‘lgan, sayohat va dam olish uchun xavfsiz davlat imidjini shakllantirishga, shuningdek yangi turizm bozorlarini o‘zlashtirish, xorijdan tashrif buyuruvchilar sonini yiliga 4,8 milliondan 9 milliongacha, shuningdek O‘zbekistonga turistlarni jalb qilish bo‘yicha xorijiy hamkorlar sonini oshirishga xizmat qiladi.

Rasulova D. K. - SamISI IK-118 talaba
Eshquvvatova N. A- SamISI IK-118 talaba
Qulmurodova R. A - SamISI IK-118 talaba

O‘ZBEKISTON MINTAQALARIDA JOYLASHGAN TABIIY TURISTIK RESURSLAR HAMDA MILLIY MEROS RESURSLARIDAN TURISTIK MAQSADLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH MUAMMOLARI

Abstract: *This article describes the use of foreign natural resources in the development of tourism and the effective use of tourist resources in the Republic of Uzbekistan.*

Keywords: *Tourism, tourism resources, services, investment, tourism industry, infrastructure, income, gastronomic tourism.*

Аннотация: *В данной статье описывается использование зарубежных природных ресурсов в развитии туризма и эффективное использование туристических ресурсов в Республике Узбекистан.*

Ключевые слова: *туризм, туристические ресурсы, услуги, инвестиции, индустрия туризма, инфраструктура, доходы, гастрономический туризм.*

Mamlakatimizda turizmni ommaviy rivojlanishi, uning ijtimoiy-iqtisodiy hodisaga aylanishi bilan turizm sohasi faoliyatini samarali tartibga solish va optimallashtirish muammolari alohida ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasida turizmni milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholining daromadlari va turmush darajasini oshirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishni ta’minlovchi strategik tarmoqlardan biri sifatida rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son Farmoniga binoan 2019 — 2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi qulay iqtisodiy sharoitlar va omillarni yaratish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlarning samaradorligini oshirish, turizm sohasini jadal rivojlantirish bo‘yicha ustuvor maqsad va vazifalarni belgilash, uning iqtisodiyotdagi o‘rni va ulushini oshirish, xizmatlarni diversifikatsiyalash va ularning sifatini oshirish hamda turizm infratuzilmasini takomillashtirishga qaratilgan.

O‘zbekiston juda katta turizm va rekreatsiya salohiyatiga ega, unda jami 7,4 ming madaniy meros obyektlari mavjud, ulardan 209 tasi to‘rtta muzey shaharlar — “Xiva shahridagi Ichan-qal’a”, “Buxoro shahrining tarixiy markazi”, “Shahrisabz shahrining tarixiy markazi”, “Samarqand shahri” hududida joylashgan bo‘lib, YUNESKO butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan.

2010 — 2017-yillar davomida turizm xizmatlari eksporti hajmi ikki baravar oshdi va 2017-yilda 546,9 million AQSh dollari, 2018-yilda esa — 1 041 million AQSh dollarini tashkil etdi. 2016-yilgacha xorijiy tashrif buyuruvchilar sonining o‘sish sur’ati o‘rtacha yillik 8 foizni, 2017-yilda — 7 foizni tashkil qilib, 2,69 million nafardan oshdi. 2018-yil yakunlari bo‘yicha respublikaga 5,3 million xorijiy turistlar tashrif buyurdi. Xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash va muhofaza qilishga qaratilgan choralar ko‘rilgani natijasida, 2015-yilda 398 tani tashkil qilgan turizm tashkilotlari soni 2018-yil yakuni bo‘yicha 950 taga, mehmonxona xo‘jaliklari soni — 661 tadan 900 taga yetdi. So‘nggi yillarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha yirik investitsiya loyihalari amalga oshirildi, shu jumladan Toshkent shahrida “Nyatt Regency Tashkent” va “Lotte City Notel Tashkent Palace” brendli mehmonxonalar ochilishi, Andijon, Urganch va

Toshkent shahrida madaniy-ko‘ngilochar bog‘larning tashkil etilishi, “Angren-Pop” temir yo‘li ochilishi, Buxoro, Qarshi, Shahrisabz va Xiva shaharlariga tezyurar poyezdlar uchun elektrlashtirilgan temir yo‘llari ochilishini aytib o‘tish joiz.

Turistik resurslarning mohiyati shundan iboratki, turistik mahsulot shakllanishiga asos hisoblanadi. Umumiy qilib aytganda, aniq hududda turistik faoliyatda foydalanish mumkin bo‘lgan barcha ob’yektlar kiradi. Turizmni rekreatsiyaning ko‘rinishi sifatida olsak, «turistik resurslar» tushunchasi «rekreatsiya resurslari» bilan birgalikda uyg‘unlashadi. Turistik resurslarning asosini rekreatsiya resurslari tashkil etadi. Rekreatsiya resurslari bu - turli komponentlar birikmasidan iborat, insonning dam olishi va davolanishi ehtiyojlarini qondirishda xizmat qiladigan vositalardir. Kelib chiqishi va foydalanish xususiyatlariga ko‘ra rekreatsion resurslar ikki guruhga ajratiladi: tabiiy va antropogen rekreatson resurslar.



Davlat iqtisodiyotini rivojlanishi va o‘sishida turizm sohasining va ulardan tushadigan pul mablag‘larining ahamiyati katta. Buni bir qancha turizm sohasi bo‘yicha yuqori natijaga erishgan davlatlar misolida ko‘rish mumkin. Ispaniya 2017-yilda turizm sohasi eng yaxshi rivojlangan mamlakat deb topildi. Bu haqda Travel and Tourism Competitiveness Report tadqiqot natijalari jahon iqtisodiy reytingni tuzishda davlatning ochiqligi, infratuzilma va aviaqatnovlarning taraqqiyot darajasi, tabiat va madaniyatga oid diqqatga sazovor joylar, xavfsizlik va boshqa jihatlari e’tiborga olindi. Reytingning ikkinchi o‘rnidan Fransiya, uchinchi o‘rnidan esa Germaniya joy oldi. Ro‘yxat o‘nligidan, shuningdek, Yaponiya, Buyuk Britaniya, AQSh, Avstraliya, Italiya, Kanada va Shveysariya joy oldi. Rossiya reyting 43-o‘rnini egalladi. Avvalroq Travel and Tourism Competitiveness Report talqini bo‘yicha Braziliya eng boy tabiatga ega bo‘lgan mamlakat deb topilganligi haqida xabar berilgan edi.

Respublikamizning turizm ko‘rsatkichlarini xalqaro turizm ko‘rsatkichlari bilan solishtirma tahlili shuni ko‘rsatadiki, mamlakatda turizmning hozirgi ahvoli uning salohiyati va imkoniyatlariga to‘g‘ri kelmaydi. Jahon turizm tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra 2018 yil 1- yanvar holatiga, dunyoda Fransiya-86.9 mln. sayyohlar oqimi bilan birinchi o‘rinni egallagan bo‘lsa, keyingi o‘rinda Ispaniya-81.9 mln. va AQSh 75.9mln., shuningdek Xitoy 60.7 mln va Italiya 58.3 mln. kuchli

beshlikdan joy olgan. O‘zbekiston ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha 73-o‘rinni egallagan. Yoki mamlakat yalpi ichki mahsulotida turizmning ulushi Maldiv orollarida 76.6 % ni tashkil etib, birinchi o‘rinni egallagan bo‘lsa, Barbados orollari 40.6 % bilan kuchli o‘nlikdan joy olgan. O‘zbekiston esa ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha 2.8 % bilan 171- o‘rinni egallagan.[91]

Yuqoridagi tahlil natijalari respublikamizning turizm sohasini potensial imkoniyatlarini qayta chuqur tahlil qilish, mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan izlanishlar olib borish va takliflar ishlab chiqish lozimligini ko‘rsatadi.

Olib borilgan izlanishlar asosida mamlakatimizda turizm sohasini yanada rivojlantirish maqsadida quydagi chora tadbirlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- turizmning barcha turlari (ziyorat turizmi, gastronomik turizm, festival va ko‘rgazmalar turizmi, tibbiyot turizmi, ekoturizm, agroturizm, tog‘-chang‘i turizmi va boshqalar) dan samarali foydalanish va ularni rivojlantirish;
- aeroport, temir yo‘l vokzallari va avtotransport xizmatlarini jahon standartlariga moslashtirish, ularning sifatini oshirish hamda aviaqatnovlarning yo‘nalishlarini ko‘paytirish va ularni arzonlashtirish;
- turizm infratuzilmasini yanada yaxshilash, avtomagistral va shaharlar ichki yo‘llarini xalqaro standartlarga moslashtirish;
- Wi-fi zonalarini qamrovini yanada kengaytirish va internetdan foydalanish tezligini oshirish;
- turizm industriyasining daromadlarini ko‘paytirish maqsadida sayyohlik salohiyatini aniqlash va turizmni oqilona rivojlantirish maqsadida hududlarning sayyohlik biznesini rivojlantirish dasturlari, turistik markazlar hududlarining infratuzilma loyihalarini tayyorlash, kadrlarni o‘qitish va qayta tayyorlash, axborotlar ta’minoti va reklamalar uchun davlat byudjeti va boshqa mablag‘lar hisobidan investitsiyalar kiritishni ko‘paytirish;
- turizm sohasida innovatsion jarayonlarni takomillashtirish, yangi turistik mahsulotlar va xizmatlarni yaratish va turizm biznesida yangi boshqaruv texnologiyalarni joriy etish lozim.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash kerakki, mamlakatimizga kelayotgan sayyohlarga sifatli xizmat ko‘rsatish, ularning yurtimiz haqidagi taassurotlarini boyitish, turistlar oqimini kengaytirish maqsadida turistik resurslar hamda milliy me’roslarimizdan unumli foydalansak, mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojiga va dunyo bo‘ylab tanilishiga erishgan bo‘lamiz.

Alimov A.K - PhD, Iqtisodiyot kafedraasi dotsenti,
Kaljanov D. B - 1-kurs magistr, QQDU

MINTAQADA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA TABIIY VA ETNOGRAFIK RESURSLARNING O’RNI

Аннотация: *В настоящее время туристы всего мира проявляют особый интерес к природному, сельскому, культурному туризму. В статье представлена информация о туристских ресурсах республики.*

Annotation: *Currently tourists around the world are showing a particular interest in natural, rural, cultural tourism. The article provides information on tourist resources of the republic.*

Bugungi kunda O‘zbekiston katta turistik resurslar salohiyatiga ega bo‘lib, uning hududida 7000 dan ortiq tarixiy-arxitektura yodgorliklari va go‘zal tabiiy-iqlimiy resurslari mavjud. Mamlakatimizda mavjud jami turistik-rekreatsion obyektlaridan Toshkent shahrida 144 tasi, Samarqandda 118 tasi, Buxoroda 201 tasi va Xiva shahrida 310 tasi joylashgan bo‘lib, ushbu turistik obyektlardan foydalanadigan turistik firmalar esa asosan markaziy mintaqalarda joylashganini ko‘ramiz. Ammo bugungi kunda ushbu turistik resurslarning 3/1 qismigina turizm uchun faoliyat ko‘rsatmoqda, qolganlari esa turistik infratuzilmaning shakllanishini va yangi turmahsulotlar tayyorlashni talab qilmoqda. Hozirgi vaqtda ko‘pgina tarmoqlar kabi turizm industriyasi ham tez rivojlanib bormoqda. Turistik biznesni mavjud investitsiya, texnologiya hamda

[91] Jahon turizm tashkiloti hisoboti http://tourlip.net/wto/WTO highlights 2018

malakali ishchi-xodimlar orqaligina shakllantirib bo‘lmaydi. Buning uchun birinchi navbatda, turistik resurslardan samarali foydalanish zarur bo‘ladi.

Qoraqalpog`iston Respublikasi turizm va mehmonxona xizmatlarini rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega mintaqa hisoblanadi. Hozirgi vaqtda respublikada 48 ta me`morchilik va arxitektura yodgorliklari, 42 ta monumental va san`at yodgorliklari xamda 3 ta diqqatga sazovor joylar (Sulton Uvays memorial majmuasi, Savitskiy nomidagi Qoraqalpog`iston davlat san`at muzeyi, Mizdaxkan arxitektura majmuasi) va 255 ta arxeologik obidalar mavjud. Bundan tashqari, mintaqada mehmonxona, uy mehmonxonalari va «yurta» (qora uy)lar faoliyat yuritmoqda.

Hozirgi kunda mintaqaning Qonliko`l, Chimboy va Kegeyli tumanlarida mehmonxonalar umuman mavjud emas. Ellikqal`a tumanidagi Tuproq qal`a (m.av. I-IV asrlar), Ayoz qal`a (m.av. III-IV asrlar), Qirqqiz qal`a (e.av. III-IV asrlar), Burgut qal`a (VI-VIII asrlar), Amudaryo tumanidagi Shilpiq (I-IV asrlar), Xo`jayli tumanidagi Mizdaxkan majmui (III-IV asrlar) katta tarixiy-madaniy va ma`naviy ahamiyatga ega. Shunday boy salohiyat mavjudligiga qaramasdan, mintaqaning shimoliy hududlarida turizm va mehmonxona xizmatlari talab darajasida emas.

Qoraqalpog`iston Respublikasi O`zbekistonning shimoli-g`arbida, Amudaryoning quyi, Orol dengizining janubiy qismida joylashgan. Respublika Qoraqum va Qizilqum sahrolariga tutashib ketgan bo`lib, umumiy er maydoni 166,6 ming kvadrat kilometrdan iborat. U hududining kattaligi bo`yicha O`zbekiston Respublikasi mintaqalari o`rtasida birinchi o`rinda turadi. Mintaqa er maydonlarining 80 foizdan ortig`ini qum barxanlaridan iborat cho`l hududlari tashkil qiladi. Orol dengizining qurib borayotganligi tufayli mintaqa ekologik talofat zonasi hisoblanadi. Shunday ekologik tang vaziyatda ham turistlarning mintaqaga qiziqishi yildan-yilga oshib bormoqda.

Turistik resurslar – tabiiy, tarixiy, ijtimoiy-madaniy va boshqa obyektlar bo‘lib, turistlarni sayohatga qiziqtiradigan, insonning jismoniy, ruhiy va aqliy kuchini tiklashi va rivojlanish ehtiyojlarini qondirishga qodir bo‘lgan obyektlardir. Turizm sohasining resurslari – turizm maqsadlarida va turizm jarayonida insonning ehtiyojini qondirishga qodir tabiiy-iqlim, ijtimoiy - madaniy, tarixiy, me’moriy, ilmiy va xizmat ko‘rsatishga doir, tomosha qilinuvchi obyektlar yoki hodisalar to‘plamidan iborat.

Tabiiy rekreatsion resurslarga, hududiy tabiiy komponentlar birikmasidan iborat, go’zal tabiat go’sha(landshaft)lari kiradi. Ular daryo, ko’l, dengiz bo’ylari, tog’ etaklaridagi o’simlik dunyosi, xilma – xil manzarali joylar, mineral suvli shifobaxsh maskanlar bo’lishi mumkin. Undan tashqari aholining dam olishi, sport bilan shug’ullanishi, ov qilishi imkoniyatlari uchun keng hududlar, shahar atrofidagi yashil mintaqalar, park va bog’lar yoki qo’riqxona va milliy bog’lar ham tabiiy rekreasiya resurslaridir.

V.S.Bogolyubov va V.P.Orlovskayalar (Экономика туризма. M.2005,151 б.) turistik resurslarda alohida ajralib turuvchi quyidagi 1-rasmdagi asosiy belgilarni keltirib o’tgan:



1-rasm. Turistik resurslarning asosiy belgilari

Turizmni rivojlantirish uchun birinchi navbatda turistik resurslarni ro`yxatga olish lozim. Ro`yxatga olish to`laqonli bo`lishi hamda mintaqada yashovchi va o`suvchi barcha o`simlik va

hayvonlarning ro`yxati yoki barcha tarixiy bino va inshootlar, yodgorliklarning ilmiy asoslangan katalogi sifatida qaramaslik kerak. Mavjud turistik resurslar qanchalik darajada turizmni rivojlantirishini aniqlash zarur. Buning uchun ikkinchi bosqichda mintaqaning turistik resurslarning salohiyatini baholash kerak bo`ladi.

Etnografik turizm – turli xalqlar, elatlar va hududlarning urf-odatlari, madaniyati va turmush tarzini o‘rganishga bo‘lgan harakat, intilishlar insonlarni sayohat qilishga undaydi. Masalan, turli xalqlarning urf-odatlari, turmush tarzi, milliy taomlari, kiyim-kechaklari, ro‘zg‘or buyumlari, madaniy-tarixiy obidalari turizm sohasida eng ommalashgan xizmat ko‘rsatish turlari sifatida namoyon bo‘lib kelmoqda.

Mintaqada o’ziga xos urf-odatlarga ega qoraqalpoq, o’zbek, turkman va boshqa millat vakillari yashashadi. Xalqimizning boy madaniyati, yashash tarzi, milliy urf-odatlari, qishloq hayoti tarzidan turistik maqsadda foydalanish orqali etnoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari mavjud.

Turistlarni xalqimizning qadimiy urf-odat, dasturlarini, noyob tarixiy-madaniy va me’moriy meros obyektlari bilan keng tanishtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, manzilli turizm xizmatlarini ko‘rsatish uchun turizm infratuzilmasini rivojlantirish, turli madaniy-ko‘ngilochar tadbirlar o‘tkazish markaziga aylantirish orqali hududga turistlar oqimini yanada ko‘paytirish hamda ularning hududda bo‘lish davomiyligini uzaytirish, shuningdek, turizm sohasida tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi mahalliy aholi sonini ko‘paytirish maqsadida Chimboy, Mo`ynok, Qonliko`l, Ellikqal`a tumanlarida etnografik, madaniy, musiqiy va gastronomik festivallar doimiy ravishda tashkillashtirilmoqda. Bu festivallarning o`tkazilishi xorijiy turistlarning mintaqaga qiziqishini orttiradi va istiqbolda soha rivoji uchun tamal toshi bo`lib xizmat qiladi.

M.Mardonova – SamISI magistranti

TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA MADANIY OBYEKTLARDAN FOYDALALANISHNING AHAMIYATI

Аннотация: *В этой статье освещаются теоретические последствия использования культурных объектов для развития туризма.*

Ключевые слова: *туризм, Всемирная туристская организация, иностранные граждане, отдых, деловые поездки, паломничество, незнакомые территории, туристическая инфраструктура, возрождение истории.*

Annotation: *This article highlights the theoretical implications of using cultural sites for tourism development.*

Key words: *tourism, World Tourism Organization, foreign citizens, leisure, business trips, pilgrimage, unfamiliar territories, tourist infrastructure, revival of history.*

Bugungi kunda turizm iqtisodiyotimizning ertangi kuni sifatida baholanmoqda. Shu sababli ham so‘nggi yillarda ushbu sohada ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Dunyoda resurs sarflamasdan insonlar ehtiyojini qondiruvchi va mamlakatni dunyoga tez tanituvchi yagona soha turizm hisoblanib, uni rivojlantirish orqali davlatlar iqtisodiyotini yuksaltirish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 2-dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-4861-son farmoniga muvofiq, turizm mamlakatimiz iqtisodiyotining strategik tarmog‘i sifatida belgilandi.

Buning natijasida soha rivoji uchun farmon va qarorlar qabul qilindi, ko‘plab islohotlar amalga oshirildi va qulay infratuzilma yaratish va sektorda klasterni joriy qilish bo‘yicha ishlar bajarildi. Agar statistik ma’lumotlarga yuzlanadigan bo‘lsak, 2018 yilda mamlakatimizga 5,3 million xorijiy turist tashrif buyurgan va 14 milliondan ortiq mahalliy turistlar sayohatlarni amalga oshirgan. Bu ko‘rsatkich 2017-yilga nisbatan 30% ga ko‘pdir.[92] Ammo turizmning strategik sektor sifatida baholanishida faqatgina turistlar oqimiga e’tiborni qaratish bilangina cheklanish to‘g‘ri hisoblanadimi? Mavjud statistik ma’lumotlar qanchalik aniq? Turistlar soni o‘tgan yillarga nisbatan

[92] https://uzbektourism

yuqori foizlarda oshgani bilan undan olingan daromadlar va ko‘rsatilgan xizmatlarning sifati qay darajada?

O‘zbekiston o‘zining tarixiy shaharlari, obida va ziyoratgohlari, qolaversa, tabiiy iqlimi, mazzali meva-sabzavotlari-yu taomlari bilan alohida ajralib turadi. Albatta, turistlarni jalb qilishda bularning o‘zi yetarli emas. Chet ellik mehmonlarni aeroport yoki temir yo‘l bekatlarida kutib olishdan tortib, to kuzatib qo‘yishgacha bo‘lgan davrda ularga zarur qulayliklar yaratish, avvalo, ravon yo‘llarni barpo etish, shinam mehmonxona va zamonaviy transport xizmatlarini yo‘lga qo‘yish, o‘zimizning milliy taomlarimiz bilan ularni xushnud qilishimizni talab qiladi. Xalqaro tajribalarni o‘rganish jarayonida shunga guvoh bo‘lish mumkinki, turizmda eng asosiy maqsad sifatli xizmat va ko‘p daromad ko‘rishdan iborat.

Butun Jahon turizm tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, 2018 yilda dunyo bo‘yicha xalqaro turistlar eng ko‘p tashrif buyurgan hudud Fransiya bo‘lib, 89.4 million kishini tashkil qilgan. Turizmni rivojlantirish uchun eng ko‘p sarf-xarajat qilgan davlatlar ro‘yxatida 277 mlrd AQSH dollar hisobida Xitoy 1-o‘rinda turibdi. Biroq, xalqaro turizmdan eng ko‘p daromadga erishgan davlatlar o‘ntaligida 214,5 AQSH dollari bilan AQSH birinchilikni egallagan.[93] Demak, turizmni iqtisodiyotga keltiradigan foydasi mamlakatga keladigan turistlar sonida emas, aksincha ularga taklif qilinadigan xizmatlar turi va turistlar tomonidan sarflanadigan pul miqdoriga bog‘liq.Shuning uchun bor e’tiborimizni turistlar soniga emas, ularga ko‘rsatiladigan xizmatlar turini ko‘paytirish orqali daromadni oshirish yo‘llariga qaratishimiz lozim.

Bundan tashqari, bugungi kun uchun eng dolzarb muammolardan yana biri mamlakatga tashrif buyuruvchi xorijiy fuqarolarning qay maqsadda kelishini aniqlash va ulardan qanchasi turizm maqsadida kelayotganini bilishdir. Turizm sohasida xalqaro miqyosda statistik ma’lumotlarni jamlash jarayonida huquqiy-me’yoriy hujjatlar bilan ishlash dunyo mintaqalari, hattoki, mamlakatlarida turlicha bo‘lib, bu sohani rivojlantirish hamda boshqarishni takomillashtirish yo‘lidagi eng katta muammolardan biridir. Ko‘pchilik hollarda, sayyohlar qatoriga, nafaqat, dam olish maqsadida bo‘lgan aholi qatlami, balki, biznes sayohat, do‘stlar yoki qarindoshlarni ziyorat qilish maqsadida mamlakatga kirib kelayotgan yoki chiqib ketayotgan aholi qatlami ham kiritiladi. O‘zbekistonda aholining qo‘shni mamlakatlar bilan yaqin qarindoshchilik aloqalarining yuqoriligi natijasida shunday maqsad bilan yurtimizga kirib kelayotgan sayyohlar soni sezilarli darajada ko‘p. Ammo, ularni maqsadiga ko‘ra tasniflash jarayonida faqatgina bojxona deklaratsiyasiga asoslanilishi sayyohlarning maqsadiga ko‘ra turlarini aniqlash imkonini bermaydi va buning natijasida “sof” axborot olinmaydi. Bugungi kunda Yevropa mamlakatlarida “satellit” tizimi amal qilib, so‘rov bazasiga ega bo‘lgan bank tizimi yordamida ular soni hisoblab boriladi.[94] Bunda har bir tovar yoki xizmatga mos keluvchi maxsus kodlar o‘rnatilgan bo‘lib, ulardan foydalanib, kartochka orqali haqini to‘lagan vaqtda sayyoh haqidagi axborot bazaga tushadi va iste’mol hisobi olib boriladi. Mazkur kartochka orqali sayohatchining turar joyi, xizmat yoki tovar turidan foydalangan vaqtda uning qaysi guruhga mansubligiga ko‘ra sayohatchining maqsadi aniqlashtiriladi va ma’lumotlar bazasiga tog‘ridan-to‘g‘ri joylanadi. Ushbu tizim yurtimizda ham joriy qilinsa, ma’lumotlarning aniq bo‘lishiga erishilardi.

To‘g‘ri keying paytda yurtimizga dam olish uchun kelayotgan turistlar soni ancha oshdi. Lekin, kamchiliklar yetarli darajada.Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqqan holda, endilikda turizmning salohiyatini oshirish va ushbu sohaning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini ko‘tarishda, mavjud kamchiliklarni bartaraf etishda quydagilarni keltirish mumkin:

1. “Mamlakatimiz turizm sohasida ulkan salohiyatga ega bo‘la turib, uzoq yillar bu imkoniyatdan to‘liq va samarali foydalanilmadi” – deb yozilgan jumlalarga ko‘zimiz tushadi. Biroq, bugungi kunda ham undan to‘laqonli foydalana olmayapmiz. Yurtimizga tashrif buyurgan xorijiy turistlar faqatgina Toshkent, Samarqand, Buxora va Xiva mo‘jizalaridan bahramand bo‘lish bilan cheklanmoqda. Tarixga boy, ammo tanitilmagan hududlarimiz ko‘p. Shunday hududlardan biri Termizdir. Bu shahar jahon xalqlari orasida “Amudaryo sohilidagi qadimgi Iskandariya shahri

[93] www.UNWTO.barometr

[94] http://www.tourlib.net/books_tourism

hamda Buyuk Makedoniskiy tomonidan asos solingan Yunon-Baqtriya shahri deb tanilgan. Qadimdan “afsonaviy” – deb hisoblangan Surxondaryo vohasi antik davr madaniyatini o‘zida aks ettirgan, Fayoztepa singari qadimiy maskanlari haqida ma’lumotlar juda ko‘pchilik mahalliy va xorijiy turistlarga ma’lum. Ana shunday hududda turizm infratuzilmasini yaratish va tarixni jonlantirish orqali ham turistlar oqimini va eng asosiysi ushbu hudud hisobiga turizm eksporti ulushini oshirishimiz mumkin.

2. Yurtimizning eng so‘lim go‘shalaridan biri hisoblangan uch hududni o‘zida birlashtirgan “VODIY” vohasi hech bir hududda uchramaydigan, tabiat tuhfa etgan noz-ne’matlari bilan bir qatorda “Samoviy otlar”i bilan ham maqtana oladi. Ammo, dunyo ahli lol qolgan bunday imkoniyatlar turizmda faoliyat olib boruvchi tashkilotlarimiz nazaridan chetda qolmoqda. Ushbuhududlarda turlar tashkil qilinsa, turistning tashrif vaqti uzayadiva ma’lum darajada daromad olish imkoni paydo bo‘ladi.

3. Joriy yilda Toshkent shahrida mashhur davlat arboblari va yulduzlarning mum-haykallar muzeyi ochildi. Ana shunday muzeylarni har bir viloyatda tashkil qilish va unda eng asosiysi o‘zbek xalqining dunyoga mashhur hisoblangan To‘maris, Jaloliddin, Amir Temur, Ulug‘bek, Navoiy, Nasriddin afandi va buyuk Jadidlar siymolarini aks ettirish milliy turizm uchun ijobiydir.

4. Qoraqalpog‘istonda “Sahrodagi Luvr” deya ta’rif beriluvchi I.Savitskiy nomidagi muzey joylashgan. Ushbu muzeyda “Taqiqlangan san’at cho‘llari” hujjatli filmi bu yerdagi eng noyob to‘plamga bag‘ishlangan bo‘lib unda xorijiy tomoshabinlarga ushbu noyob muzeyning yaratilishi , qanday qilib ular oz-ozdan surat yig‘ib, Sovet senzurasidan himoya qilinganligi to‘g‘risida so‘zlab beradi. Muzeyga turistlarni jalb qilish orqali hudud etnografiyasini namoyish qilish mumkin.

5. O‘zbekiston o‘zining milliy hunarmadchiligi bilan dunyoga mashhurdir. Har bir tashrif buyurgan turist milliy buyumlarimizni sotib olish bilan birga, uni qanday yasalishini kuzatishni va hattoki o‘z qo‘llari bilan buyumlardan yasashni hohlaydilar. Shularni inobatga olib, turistik yo‘nalishlarda zargarlik, sopol-yog‘och, ipak matolar va qog‘oz savdo-ishlab chiqarish markazlari tashkil qilinib, ularda “MAKE UP” bo‘limlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish lozimdir.

6. Vatanimiz sarhadlaridan o‘tgan, Rim imperiyasidan ham kattaroq bo‘lgan Buyuk Ipak yo‘li dunyoning turli burchaklari o‘rtasidagi savdo, ilmiy va madaniy aloqalarni rivojlantirishga ulkan hissa qo‘shgan. Bugungi kunda esa shu yo‘lning markazida joylashgan O‘zbekiston sharq madaniyati ixlosmandlari uchun haqiqiy kashfiyotdir. Biz “Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab O‘zbekistonning mo‘jizalarini kashf eting” rukni ostida diyorimizni dunyoga tanitishimiz va turizm maqsadlarida foydalanishimiz mumkin. Ta’kidlash lozimki, yurtimizda antik va me’moriy merosga ega jahon sayyohlikyo‘nalishlari bilan munosib raqobatlasha oladigan unitilmas noyob joylar ko‘p.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bugungi kun iqtisodiyotida turizm sohasining o‘rni yuqori. Buni inobatga olgan holda, eng avvalo, mamlakatda mavjud ulkan salohiyatdan yuqori darajada foydalanish yo‘llarini topish kerak. Yurtimizga kelayotgan turistlar oqimini, aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, sayyohlar sonini hisoblash bilan chekinmasdan, hali qo‘l urilmagan obyektlarni izlab topish, ularni turizmga jalb qilish va turning sifatlilik darajasini oshirishda bor imkoniyatdan foydalanishmiz kerak. Xususan, milliy madaniy merosimiz, mavjud tarixiy yodgorliklarimiz mamlakatimizning buyuk o‘tmishidan dalolat beradi va tarix hech bir kishining nazaridan chetda qolmagan.

Жабборов Р. - жамоатчи мухбир
Хамитов М.Х. – СамИСИ мустақил изланувчиси
Маликов Э. - СамИСИ талабаси

КИТОБ ТУМАН ТАРИХИНИ ЎРГАНАМИЗ. ҚАДИМГИ “ЧОХАК” ЁХУД “ЧААК” МАНЗИЛГОҲИ

Abstract: *The article discusses the study of problems and the development of tourism in Uzbekistan, as well as the effective use of natural and ethnographic resources available in the Kitab district of Kashkadarya region.*

Key words: *tourism, ecotourism, natural and ethnographic, paleontological reserve, Chokhak, Chaak.*

Аннотация: *С статье рассматривается изучения проблем и развитие туризма в Узбекистане, также эффективного использования природных и этнографических ресурсов, имеющихся в Китабском районе Кашкадарьинской области.*

Ключевые слова: *туризм, экотуризм, природно-этнографический, палеонтологический заповедник, Чохак, Чаак.*

Китоб тумани ўзининг бой сир-синоатлари билан Қашқадарё вилоятини шону шухратини жахонга кўрсатишга кўп манба ва асослар бор. Буларнинг барчаси тоғ олди қишлоқларида яъни Аёкчи, Қайнар, Паландара, Биркунлик, Сукар, Обигарм, Тошкалок, Говхона, Сиёб ва бошқа қишлоклар борки, хали буларнинг мафтункор манзаралари, ажойибот тошлари, муъжизавий маконлари ўрганилмаган.

Китоб туманини Сарой маҳалласига қарашли Биркунли қишлоғи томон йўл олдик. Тоғ томон Дамас юқорилаб борар эди. Қир-адирлар ўзининг яшил эгнини ечиб, сарғайган хасу-хашакка айланган эди. Тоғ этагидаги мармар конидан оппоқ тош ортилган Камазлар кўринарди. Илк бор қаршимизда Китоб туманини тўрт томони кафтдек кўринадиган Хўжакултепага кўзимиз тушди. Ҳозир бу тепани номини айтмасак келажакдаги авлодлар эртага эслай олмайдилар. Қум ва тупроқ йўллардан юқорига илгарлаб борар эдик. Қайнар, Варганза ва Китоб туман қишлоклари эрталаб беғубор сокин кўринар эди. Биркунли қишлоғи кириш йўлидаги чекка томонга машинани қуйиб, сой томон, дуланалар оралаб пастга туша бошладик. Бизга тепадан яқин кўринган жойимиз узоқ эканлигини тушгандан сўнг сездик. Пастга тушгандан сунг атрофи очиқ, дарахт йўк, кенг текисиликда 50 мх50млик тепаликка яқинлашдик. Бу тепаликни ўртасида баландлиги 3 метр ва айлана узунлиги 66 метр бўлган яна бир тепалик бўлиб, бу тепаликлар бекларни ёзги қароргохи ёки дам олиш хилватгоҳи деб ўйладик. Тепаликни айланиб қарасак кун ботар томонини пастки бир бурчагида узунлиги тахминан 140 см, эни 40 см , баландлиги 60 смли қора мармар тошга кўзимиз тушди. Ўркин Рўзиевни айтиши бўйича Хайрободлик мулло Аминжон ва бошқа кишилар билан келиб кетганлиги, суратга туширганлиги хақида айтди. Олдин менга айтиб, суратдан 5-6 варак чиқариб берган эди. Бу қора тошга қуръондан "Оятал курсий" устки бетида ёзилган ва ёнида ёзилган арабий ёзувни ўқиш қийинлигини Аминжон айтган экан. Тошни устида пиёладек чуқурча бўлиб, кўк йўталга чалинганлар сув олиб ичиб даволанганлар.



Чохак тепалиги

Биз борган жойни қадимдан одамлар Чохак, Чаяк, Чакдара ва Чаак деб атаб келганлар. Тожик тилидан кириб келган сўз бўлиб, кичик чуқури бўлган дара чуқурлик, чуқур, чуқурча деган маънони англатган. Бизлар маржондай тизилиб ётган тўрт бурчакли 5-6 та ясси ўлкан текис тош бўлаклари бир бирига теккизиб қуйилганини кўрдик. Олдин расмга туширилган устундак тош бир йилдан сўнг ағанаб пастга тушган. Тагидан қўпорилиб олгандек тош бўлаги қолган: -Олдин тебраниб ётар эди деб изох берди Ўркин Рўзиев.

Сойни икки томони бўлиб, чуқурликдан чашма сувлари сизиб оқар, қуй-қўзилар ўтлаб сўнг шу ерлардан сув ичар экан. Бир тўда отлар дуланазорлар ораларида ўтлаб табиатга янада шукух берарди. Энди биз сойни кунчиқар томонини чап томонга ўтдик ва ўнг томонда дуланазор бўлиб бирорта ҳам ўлкан тош бўлакларига кўзимиз тушмади, лекин чап томонида хаёлга келмаган кўринишдаги баҳайбат тош уюмлари бор эканки, унда турли қуш, ҳайвон шаклларини синчковлик билан кузатсангиз тезда англай оласиз. Ости тоғ бўлиб, лалми тўсини олган ва катта катта харсанг тошлар қаердан келиб қолганлигини тасаввур хам қилиш қийин. Шу уюм тош бўлаклар орасидан дарахтлар ўсмоқда. Ўркин Рўзиев бизларни яхлит турган улкан тош олдига чорлади ва видеочи укамиз Аброржонга ибтидои одамлардан қолган тошда уйиб чизилган ҳайвон расмларини кўрсатди. Сўнг усти ялпоқ бўлган шу тошда катта-катта излар борлиги хақида гапириб берди. Ҳақиқатдан хам олд ва ён бармоқ излари охирида товон ботиги из борлигини ишонч хосил қилдик. Аёқчи тоғларидаги излардан ҳам аниқ эди:- Қарангки кўрганларимиз уч маданий мухитдан нишона бермоқда эди. 500- 700 йилга яқин даврдаги қора тош ва эски қалъа ўрни, 6-7 минг йилликдаги ибтидои жамоа даврида чизилган суратлар ва бундан 60-70 миллион йил аввалдаги динозаврларни тоғ олди далаларида юрганлигини кўз олдингизга келтириб фараз қилиб кўринг. Аслида шу дарадан оққан чашма суви Каллипирим тоғини кунчиқар томонидан ўтган бўлиб, собиқ Навоий колхоз билан Наримон ерини ажратиб турган.



Чохакдаги қадимги тошлар

Мир Алишер Навоий бундан 534 йилдан ортиқ вақт олдин ёзиб қолдирган “Сабаъи Сайёр” китобида Паландарани “Жаннатмонанд сабзавор диёр деб уни тоғ орасидаги бир кишвар деса, халқи эса китвар деб атайдилар. Унда бир олий бутхона бўлиб баландлиги осмони эслатади. Токи хам тоши хам тошдан ясалган. Бу бинонинг ичкариси-ю ташқари бошдан оёқ табиат манзаралари ва жониворларнинг тасвири билан зийнатланган”. Дархақиқат Чоҳакдаги жониворлардан ташқари тасвирлар Паландара дараларида бор. У камарларда ва ғорларнинг ички ва ташқи тошларида қолгани аниқ. Фақат уларни қидириб топиб халққа етказишдан иборатдир.

Бахорда келиб кўрсангиз хамма томон ям-яшил ўт ва майсалар бахмал гилам тушалгандек туюлади кишига. Экотуризмга хос ва мос жойдир. Китоб шаҳридан 22 км узоқликдаги бу хушхаво жойлар бизларга жуда катта таъсуротлар қолдирди ва пастликка бир-икки кмдан ортиқ масофада тушиб чиққиш бу иссиқ об-ҳавода оғир кечди. Барчамиз чарчаган бўлсакда табиат куйнидан бир дунё бахра олиб қайтдик.

Мен ва талаба Элдор Маликов билан олдин Оппон-Соппон (Чорва) қишлоқдаги боболари билан, Биркунлик қишлоқ оқсоқоли Шухратжон ва ёши катта боболари билан хам

учрашиб, маълумотлар йиғдим. Бизларни бу ҳаракатларимиз йўқолиб кетаётган манзиллар тарихи, шахслари ва кўхна дунё муъжизаларини юзага чиқариб, ҳаёт илк бор “Тетис момо” денгизи чекингандан сўнг шу муаззам диёрдан бошланган деган ниятга тўхталмоқдамиз. Бу сўзимизга Жовуз палеонтология қуриқхонаси асос бўла олади, чунки у тоғларда денгиз жониворларини аниқ ва равшан қолдиқ нишонлари мавжуд. Обигарим, Суқардаги камар ва тош хайкаллар хақидаги саргузаштларимиз, изланишларимиз давом этади.

Dinara Yessimova - associate Professor, candidate of pedagogical Sciences, head of the Department of Geography and trizma, Toraigyrov University
dika-73@mail.ru
Ayana Yessim - student Toraigyrov University
ayana_esimova99@mail.ru

THE ROLE OF HISTORICAL OBJECTS OF TOURISM IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM IN PAVLODAR REGION

Аннотация: *В статье раскрываются категории мест, представляющих интерес иностранных туристов, характеризуя объекты высокой исторической значимости Павлодарской области. Исходя из ссылок по определению сакральных мест в Прииртышском регионе, была дана научная основа для размещения объектов в туризме. Кроме того, на территории Павлодарского региона расположены древние места, объекты религиозного назначения, святые места. В связи с реализацией проекта «Сакральная география Павлодарской области» в Павлодарском регионе дается описание объектов. В целом представленный список исторических, древних и святых мест Павлодарского региона, оценена их роль в развитии туризма. Также представлены ценные сведения по развитию сакрального туризма с помощью объектов высокой исторической значимости, повышению узнаваемости региона.*

Ключевые слова: *Сакральная география, исторические объекты, святые места, сакральный туризм, Павлодарский регион.*

Tourism development can be defined as the development of tourist infrastructure, tourism product at the domestic and international level, improving the quality of tourist services. In today's world, tourism is the leading industry in the international economy. According to the world tourism organization, tourism ranks fourth in exports of goods and services (7.4%) [1].

Kazakhstan with a rich tourist and recreational potential is characterized by an adequate level of tourism development. Its share in the gross domestic product is about 0.3%. Tourism revenues in 2016 amounted to $ 145.3 billion.2 times more than in 2015 ($77.6 billion). tenge.) Taxes paid to the Republic's budget amounted to $ 20.6 billion. tenge. The number of employees in the industry amounted to 158.7 thousand people.

Tourism is one of the sectors of the economy that must produce products in accordance with market demands and proposals, so it is necessary to see the differences between the international market for foreign citizens and the domestic market for citizens of Kazakhstan. Today, the international tourism market is a huge mechanism with a billion-dollar turnover, with fierce competition. In this regard, we need to identify a tourist product that will be unique and in demand for Kazakhstan. It is perspective in any segment of the market of the Kazakhstan tourist product. As you know, analyzing the tourism potential of the Republic of Kazakhstan, the region can be divided into five tourism clusters. Tourist classes allow to create a positive image of the region, to create a competitive tourist product.

Analyzing changes in key economic indicators of tourism development, we can see that the tourism potential of Kazakhstan is practically not implemented, because the development of tourism linked to the creation of modern, competitive complex, which includes transport and logistics system, passing through border of the Republic of Kazakhstan (road, air, rail), which provides opportunities to tourism services, providing the requirements of Kazakhstan and foreign citizens. The creation of the tourist complex will increase the inflow of foreign currency to the state budget,

create jobs, and strengthen control over the economical use and preservation of cultural and natural heritage.

Kazakhstan has approved the "list of objects of the state natural reserve Fund of national importance", which consists of scientific, historical, cultural, environmental and recreational objects. They belong to different geospheres and located on the territory of Kazakhstan. Among these objects: Okzhetpes, mount Borabay, the beach on lake Zerenda (Akmola region), active stone glaciers Gorodetsky and Morensky on the Ozernaya river, Charyn canyon (Almaty (Zhambyl region), departure of geese (Pavlodar region), the Great chamber of Kama grotto (Karaganda region) and others. A total of 185 geological and geomorphological objects.

The project "Geography of sacred (sacred) lands of Kazakhstan" will preserve national shrines and attractions, as well as develop the tourist infrastructure of the country.

Sacral word-sakral (persistent.), sacrum (Latin) means Holy, Holy, sacred, i.e. objects, concepts, circumstances related to Holy, Holy mystical phenomena, sacred places depending on these phenomena can be understood. The geography of sacred places-in any nation, in any civilization, there are Holy and Holy places that are of a national character.

Holy-Holy attribute and God's. Holy-Tengri or having unique grace properties, for God or approximate, in the meaning designated by the deity. Sacred is the true objects and phenomena for God, as well as in religious knowledge, in sacred actions. Holy and Holy concepts border on each other, but the sacred meaning is intended for religious subjects [4].

Kazakhstan has more than 9,000 archaeological and historical monuments, 118 specially protected natural areas, including 11 state national natural parks. Among the most popular-"Bayanaul" in Pavlodar region, as well as other facilities. In General, the Kereku region is rich in historical, ancient and Holy places. Pavlodar region was founded in January 1938. The regional center-the city of Pavlodar, is located on the Bank of the Irtysh, which is the largest river in Kazakhstan.

The region is located in the North-East of the Republic of Kazakhstan and borders on the North of Omsk, North-East –Novosibirsk regions of the Russian Federation, in the East – the Altai territory, in the South – East Kazakhstan and Karaganda regions of Kazakhstan, on the West-Akmola and North Kazakhstan regions.

At Pavlodar state University.S. Toraigyrov in the Institute of history and culture created a special working group consisting of 11 people. The group included well-known historians, archaeologists, local historians and archivists. On the basis of the search works of this group, developed in the project "rukhani zhangyru", objects of high historical significance of the region are included in the Republican map" sacred places". Historians have divided into three categories of places that attract foreign tourists. The first-ancient places belonging to the middle Ages. The second-objects of religious significance, the third category includes historical sites associated with the lives of famous public figures, writers and poets of the region. As a result, the experts identified 15 Holy places belonging to the first category. In addition, the second category includes 20 historical sites in the 14th and third categories.

70% of them are concentrated in Bayanaul district. The list includes Saka mounds and stone necropolis near the lake Toraigyr, Holy springs, inscriptions on stone, mausoleum of Sultanmakhmut Toraigyrov, Zhayau Musa baizhanuly." One of the priorities of this group is the implementation of the project "Sacred geography of Pavlodar region". Initially, a list of 7 Holy places was presented. It wasn't enough. Therefore, scientists and public figures GLD help.

According to the collected data, 3 types of Holy places have been established: medieval historical places, religious buildings and places of historical events. Work has been carried out to create tourist routes to the Holy places of Pavlodar region. When creating tourist routes, special attention was paid to ancient and medieval places (ancient shrines, places of accumulation of mounds, petroglyphs), famous hazrets, burial places of nobles, as well as places associated with historically significant teachings, places associated with the lives of public figures, for example, "Kalmykkan", where Kazakhs and Dzungars fought. On these objects the map of tourist routes in 2

directions is made. The first direction - on Bayanaulsky area, the second-on objects of the city of Pavlodar.

The monument is history. It's sacred. I think that in our time yesterday waking up the memories of the past blay Durand of the population, uplift the spirit. In this regard, in accordance with the Law of the Republic of Kazakhstan "on religious activities and religious associations", as well as in order to implement the Law of the Republic of Kazakhstan "on religious activities and religious associations", the government of the Republic of Kazakhstan decides: And this is not to create great monuments, but to be beautiful – this is our living history, a living force [6].

Historical and archaeological sites have a special place in the tourist and excursion qualities. Any objects of archaeological monuments occupy an important place in tourist and excursion work. in particular, in addition to the above-mentioned, Saki mounds in Bayanaul, petroglyphs Olenty, petroglyphs Akbidayyk, stone drawings Aymanbulak, mausoleum Mashhur-Zhusup Kopeyuly, stone statue of Kyzylkia, mausoleum Isabek Ishan Hazret (1792-1871) and others. Among the objects of archaeological and historical monuments that have still survived, mounds and Mazars are of great importance. The monuments of the bronze age include the petroglyphs Akbiyik. The verses of the Bayan-aul mountains, rock drawings of Yanbulaq attracted not only by Kazakhstani researchers, and international researchers.

Literature

1. Development of tourism and hotel industry in Pavlodar region, (2008). Pavlodar, 19 p.

2.S. Ivashchenok (2006). First edition, Almaty: Reserves and national parks of Kazakhstan, 283 P.

3.N. A. Nazarbayev (2017) orientation to the future: spiritual modernization. Astana: KISI under the President of Kazakhstan.

4. Akhmetova S. G. (2007). First edition, Almaty: Kazakh-English-Russian dictionary. 256 b.

Пардаев О. М., - СамИСИ, и., ф. д.,
Акбар А.А. - СамИСИ методисти

ЎЗБЕКИСТОННИНГ ТАБИАТ МИНТАҚАЛАРИДАГИ ХАЛҚАРО ЭКОТУРИЗМ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШДАГИ ВАЗИФАЛАР

Аннотация: *статья посвящены к определения проблемы использования из экотуристических ресурсов расположенных в природных зонах Ўзбекистана и даны рекомендации решения этих проблем.*

Annotation:*The article is dedicated to identifying problems in using eco-tourism resources in Uzbekistan's natural regions and recommending ways to address them.*

Ключевые слова:*национальные парки, эндемические виды, услуги экотуризма, экотуристическая инфраструктура, природные зоны, биологические ресурсы.*

Keywords:*national parks, endemic species, ecotourism services, eco-tourism infrastructure, nature zones, biological resources.*

Ўзбекистон миллий туризмида экотуризм эндигина шаклланиб келмоқда. Экотуризмни ташкил қилиш ва ривожлантиришда ҳам кўплаб муаммолар тўпланиб бормоқда. Бу муаммоларнинг биринчи навбатдагиси экотуризм объектларига экотуристик маршрутларни ишлаб чиқишнинг ўта суст кечаётганлигидир. Экотуризм йўналишига ихтисослашган туристик фирмалар ва ташкилотларнинг йўқлиги, экотуристик хизматларни амалга оширувчи мутахассисларнинг жуда камлиги натижасида экотуризм маҳсулотларига талабнинг кўплигига қарамасдан туристик фирмалар экотуризм маршрутлари билан ишлашга журъат қилаолмаяпти.

Бу ҳолатнинг асосий сабаблари қуйидагилар:

1.Ўзбекистондаги туристик фирмалар ва туристик ташкилотлар деярли шаҳарларда жойлашган. Бу туристик фирмалар шаҳарлардан анча узоқ масофаларда жойлашган

экотуризм ресурсларини фақат китобий манбаларда билишади ва бориш, кўриб танишиши учун маблағ ҳам, вақт ҳам ажратишмайди.

2.Туристик фирмалар то ҳанузгача Ўзбекистондаги халқаро экотуризм ресурслари ҳақидаги маълумотлар ва тавсияларни билишмайди. Ваҳоланки, халқаро экотуризм талабгорлари биринчидан, ватанимиздаги миллий парклар ва давлат табиат қўриқхоналарига иккинчидан, эндемик ўсимликлар ва эндемик ҳайвонот оламига қизиқишмоқда. Халқаро экотуризмнинг талаблари барча мамлакатларда шу тариқа амалга оширилмоқда.

3.Ўзбекистон экотуризмида экотуристик хизматларни кўрсатувчи мутахассислар, айниқса, экотуризм гид-етакчилар тайёрлашга киришилган эмас. Экотуризмнинг гид-етакчилари ватанимизнинг ўсимликлар ва ҳайвонот олами ҳақида тўлиқ маълумотларга эга бўлиши ва бу йўналишда халқаро экотуристларнинг барча саволларига қониқарли жавоб беришнинг уддасидан чиқиши керак. Бу эса осон иш эмас.

4.Ўзбекистонда халқаро экотуризм хизматларини кўрсатиш учун гид-етакчилар ватанимиздаги миллий парклар ва давлат табиат қўриқхоналари жойлашган манзилларга бориш маршрутларини, бу экотуристик объектларда экотуризм хизматларини кўрсатиши, экотуризм сўқмоқлари маршрутларини билишмайди.

5.Ўзбекистондаги халқаро экотуризм ресурслари ва объектларининг аниқ маълумотлар билан тўлдирилган рекламалари яратилган эмас. Ҳозирда Ўзбекистонннинг табиат минтақалари, асосан тоғларимиздаги бетакрор табиат кўринишлари берилмоқда.

Qishloq aholisining qishloq turizmini rivojlantirish orqali ish bilan taminlashda xorij davlat dasturlarini bir qismini keltirish maqsadga muvofiqdir:

- qishloqlardagi turistik resurslar mahalliy hokimiyat mulki ekanligi.
- milliy parkga xizmat qiluvchi mahalliy aholidan bo‘lishi.
- o‘z-o‘zini boshqarish va moliyalashtirish tizimi.
- xususiy mulkchiliknini hukmronligi.
- milliy park shiori davlatga xizmat qilishi.
- xalqaro va ichki turizmdan foydalanishga ruxsat berilganligi.

Keltirilganlardan xulosa qilish mumkinki, mamlakatimiz hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda, ayniqsa turizm sohasida qishloq turizmini rivojlantirish orqali qishloq aholisini ish bilan taminlashda xorij davlatlarining ilg‘or tajribalaridan foydalanish samarali yunalish hisoblanadi.

Yuqorida o‘rganilganlarni hisobga olgan holda quyidagi xulosalarni keltirib o‘tamiz:

- qishloq turizmini rivojlantirishda innovatsion turistik loyihalarni va dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, qishloqlarda turistik hududlarni va destinatsion markazlarni tashkil etish.
- ichki turizmni rivojlantirishda qishloq turizmining menejmenti va marketingini tashkil qilish va zamonaviy talablar bo‘yicha doimo takomillashtirib borish.
- ichki turizmini rivojlantirishda xorij davlatlarining ilg‘or tajribalarini, tavsif va tariflarini, maqsad va vazifalarini o‘rganish va ularni mamlaktimizdagi turistik obektlarda qo‘llash zarurdir.

Z.O. Raximov – SamISI katta o‘qituvchisi i.f.n.,
A.Yu.Talibova – SamISI assistenti.

TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH MASALALARI

Аннотация: *В этой статье рассматриваются вопросы инноваций в развитии туризма, инновации в области информационных технологий в повышении ее роли в экономике.*

Ключевые слова: *туризм, экономика, информационные технологии, инновации, система бронирования, рабочее место, гостиница, туроператор, глобальная система распределения (GDS).*

Annotation: *This article deals with the issues of innovation in the development of tourism, information technology innovation in increasing its role in the economy.*

Key words: *tourism, economy, information technology, innovation, booking system, workplace, hotel, tour operator, global distribution system (GDS).*

“Turizm – iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri. mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, ushbu tarmoqni yanada takomillashtirish zarur, buni davrning o‘zi taqozo etmoqda”.

Sh.M. Mirziyoyev

Turizm daromad keltirishi jihatidan neft va avtomobil sanoatidan keyin uchinchi o‘rinda turadi.Turizm sohasi iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Turizmning yuqori daromad keltiruvchi soha bo‘lganligi tufayli ko‘pgina davlatlar va tadbirkorlar uning rivojlanishi uchun katta e’tibor bermoqdalar. Bugungi globallashuv jarayonida qariyib barcha mamlakatlar iqtisodiy faoliyatida turizm sektori yuqori daromad manbai sifatida alohida ahamiyatga ega. Mazkur sohaning mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy hayotiga ta‘siri nafaqat valyuta tushumi, ish o‘rni yaratish,

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, balki ajdodlardan meros qolgan madaniyat va qadriyatlarning saqlashning bosh omilidir.

O‘zbekiston azal-azaldan o‘zining tabiati, boy tarixi, me’moriy obidalari, buyuk allomalari bilan jahonning eng rivojlangan mamlakatlari aholisini ham o‘ziga jalb etib kelmoqda. Shu sababli mamlakatimizda mustaqillikka erishganimizdan so‘ng, turizm sohasi shiddatla rivojlanib bormoqda.

Turizm – iqtisodiyotning yuqori daromad keltiradigan va jadal rivojlanayotgan muhim sohalaridan biri. Turizm rivojlanishining eng asosiy omillaridan biri tinchlik, barqarorlik, o‘zaro mehr-oqibat va hamjihatlikdir.Mamlakatimizda turizmni rivojlantirishda yuqoridagi barcha omillar va resurslar bor.

Hozirgi kunda iqtisodiyotni rivojlantirishni asosiy masalalaridan biri bu , turizmni rivojlantirish masalasidir. Shunga ko‘ra yurtimizda turizmni rivojlantirishda jadal ishlar olib borilmoqda. Buning asosida Prezidentimizni bugungi kunda turizm sohasiga oid chiqarayotgan qaror va farmonlarini ko‘rishimiz mumkin. Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni , Prezidentimizning 2017 yil 16 avgustdagi «2018–2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tardi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-5326-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018 yil 6 fevraldagi PQ-3509-son Qarori lari turizm sohasini yanada rivojlantirish sayyohlar oqimini ko‘payishiga xizmat qiladi.

Har bir soha singari Bugungi kunda turizm sohasi taraqqiyotini axborot va kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur etish qiyin. Sayyohlarni respublikamizga jalb etishdagi dastlabki qadamlar ularni mamlakatimizning turistik salohiyati to‘g‘risidagi axborot bilan tanishtirishdan boshlanadi, ayniqsa, keyingi yillarda ekologik turizm, ekstremal turizm, agroturizm va sohaning boshqa yo‘nalishlarining rivojlanishi sayyohlarini to‘laqonli axborot bilan ta’minlash ehtiyojining yanada oshishiga olib kelmoqda. Sayyohlarni respublikamizga jalb etishdagi dastlabki qadamlar ularni mamlakatimizning turistik salohiyati to‘g‘risidagi axborot bilan tanishtirishdan boshlanadi, ayniqsa, keyingi yillarda ekologik turizm, ekstremal turizm, agroturizm va sohaning boshqa yo‘nalishlarining rivojlanishi sayyohlarini to‘laqonli axborot bilan ta’minlash ehtiyojining yanada oshishiga olib kelmoqda. Turizmda axborot texnologiyalarni qo‘llash evaziga o‘rinlarni band qilishni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, yurtimizga tashrif buyuruvchilarning ko‘pchiligi turistik tashkilotlar orqali kelishadi. Turistik tashkilotlar esa mehmonxonalarda o‘rinlarni telefon yoki faks orqali bronlashadi va bu mehmonxona uchun ortiqcha xarajat va mehnat talab qilmaydi. Mehmonxona bilan mijoz o‘rtasidagi aloqani vositachilar, turagentlar ta'minlaydi. Shuning uchun tashrif buyuruvchilarning ko‘pchiligi tashkil qilingan turizm orqali kelishadi. Alohida, o‘z sayohatini o‘zi tashkil qilib keluvchi sayyohlar segmentlari uchun mehmonxonalarda nomerlarni bronlash imkoniyati kam. Internetda www.booking.com, www.hotels.com va shunga o‘xshagan bir nechta bronlashga oid bo‘lgan veb saytlar yutimizdagi mehmonxonalar va GDSlar o‘rtasidagi aloqani ta'minlaydi, va bu xizmatlari uchun har bir mijozdan o‘z hissalarini olishadi. Agarda mehmonxonalarimiz to‘g‘ridan to‘g‘ri GDSlar bilan aloqaga chiqa olishmasa, ya'ni buning uchun ko‘p xarajat talab qilinsa, yuqorida aytib o‘tgan kabi bronlash veb saytlarini O‘zbekistonning o‘zida ko‘proq yaratish va taniqlilik darajasini oshirish kerak. Har bir mehmonxona o‘zida kompyuterda o‘rinlarni bronlash tizimini ishga tushiradi, veb sahifalarini yaratadi, va bronlash veb saytiga a'zo bo‘ladi. Bu veb sayt o‘zida GDS terminalini o‘rnatadi. Bu bilan yurtimizga tashrif buyuruvchilarning soni ortadi, mehmonxonalarda ish unumdorligi oshadi va yanada ko‘proq daromad olib keladi.

Ta’kidlash lozimki, mamlakatimizda turizm sanoatini rivojlantirish, iqtisodiyotning tez o‘sishini ta’minlashda uning rolini oshirish va shu orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish, dunyo bozorida milliy turistik mahsulot salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi tashkiliy sharoitlar yaratilmoqda. Mazkur faoliyat shak-shubhasiz milliy turizm sohasini axborot bilan ta’minlash,

turistik operatorlar uchun zamonaviy axborot texnologiyalari yechimlari va kompyuter dasturlarini ishlab chiqish, axborot bozori subyektlariga uyg‘unlashgan holda ishlash, jumladan, xalqaro miqyosda mamlakatimizning haqiqiy imijini shakllantirish bo‘yicha ommaviy axborot vositalarida zarur chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilishimiz mumkinki milliy turizm tizimini rivojlantirishda mazkur sohada samarali axborot almashinuvini ta’minlash zarur. Bu o‘z navbatida, iste’molchilarning mamlakatimiz haqidagi axborotdan erkin foydalanishlariga, turistik xizmatlarni taqdim etish sharoitlari, xususiyatlariga hamda ularning xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiluvchi axborotlardan iborat bo‘lmog‘i zarur. Turizm xizmatlarini sotish va band qilish bo‘yicha turoperatorlarning GPS-pozitsiyaga asoslangan xalqaro global axborot tizimlariga ulanishlari va lokal servislarni yaratishlari muhim hisoblanadi.O‘zbekistonning turistik jozibadorligi oshishiga xizmat qiluvchi dolzarb axborot resurslarini, jumladan, O‘zbekistonning noyob tarixi, o‘tgan buyuk allomalari va olimlari, diqqatga sazovor joylari, milliy taomlari, an’analari haqida hujjatli filmlar va teleko‘rsatuvlar yaratish va tarqatish soha rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.Yuqoridagilarni hisobga olgan holda quyidagilarni taklif qilamiz:

- axborot-targ‘ibot kompaniyasini o‘tkazishni ko‘paytirish va turli oavda O‘zbekiston turizmi haqida ijtimoiy reklamalarni ko‘paytirish;
- foto va videomateriallar bankini yaratish;
- internet tarmog‘ida mamlakatimizning turistik imkoniyatlari haqidagi markazlashtirilgan va alohida axborot resurslari hamda turistlar, turoperatorlar va turizm sohasining investorlari uchun axborot portallari sonini oshirish;
- tashqi va ichki turizmni rivojlantirishni axborot orqali qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish uchun mamlakatimiz va chet eldagi turistlar uchun axborot markazlari tarmog‘ini yaratish;
- O‘ZBEKISTONNING TURISTIK SALOHIYATINI O‘ZIDA AKS ETTIRA OLADIGAN FOTOALBOM VA TURISTIK KITOBCHA JURNALLARNI KO‘PAYTISH.

Alimova M.I. – SamISI magistranti
NorkulovaD.Z. – SamISI PhD

GEOAXBOROT TIZIMLARI VA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TABIIY VA ETNOGRAFIK RESURSLARDAN VA MEHMON UYLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI

Аннотация: *В этой статье гостевые дома рассматриваются как этнографические, основанные на национальности, роли и важности геоинформационных систем, нашей национальной и культурной истории и размещение гостевых домов на туристической карте.*

Ключевые слова: *туристические депортации, лицензии, туристы, туристы, гостевые дома, отели, страна, ГАТ, развитие, приоритет, формирование, система.*

Annotation: *In this article, guest houses are viewed as ethnographic, based on nationality, and the role and importance of geo-information systems, our national and cultural history, and accommodation of guest houses on tourist map is shown.*

Keywords: *Tourist deportations, licenses, tourists, tourists, guest houses, hotels, country, GAT, development, priority, formation, system*

Etnografiya, xalqshunoslik jahondagi barcha xalqlarning , etnik birlikning turli tiplari, ularning kelib chiqishi (etnogenezi), turmush tarzi, urf-odatlari, moddiy va ma’naviy taraqqiyot darajasidan qat’i nazar, teng holda o‘zaro tafovuti yoki umumiyligi va o‘xshashligini, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganadi.[97]

[97] https://uz.wikipedia.org/wiki/Etnografiya

Shu bilan bir qatorda etnografiya sayyohlarning tashrif buyurishlari va xalqimiz urf –odatlari milliy qadriyatlariga, milliy taomlarui va hozirgi kunda keng tarqalayotgan va barcha sayyohlarni qiziqishlariga sabab bo'layotgan mehmon uylarini tanlashiga asos bo'lmoqda. Mehmon uylari o'zining milliyligi, shinamligi, xavfsizligi, hamyonbobligi va shu bilan bir qatorda harbir sayyoh o'zini huddi uyidagidek his qila olishuni to'liq taminlab bera oladi.

Turizm bugungi kunda tez rivojlanayotgan va daromadi bo'yicha yetakchi sohalardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda turizm jahon eksportida o'zining ulkan hissasiga ega bo'ldi va butunjahon yalpi ichki mahsulotining 11%ini tashkil qilmoqda. Xususan, O`zbekistonda erishilayotgan muvaffaqiyatlar zaminida iqtisodiyotni liberallashtirishni chuqurlashtirish, mamlakatni modernizatsiyalash, barcha sohalarni, xususan, hizmat ko`rsatish sohasining etakchi tarmoqlaridan biri bo`lgan turizmni ham barqaror rivojlantirish yotibdi. Jahon tajribasi bugun aynan ushbu soha yalpi ichki mahsulotni shakllantirish, aholi bandligini ta'minlash, odamlarning farovonligini oshirishda etakchi o`rin tutishini ko`rsatmoqda Darhaqiqat, hozirgi kunda xizmat ko`rsatish tarmog`ining muhim tarkibiy qismi bo`lgan turizm sohasini jadal sur'atlarda rivojlantirish mamlakatimiz iqtisodiyotining ustuvor yo`nalishlaridan biri hisoblanadi. Turizm dunyo tamaddumining bosh gultoji bo`lib, hozirgi kunda sayohat insoniyat maqsadlarining asosini tashkil qilib kelmoqda. Ayniqsa, milliy turizmning rivojlantirish istiqbollari, O`zbekistonda turizm industriyasining jahon bozoridagi mavqeini oshirishga ko`maklashadi. Fikrimizning isboti sifatida bugungi kunda turizm sohasida katta yutuqlarga erishilayotganligi, tez sur'atlar bilan o`sib borayotganligi, yangidan – yangi mehmonxonalarning barpo etilayotganligi, ishchi o`rinlari sonining ko`payishi, malakali mutaxassislarning ortib borishi, turistlar oqimining yildan – yilga ko`payayotganligini ta'kidlab o`tishimiz joiz deb hisoblaymiz. Albatta O`zbekistonning qulay iqlim sharoitlari va o`ziga xos landshaftini inobatga olganda sport va ekologik turizmning rivojlanishi uchun barcha asoslar mavjud. Farg'ona vodiysi va Toshkent viloyati ajoyib tog' tizimlari, gullagan vodiylar va ajoyib tog' daryolariga boy. Tog'ning toza havosi, yil davomida quyoshli kunlarning ko`pligi, ajoyib tog' manzaralari nafaqat O`zbekiston fuqarolarining, balki Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston kabi qo`shni mamlakatlarning aholisi ham tashrif buyuruvchi turizm obyektlariga aylanishiga imkon beradi. O`zbekiston hududida mineral suvlarning turli xil turlari keng tarqalgan, mamlakatdagi 300 dan ortiq shifobaxsh yer osti mineral suv manbalariga ko`plab odam tashrif buyuradi.[98]

Shu bilan bir qatorda *"Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan tadbirkorlik sub'yektlariga katta imtiyozlar berilmoqda. Sayyohlar oqimi ko'paygani sari ularni joylashtirish masalasi muammo bo'lmoqda. Shuning uchun bugungi kunda davlat tomonidan mehmonxonalarga berilayotgan subsidiyalar, mehmon uylarini tashkil qilish bo'yicha tushuntirish ishlarini olib boryapmiz. Mehmonxonalar, mehmon uylari ko'paygani sayin birinchidan, ularning sifati oshadi, ikkinchidan, narxi tushadi"*[99] Respublika miqyosida jami 5 shahar, 30 tuman, 177 mahallada, 2 430 dan ortiq xonadon vakillari bilan uchrashuvlar tashkillashtirildi. Hududlar kesimida o'tkazilgan targ'ibot ishlari jarayonini yoritib borish uchun "Muloqot TV" telekanali orqali ko'rsatuv efirga uzatildi va 18 ta maqola chop etildi. 2019-yilning 1 - 15-iyul kunlari 9 oilaviy mehmon uyi yagona reyestrga kiritilgan bo'lsa, amalga oshirilgan ishlar va targ'ibotlar natijasida respublika bo'yicha joriy yilning 16 - 30-iyul kunlari jami 78 oilaviy mehmon uylari faoliyati yo'lga qo'yilib, yagona reyestrga kiritildi. Umumiy hisobda Oilaviy mehmon uylari soni 632 nafarga etib, ulardagi o'rinlar soni 5 495 tani tashkil etmoqda. [100]

Bundan ko'rinib turibdiki O'zbekiston nafaqat o'zining tarixiy va arxeologik yodgorliklari milliy boyliklari bo'lgan yer osti va yer usti tarixiy yodgorliklariga ega. Bu milliy va madaniy me'roslarni asrash, avaylash, ularni kelajak avlodga yetkazish va shu bilan birgalikda ularni sayyohlarga taqdim etish va obyektlar haqida to'g'ri va aniq malumotlar berish kerak. Ko'plab mashxur tarixiy obidalarimiz haqida sayyohlar ma'lumotlarga ega bo'ladilar, lekin ular bilmagan va

[98] https://moluch.ru/archive

[99] https://kun.uz/uz/news/2019/05/31/ozbekistonda-besh-oyda-245-ta-mehmon-uyi-tashkil-etildi

[100] https://uzbektourism.uz/uz/newnews/view?id=628

ko’rmagan tarixiy yodgorliklarimiz va madaniy meroslarimiz talaygina. Bunda biz ularni reklama orqali tanita olamiz. Turizm sohasida reklama asosiy o’rinni egallaydi, sayyohlar tashrif buyurgach asosan xaritadan foydalanadi lekin xaritaga ko’plab madaniy yodgorliklarimiz va tarixiy obidalarimiz kerakli ob’yektlarimiz ko’chalarimiz kata va kichik bo’lgan mehmonxonalar, mehmon uylari, restoranlar, dam olish maydonchalari, ovqatlanish shahobchalari va shunga oxshash ko’plab ob’yektlar kiritilmagan. Bunday holda biz qanday yo’l tutishimiz kerak? Turizm salohiyatiga qanday o’z hissamizni qo’sha olamiz? Nimadan qanday foydalangan holda sayyohlarga qulaylik yarata bera olamiz? Bunda bizga asosan axborot texnologiyalari ya’niy GAT (Turizmda Geoaxborot Tizimlari)ni o’rni katta va ulardan foydalangan holda turizm infratuzilmasiga muayyan tarzda o’z hissamizni qo’sha olgan bo’lamiz. Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari qo‘mitasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi bilan hamkorlikda turistik faoliyatda axborot ta’minoti samaradorligini oshirishda mamlakatimiz sayyohlik imkoniyatlaridan unumli foydalanishga qaratilgan chora-tadbirlar sohani sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qilayotgani, mamlakat turizm sanoatini rivojlantirish, iqtisodiyotning tez o‘sishini ta’minlashda uning rolini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, dunyo bozorida milliy turistik mahsulot salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi barcha sharoitlar yaratilmoqda. Mazkur faoliyat milliy turizm sohasini axborot bilan ta’minlash, turistik operatorlar uchun zamonaviy axborot texnologiyalari yechimlari va komputer dasturlarini ishlab chiqish, axborot bozori subyektlariga uyg‘unlashgan holda ishlash, xalqaro miqyosda mamlakatimiz nufuzini oshirish bo‘yicha ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot ishlarini olib borishni taqozo etadi. Turizm faoliyatini jadal rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar «Turizm to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni yangi tahririni ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatmoqda, – Bu borada amaldagi qonunchilikka turizm faoliyatini axborot bilan ta’minlashga doir o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish muhim omillardan biri hisoblanadi. [101] Turizim sohasini keng miqyosda o’rganishda turizimga oid bo’lgan barcha tarixiy yodgorliklarni va ob’yektlarni chuqur o’rganishda GAT ning o’rni muhim. Hozirki vaqtda mos ravishdagi axborot ta’minotisiz turistik mahsulotni shakillantirish, siljitish va realizatsiya qilish mumkin emas. Turizmni boshqarish tashkilotlari va turistik firmalarv o’z ishida doimo axborot texnalogiyalari-turizm biznesining xalqaro integratsiyasini axborot bilan to’yingan sohasi sifatidagizaruriy shart-sharoitlari hisoblanadi.[102] GAT – vazifalari fazoviy geografik ma’lumotlarni to’plsh, saqlash, boshqarish tahlil qilish, modellashtirish va tasvirlashdan iborat bo’lgan mutahassis tahlilchilar boshqaruvi ostidagi umumlashgan kompyuter tizimidir undagi barcha ma’lumotlar qayta ko’rib chiqiladi va o’rganiladi.GAT foydalanuvchilari doirasi juda keng qo’llaniladi: madaniyat va turizm bo’yicha mintaqaviy ma’muriyat idoralari, sayyohlik va rekriatsion xizmatlarni rivojlantirishni rejalashtirish, sayyohlar uchun qulay joylarni tanlash yoki sayyohlik yo’nalishlarini ko’rishni xoxlaydigan oddiy fuqarolarga. Shunday qilib geoaxborotdan foydalanishning bir necha darajasini ta’minlshi va tarqatilgan xizmatlar sifatida ko’rilishi kerak. Turizmni rivojlanishi davlatimiz iqtisodiyoti uchun ham juda istiqbollidir. Xususan turizmni rivojlantirish evaziga iqtisodiyotining yuksalishiga erishiladi, davlat byudjetiga keladigan tushumlar ortadi, tabiiy resurslarni asrab-avaylanadi, mamlakatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlashga harakat qiladi va unga erishadi, xalqaro aloqalarni yanada mustahkamlaydi, valyuta tushumi ko`payadi va hk. Bularning negizida albatta sayyohlarning tashrifi yotadi. Kiruvchi chiquvchi va ichki turizmni rivojlantirishda axbarot texnalogiyalari va GIS ning o’rni yuqoridir. Hammaga ma’limki yurtimiz uzoq tarixiy o’tmishga boydir va shu bilan birgalikda tarixiy va madanoy yodgorliklarga egadir. Yildan -yilga sayyohlar soni ortar ekan ularni joylashtirish vositalariga talab ortadi. Biz bilamizki yurtimizda mehmonxonar soni ortmoqda va shubilan bir qatorda mehmonuylariga bo’lgan talab kuchaymoqda. Joylashtirish vositalarini o’rganishda ularning joylarini aniqlashda ularni kartaga kiritishda GIS bizga katta yordam beradi. GIS yordamida mehmon uylari haqida sayyohlarga ko’proq ma’lumot berishga erishamiz. Nafaqat

[101] www.stansart.uz

[102] https://kun.uz/uz/news/2019/05/31/ozbekistonda-besh-oyda-245-ta-mehmon-uyi-tashkil-etildi

xalqaro turizm balki ichki turizmni rivojlantirishda yuqori darajada o'z xissasini qo'shadi. Taklif o'rnida shuni aytgan bo'lardim mehmon uylariga bo'lgan talabni yuqorida aytdik yani bugungi kunda mehmon uylarining soni kundan kunga oshib bormoqda mehmon uylari uchun yanada mijozlarni ko'payishini istasak mehmon uylari zanjirlari ortishini istasak mehmon uylari uchun standart ishlab chiqish va reklama turlarini ko'paytirish kerak deb hisoblaymiz.

Абдуллаева З.И. – СамИЭСстарший преподаватель

ПРОБЛЕМЫ КАДРОВОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В СОВРЕМЕННЫХ ГОСТИНИЦАХ

Annotation *– In the given thesis the problems arising at maintenance of information safety in modern hotels have been considered. Also has been considered the decision of problems on a professional training on information safety .*

Key Words: *A professional training, electronic commerce, modern hotels, information safety, the company, information services, training.*

Аннотация *– Ушбу мақолада замонавий меҳмонхоналарда ахборот хафсизлигини таъминлаш жараёнида вужудга келадиган муаммолар кўриб чиқилган. Ҳамда хафсизлигини таъминлаш бўйича кадрлар тайёрлаш муаммоларни ечишни кўриб чиқилган.*

Калит сўзлар: *кадртайёрлаш, электрон тижорат, замонавий меҳмонхоналар, ахборотхафсизлиги, компания,ахборотхизматлар, таьлим.*

С начала 21-го века электронная коммерция ускоренными темпами проникла в различные сферы социально-экономической деятельности, в том числеэто затронуло и гостиничный бизнес. Это постепенно стало образом жизни для всех современных гостиниц.На сегодняшний день приоритетным вопросом ведения электронной коммерции является обеспечение безопасности электронного документа и электронного документооборота. В связи с этим разработаныразличные методы обеспечения безопасности обмена данными в электронной коммерции.

Актуальным становится вопрос подготовки кадров для обеспечения информационной безопасности в современных гостиницах.

В быстро меняющемся современном мире проблема информационной безопасности является одной из ключевых составляющих деятельности любого предприятия. Чем сложнее информационная система, тем труднее решить эти задачи.

В современных условиях информационная безопасность становится важнейшим базовым элементом всей системы национальной безопасности государства. Обусловлено это, прежде всего, быстро растущими технологическими возможностями современных информационных систем, которые по своему влиянию на политику, хозяйственно-экономическую жизнь, духовно-идеологическую сферу и умонастроения людей стали в настоящее время решающими и всеохватывающими.

Достаточно часто предприятия, закупив большое количество различных средств защиты, сталкиваются с целым рядом проблем. Дело в том, что они вынуждены решать комплексную и достаточно сложную задачу: защищаться от постоянно возрастающего числа угроз, одновременно с этим разворачивать закупленные средства обеспечения безопасности и управлять ими.

Самая главная проблема - нехватка квалифицированных специалистов в данной области и отсутствие у имеющихся ИТ-специалистов необходимых знаний и практического опыта по организации безопасности в условиях разнородной информационной среды, так как уже имеющиеся в штате сотрудники чаще всего перегружены и вынуждены одновременно решать и организационные, и технические задачи. Содержать штат сотрудников, которые в круглосуточном режиме будут заниматься мониторингом и отражением атак, может позволить себе далеко не каждая компания. Поэтому необходим непрерывный и последовательный мониторинг угроз, связанных с возможным развязыванием

информационной войны, с постоянной и трезвой оценкой возможностей противодействия, нейтрализации и предотвращения этих угроз.

Сегодня, информационная сфера является одним из системообразующих факторов жизни государства, что определяет исключительную важность вопросов, связанных с формированием его информационной инфраструктуры, предполагающей интенсивное развитие систем телекоммуникаций и связи, различных информационных систем, технологий предоставления информационных услуг или, другими словами, индустрии информатизации.

Вместе с тем глобальная информатизация общества чрезвычайно обострила проблему обеспечения информационной безопасности государства, что определило необходимость разработки соответствующей государственной политики в этой области. Цели, задачи, принципы и основные направления обеспечения информационной безопасности, определяющие основы такой политики, изложены в нормативных документах информационной безопасности.

С целью сосредоточения усилий информационной безопасности, связанных с обеспечением национальной безопасности, разработаны перечни основных направлений и приоритетных проблем в области информационной безопасности.

Одним из приоритетных направлений является решение проблем кадрового обеспечения информационной безопасности.

Для решения проблем кадрового обеспечения информационной безопасности необходимо:

разработать общеметодологических основы кадрового обеспечения информационной безопасности, включающих разработку и исследование механизмов государственного регулирования подготовки кадров в области информационной безопасности, анализ и обоснование предметной области подготовки кадров в области информационной безопасности как междисциплинарной отрасли научного знания, исследование путей использования современных образовательных технологий в целях повышения эффективности распространения знаний в области обеспечения информационной безопасности, формирование научного и учебно-методического обеспечения непрерывной подготовки кадров в области информационной безопасности;

совершенствовать систему организационного и нормативно-правового обеспечения подготовки кадров в области информационной безопасности;

создать систему технологического обеспечения подготовки кадров в области информационной безопасности, в том числе разработки методик, специальной и учебной литературы, формирования эффективных механизмов использования современных информационных технологий в образовательном процессе.

На сегодняшний день высшие учебные заведения осуществляют подготовку кадров по информационной безопасности. ТУИТ определен головной организацией по научным проблемам обеспечения информационной безопасности, имеющим гуманитарный характер.

На наш взгляд ТУИТ обладает необходимым потенциалом, чтобы стать ведущей организацией в области проведения научных исследований и подготовки специалистов с высшим образованием по всему спектру проблем информационной безопасности.

Учитывая потребности в высококвалифицированных специалистах по информационной безопасности, необходимо продолжить работу по созданию в ТУИТ системы образования в данной области. Эта система по сути своей является междисциплинарной, многоуровневой, поэтому при ее создании необходимо обеспечить выполнение следующих принципов:

Все виды и формы обучения должны вестись под единым методическим руководством.

Необходимо искать заказчиков и создавать условия для развития различных форм обучения, включая:

обучение по специальностям;

обучение по новым специализациям внутри имеющихся специальностей;

обучение по новым военно-учетным специальностям;

обучение в магистратуре по информационной безопасности;

различные формы дополнительного образования (курсы повышения квалификации, курсы переподготовки, дополнительная квалификация, второе высшее образование);

включение в учебный процесс различных факультетов блоков знаний по тем или иным аспектам информационной безопасности (с помощью специальных курсов, специальных семинаров, курсовых работ, дополнений к государственным стандартам образования и т.д.).

Общий принцип подготовки кадров в области информационной безопасности – это подготовка специалистов на базе фундаментального (университетского) образования, поскольку они в первую очередь должны быть специалистами в той или иной области, чтобы затем на базе профессиональных знаний получить дополнительное образование в сфере информационной безопасности.

Поэтому особое внимание должно быть уделено развитию магистратуры как формы и этапа обучения в вузах. Специалисты, которые требуются сегодня, должны иметь фундаментальное базовое образование, к которому дополнительно надо дать «надстройку» в виде специализации по информационной безопасности. Например, экономистам необходимо дополнительное образование по специальности «электронная экономика», которое в полном объеме сегодня нельзя получить в рамках существующих экономических специальностей, юристам необходима специализация в сфере правового обеспечения безопасности информационных и телекоммуникационных систем, в частности, в сфере компьютерной преступности, которая набирает темпы по всему миру по мере становления информационного общества. Такие специализации можно полноценно организовать, как представляется, на базе дополнительного образования (например, магистерского уровня).

Востребованность специалистов в области обеспечения информационной безопасности уже сегодня высока, а по мере вхождения Узбекистана в информационное общество, без сомнения, будет увеличиваться. Чтобы отвечать требованиям времени, необходимо продолжить развитие этой формы образования.

Итак, для решения проблемы кадрового обеспечения информационной безопасности в современных гостиницах мы предлагаем:

- разработку государственных образовательных стандартов по новым специальностям высшего профессионального образования;
- создать нормативно-правовую базу особого порядка лицензирования образовательной деятельности в области информационной безопасности;
- совершенствовать нормативную базу, направленной на сохранение интеллектуального потенциала государственных вузов, осуществляющих подготовку специалистов в области современных информационных технологий и информационной безопасности;
- разработать методику специальной и учебной литературы по специальностям в области информационной безопасности, включая разработку учебных пособий для подготовки специалистов в области криптографии.
- разработать методику специальной и учебной литературы по изучению общих вопросов информационной безопасности в специальностях, не отнесенных к группе «Информационная безопасность».
- разработать методику специальной и учебной литературы для курсов переподготовки и повышения квалификации кадров в области информационной безопасности.

Norkulova D.Z. – SamISI PhD, dots. v.b.
JomonqulovaF. – t.f.n., dots., kat.o'q.
Qilichova O.Z. - MXT-118 guruhtalabasi

TURIZMDA WEB SAYTLARNING AHAMIYATI

***Аннотация**: В этой статье описывается роль веб-сайтов в развитии туризма, как эффективно использовать сети общения, актуальность существующих сайтов и их способность привлекать туристов*

***Ключевые слова:** интернет, сети, туризм, образование, информация, внешний туризм, сайты, этнография, история*

***Annotation**: This article describes the role of websites in the development of tourism, how to effectively use communication networks, the relevance of existing sites and their ability to attract tourists*

***Keywords:** Internet, networks, tourism, education, information, external tourism, sites, ethnography, history*

Turistik soha zamonaviy axborot texnologiyalarini jalib etish uchun edial ravishda moslashgan. Uning uchun qisqa muddatda transport vositalari, turistik obyektlar joylashuvi, nomer fondi imkoniyatlari va shu kabilar haqida ma'lumot beruvchi tizim talab etiladi. Bu tez rezervlar yaratish, tuzatishlar kiritish, qisqa muddatda kerakli ma'lumotlarga ega bo'lish, turistik xizmatlar chog'ida yordamchi vazifalarni hal etishni ta'minlaydi. Shu kabi axborot texnologiyalari vaqtni, ortiqcha xarajatni tejaydi. Bunday vositalar ham tashrif buyuruvchi mehmonlar uchun, ham mezbon korxona va fermalar uchun qulay hamda samarali. Masalan, chipta, belet olish, yo'l ko'rsatkichlar tayyorlash, axborot ma'lumotnomasi va hisob-kitobni ta'minlash shular jumlasidandir. Turist ma'lum bir mamlakatga tashrif buyurishdan oldin shu mamlakat haqida ko'proq bilishga, turistik obyektlari haqida ma'lumot olishga harakat qiladi. Ma'um bir davlat haqida kambop, qiziqarli ammo aniq ma'lumotlarning internet taroqlarida mavjudligi sayyohlarning kiruvchi oqimini ko'paytiradi. Hozirgi axborot texnologiyali yuksak darajada rivojlangan bir davrda ma'lumot(axborotlar)ning to'planishi, aniqligi va ularning yetkazib berilishi nafaqat turizm barcha boshqa sohalar uchun ham muhim sanaladi. Tashqi turizm xalqaro munosabatlarni amalga oshiruvchi soha. Ma'lum bir davlatning turistik obyekti haqida boshqa bir davlat fuqrosiga ma'umot yetkazilish jarayonida ko'plab vositalar ishtirok etadi. Shulardan eng qulay, tez hamda ommabop bo'lgani bu internet sanaladi. Internet tarmoqlarida mamlakatning turistik obyekylari, mehmonxonalari, narxlari haqidagi ma'lumotlar qancha ko'p va aniq bo'lsa va turistlarni qiziqtira olsa, turistlarning oqimi oshib boraveradi. Keltirib o'tilganidek, turizm keng tarmoqli soha, shunday ekan uning har bir tarmog'idan samarali foydalanish lozim.

Web saytlar yurtimitz tarixiy obyektlari haqida qay darajada aniq hamda yetatli ma'lumotlarni bermoqda?

"Samarqand haqida" mavzusi orqali qidirilgan saytlar quyidagilar quyidagilarni tashkel qilmoqda, ushbu mavzuda o'zbek tilida 9ta web sayt fdaoliyat yuritmoqda, shulardan 5 tasini ko'rib chiqamiz.[1]

1. Samarqand so'zi **https://uz.wikipedia.org** saytida 100dan ortiq tillarda mavjud bo'lib, unda Samarqand haqidagi mavzular bir nechta guruhlarga bo'lingan holda ma'lumot berilgan: [2]

1) Tarixi
2) Samarqand mustaqillikdan keyin
3) Samarqandning tarixiy va arxitektura yodgorliklari
4) Tarixiy obidalari
5) Ma'muriy-hududiy bo'linishi
6) Aholisi
7) Transport
8) Samarqandning tarixiy va me'moriy obidalari

9) Galereya

10) Manbalar

Sayt Samarqand haqida aniq va qisqa ma'lumotlarni yoritib bera olgan. Samarqnd haqida ma'lumot to'plashni xohlaganlar uchun kelririlgan saytdan yetarlicha axborot olishi mumkin.

2. Samarqand so'zi **http://uztarix.narod.ru** saytida "O'zbekistonning Tarixiy Obidalari" mavzusi ostida bayon qilinmoqda. Ushbu saytda oldingisiga nisbatan Samarqand shahri tarixi haqida qisqa ma'lumot keltirib o'tilgan. Bosh sahifasi orqali Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi shaharlari haqida ham ma'lumot olish mumkin. [3]

3. http://geografiya.uz saytida esa "**Samarqandga borish uchun 10 ta sabab"** mavzusi ostida tarixiy obidalar to'g'risida ma'lumot berilgan.[4] Keltirilgan saytda Samarqandga tashrif buyurishning sababi qilib quyidagilar sanalgan:

1. Registon maydoni;
2. Xoja Doniyor maqbarasi;
3. Go'ri Amir maqbarasi;
4. Shohizinda ansambli;
5. Bibixonim jome' masjidi;
6. Siyob bozori;
7. Samarqand oshi;
8. Samarqand non;
9. Samarqand qog`ozi;
10. Shayton tog`i.

Ta'kidlash joizki, har bir inson o'z dunyo qarashi yoki qizishishlari bilan boshqalardan farq qiladi. Samarqandda qiziqishlari hamda dunyo qarashlari turlicha bo'lgan insonlar uchun ham arzigulik maskanlar mavjud. Shunday ekan ushbu saytdagi kabi barcha uchun tanish bo'lkagan obyektlar haqida emas balki, hali turizm sohasi uchun yangilik bo'lgan obyektlarni ham keltirib o'tish maqsadga muvofiq sanaladi

4. http://uzbekistonovozi.uz saytida **"SAMARQAND: O'TMISHI SHARAFLI, BUGUNI SAODATLI, KELAJAGI ..."** mavzusida ma'lumot berilgan.[5] Keltirilgan sayt gazeta bo'lib, Samarqand haqida zamonamizga oid ma'lumot hamda maqolalarni keltirib boradi.

5. http://www.samshahar.uz [6] saytida **"Umumiy ma'lumotlar"** bo'limida Samarqand viloyati Samarqand shahri haqida umumiy ma'lumot hamda asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar haqida ma'lumotlar topish mumkin.

Ko'rinib turibdiki mamlakatimiz turistik obyektlariga oid saytlar to'liq qoniqarli darajada emas. Boshqa tillardagi ma'lumotlarning mavjudligi ham alohida e'tiborli sanaladi. Saytlarda joylashtirilayotgan ma'lumotlar aniq asoslangan bo'lishi shart, buning uchun turistik tadqiqotlarni olib borish juda muhim. Yana shu qatorda qiziqarli, jalb qiluvchi xususiyatlarga ega bo'lgan ma'lumotlar ham alohida ahamiyatli. Masalan, ma'lum bir obyekt haqida mahalliy aholi orasida mavjud bo'lgan qiziqarli rivoyatlar, afsonalar va shu kabilar. Inson qachon kerakli axborotga ega bo'la olsagina, shu axborotga nisbatan qiziqishi va fikr bildira olishi munkin. Yurtimiz hududida joylashgan biror-bir etnogarfik punkt haqida ma'lumot berilar ekan, shu bilan birgalikda turistik obyekytlarga borish usullari (havo transporti, suv transporti, mahalliy transport va sh.k), obyekt yaqinida joylashgan mehmonxonalar yoki joylashtirish vositalari haqidagi ma'lumotlarning mavjudligi turist o'zi borishni xohlagan joylar haqida to'liqroq tasavvurga ega bo'lishini ta'minlab beradi

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1]R.S.Amriddinova, Z.O. Rahimov, M. T. Aliyeva, N.E.Ibadullayev, S.A. Abduxamidov. Mehmonxonalarda xodimlar faoliyatini boshqarish. O'quv qo'llanma.-T.:"Fan va texnologiya", 2018

[2]https://www.google.com/search?q=samarqand+haqida&oq=samarqand+haqida&aqs=chrome.0.69i59.5561j0j7&sourceid=chrome&ie=UTF-8

[3]https://uz.wikipedia.org/wiki/Samarqand

[4]http://uztarix.narod.ru/samarqand.html
[5]http://geografiya.uz/torizm/185-samarqandga-borish-uchun-10-ta-sabab.html
[6]http://uzbekistonovozi.uz/uz/articles/index.php?ELEMENT_ID=19801
[7]http://www.samshahar.uz/oz/node/351

R.G‘. Suyunov – SamISI assistenti
S.B.Sulaymonov – SamISI talabasi
SH.Berdiyorov – SamISI talabasi

GLOBALLASHUV SHAROITIDA INNOVATSION JARAYONLARNING RIVOJLANISHI

Аннотация: *В данной статье делаются выводы из экономического анализа инноваций и исследования полезности инноваций в условиях глобализации.*

Ключевые слова: *инновация, интеллектуальная собственность, инвестиции, изобретение, глобализация.*

Annotation: *This article draws conclusions from the economic analysis of innovation and the study of the utility of innovation in the context of globalization.*

Keywords: *innovation, intellectual property, investment, invention, globalization.*

Hozirgi kunda jamiyat hayotida innovatsion sohaning jadal rivojlanishi, iqtisodiyotda intellektual mahsulot, axborot va ilmiy-texnik va innovatsion faoHyat ulushining o'sishi shunga olib keldiki, innovatsiyalar xuddi foydali qazilmalar, ishlab chiqarish quvvatlari va intellektual salohiyat kabi, mamlakatning boyligi hisoblana boshladi. Bozor islohotlarining amalga oshirilishi, mamlakatning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, jahon iqtisodiy tizimining bilimlar va axborot rolining o'sishi tomon o'zgarishi, yangi texnologiyalar va kapital bozori o'rtasidagi aloqalar kuchayishi bilan mamlakatimiz iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion sohada strategik va taktik choralar tizimini ishlab chiqish faqat ilmiy asosda amalga oshirilishi mumkin. Shu sababli faol harakat qilayotgan har bir shaxs, u qaysi faoliyat sohasida band bo'lmasin, fan va texnikaning rivojlanish umumiy qonuniyatlari, yangiliklarni samarali qo'llash usullari haqida tasavvurga ega bo'lishi, yangiliklar kiritish nazariyasi, innovatsion faoliyatni tashkil etish va boshqarish amaliyotini, ya'ni innovatsion strategiyaning asosiy qoidalarini, shuningdek, mos keluvchi darajada innovatsion siyosatni shakllantirish va amalga oshirish xususiyatlarini bilishi zarur. Bu borada muhtaram birinchi prezidentimiz “Biz mamlakatimizdagi ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya qilish va yangilash, zamonaviy innovatsiyalarga asoslangan va yuksak samarali texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha o‘z oldimizga katta maqsadlar qo‘yganmiz. Ularni amalga oshirishda kerakli imtiyozlarga ega bo‘lgan maxsus industrial zonalarni tashkil etish yo‘lida oxirgi yillarda biz ko‘pgina tajribalarga ega bo‘lmoqdamiz.”[103] deb ta`kidlab o`tganlar.

Yangilik kiritish – fan va texnika yutuqlaridan bozorda amaliy foydalanish bo’yicha faoliyatning oraliq yakunigina, xolos. Yangilik kiritish intellektual mahsulotning quyidagi turlaridan biri sifatida qayd etilishi va rasmiylashtilishi mumkin: ixtiro, tushuncha, ilmiy yondashuv, yangi tamoyil, standart, tavsiya, uslubiyat, yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot (texnologiya, boshqaruv yoki ishlab chiqarish jarayoni, tashkiliy, ishlab chiqarish yoki boshqa struktura) hujjatlari, patent, ratsionalizatorlik takliflari, kashfiyotlar, «nou-xau», marketing tadqiqotlari natijalari va h.k.

Yangilik kiritish atamasining sinonimi hisoblangan *novatsiya* tushunchasi ilgari mavjud bo’lmagan bironta yangilikni ifodalaydi.

«Yangilik kiritish» va «novatsiya» tushunchalari bilan «tadqiqot», «ixtiro» va «kashfiyot» tushunchalari chambarchas bog’liqdir. Ilgari ma’lum bo’lmagan ma’lumotlar olish yoki ilgari

[103] I.A.Karimov. “Asosiy vazifamiz-Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir”. –Toshkent, O’zbekiston, 2010

ma’lum bo’lmagan tabiat hodisalarini yoki insoniyat muhitini kuzatish jarayoni *tadqiqot* deb ataladi.

Ixtiro bu – yangi uskuna, mexanizm, vosita, texnologiya, usul va inson tomonidan yaratilgan boshqalarda o’z aksini topadigan tadqiqot natijasidir.

Kashfiyot bu – tadqiqotlarning, ehtimol, qo’shimcha natijasi hisoblanadi. Kashfiyotlar va ixtirolar qoidaga ko’ra, fundamental darajada yuzaga keladi va kamdan-kam hollarda yakka shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Ular tasodifan ro’y berishi va foyda olish maqsadini ko’zlamasligi ham mumkin.

Yangilik ishlab chiqarish va boshqaruv tizimiga joriy qilinganidan so’ng bozorda iste’mol qilinadigan yangi mahsulotga aylanadi va uni sotishdan iqtisodiy, ijtimoiy yoki boshqa turdagi samara olinadi, - u yangi toifaga – innovatsiyalarga aylanadi.

Innovatsiyalar ishlab chiqarish sohasiga, iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy munosabatlar, fan, madaniyat, ta’lim va boshqa sohalarga mansub bo’lishi mumkin.

Innovatsiyalarning mohiyati ularning funksiyalarida namoyon bo’ladi. Innovatsiyalar funksiyalari ularning davlat iqtisodiy tizimidagi vazifalari va xo’jalik jarayonidagi rolini aks ettiradi. Innovatsiyalar korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda alohida rol o’ynaydi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarning tub negizini tadbirkorlik, omilkorlik va ishbilarmonlik xislatlarisiz tasavvur etish qiyin. Erkin bozor munosabatlarining keng ravnaq topishi insonlar hayotida, turmush tarzida, ma’naviy va amaliy ko’nikmalarida namoyon bo’layapti. Shu bilan bir qatorda bu tarixiy islohotlar davomida bir qator muammolarga duch kelmoqdamiz. Shulardan biri - ro’y beradigan o’zgarishlar va imkoniyatlarni oldindan ko’ra olish va xo’jalik siyosati va strategiyasini ishlab chiqarishdir. Korxonalar va ularning raxbarlari atrofdagi o’zgarishlarga oddiy e’tibor beribgina kolmasdan, balki ilmiy asoslangan usullar asosida bu o’zgarishlarni oldindan ko’ra bilish, muvofiqlashtirish, korxona maqsadlari va tashqi sharoitlariga moslashtirishni boshqarishlari zarurdir.

Абдувалиев А.А - Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги
ТАТУ Қарши филиали мустақил изланувчиси
Бозорова И.Ж - Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги
ТАТУ Қарши филиали 1-босқич магистранти

ТАБИИЙ ВА ЭТНОГРАФИК РЕСУРСЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШДА ГЕОАХБОРОТ ТИЗИМЛАРИ ВА АХБОРОТ КОММУНИКАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ЎРНИ

Annotation: The role of geoinformation systems and information communication technologies in the effective use of natural and ethnographic resources is covered in this article. Therefore, the problems of the rational use of natural and ethnographic resources have been studied. The role of geoinformation systems and information and communication technologies in the effective use of natural and ethnographic resources has been considered.

Key words: Kashkadarya Region, Natural Resources, Ethnographic Resources, Geoinformation systems, Information communication technologies, Automated information systems and Internetnetwork.

Иқтисодиёт тармоқлари ва соҳаларига инновацияларни жорий этиш механизмларини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-3698 сонли қарори

Бугунги кундаги мураккаб инновацион технологиялар ривожи, глобал рақамли иқтисодиётнинг шаклланиши ва унда энг муҳим омил сифатида инсон интеллектуал капитал салоҳиятининг ошиши, шунингдек, жаҳон иқтисодиётининг инновацион глобаллашуви жараёни (шу жумладан, эркин ташқи савдо, электрон онлайн савдо ва рақамли молия капиталининг кенгайиши) нафақат илғор технологик кашфиёт ҳамда инновацион илмий ғояларни амалда татбиқ этиб, янги товар-хизматлар яратаётган энг юқори малакали ва истеъдодли ижодий техник муҳандислар, аниқ табиий фанлар билан шуғулланувчи олимлар,

ИТ-мутахассислари (ривожланган мамлакатлар аҳолисининг 10 фоизини ташкил этмоқда) даромадларининг кескин ўсишини таъминлади, шу билан бирга, бу техник соҳа вакиллари меҳнат қилаётган инновацион технологик компанияларнинг капитал маблағларини ҳаддан зиёд ошириб юборди, натижада иқтисодий даромадлар жамиятнинг ёлланма меҳнат табақаларидан йирик молк-мулк ва капитал маблағ эгаларида кўпроқ йиғилишига олиб келди, мамлакат миллий даромадида ишчи-ходимларнинг иш ҳақи улуши кескин қисқарди, капитал кўлами ва фойдаси ҳиссаси эса тез ошди.



Китоб тумани табиий ресурслари

Ўзбекистонда тарихий-маданий, архитектура, археология аҳамиятига эга 7 мингдан ортиқ туристик объектлар мавжуд. Статистика маълумотларига асосан улардан 545 таси архитектура, 578 таси тарихий, 1457 таси санъат ёдгорликлари ва 5500 дан ортиғи археологик аҳамиятига эга объектлардир.

Ундан ташқари, Республикамизда 300 дан ортиқ музейлар, 1200 та халқ ижодиёти ташкилотлари мавжуд. Туристик зиёрат объэктларининг миқдори Тошкентда 144 та, Самарқандда 118 та, Бухорода 201 та, Хивада 310 тани ташкил этади. Бу эса, мамлакатимизда диний туризм, тарихий обидалар туризми, экологик туризм, археологик туризм, соғломлаштириш туризми, экскурсия (танишув, кўриш) туризми каби туризм турларини ривожлантириш имкониятлари юқорилигини кўрсатади.



Шаҳрисабзадаги мақом музейи

Хозирги пайтда ўзида бой тарихий-маданий меъросга, ноёб табиий салоҳиятга эга бЎлган минтақалар учун ҳудуднинг табиий ва тарихий-маданий ёдгорликларини, туризмга хизмат кЎрсатувчи корхоналарни ва туризм йўналишларини ҳисобга олиш, туристлар оқимини таҳлил қилиш, ҳудуднинг ривожлашини режалаштириш ва бошқа вазифаларни ечишга ёрдам берувчи кенг профилдаги амалий геоахборот тизимини шакллантириш зарур бўлмоқда.

Замонавий ГИС тизимини тадқиқот учун танлашда фойдаланувчи томонидан қуйидагиларга эътибор қаратилади: ГИСлар ёрдамида қандай масалалар ҳал этилиши кераклигига, оқибатда қандай натижа олиниши кутилаётганлигига, ишланаётган маълумот

ҳажмининг катталигига, ҳал этилаётган масалаларнинг долзарблигига, уларни ҳал этиш учун қандай ёндашилиб, қанчалик даражада сезиларли натижаларни олишга.

Ҳар бир геоахборот тизимининг асосий негизини маълумотлар базаси (МБ) ташкил этади. Маълумотлар базаси деганда объектнинг ҳолатини, унинг хоссалари ва бошқа объектлар билан ўзаро муносабатларини акс эттирувчи маълумотларнинг номланган тўплами ҳамда бу маълумотлар базасини юритиш учун зарур бўлган техник ва дастурли воситаларнинг комплекси тушунилади. Умумий маънода маълумотлар базаси - бу махсус ташкил этилган ёзув ва файллар тўпламидир. ГАТнинг МБсида, масалан, объектнинг номи, у жойлашган вилоят ёки шаҳар, у ҳақида жой картаси,
объектнинг иқтисодий географик ва бошқа кўрсаткичлари сақланиши мумкин.

Ҳозирги кунда маълумотларнинг реляцион базаси ахборотни сақлаш учун оммобоп бўлган модел ҳисобланади, чунки у ўзида тасвирни кўргазмали тасвирлашни, улар билан ишлашни маълум даражада соддалаштиришни таминлайди.

ГИСдан фойдаланишда, маълумотлар базасининг реляцион моделида икки туркум маълумотлар сақланади – графикли ва атрибутли (мазмунли).

Маълумотларнинг графикли базасида картанинг графикли ёки улчамли асоси рақам кўринишида сақланади. Маълумотларнинг мазмунли базасида эса картанинг мазмуни ва картага тўғридан-тўғри киритилиши мумкин бўлмаган фазовий маълумотларга тегишли қўшимча ахборотлар сақланади. Уларга объектнинг сифати тавсифини ифодаловчи минтақанинг матни киради, объект атрибутларини ўз ичига олган жадвал атрибутив жадвал дейилади.

Минтақавий тарихий-маданий объектларни ГАТ технологияси ва веб тенологиялари орқали маълумотлар базаси яратиб олинди. Маълумотлар базаси MySQL дастури ҳамда google базалари билан боғланди.



Табиий ва этнографик ресурсларнинг геоахборот тизимларидаги реляцион маълумаотлар базаси куриниши



1-расмда MySQL дастури маълумотлар базаси кўрсатилган

1-расмда Геоахборот веб порталини маълумотлар базаси умумий кўриниши тасвирланган у ерда иккита қисмга ажратилган фойдаланувчилар ва тарихий-маданий объектларнинг маълумотлар базаси. Бизга ушбу расмда кўрсатилган MySQL маълумотлар базасидастури орқали таҳлил қилиш яъни маълумотлани алмаштириш, ўзгартириш, қўшиш, олиб ташлаш ва янги маълумотларни қўшиш имконини беради.



Ахборот технологиялари ўзаро таъсири бўйича ҳам таснифланади ва бу тасниф техник воситалар орқали амалга оширилади: дискетали ва тармоқли таъсирчанлик ҳамда

тақсимланган технологияларнинг турлари бўйича, яъни тақсимланган ахборот базаси ва маълумотларнинг тақсимланган қайта ишлаш услуби. Ахборот технологияларининг ўзаро боғлиқлиги бўйича таснифи



Ҳ.Н.Мусаев – СамИСИи.ф.д.,профессор

ТУРИЗМ СОҲАСИ КОРХОНАЛАРИНИ АУДИТОРЛИК ТЕКШИРУВИДАН ЎТКАЗИШДА ФИРИБГАРЛИКНИ АНИҚЛАШ

Аннотация: *встатье изложены понятиямошеничество,методы её определения на предприятиях сферы туризма,даны рекомендации по преодолению фактов мошеничества во время аудиторских проверок.*

Ключевые слова: *мошеничество,методы обнаружения фактов мошеничества на предприятиях сферы туризма.*

Annotation:*The article sets out the concept of machenism,methods for their determination in tourism enterprises,these recommendations on overcoming the facts of machenism during an audit.*

Keywords:*machenism,methods of discovering the facts of machenism in tourism enterprises.*

Ўзбекистон миллий иктисодиёти тармоклари жадал ривожланиб бормокда. Шундай соҳалардан бири туризм фаолиятидир. Туризм соҳасини ривожлантириш ҳам иктисодий, ҳам ижтимоий аҳамиятга эга. Шу боис ушбу соҳани ривожлантириш устувор вазифалардан қилиб унинг ҳуқуқий асослари яратилган. Туристик корхоналарнинг молиявий барқарорлиги ушбу соҳада мавжуд бўлган моддий, молиявий ва меҳнат ресурсларини тўғри ҳисобга олиш,уларнинг назоратини таьминлашдан иборат. Бухгалтерия ҳисоби орқали корхоналардаги барча операцияларяхлит, узлуксиз, ҳужжатлар асосида ҳисобга олиш йўли билан ахборотлар йигилади,қайд этилади ва умумлаштириб борилади. Ушбу ахборотлар асосида молиявий ва бошқа ҳисоботлар тузилади(1). Шунинг учун бухгалтерия хисоби ахборотлари асосланган, аниқ ва тўлиқ бўлиши шарт.

Соҳа корхоналари самарадорлигини ошириш учун уларнинг фаолияти вақт-вақти билан аудиторлик текширувларидан ўтказилиб турилади. Аудиторлик текшируви -бу молиявий ҳисобот ва бошқа молиявий ахборотларнинг тўғрилигини ва қонун ҳужжатларига мослигини текширишдир. Тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, эгилувчанлик хусусиятига эга бўлган бозор иқтисодиёти шароитида корхоналар фаолиятида маълум

камчиликлар,амалдаги тартиб-қоидалардан чекланишлар бўлиб туради. Бундай ҳолатлар турли омиллар таъсирида вужудга келади. Натижада корхоналарда тузилаётган молиявий ҳисоботларда хато-камчиликлар, ноаниқликлар келиб чиқади. Мамлакатимиз Президенти томонидан корхоналар ҳисоботларида кўрсаткичларни сохталаштириш, уларни бўртириб кўрсатишга катъий сиёсат олиб борилмоқда. Ушбу масалалар бундан кейин ҳам долзарб бўлиб қолаверади. Турли мулкдаги корхоналар, шу жумладан туризм соҳаси субъектларида тартиб-қоидадан чекланишларни икки турга бўлиш мумкин:

- билиб-билмай хатоликларга йул куйиш;
- ғайрий-қонуний йуллар оркали чеклашлар.

Билиб-билмай хатоликларга йўл қўйиш корхона ходимларининг руҳий ҳолати, касбий маҳоратининг етишмаслиги, иш тажрибасининг камлиги туфайли содир бўлади. Гайрий-қонуний хатоликлар эса мансабдор шахсларнинг ўз олдиларига аниқ максад-шахсий манфаатларига каратилиб содир этилади. Ушбу хатоликлар корхона фаолиятига салбий таъсир кўрсатади ва иқтисодий барқарорлигини пасайтиради. Бундай йўл билан корхона маблағларини ноқонуний ўзлаштириш фирибгарлик деб айтилади. Шуни ҳам эътироф этиш керакки, корхоналар фаолиятида фирибгарлик, унинг келиб чиқиш сабаблари ва олдини олиш усуллари махсус адабиётларда тўлиқ ўз аксини топган. Аудитга оид яқинда нашрдан чиққан дарсликда фирибгарликка қуйидагича таъриф берилган: “Фирибгарлик-бу қаллобликни қўллаш билан боғлиқ олдиндан билиб амалга оширилган ҳаракатдир” (3,129 б.). Ўзбек тилининг изоҳли луғатида фирибгарлик тушунчасининг мазмуни қуйидагича ифодаланган: “фирибгарлик: форсчадан алдамчилик,йўлдан оздириш,макр ишлатиш ҳийлагар, кишини қасддан адаштириш, товламачилик, ҳийла-найранг ишлатиш” (4,348-349бетлар). Бухгалтерия ҳисоби ва аудитда, бизнинг фикримизча, фирибгарлик деганда ноқонуний йўллар орқали бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботини нотўғри тузиш, уларни сохталаштириш, ҳисоботда ҳақиқий кўрсаткичларни атайлаб бўртириб кўрсатиш орқали хўжалик юритувчи субъектга зарар келтириш тушунилади.

Туризм соҳаси корхоналаридаги фирибгарлик ҳолатларига қуйидагиларни киритиш мумкин:

- жорий ҳисоб маълумотларини сохталаштириш;
- молиявий ҳисобот кўрсаткичларини бузиб кўрсатиш;
- бевосита маблағларни ноқонуний йўл билан ўзлаштириш (сифатсиз маҳсулотлар, сифатини ”сифатли” деб расмийлаштириш, камомадларга йўл қўйиш).

Тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики,туризм соҳаси субъектларда: турмаҳсулот ҳажми сохталаштирилади, кўрсатилган хизматлардан келиб тушган тушумларни ҳисоботларда камайтириб кўрсатиш, туристлар оқимини сунъий равишда ошириб кўрсатиш, тўлик кўрсатилмаган хизматларни сохталаштириб нақд пул маблағларини ўзлаштирилади, дастлабки ҳужжатлардаги ва ҳисоб регистрлардаги маълумотлар сохталаштирилади ва ҳ к.

Туристик корхоналар фаолиятни аудит қилиш жараёнида мавжуд фирибгарлик ҳолатларига аудиторлар қуйидагича муносабат билдиришлари керак деб ҳисоблаймиз.

- фирибгарликнинг тури,келиб чиқиш сабабларини аниқлаш,
- фирибгарлик орқали ноқонуний ҳатти-ҳаракат қилган шахслардан ёзма тушунтиришлар олиш;
- фирибгарлик орқали келтирилган зарарнинг ҳажмини аниқлаш;
- фирибгарлик аломатларининг келиб чиқиш сабабларини аудиторлик таҳлил қилиш,
- фирибгарлик ҳолатлари мавжуд бўлган жараёнларни текшириш усулларини ўзгартириш;
- мавжуд муаммонинг келиб чиқиш сабаблари ва оқибатларини аниқлашда аудит қилишнинг инновацион усуллардан кенг фойдаланиш;
- фирибгарлик орқали ўзлаштирилган маблағларни ундириб олиш йўлларини излаб топиш;

- корхона фаолиятида,келажакда фирибгарлик ҳолатларини олдини олишга қаратилган таклиф ва тавсифлар ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқдир.

Хўжалик юритувчи субъектлардаги фирибгарлик ҳолатларининг салбий оқибатлари уларнинг молиявий ҳисоботларида ўз ифодасини топган бўлади.Шунинг учун,аудит жараёнида бухгалтерия баланси ва молиявий ҳисобот кўрсаткичларининг ўзаро мослигига катта эътибор берилиши керак.

Зайналов Ж.Р. – СамИСИ профессори, и.ф.д.
Хусанова Д.Ш. – ТМИ, мустақил изланувчи

ИҚТИСОДИЁТНИ ТАРКИБИЙ ЎЗГАРТИРИШ СТРАТЕГИЯСИ ЗАМИРИДА ТУРИЗМ СОҲАСИНИ ЯНАДА РИВОЖЛАНТИРИШ

Аннотация. В статье освещен анализ современного состояния и правовых основ отрасли туризма, а также условия ее развития.

Ключевые слова: туризм, отрасль туризма, налоговые льготы, таможенные льготы.

Abstract. The article highlights the analysis of the current state and legal foundations of the tourism industry, as well as the conditions for its development.

Key words: tourism, tourism industry, tax benefits, customs benefits.

Ўзбекистонда туризм тармоғини тараққий эттириш, унинг жаҳон туризми бизнесида фаоллигини ошириш учун республика Президенти фармонлари, Вазирлар Маҳкамаси қарорларини ижросини таъминлаш ҳаракати тобора кучайтирилмоқда.

Шу боис ҳам туризм жаҳон иқтисодиётидаги тез ривожланиб келаётган ва катта даромад келтирувчи тармоқлардан бири бўлиб бормоқда. Туризм соҳасини ривожлантириш ҳам иқтисодий, ҳам ижтимоий аҳамиятга эга. Туризм бизнесида, нисбатан кам харажат қилиниб кўп фойда олинади, аҳоли қўшимча иш жойлари билан таъминланади, туристик фаолият бир қанча бошқа тармоқларнинг ривожланишига ўз таъсирини ҳам кўрсатади. Расмий маълумотларга кўра, туризм соҳаси дунё ялпи миллий маҳсулотининг 6 фоизга яқинини, жаҳон инвестициясининг 7 фоизини, дунё истеъмол харажатларининг 11 фоизини, барча солиқ тушумларининг 5 фоизини беради. Туризм соҳасини ривожлантиришнинг муҳим шартларидан бири – бу ушбу соҳага инвестицияларни кенг жалб қилишдир[104].

Президентимиз Ш.М. Мирзиёев Ўзбекистонда туризмни изчил ривожлантириш истиқболлари, ташриф буюраётган сайёҳлар оқимини кўпайтириш борасида амалга оширилаётган ишлар таҳлилига бағишланган йиғилишида: “Туризм – иқтисодиётнинг муҳим тармоқларидан бири. Мавжуд имкониятлардан самарали фойдаланган ҳолда, ушбу тармоқни янада такомиллаштириш зарур, буни даврнинг ўзи тақозо этмоқда”, Ўзбекистон ҳам саёҳат, ҳам зиёрат учун қулай мамлакат. Чунки она заминимизда бутун дунёга маълум ва машҳур бўлган аждодларимиз мангу қўним топган. Улар қолдирган бой маънавий-маданий меросга халқаро майдонда қизиқиш жуда катта. Соҳани янада ривожлантириш учун, аввало, зарур инфратузилмани такомиллаштириш шарт. Биринчиси, транспорт, иккинчиси логистика”, - дея таъкидлади[105].

Ўзбекистон ҳукумати томонидан 2016-2017 йилларда соҳани янгилаш ва ривожлантиришга доир муҳим чора-тадбирлар қабул қилинди. “Ўзбектуризм” миллий компанияси ўрнига Туризмни ривожлантириш Давлат қўмитаси ташкил қилинди ва туризм соҳасини янада такомиллаштириш мақсадида 16 та янги норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинди. Улар, жумладан, туризм соҳаси субъектларига сезиларли солиқ ва божхона имтиёзлари ҳамда бошқа енгилликларни ўз ичига олган. Стандартлаштириш бўйича халқаро ташкилот (ИСО) талабларига мос келишини таъминлаш мақсадида туризм терминологияси

[104] Хизмат кўрсатиш, сервис ва туризм соҳаларини ривожлантириш: муаммолар ва уларнинг ечимлари. Монография. Проф. М.Пардаев, проф. Ҳ.Н. Мусаевлар таҳрири остида. – Т.: Иқтисод-молия, 2008. – 55 б.

[105] http://sputniknews-uz.com/tourism/2017004/6451356.html

ав меҳмонхона хўжаликлари хавфсизлиги талаблари бўйича янги 2 та давлат стандарти ишлаб чиқилди ва рўйхатдан ўтказилди. Ундан ташқари, Тошкент, Самарқанд, Бухоро ва Хоразм вилоятлари ҳамда Хива ва Шаҳрисабз шаҳарлари ҳокимларининг туризм масалалари бўйича ўринбосарлари лавозими жорий этилди. Хоразм, Бухоро, Самарқанд, Сурхондарё, Қашқадарё, Жиззах ва Фарғона вилоятларида туризм инфратузилмасини яхшилаш, янги сайёҳлик йўналишларини ташкил этиш ҳамда ҳудудларнинг туризм салоҳиятини кенг тарғибот қилишга қаратилган дастурлар қабул қилинди. Бухоро ва Самарқанд шаҳарларида сайёҳлар учун куну-тун фаолият кўрсатувчи, ҳар бирининг ҳудуди 10 гектардан иборат “Қадимий Бухоро” ва “Самарканд сити” туризм ҳудудларини барпо этиш бўйича ишлар бошлаб юборилган.

Статистик маълумотларга кўра, Ўзбекистонга жорий йилнинг 9 ойи ичида 1,8 млн. сайёҳ келган. Бу 2016 йилнинг 9 ойига нисбатан 17%га кўп, лекин туризм соҳаси вакилларига кўра, йўл охирига қадар сайёҳлар сони 2,5 миллиондан ошиши кетилмоқда[106].

Туризмни ривожлантириш масаласи, нафақат иқтисодий, балки муҳим ижтимоий, сиёсий, маданий ва маърифий аҳамиятга эга. Туризм орқали дунё билан танишиш мумкин бўлади. Шу туфайли ушбу соҳанинг ривожланишига мамлакатимизда катта аҳамият бериб келинмоқда. Мамлакатимизда туризмни ривожлантириш бўйича давлат сиёсати ҳам шакллантирилди ва у қонуний жиҳатдан кучга кирди. Ўзбекистон Республикасининг “Туризм тўғрисида”ги қонуни биринчи марта 2006 йил 6 апрелда қабул қилинган эди. Унга 1999 йилнинг 20 августида ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритилиб, унинг янги таҳрирдаги матни қабул қилинди. Қонуннинг 4-моддасида “Туризм соҳасидаги давлат сиёсатининг асосий йўналишлари” белгилаб берилган[107].

Айтиш жоизки, ҳозирда туризм соҳасидаги давлат сиёсатининг асосий йўналишларига қуйидагилар киради.

1. Кадрларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш;
2. Туризм ва туристик индустрияни ривожлантириш;
3. Туристик ресурслардан оқилона фойдаланиш ва уларни сақлаш;
4. Туризм соҳасининг илмий таъминотини ташкил этиш ва ривожлантириш;
5. Туризм соҳасидаги норматив базани такомиллаштириш;
6. Туристларнинг хавфсизлигини, уларнинг ҳуқуқлари, қонуний манфаатлари ва мол-мулки муҳофаза қилинишини таъминлаш;
7. Фуқароларнинг саёҳат қилиш пайтидаги дам олиш, эркин ҳаракатланиш ва бошқа ҳуқуқларини таъминлаш;
8. Чет мамлакатлар ва халқаро ташкилотлар билан ҳамкорликни ривожлантириш;
9. Болалар, ёшлар, ногиронлар ва аҳолининг кам таъминланган қатламлари туризми (экскурсиялари) учун шароит яратиш;
10. Тадбиркорлик фаолияти субъектлари учун туристик хизматлар бозорида тенг имкониятлар яратиш;
11. Туристик индустрияни ривожлантириш учун инвестициялар жалб этиш.

Ушбу йўналишлар долзарб масалалардан бир бўлиб ҳисобланганлиги боис туризмни ривожлантиришнинг ҳар бир йўналиши чуқукр тадқиқ қилиши лозим. Чунки, илгари бутунлай эътибордан четда қолган соҳа шу қисқа вақт мобайнида қурилган чора-тадбирлар туфайли оёққа турмоқда ва иқтисодиётнинг етакчи тармоқларидан бирига айланиш учун тегишли шароитлар яратилмоқда.

Бундан ташқари Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2018-2019 йилларда туризм соҳасини ривожлантириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар

[106] Туризмни ривожлантириш Давлат қўмитаси сайти маълумотлари

[107] Ўзбекистон Республикасининг “Туризм тўғрисида”ги қонуни. 1999 йилнинг 20 августида ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритилиб, унинг янги таҳрири қабул қилинган. 4-модда: “Туризм соҳасидаги давлат сиёсатининг асосий йўналишлари”

тўғрисида”[108]ги қарор қабул қилинди. Бунга кўра, мамлакатимизда иш ўринларини яратиш, иқтисодиётни диверсификация қилиш, ҳудудларни жадал ривожлантириш, валюта тушумларини кўпайтириш, аҳоли даромадлари ва турмуш даражасини ошириш каби энг муҳим ижтимоий-иқтисодий вазифаларни яқин истиқболда ҳал қилиш учун кенг салоҳиятга эга бўлган туризм соҳасини ривожлантириш борасида изчил чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Шу маънода Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2018-2019 йилларда туризм соҳасини ривожлантириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори қабул қилиниши давлатимиз томонидан туризм соҳасида амалга оширилаётган сиёсатнинг мантиқий давоми бўлиб, туризм соҳасини жадал ривожлантириш учун қулай иқтисодий, маъмурий ва ҳуқуқий муҳитни яратган ҳолда, энг самарали тартибни жорий этиш, ҳудудларнинг иқтисодий салоҳияти ва даромадлар базасини кенгайтириш, янги иш ўринлари яратиш, юртимизга келадиган туристлар оқимини кўпайтириш, шунингдек миллий туризм маҳсулотларини жаҳон бозорида фаол ва комплекс илгари суришга қаратилган. Хусусан, қарор билан соҳада меъёрий-ҳуқуқий тартибга солишни такомиллаштириш ва халқаро ҳамкорликни ривожлантириш, Ўзбекистонга саёҳатларни арзонлаштириш, юртимизнинг барча ҳудудларида туризмни ва соҳа билан боғлиқ инфратузилмани ривожлантириш, туристик маҳсулотларни диверсификация қилиш ва янги туризм объектларини ташкил этиш, шунингдек, миллий туризм маҳсулотларини ички ва ташқи бозорларда фаол ва комплекс илгари суришга қаратилган 2018-2019 йилларда туризмни ривожлантириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар дастури тасдиқланди.

Қабул қилинган қарорнинг мазмун-моҳиятига таянилган туризм соҳасида ҳолда туризм соҳасида тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланиш учун қулай шароитлар яратиш лозим. Бунинг учун:

- тадбиркорлик субъектларига янги меҳмонхоналар ва туризм инфратузилмасининг бошқа иншоотларини қуриш, мавжудларини модернизация қилиш учун узоқ муддатли (15 йилгача) кредитлар ажратиш амалиётини янада кучайтириш лозим;

- тадбиркорлик субъектларига чет эл валютасидаги маблағларни ўтказиш бўйича кўрсатиладиган хизматлар, терминаллар ижараси, эркин конвертация қилинадиган валютадаги нақд пулларни инкассация қилиш ва чет эл валютасида операциялар амалга ошириш билан боғлиқ бошқа хизматлар учун йиғимларнинг (комиссия тўловларининг) мақбул миқдорлари белгилашни янада кучайтириш;

- 2022 йил 1 январга қадар меҳмонхоналар бошқарув ходими сифатида жалб қилинган малакали хорижлик мутахассисларнинг меҳнатига ҳақ тўлаш фондидан ягона ижтимоий тўлов тўлашдан, шунингдек, меҳмонхоналарга бошқарув ходими сифатида жалб қилинадиган малакали хорижлик мутахассисларнинг даромадлари жисмоний шахсларнинг даромад солиғидан озод этиш борасида тадбирларни мақсадлилигини таъминлаш.

Ушбу мақсадларга эришиш орқали мамлакатимиз туризм соҳасининг янада ривожланишига янги суръат бахш этади.

Доц. Мусаева Ш.А.
Усманов Ф.Ш. Ик 219 гуруҳ талабаси

ТУРИЗМ ИНФРАТУЗИЛМАСИНИНГ ЎРНИ ВА УНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Ўзбекистонни ривожлантириш Ҳаракатлар стратегиясида туризм соҳасига алоҳида эътибор қаратилади. Мамлакатимизда туризмни ривожлантириш давлат қўмитасининг ташкил этилиши зурур қонуний ва меъёрий ҳужжатларни қабул қилиш ҳамда туризм бозоридаги муҳитни барқарорлаштириш имконоини беради.

[108] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2018-2019 йилларда туризм соҳасини ривожлантириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори. 2017 йил 16 августда қабул қилинган.

Шу билан биргаликда туризм ва мехмонхона соҳасини ривожлантиришда барча хўжалик субъектларнинг ушбу бозордаги ҳаракатларини кескин жадаллаштириш зарур бўлади, чунки Президентимиз томонидан қўйилган мақсадга барчанинг иштирокисиз эришиб бўлмайди.

Шунинг учун туризмнинг ҳам туризмни ижобий томонга ўзгартириш ҳамда унинг бошқарув дастакларининг самарадорлигини оширишда маркетинг тадқиқотлари ва фаолияти муҳим ўрин эгаллайди.

Мамлакатимизга ташриф буюрувчи меҳмонларга янада юқори даражадаги хизматларни ташкил этиш ва уларнинг миллий туризмимизга бўлган эҳтиёжларини қондириш бизнинг вазифамизга киради. Бу борадаги чора тадбирларни амалга ошириш учун аввало туризмнинг инфратузилмаларини ривожлантириш лозим. Айниқса худудий жозибадорлик билан боғлиқ омилларнинг самарадорлигини ошириш масаласига эътиборни қаратиш лозим.

Бугунги кунда Самарқанд туристик маконнининг нуфузини оширишда Вилоятдаги туристик инфратузилмасини жаҳон андозалари даражасига етказиш асосий йўл сифатида диққатга сазовор деб ҳисоблаймиз. Ҳозирги кунгача ҳам ушбу соҳда қатор ишлар амалга ошрилган. Самарқанд шахридаги диққтга сазовор туристик объектлар сони ортиб бормоқда ва улар ободонлаштирилмоқда. Туризм-мехмонхона хизматлари субъектларининг моддий-техник базаси ривожлантириш бўйича қатор ишлар амалга оширилмоқда. Аммо ушбу чоралар туризмни иқтисодиёт таркибидаги салмоқли соҳаси сифатида эътироф этилиши учун етарли эмас.

Туризм инфратузилмасини ривожлантириш борасида қуйидаги фикларни келтирамиз:

* Биринчи навбатда мамлакатимизга ташриф буюрадиган туристларга яшаш шароитини яратиш мақсадида вилоятимизда 20-100 ўринли хусусий меҳмонхоналар қуриб, ишга тушириш масалалари. Бу албатта туристларни жойлаштириш масалаларини янада осонлаштиради, бунинг устига меҳмонхоналар орасида рақобатни оширади. Лекин туристларни ўзига жалб қилиш ва қизиқтира олиш масалаларини ҳам кўриб чиқиш ҳам керак. Бу меҳмонхоналарни бизнинг фикримизча табиатга яқинроқ ва шаҳардан маълум даражада узоқликда жойлаштириш мақсадга мувофиқ;

* Барча туристик объектлар ва меҳмонхоналарга борадиган йўллар ҳамда шахобча йўлларни таьмирлаш ишларини ошириш ҳам муҳим ўрин эгаллайди. Жаҳон андозаларига мос йўлларни таъмирлаш нафақат ҳайдовчиларни, балки йўловчиларни ҳам хавфсизлиги ва қулайлик билан манзилларига етишларига сабаб бўлади;

* Давлат ва хусусий меҳмонхоналарда банк электрон терминалларни (банкоматлар) ва валюта айирбошлаш шахобчалари тармоғини кенгайтириш ва ташкил қилиш лозим бўлади. Бу мамлакатимизга чет эл валюталари оқимини таъминлашни ва меҳмонларнинг эҳтиёларини қондиришда (сувенир, бозорларни кўздан кечириш ва бошқа ҳоллар) кераклидир.

* Туризм инфратузилмасини ривожлантиришнинг яна бир йўли Самарқандшахрига туташ бўлган ва экологик ресурсларга бой бўлган туманларда (Булунғур, Жомбой, Нуробод, Ургут ва бошқа туманлар) сайёҳларга замонавий хизматлар кўрсатишга мўлжалланган дам олиш масканларини ривожлантириш;

* Туристлар учун кўрсатиладиган сервис ва ахборот хизматлари тизимини яратиш борасида Самарқанд халқаро аэропорти ва темир йўли вокзалида туристлар учун қўшимча шароитлар яратиш уларнинг ишончини ортишига сабаб бўлади. Самарқандга келган ҳар бир меҳмон унга бўлган самимий қизиқишни поезддан тушгандаоқ сезиши лозим. Бу ишларнинг яна бир қулай тарафи уларни қизиқишлари ва қандай иш юзасидан ташриф буюрганликларини аниқлашга яхши имконият бўлади. Бу эса бизга хизматлар сифатини янада ривожлантиришимизга асос бўлади.

Туризмнинг ривожлантиришнинг яна бир йўли - бу реклама-ахборот тизимини таъминлаш, халқаро ва минтақавий алоқаларни ривожлантиришдир. Бугунги кунда мамлакат миқёсида Ўзбекистоннинг туристик макон имиджини ривожлантириш учун катта

ҳажмдаги ишлар олиб борилмоқда. Шу билан биргаликда Самарқанд вилояти маҳаллий бошқарув органлари ва хўжалик субъектларидан ҳам кўплаб ишларни амалга ошириш кутилмоқда:

- Вилоятнинг туризм салоҳияти, маданий-маънавий ёдгорликлари, сайёҳлик маршрутлари ҳақида фотоальбом, китоб, слайд ва бошқа турдаги ахборот манбаларини тайёрлаш, чоп этиш ва тарқатиш. Туристик фирмалар томонидан ишлаб чиқилган туристик махсулотларни ва янги маршрутларни бошқаларда сир тутиш вақтинчалик фойда бериши мумкин, аммо соҳани ривожлантиришга катта зарар келтириши аниқдир;

2. Туризм имкониятлари ҳақидаги ахборотни тарқатувчи махсус Интернет сайтларини янади ривожлантириш, уларнинг дизайни, сифати ва доимо янгиланиб боришини таъминлаш, интернет орқали вилоятдаги тарихий, маданий-маънавий ёдгорликлар, сайёҳлик маршрутлари ва сайёҳлар учун қизиқарли бўлган янгиликлар ҳақида ахборотларни ёритиб бориш.

3. Анъанавий Лондон (World Travel Market), Берлин (ITB), Мадрид (FITUR), Милан (Borsa Intertnazionali Del Turismo), Токио (JATA), Пекин (China Outbound and Tourism Market), Шанхай (China International Travel Mart), Сеул (KOTFA), Москва (ММТЯ) ва бошқа шаҳарлардаги бўлиб халқаро ярмаркалар Ўзбекистон стендида ҳамда «Ипак йўли» Тошкент халқаро туристик ярмаркасида Самарқанддаги сайёҳлик ташкилотлари иштирокини таъминлаш ва кенгайтириш.

4. Туризм соҳасига хорижий инвестицияларни жалб этиш, инвесторлар учун қулай шарт-шароитлар яратиш. Бунда асосан хордиқ чиқариш индустриясига боғлиқ бўлган замонавий технологияларни киритишга эътиборни қаратиш лозим. Жаҳондаги етакчи бошқарув компаниялар ва фирмаларнинг меҳмонхона бизнеси ва менежменти соҳасидаги тажрибаларни ижодий ўрганган ҳолда уларни Ўзбекистон туризм соҳасига кенг жорий этиш ҳам инвестицион муҳитнинг шаклланишига туртки бўлиши мумкин.

5. Халқаро сайёҳлик ташкилотлари ҳамкорлигида Самарқанднинг сайёҳлик имкониятларини тарғиб қилиш мақсадида вилоят ташкилотлари ташаббуси билан йирик халқаро тадбирлар, яъни халқаро конфренциялар, форумлар ва ярмаркалар ўтказишни жорий қилиш.

7. Туризм соҳаси учун кадрлар тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва доимий равишда малакасини ошириш тизимини такомиллаштириш. Бунинг учун туризм соҳаси учун мутахассисларни тайёрлаш сифатини оширишга доир комплекс чора- тадбирларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш зарур бўлади. Масалан, кичик мутахассилар тайёрлаш кўламини кенгайтириш ва уларнинг ихтисолашувини таъминлаш учун туризмга йўналтирилган касбларни қайта кўриб чиқиш ва ула сонини кўпатириш тадбирлари. Бундан ташқари, туризм соҳасининг стратегияси ва ҳозирги ривожланишини таъминлашга қодир бўлган амалий ва илмий салоҳиятга эга бўлган мутахассисларни тайёрлаш. Бу чора- тадбирларни амалга оширишда бизнинг Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, Сартепо туризм ва маиший хизмат кўрсатиш касб-ҳунар коллежи муҳим ўрин эгаллайди.

Шу билан бирга туризм соҳасида фаолият олиб бораётган мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини оширишни йўлга қўйиш, туризм соҳаси учун мутухассис кадрлар тайёрлайдиган олий таьлим муассасалари ва касб-ҳунар коллежлари битирувчиларига бўлган эҳтиёжни аниқлаш ва уларни туризм соҳасида иш билан таьминлаш чора-тадбирларини амалга ошириш зарур. Туристлар ва маҳаллий аҳоли боғловчилари бўлган гид-таржимонлар ва экскурсоводларни аккредитациядан ўтказиш ҳамда уларни аттестациядан ўтказишни ташкил қилиш керак.

Туризмни ривожлантиришда эътиборга олиниш лозим бўлган яна бир томон – туристик ресурсларни улардан келгуси авлод ҳам манфаат олишлари учун сақлаб қолиш масаласи ўзининг долзарблиги билан ажралиб туради. Шуни инобатга олган ҳолда мамлакатимизда қурилаётган ҳар бир янги бино қурилиш услуби, дизайни каби жиҳатлари билан шу атрофдаги бошқа биноларга мос бўлишини таъминлаш зарур. Юқоридагилардан кўриниб турибдики, Самарқанд ҳудудида туризм инфратузилмасини янада ривожлантириш

имкониятлари мавжуд бўлиб, унинг ривожланиши Ўзбекистоннинг халқаро туризм алоқалари ривожланишига ўз ҳиссасини қўшади. Халқаро туризм алоқаларнинг ривожланиши эса ўз навбатда халқимизни бошқа миллатлар билан янада яқинлаштиради, юртимизга барқарорлик, тинчлик ва иқтисодий юксалишни олиб келади.

Навруз-Зода Бахтиёр Негматович – БухДУ и.ф.д., профессор

ТУРИЗМ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ БАРҚАРОР ИННОВАЦИОН МОДЕЛИ

Аннотация. *В статье рекомендуется авторская "Устойчивая инновационная модель" повышения конкурентоспособности туризма. При этом, особое внимание уделяется характеристике экологических и социальных инноваций, применяемые в сфере туризма.*

Ключевые слова. *Туризм, конкурентоспособность, устойчивая инновационная модель, экологические инновации, социальные инновации.*

Abstract: The article recommends an author's sustainable innovative model to increase the competitiveness of tourism. At the same time, special attention is paid to the characterization of environmental and social innovations applied in the field of tourism.

Keywords.Tourism, competitiveness, sustainable innovation model, environmental innovation, social innovation.

Туризмни иқтисодиётнинг стратегик соҳасига айлантириш мазкур соҳани инновацион йўлига ўтказишни тақозо этади. Ушбу мақсадни кўзлаган ҳолда биз инновацион барқарор ривожланиш моделини тузиш ва уни туризм соҳасига қўллаш бўйича тавсиялар ишлаб чиқиш саъй-ҳаракатини қиламиз.

Дастлаб жаҳон инновацион тизимидаги инновацион моделларини кщриб чиыамиз. Уларни қуйидаги учта тури ажратилади [1]:

1.Америкача модель: бош ғояси – инновацияларни аниқ ва ўта ноёб товар ва хизматларга мужассамлаштириш. Ушбу модель илмий-тадқиқот ва тажрибавий-конструкторлик ишларига харажатларнинг юқори даражаси, инновацион фаолиятни рағбатлантиришнинг билвосита усуллардан кенг фойдаланиш ҳамда инновацион жараённинг барча босқичларининг ривожланганлиги билан тавсифланади.

2.Европача модель: бош ғояси – инновацион фаоллиги, ижодий салоҳиятни рўёбга чиқариш, илм-фанни ривожлантириш ва ҳаёт сифатининг юқори даражаларига эришиш. Ушбу моделнинг бош хусусиятини кичик ва ўрта корхоналарнинг юқори инновацион фаоллиги ҳамда инновацион фаолиятни рағбатлантиришда бевосита ва билвосита усуллардан фойдаланиш ташкил этади.

3.Осиёча модель: бош ғояси – бозорда юқори тижорат натижасига эришиш учун технологияларнинг янги турларини яратиш. Бу моделда инновацион фаолиятнинг сўнгги натижасига, амалий тадқиқотларнинг ривожлантиришига, инновацион фаолиятнинг бош субъекти сифатидаги йирик корпорацияларга ҳамда рағбатлантиришнинг тўғри ва эгри сегментларига асосий эътибор қаратилади.

Жаҳон инновацион тизимининг илғор тажрибаларини инобатга олган ҳолда, биз инновацион барқарор ривожланишнинг муаллифлик моделини тавсия этамиз. Бундай инновацион моделнинг методологик асосини иккита қуйидаги назария ташкил этади:

Биринчидан, янги ғоялар, технологиялар ва лойиҳаларни амалга ошириш натижасида янги маҳсулот турлари, янги хизматларни кўрсатиш, янги технологик жараёнларни, янги маркетинг усулларини ҳамда бизнесни юритишнинг янги услубларини яратиш билан боғлиқ бўлган ***инновациялар назарияси***.

Иккинчидан, ҳар бир бошқарув қарорнинг ижтимоий, иқтисодий ва экологик самарасини ҳисобга олган ҳолда қабул қилиниши, келгуси авлодга зарар етказмасдан ҳозирда ҳаёт кечираётган одамларга муносиб турмуш даражасини таъминлаш ҳамда табиий

ресурслардан оқилона фойдаланиш ва атроф муҳитни ифлос қилмаслик мақсадида ижтимоий-иқтисодий ривожланиш билан боғлиқ бўлган ***барқарор ривожланиш назарияси***.

Инновациялар назарияси ва барқарор ривожланиш назарияларининг интеграцияси асосида, тизимли ёндашув тамойилларини қўллаган ҳолда биз ***барқарор инновацион ривожланиш моделини*** ишлаб чиқиб, унинг умумий кўринишини 1-расмда тасвирладик.

1-расмдан кўриниб турибдики, барқарор инновацион ривожланиш моделининг бошланғич нуқтасини тизимнинг кириш қисми сифатида танланган инновация назарияси ташкил этади. Бунда инновацияларни яратиш, тарқатиш ва оммалаштиришнинг барқарорлик тамойилларини инобатга олиб, айнан барқарор ривожланишни таъминлай оладиган инновацион фаолиятнинг қуйидаги учта йўналишлари танлаб олинган:

1. Экологик инновацияларни яратиш ва жорий қилиш.
2. Ижтимоий (социал) инновацияларни яратиш ва жорий қилиш.
3. Ташкилий-иқтисодий инновацияларни яратиш ва жорий қилиш.



1-расм. Барқарорринновационривожланиш модели[109]

Ушбу барқарорликни таъминлашга қодир бўлган уч йўналишдаги инновацион фаолият натижасида умуман иқтисодиётда, жумладан туризм соҳасида барқарор ривожланишнинг инновацион йўлига ўтиш бошланади. Ривожланишнинг ушбу йўлига тўлиқ ўтиши билан жамиятда иккита туб ўзгаришлар содир бўлиши кутилади:

Биринчидан, иқтисодиётнинг тармоқ ва ҳудудларида рақобатбардошлик ошиб боради.

Иккинчидан, жамиятнинг инновацион жиҳатдан тараққиётини белгиловчи асосийомили сифатида "Инновацион инсон капитали" шакллантирилади ва ривожлантирилади.

Тавсия этилаётган "Барқарор инновацион ривожланиш модели"да экологик ва ижтимоий инновацияларнинг ўрни ва таъсирчанлигини қуйида батафсил кўриб чиқамиз.

Барқарор ривожланиш учун экологик инновациялар биринчи даражали инновациялар ҳисобланади. Экологик инновацияларга экологияни муҳофаза қилишга йўналтирилган янги технологиялар киради. Экологик инновацияларни яратиш ва жорий қилишдан мақсад

[109]**Манба**:1-расм проф.Б.Н.Навруз-Зода ишланмаси.

экотизимга антропоген (инсоният, одамлар фаолияти томонидан келтириб чиқадиган салбий) таъсирни камайтиришдан иборат.

Европа Иттифоқининг Эко-технологик ҳаракатлар режасига мувофиқ "экологик инновация – бу тегишли иқтисодий фаолиятнинг ҳаётий даври давомида ресурслардан фойдаланишни оптималлаштириш ва атроф муҳитга салбий таъсирини пасайтириш имконини яратадиган маҳсулотда, ишлаб чиқариш жараёнида, хизматларда ёки менежмент ва бизнесни юритишнинг усулларида янгиликларни яратиш, оммалаштириш ёки фойдаланишдир [2].

Экологик инновацияларнинг ўзига хос хусусиятлари қуйидагилардан иборат [3]:

- *Ташқи манфаатлардан фойдаланиш.* Экологик инновациялар, бошқа ҳар қандай инновациялардан ташқи харажатларнинг халқаролиги билан фарқланади. Аммо институтционал жиҳат, транзакцион харажатлар ва тизимнинг ўзгарувчанлиги ҳисобга олинганида кўп нарса ўзгаради.
- *Давлатнинг тартибга солувчилик роли.* Бозор томонидан яратилган экологик инновацияларни жорий этишда етарлича эътибор бера олмайди. Бундай шароитда давлатнинг вазифаси экологияга йўналтирилган инновацияларни биринчи даражадаги аҳамиятга эга янгиликлар сифатида жорий этиш учун тегишли шарт-шароитларни яратишдан иборат.
- *Ижтимоий ва институтционал инновацияларни ривожлантириш жараёнлари билан чамабарчас алоқада бўлиш*.Жамоачилик томонидан қўллаб-қувватланмасдан ва одамларнинг менталитетини ўзгартирмасдан, экологик инновацияларни амалга ошириш деярли мумкин эмас.

Экологик инновацияларга энергия тежайдиган электрик чироқлари, электромобиллар, велосипедлар, экологик тоза маҳсулотлардан таомлар тайёрлаш, экологик тоза қурулиш материаллардан фойдаланиб биноларни қуриш, "қуёшли том" ларни ташкил этиб қуёшли батареялар ўрнатиш, қайта тикланадиган энергоресурслардан кенг фойдаланиш, эко-ҳожатхоналар, одамларнинг борлигини инобатга олиб тартибга солинадиган иситишнинг автоматик тизими мавжуд бўлган, меҳмонларнинг хавсизлигини таъминлайдиган, уйнинг ҳавосини ва табиий ёруғлигини электрон усулда бошқара оладиган, "ақлли меҳмонхона" ва бошқа новаторлик ишланмалар киради.

Туризмда экологик инновацион фаолликни оширишнинг самарали йўлларидан бири экотуризмни ривожлантириш ҳисобланади. Чунки, у экологик илм тарқатиш ва билим беришнинг муҳим омили бўлиб хизмат қилади, табиатни муҳофаза қилиш билан шуғулланади, алоҳида муҳофаза этиладиган табиат ҳудудларининг жамоат ичидаги обрўйини оширишга хизмат қилади [4,158-б].

Туризмни барқарор ривожлантиришда экологик инновациялар билан бир қаторда ижтимоий (социал) инновациялар ҳам муҳим аҳамият касб этади. "Социал инновациялар" деганда "жамиятнинг инсон ресурсларидан тўлароқ фойдаланиш мақсадларига мувофиқ ижтимоий натижаларга эришишнинг янги усул, услуб, восита, омиллари" тушунилади. Бунга таълим, соғлиқни сақлаш, уй-жой билан таъминлаш ҳамда бандликни ва даромадларни ошириш билан боғлиқ бўлган янгилик ва туб ўзгаришлар киради.Социал инновациялар икки гуруҳга бўлинади. Биринчи гуруҳга инсон капиталини кучайтиришга йўналтирилган давлат ва хусусий чора-тадбирлар, жумладан таълим сифатини ва соғлиқни сақлаш тизимини яхшилаш, уй-жой таъминоти ва бошқа тадбирлар киради. Иккинчи гуруҳга ҳар қандай инновацион фаолияти натижасида вужудга келадиган ташқи самараларни ҳисобга олиш назарда тутилади [5, 27 б].

Ижтимоий (социал) инновациялар моддий-техник инновацияларга нисбатан қуйидаги хусусиятларга эга [3]:

1. Агар ижтимоий инновациялар, одатда, жамоавий ижодкорлик маҳсули бўлса, моддий-техник инновацияларни яратишда индивидуал муаллифлик афзал туради.

2. Социал инновацияларнинг натижаси дарҳол кўринмайди, уларнинг самараси тез намоён бўлмасдан, аниқ хусусиятга эга бўлмаса, моддий-техник инновациялари самараси дарҳол намоён бўлади ва аниқ хусусиятга хосдир.

3. Социал инновацияларнинг ўзига хослиги шунингдек, уларнинг ташқи муҳит билан ўзаро боғланганлиги ҳамда мазкур инновацияни амалга оширишга жалб этилган одамларнинг шахсий ва гуруҳий сифатларидан боғлиқ қўллаш соҳасининг нисбатан кенглигидадир.

Ижтимоий инновацияларга ижтимоий тармоқларнинг янги шакллари вужудга келиб, амал қилиши; даволашнинг янги усуллари; ижтимоий дорихоналарнинг ташкил этилиши; ўқитишнинг нновацион усул ва технологиялари; хайр-саховат амаллари; ижтимоий инфратузилмани янада яхшилаш; ижтимоий тадбиркорликни ривожлантириш; янги дарслик ва ўқув қўлланмаларни яратиш; маданиятнинг янги тенденциялари; меҳнат шароитларини яхшилашнинг янги усуллари; ақлли мактабгача таълим муассасаларини ташкил қилиш;хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантириш; намунавий арзон уйларни қуриш; давлат-хусусий шериклиги асосида ижтимоий соҳани ривожлантириш; "Инсон иқтисодий камолоти" каби янги илмий-ижтимоий назарияларни яратиш; социал туризмини ривожлантириш ва бошқа ижтимоий йўналтирилган инновациялар киради.

Ижтимоий инновацияларни яратиш ва жорий қилишда "*ижтимоий тадбиркорлик*" муҳим аҳамият касб этади. Ижтимоий тадбиркорлик – бу жамиятда ижтимоий муаммоларни ечиш ёки юмшатишга қаратилган инновацион тадбиркорлик фаолиятидир. У бизнес ва эҳсоннинг кесишган нуқтасида қарор топилган ўзига хос фаолият тури ҳисобланади (2-расм).



2-расмдан кўриниб турибдики, ижтимоий тадбиркорлик анъанавий тадбиркорлик ва эҳсон оралиғида ўрин эгалайди. У тадбиркорликдан социал ўзгаришлар ва ижтимоий муаммоларни ечилишига йўналтирилганлиги билан ва эҳсондан эса фаолиятнинг тадбиркорлик хусусиятлилиги билан фарқланади. Агар бизнес фойда олишга қаратилган фаолият бўлса, эҳсон - ижтимоий муаммоларни юмшатишга қаратилган саъй-ҳаракатлардир. Ижтимоий тадбиркорлик *ижтимоий таъсир кўрсатиш; новаторлик; молиявий устунлик; тадбиркорлик даромади; кўпайтирилиш; ўз харажатларини ўзи қоплаш*ўлчов мезонлари билан тавсифланади.Ушбу тадбиркорликнинг субъектлари сифатидаги *ижтимоий тадбиркорлар* одамларнинг ҳаёт сифатини яхшилаш мақсадида турли ресурслар ва

[110]**Манба**:2-расм проф.Б.Н.Навруз-Зода ишланмаси.

инновацион ғоялардан фойдаланишга тайёр бўлиб турадиган новаторлар тоифасига кирадилар.

Туризмнинг социал инновацион фаоллигини оширишнинг муҳим йўналишларидан бири *социал туризмни* ривожлантириш ҳисобланади. Чунки, у кам таъминланган ва ижтимоий ҳимояга муҳтож аҳоли қатламларининг имтиёзли асосда туристик саёҳатларини амалга ошириш тизимини ташкил этишга асосланган. Бутунжаҳон туризм ташкилотининг 1980 йилда ўтказилган халқаро конференциясида қабул қилинган Манила декларациясида: “Социал туризм – бу жамиятнинг кам таъминланган фуқароларининг дам олиш ҳуқуқларидан фойдаланишдаги манфаатларига қаратилган мақсадидир”, деб таъриф берилган [6].

Шундай қилиб, юқоридаги тафсилотлар асосида хулоса чиқариш мумкинки, экологик ва социал инновацияларни яратиш ва уларни туризм соҳасида кенг кўламда фойдаланиш эвазига, туризмни барқарор ривожлантириш йўлига ўтказиш учун қулай имконият вужудга келади.

Адабиётлар:

1. Касенов Р.Р. Модель мировых инновационных систем. Вестник Челябинского государственного университета. 2013, №32 (323).Экономика.Вып.42.С.52-56).
2. Илюшкина Е.С., Конюхов В.Ю.Классификация экологических инноваций.КиберЛенинка: https://cyberleninka.ru/article/n/klassifikatsiya-ekologicheskih-innovatsiy. [27.09.2018].
3. Папенова К.В. Экономика природопользования: учебник.М.: Тенс, ТК Велби, 2010. 928с.
4. Ҳошимов Муродхон.Ўзбекистон экологик туризми.Монография. “Zarafshon” nashriyoti ДК,Самарқанд – 2009.220 б.
5. Митякова, Ольга Игоревна. Проблемы устойчивого развития экономики России на основе инновационных преобразований. Автореферат дисс....д.э.н. Нижний Новгород.2009. 64 с.
6. Манильская декларация по мировому туризму. 10 октября 1980 г. принята Всемирной конференцией по туризму, проходившей в Маниле (Филиппины) с 27 сентября по 10 октября 1980 г. Декларация А, статья 10.

Абдуллаев Р.А.– и.ф.н, профессор
МусаевҲ.Н. – и.ф.д, профессор
Мусаев Ҳ.Ҳ. – СамИСИ мустақил-тадқиқотчи

ТУРИЗМ МАҲСУЛОТЛАРИ ҲИСОБИ ХУСУСИЯТЛАРИ ВА УНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Аннотация: *в статье изложены особенности учета туристической продукции,даны рекомендации по его совершенствованию.*

Ключевые слова: *туризм, туристская продукция, бухгалтерский учет, особенности учета турпродукции,совершенствование бухгалтерского учета туристической продукции.*

Annotation:*the article describes the features of tourism accounting and its improvement. Development of tourism products, their content, description of design objects and development of proposals for its improvement.*

Key words: *tourism, tourist products, bookkeeping, inventory accounting, product development.*

Миллийиқтисодиётривожланишиниянгибосқичга кўтариш турли тармоқлар,шу жумладан туризм соҳасини жадал ривожлантиришни тақозо этади. Ўзбекистон туристик ресурсларга бой мамлакатлар қаторига киради. Маҳсус манбаларда келтирилишича: “...Жаҳон саёҳат ва туризм Кенгашининг маълумотлари бўйича Ўзбекистон Республикаси туризм соҳаси тезлик билан ривожлантираётган давлатлар 10 талиги рўйҳатига киритилган. ...Бу ҳолат келажакда Ўзбекистонда кириш ва чиқиш туризм бозоридатуризм бизнес нафақат

туризм индустриясини, балки миллий иқтисодиётнинг туризмга турдош бўлган бошқа бир қатор соҳаларнинг ривожланишини таъминлайди “(1.7-б.).Туризм соҳаси корхоналари фаолияти ўзига хос хусусиятларга эга : уларда ишлаб чиқарилаётган маҳсулот(турмаҳсулот) бир вақтнинг ўзида истеъмол қилинади, корхонада ресурслар таркиби ҳам кенг эмас, оз харажат қилинибкўп фойда олиш имкониятлари мавжуд.

Туризм корхоналарида бухгалтерия ҳисоби унинг хусусиятларидан келиб чиқиб юритилади.Хўжалик юритувчи субъектларда содир бўлётган жараёнлар узлуксиз ва тўлиқ ҳисобга олиниб ахборот фойдаланувчиларга ҳисобот шаклида тақдим этилади. Бухгалтерия ҳисоби маълумотлари аниқ ва асосли бўлиши керак. Акс ҳолда қабулқилинаётган бошқарув қарорларининг самараси паст бўлади.

Туризм соҳаси корхоналари фаолиятида турмаҳсулот муҳим аҳамиятга эга. “Туристик маҳсулот туристларга сайёҳлик вақтида уларга кўрсатиладиган моддий ва номоддий кўринишдаги истеъмол қийматдир”(2,27 б.)Турмаҳсулот корхона иқтисодий ва молиявий ҳолатига бевосита ўз таъсирини кўрсатади.Сайёҳлардан келиб тушадиган тушумлар(даромадлар),кўрсатиладиган хизматлар бўйича харажатлар ва фойда айнан ушбу кўрсаткичга бевосита боғлиқ.Шунинг учун туристик маҳсулот бухгалтерия ҳисобининг муҳим объекти сифатида аниқ ҳисобга олиниши керак.

Тадқиқотлар шуни кўрсатдики турмаҳсулот ҳисобини тўгри ташкил қилиш ва юритишда маълум камчиликлар,ўз ечимини кутаётган муаммолар мавжуд.Булар қаторига қуйидагиларни киритиш мумкин:

- туризм соҳаси корхоналари учун бухгалтерия ҳисобини,уларнинг хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар тўлиқ ишлаб чиқилмаган.
- соҳа корхоналари учун алоҳида “Ҳисоб сиёсати” мавжуд эмас.
- туристик маҳсулотни ҳисобга олиш саноат корхоналарининг маҳсулотларини ҳисобга олишга ўхшаб кетади.
- туристик маҳсулотнинг таннархини шакллантирадиган харажат моддалари илмий жиҳатдан асосланмаган.Таннарх таркибига асоссиз бошқа турдаги харажат моддалари киритилмоқда.
- туристик маҳсулотлар(хизматлар)нинг сифатини ошириш ва назоратини таъминлашдаинновацион усуллар қўлланилмайди.

“Бухгалтерия ҳисоби хизматининг натижавий кўрсаткичи молиявий ҳисоботлар бўлиб,унинг асосий мақсади ва вазифалари инвестициялар киритиш ва кредитлар бериш тўғрисида қарорлар қабул қилишда, ... ундан фойдаланувчиларга ... ҳаққоний ва объектив акс эттирилган ахборотни тақдим этишдан иборат” (3,5-б.).Ушбу масалалар бевосита туристик маҳсулотни ҳисобга олиш ва ҳисоботларда акс эттиришга ҳам тааллуқлидир.

Олиб борилган тадқиқотларга асосланиб туристик маҳсулотлар ҳисобини такомиллаштиришга қаратилган қуйидаги таклиф ва тавсияларни берамиз:

- туристик соҳаси корхоналари хусусиятларини эътиборга олган ҳолда бухгалтерия ҳисобининг меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларини такомиллаштириш.
- туристик корхоналари учун намунавий “Ҳисоб сиёсати” шаклини ишлаб чиқиш.
- туристик маҳсулотларнинг таркибига киритиладиган моддий ва номоддий харажатларни илмий жиҳатдан асослаш.
- туристик корхоналарида қўлланиладиган “Счётлар режаси” да алоҳида “Туризммаҳсулоти” счётини киритиш.
- туристик корхоналарида четдан жалб қилинган инвестициялар ҳисобидан ишлаб чиқарилган турмаҳсулотларни алоҳида ҳисобга олиш ва ҳисоботда акс эттириш мақсадга мувофиқдир.

Олимжонов О.О. – д.э.н., профессор, Ташкентский финансовый институт
Мусаев РМ.– к.э.н., доцент, Самаркандский институт экономики и сервиса,
Расулов З.Ж. – к.э.н., и.о.доцента, Самаркандский институт экономики и сервиса,

РЕАЛИЗАЦИИ ПРИНЦИПОВ ЗАЩИТЫ ПРЕДПРИЯТИЙ И ПРЕДОТВРАЩЕНИЕНЕДОБРОСОВЕСТНЫХ КОНКУРЕНТОВ НА РЫНКЕ УСЛУГ

Аннотация. *Мақолада илм-фаннинг аҳамиятини оширмасдан туриб қазилма бойликларни қазиб олиш ва уларни қайта ишлаш, шунингдек қишлоқ хўжалиги ва транспорт соҳаларини етарли даражада ривожлантириб бўлмаслиги асосланган. Шу сабабли мамлакат иқтисодиётини модернизациялаш шароитида ишлаб чиқариш самарадорлигининг ўсишига таъсир кўрсатувчи барча омиллардан тизимли фойдаланишни кўзда тутувчи ва ижтимоий-иқтисодий мақсадлар билан боғлиқ бўлган инновацион сиёсатни ишлаб чиқиш лозим.*

Калит сўзлар: *маҳсулотнинг рақобатбардошлиги, давлат томонидан тартибга солиш, стратегия, хизматлар соҳаси, хусусийлаштириш, инновацион сиёсат, ишлаб чиқаришнинг самарадорлиги.*

Abstract. *The article is based on the assertion that without increasing the role of science, the mining and processing industries, agriculture and transport will not achieve the necessary level of development. Therefore, we need an innovative policy linked to socio-economic goals, providing for a systematic approach to the use of all factors of growth in production efficiency in the modernization of the country's economy.*

Key words: *product competitiveness, government regulation, strategy, services, privatization, innovation policy, production efficiency.*

Увеличение выпуска конкурентоспособной продукции, снижение издержек и повышение конкурентоспособности товаров будут предопределяться организационными и экономическими условиями развития конкуренции. Для преодоления депрессии и роста производства добросовестная конкуренция не менее важна, чем частное распоряжение собственностью. Она не только помогает увеличить количество малых предприятий, но и усиливает их взаимосвязи с крупными корпорациями, которые все больше конкурируют на международных рынках. Развитию такой конкуренции способствует действенная антимонопольная политика. Но она осуществляется не путем разукрупнения корпораций, играющих решающую роль в стабилизации производства, а с помощью усиления их государственного регулирования преимущественно экономическими и правовыми методами.

Развитые страны за последние годы после принятия программы Стратегии действий по развитию Республики Узбекистан[111], в какой-то мере смягчают негативно воздействующие процессы в экономике. Среди факторов повышения эффективности производства доминирует научно-технический прогресс с широким применением новейших технологий. Он играет важнейшую роль в росте производительности труда, фондоотдаче, объемов выпуска конкурентоспособной продукции. На предприятиях все четче проявляются такие тенденции конкурентоспособности, как снижение производственных издержек и улучшение качества изделий. В результате рыночная система в нашей Республике во многом становится динамичной и эффективной.

В нашей стране в ближайшие годы первостепенное значение в увеличении доходов бюджета и инвестиций будут иметь инновационное развитие экономики и внедрение новых технологий. На этой основе можно преодолеть отставание от стран Запада в конкурентоспособности многих видов продукции. Однако проблемы инновационного развития экономики и использования достижений фундаментальной и прикладной науки не

[111] Указ Президента РУз «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан» от 7 февраля 2017 г., № УП-4947

решаются[112]. В результате либерализация экономики и приватизация собственности, практически, не влияет на становление эффективного и социально направленного рынка. Его предстоит создать с помощью конструктивной экономической политики в рамках программы Стратегии развития страны.

Без повышения роли науки добывающие и перерабатывающие отрасли, сельское хозяйство и транспорт не достигнут необходимого уровня развития. Поэтому нужна увязанная с социально-экономическими целями инновационная политика, предусматривающая системный подход к использованию всех факторов роста эффективности производства в условиях модернизации экономики страны.

Разработку перспективных программ по подъему машиностроения, металлургической промышленности, электроэнергетики, химической и легкой промышленности в увязке с развитием АПК, топливных и сырьевых отраслей, ВПК необходимо согласовать с основными направлениями комплексной программы ускорения научно-технического прогресса. В итоге можно более точно определять требуемые объемы финансовых и материально-технических ресурсов для инвестиций,полнее использовать и все факторы повышения эффективности национальной экономики, а вместо стихийного рынка с процветающей теневой и коррумпированной экономикой укрепится рынок социально направленный, с отлаженной системой государственного регулирования и стимулирования производства.

Нельзя не считаться и с растущей технологической и инновационной отсталостью большинства предприятий. Она означает, что рынок пока не обеспечивает рационального распределения использования ресурсов, и, прежде всего, важнейших средств производства с учетом перспективы. Рыночная система нуждается не только в корректировке, но и в лучшей организации. Необходимо также расширение эффективных экономических и научно-технических связей со странами ближнего и дальнего зарубежья. Словом, требуется более действенная долгосрочная научно-техническая стратегия. Пока же ее не сформировали ведомства, призванные прогнозировать перспективу социально-экономического развития.

Нужно оказывать финансовую поддержку предприятиям всех форм хозяйствования в целях обеспечения конкурентоспособности и борьбы с недобросовестными зарубежными конкурентами. Напр., не менее половины импортных пищевых товаров регулярно изымаются санэпидемслужбами как негодные по качеству, что сильно сказывается на качестве оказываемых услуг. Нельзя дискриминировать товаропроизводителей в пользу других, а ведь именно так дело пока и обстоит. Пора вернуть государственный контроль за качеством, равно как и немедленно отменить огромные льготы, предоставленные ряду зарубежных корпораций. В дальнейшем программу реструктурирования предприятий следует сориентировать не просто на повышение формальных финансовых показателей, а на создание вертикально интегрированных структур, способных успешно конкурировать как на мировых, так и на внутренних рынках.

Необходимо реальное оздоровление предприятий путем финансовой поддержки, особенно инновационно развивающихся, туристических предприятий. Без этого обеспечить их жизнеспособность невозможно.

Нужно иметь в виду и такой фактор роста ВВП и доходов работающих, как рациональное использование финансовых ресурсов. Сейчас многие хозяйства на селе, в том числе туристические, оказались на грани распада. Поэтому наряду с изменением форм собственности надо совершенствовать методы управления и хозяйствования, соблюдать паритет цен не только на промышленную, сельскохозяйственную продукцию, но и на

[112]ЗайналовДж.Р., Алиева С.С. Модернизация послевузовского образования как важный фактор познания навыков науки и практики Социально-экономическое развитие России и регионов в цифрах статистики: материалы международной научно-практической конференции 6 декабря 2016 г. // М-во обр. и науки РФ, ФГБОУ ВО «Тамбовский государственный университет им. Г.Р. Державина. Тамбов: Издательский дом им. Г.Р. Державина, 2017.- С. 346-348

тарифы субъектов сферы услуг. В то же время государству не следует расплачиваться по их долгам.

Одна из актуальных задач заключается в том, чтобы поддержать предприятия сферы услуг на полноправных основах, строго соблюдать принципы равновыгодной поддержки[113]. Важно учитывать, что государственная финансовая поддержка должна сопровождаться соблюдением принципов финансовой поддержки или обеспеченности финансовыми ресурсами[114]. Эту задачу предстоит решить и нам, соблюдая нижеследующие принципы:

- обеспеченность, т.е. за счет, как добровольных платежей, так и средств бюджета (бюджетное финансирование);
- гарантированность финансовой поддержки в рамках не ниже среднеуровневой рентабельности;
- гарантированность страхования на случай наступления страховых событий;
- многообразие видов финансовой поддержки стоимости услуг лицам, нуждающимся в социальной защите;
- участие общественных организаций, предоставляющих туристические услуги, в разработке, принятии и осуществлении решений по вопросам финансовой поддержки и защиты их деятельности.

Необходима комплексная программа финансовой поддержки развития субъектов сферы услуг, включая закрепление в них молодежи, подъем уровня их образования, здравоохранения, жилищного строительства, а также улучшение культурно-бытовых условий жизни рабочих и специалистов на инновационно развивающихся предприятиях.

Хамракулова О. Д – СамИЭС к.э.н.,доц.

ПРОБЛЕМЫ ТУРИЗМА И ПОДГОТОВКИ КАДРОВ В УЗБЕКИСТАНЕ.

Аннотация*: в работе рассмотрены вопросы развития туризма и подготовки кадров, предложены рекомендации по их совершенствованию.*

Ключевые слова*: туризм, стратегия инвестиционной политики Узбекистана, подготовка кадров.*

Annotation: *the paper considers issues of tourism development and training, offers recommendations for their improvement.*

Key words*: tourism, investment policy strategy of Uzbekistan, training.*

Туризм является фундаментом экономики многих развитых и развивающихся стран мира. Международный туризм входит в число трех крупнейших экспортных отраслей, уступая нефтедобывающей промышленности и автомобилестроению. По другим источникам туризм является самой рентабельной сферой мирового хозяйства. По данным ВТО туризм – это базовая отрасль экономики в 40% стран, позволяющая обеспечить занятость 200 млн. человек. В 80% стран туризм входит в пятерку ведущих статей экономики.

Мижозларнинг хизмат маркетингига бўлган талабларини доимий ўзгариши ва кўпайишини эътиборга олган ҳолда мижозларнинг барча эҳтиёжларини ва белгиланган стандартларга мос келувчи сифатли хизматлар кўрсатиш муҳим стратегия ҳисобланади.Туризм минтақалари ҳам, алоҳида хизмат кўрсатиш корхоналари ҳам истеъмолчи билан муносабатда бўлиш соддалаштирилган ҳолда, фақат хизмат кўрсатиш технологияси асосида амалга оширилмаслиги кераклигини тушуна бошладилар. Хизмат маркетинги ҳар доим ҳам истеъмолчилар, раҳбарлар ва катта хизматчиларнинг ўзини ҳам қониқтирмайди. Юқори сифатли хизмат кўрсатишни таъминловчи омил маркетинг стратегиясини танлаш ҳисобланади. Хизмат кўрсатиш стратегиясини ташкил қилиш учун корхона раҳбари энг аввало танламоқчи бўлаётган бозор шароитининг моҳиятини

англаб етиши ва бу шароитда корхона қандай ўрин тутишини англамоқи лозим. Яхши ишлаб чиқилган стратегия қуйидаги саволларга жавоб бериши лозим, яъни биз мижозларни қандай эҳтиёжларини қондира оламиз? Кимдан-дир яхшироқ хизмат кўрсатиш учун, биз етарлича билим ва тажрибага эгамизми- йўқми?

Туристик бозорда дам олиш, кўнгил ёзишга бўлган эҳтиёжлар ва бундай эҳтиёжларни амалга ошириш истаклари уларни туристик бозорда аниқ маҳсулотларга (манзилларга)айлантира олади.Туризм соҳасини замонавий стандартлар асосида шакллантириш, маҳаллий туристик ресурсларни йўналтириш, туристик комплесларни ташкилий ва моддий жиҳатдан таъминлаш, инфраструктура ва сервис хизматларини йўлга қўйиш, замонавий маркетинг билан қуролланган бошқарув тузилмаларини ташкил этиш, инвестиция ва кадрлар ресурси билан таъминлаш ҳамда мунтазам такомиллаштириб бориш каби вазифалар ётади.Ушбу масаланинг ечимини таъминлашда маркетинг фаолиятини такомиллаштириш асосий ўринни эгаллайди.

Qilichova O.Z. – SamISI MXT-118 guruh talabasi
Norkulova D.Z. – SamISI PhD, dots. v.b.

TURIZM SOHASI UCHUN KADRLAR TAYYORLASHDA ETNOGRAFIK BILIMLAR O'RNI VA AHAMIYATI

Аннотация*: в данной статье раскрыты данные о возникновении этнографических знаний, их особенности, определения этнографии и его сущность, отличительные стороны этнографии от других дисциплин (антропологии, археологии, лингвистики, социологии, культуроведения).*

Ключевые слова*: этнография, этнографический туризм, история, этнические группы, культура, исторические достопримечательности, определение, исследования, эволюция.*

Annotation: *This article discloses data on the emergence of ethnographic knowledge, its features, definitions of ethnography and its essence, the distinctive aspects of ethnography from other disciplines (anthropology, archeology, linguistics, sociology, cultural studies).*

Key words*: ethnography, ethnographic tourism, history, ethnic groups, culture, historical sights, definition, research, evolution.*

Etnografik turizmni kengaytirish, O'zbekiston etnografiyasini yanada boyitish bizning asosiy maqsadimiz hisoblanadi. Buning uchun eng avvalo etnografik bilimlarni mustahkamlash, chuqurroq o'rganish , ilmiy hamda iqtisodiy tadqiqotlarni amalga oshirish talab etiladi. Etnografik bilimlar qadim zamonlardan paydo bo'lgan bo'lsada, lekin mustaqil fan sifatida 19-asrning o'rtalarida shakllanib bo'ldi. Dastlab, bu atamani 16-asrning oxirida nemis yozuvchisi I.Zummer ishlatgan, keyin esa 18-asrning oxirlarida va 1808 yilda maxsus jurnallar shu nom bilan chiqa boshlagan. Etnografiya so'zi mashhur fransuz tabiatshunosi va fizigi Jan Jak Amper taklifi bilan Parij antropologlari kongressida alohida fan sifatida qabul qilingan (1839).[1]

Etnologiya sohasidagi ilmiy bilimlarning yanada kengayishi va rivojlanishi hayotning amaliy ehtiyojlari bilan belgilanadi. Xalqlarning etnik tarixi va hayotiga katta qiziqish xalqlarning Buyuk ko'chib yurishi deb nomlangan davrda (Viskotlar, Vandallar, Ostrogotlar, Burgundlar, Franklar, Lombardlar) paydo bo'lgan paytda namoyon bo'lgan. Etnik bilimlarning rivojlanishiga yana bir turtki bo'lgan XV - XVIII asrlarning Buyuk geografik kashfiyotlaridir. Shu munosabat bilan xalqlarning madaniy rivojlanishidagi tafovutlarni o'rganish va tushuntirish, madaniyatning gullab-yashnashi va pasayish sabablarini va u yoki bu odamlarning tarixiy rolini aniqlash, etnik psixologiyaning shakllanish mexanizmlari va xususiyatlarini aniqlash, xalqlar o'rtasidagi irqiy tafovutlarning sabablarini aniqlash, etnik xususiyatlar va ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni o'rnatish zarurati tug'ildi[2].

Etnografiya dastlab faktik bilimlarni to'playdi, keyin ularni tahlil etish orqali mohiyatini tushunib olib, nazariy xulosalar chiqaradi. Etnografiya fani, boshqa fanlar singari o'ziga xos

maxsus tadqiqot usullari va maxsus atamalarga ega. Uning uslubi muayyan dunyoqarash va nazariyalar (metodologiya) bilan bog‘liq bo‘lib, o‘z tadqiqotlarini ayrim fan sohalari antropologiya, arxeologiya, lingvistika, sotsiologiya, san’atshunoslik bilan aloqador holda amalga oshiradi. Xalqlarni o‘rganishda etnografiya fani nihoyatda keng va xilmaxil manbalardan va usullardan foydalanadi. Bir joyda uzoq yashab, kuzatish yo‘li bilan o‘tkazilgan tadqiqotlar eng samarali ekanligini mashhur etnograflar (L.Morgan, N.N.MikluxoMaklay, V.G.Bogoraz) alohida qayd qilganlar. Qisqa muddatda, ayrim mavsumlarda o‘tkaziladigan tadqiqot ishlari ekspeditsiya usuli bo‘lib, hozir keng tarqalgan va u mavsumiy usul deyiladi[1].

Etnografik bilimlarning o’ziga xos xususiyati shundaki, ularning paydo bo’lishi, zarur ma’lumotlar to’planishi, faktlar anglab olinishi bir vaqtda sodir bo’ladi[3].

Qadimgi davrning natijasi-katta miqdordagi ma'lumotlarning to'planishi edi, bu bizga birinchi nazariy umumlashtirishni amalga oshirishga imkon berdi. Bu, masalan, insoniyat tarixining global davriylashtirilishini (Tit Lucretius Car) yaratishga urinishlar yoki dunyo xalqlarining madaniy xilma-xilligi sabablarini tushuntiruvchi nazariyalarga taalluqlidir. Shunday qilib, Gippokratning fikriga ko'ra, madaniyatning xususiyatlari iqlim, tuproq xarakteri va landshaftga qarab belgilanadi[4].

Etnografiya fanining boshqa tarixiy hamda madaniy fan sohalaridan qanday farqli jihatlari mavjud?

Etnografiya fanining boshqa fanlardan farqli jihatlarini tushunish uchun eng avvalo etnografiya nimalarni o’rgatuvchi fan ekanligini anglash lozim. Taniqli etnograf S.A.Tokarev etnografiya atamasiga quyidagicha ta’rif bergan: “Xaliqning kelib chiqishini anglash-bu ularning tarixiy vorisligini, uning nomini va joyini topish, ajdodlari qayerda yashaganligini yoki qadimiy ma’daniyatdan qolgan evolyutsiyasini hozirgi hududda ko’zatish yoki izlash emas; bu ularning qaysi tilda gaplshganligi yoki til tarixini aniqlash vanihoyat bu xalq qaysi irq elementlaridan vujudga kelganligini aniqlashdangina ham iborat emas. Balki, bularning barchasi xalqning kelib chiqishini o’rganishda, juda jiddiy va kerajkli bo’lsda, lekin masalani butunlay yechib bo’lmaydi va masalani yechishda hali butunlay yetarli emas. Shunday ekan, avvalo xalqning kelib chiqishini tushuniosh uchun, shu xildagi ma’daniyatning rivojlanishini va genezini topish kerak” [5]. Ko’rinib turibdiki, ushbu ta’rifda xalqning kelib chiqishini anglashni eng avvalo shu xildagi ma’daniyatning rivojlanishini hamda genizini topish bilan bog’langan.“Etnografiya - antropologiya fanidan kelib chiqqan, ammo boshqa fanlarga nisbatan qo'llaniladigan sifatli tadqiqot usuli. Etnografiya - bu madaniyatni yoki uning bir qirrasini chuqur o'rganish. Shu sababli, etnografik tadqiqotlar ko'pincha boshqa tadqiqotlar dizayniga nisbatan juda farq qiladi”[6]. Ushbu ta’rifda esa etnografiya fanining negizi antrapologiya fani ekanligi va etnografiya boshqa fanlarga nisbatan tatqiqot usuli sifatida qo’llanilishi keltirib o’tilagan. Etnograf olim Y.Bromli tomonidan quyidagicha ta’rif keltirilgan “Etnografik guruhlar ko’pincha millat yoki millat tarkibiga kirgan qabilaviy tarkibiy qisimlarda kelib chiqadi. Ba’zan ular etnik guruhning ijtimoiy-diniy tafovuti paytida, shuningdek etnik guruhning kuchli kengayishi natejasida, etnik guruhning bir qismi boshqa tabiiy muhitga tushib qolganda turli qo’shni etnik guruhlar bilan o’zaro aloqada bo’lganda sodir bo’ladi”[7]. Ushbu keltirilgan ta’rifda etnografik guruhlarga alohida e’tibor qaratilgan. Etnografik guruhlar asosan millat yoki millat tarkibiga kirgan qabilaviy tarkibiy qisimlardan kelib chiqishi ta’kidlangnan. Demak, yuqorida keltirilgan bilimlarga asoslanib etnografiya xalqlarning hamda etnik guruhlarning madaniy rivojlanishidagi tafovutlarni o'rganish va tushuntirish, madaniyatning gullab-yashnashi va pasayish sabablarini va shakllanish mexanizmlari va xususiyatlarini , xalqlar o'rtasidagi irqiy tafovutlarning sabablarini aniqlash, etnik xususiyatlar va ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni o'rnatish bilan shug’illanuvchi fan deb tushunamiz. Etnografiyani boshqa fanlardan(antropologiya, arxeologiya, lingvistika, sotsiologiya, san’atshunoslik) o’rganish obyekti jihatidan aksariyat hollarda o’xshash bo’lsada, ammo o’rganilish maqsadi jihatidan farq qiladi.

Qadimgi davr mobaynida etnografiyaga oid manbalar to’plangan. Ilk ma’lumotlar sayohatlar, yurishlar va hakozolar paytida to’plangan va mualliflar o’zlari tasvirlagan

voqealarga guvohlik qilishgan. Markaziy Osiy va O'zbekiston etnografiyasini o'rganishda qo'llaniladigan tarixiy manbalarga quyidagilar misol bo'la oladi: Mahmud Koshg'ariyning "Devon-u lug'ati turk", Boburning "Boburnoma", Beruniyning "Tarixiy xalqlardan qolgan yodgorliklar", Muhammad Xorazmiyning "Sur'at al-Arz", Narshahiyning "Buxoro tarixi".

Xulosa qilib aytganda etnografiyaning o'ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat ekan:

-Nihoyatda keng va xilma-xil manbalardan foyddalanadi;

- Etnografik bilimlarning paydo bo'lishi, zarur ma'lumotlar to'planishi, faktlar anglab olinishi bir vaqtda sodir bo'ladi;

-Tadqiqotlarni antropologiya, arxeologiya, lingvistika, sotsiologiya, san'atshunoslik kabi fan sohalari bilan birgalikda amalga oshiradi;

-Etnogarfik bilimlarning rivojlanishi va kengayishi hayotning amaliy ehtiyojlari bilan belgilanadi.

Etnogarfik bilimlarning qay darajada mustahkamlanishi va kengaytirilishi bevosita etnografik turizmga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Etnografik bilimlarning iqtisodiy tadqiqotlar asosida o'rganilishi natejasida etnografik turizmning rivojlanishi yotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar*:*

[1] https://uz.wikipedia.org/wiki/Etnografiya

[2]https://www.google.com/search?rlz

[3] http://botirali-vaxobov.narod.ru/file2.html

[4]https://studme.org/1047031925304/kulturologiya/istoriya_etnologicheskoy_etnograficheskoy_nauki

[5] Tokarev S.A. k postanovke problemi etnogeneza.// Советская этнография. 1949

[6] https://www.statisticssolutions.com/what-is-ethnography/

[7] https://www.google.com/search?q

Мусаева Ш.А. – СамИСИ Доц.
Усманов Ф.Ш. – СамИСИ ИК-219 гуруҳ талабаси

ТУРИСТИК КОРХОНАЛАРДА МАРКЕТИНГ ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Аннотация: *Следующая статья посвящена маркетинговым показателям субъекта туристического рынка и его развития. Создан новый перформанс по организации маркетинга в индустрии туризма.*

Ключевые слова: *индустрия туризма, маркетинг*

Annotation:*The next article dedicate on marketing performance of subject of tourism market and it's developing. Created new performance on organizing the marketing in tourism industry.*

Key words: *tourism industry, marketing*

Ўзбекистон Республикаси Президентининг2019 йил 13 августдаги «Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини янада ривожлантириш таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида»гиПФ-5871-сон Фармонида туризм соҳасидаги мақсадларига миллий туризм маҳсулотларини яратиш ва уларни жаҳон бозорларида тарғибот қилиш, туризм соҳасида Ўзбекистоннинг ижобий қиёфасини шакллантириш киритилганлиги ушбу соҳада маркетинг фаолиятини жадал ривожлантиришни талаб қилади[1]. Айниқса, Самарқанддек туризм ресурсларига бой минтақада ушбу масала долзарб бўлмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев таъкидлаганидек "Самарқанднинг салоҳиятини инобатга олсак, туризмни ривожлантириш имкониятлари чексиздир".

Туризм маркетингига эътиборни кучайтириш – бу аввало Ўзбекистон шароитида меҳмонларни қабул қилиш ва уларнинг хордиқ чиқаришга бўлган эҳтиёжларини қондириш, шу билан биргаликда аҳолининг саёҳатга бўлган мойиллигини ривожлантириш сиёсатини

амалга оширишдир. Бунда сайёҳларга хизмат кўрсатувчи хўжалик субъектларида маркетинг тамойилаарини том маънода ривожлдантиришни талаб қилинади. Туристик фирмаларда маркетингни ривожлантиришнинг муҳим шартларидан бири – бу туризм маркетингининг ҳусусиятларини англашдир. Маркетинг фаолияти аввало келажакка йўналтирилиши билан ажралиб туради, яъни замонавий корхонанинг бозордаги барча харакатлари нафақат бугунги истеъмол талабини билиш асосида, балки унинг ўзгариши ва истиқболлари асосида ташкил этилишидан иборат. Маркетингнинг умумий назариясини туризм соҳасига мослаштириш ва унинг хусусиятларини ҳисобга олувчи тегишли изланишларини ишлаб чиқиш кўплаб олимларнинг диққат марказида бўлмоқда. Уларнинг таъкидлашлари бўйича, туризм соҳасида маркетингнинг ўзига хос хусусияти қуйидагича аниқланади:

- маркетингнинг ташқи муҳитига боғлиқлиги. Кўпинча талабнинг шаклланиши туристик ресурснинг мазмуни билан эмас, балки унинг маркетинг инфратузилмасидаги талқини билан боғлиқ бўлади;
- туристик маҳсулот ва унинг таркибига кирувчи хизматларнинг ўзига хослиги. Туристик махсулотнинг истеъмолини туристларга кўрсатиладиган хизматлар ҳажми, сифати ва мазмуни билан чамбарчас боғлиқдир. Айрим холларда хизматлар туристик махсулотнинг асосий қсмини эгаллаши ҳам мумкин;
- туристик махсулотни яратишга тизимли ёндашиш. Туристик махсулот нафақат туристик фирманинг хизмат кўрсатиш жараёнига, балки мамлакатда туристларга яратилган шарт-шароитларнинг мувофиқлиги билан баҳоланади;
- туристик маҳсулотни ишлаб чиқариш ва истеъмол қилиш механизмларининг ривожланиш даражаси. Туризм соҳасининг самарадорлиги кўпинча мамлакатнинг барча иқтисодиёт соҳаларининг туризмга бўлган муносабати билан белгиланади. Масалан, агротуризм йўналишларини ривожлантириш биринчи ўринда қишлоқ хўжаликда туристик жараёнларга ижобий қарашларга боғлиқдир;
- ўзбекистон шароитида туристик мавсумнинг яққол ажралиб туриши. Мамлакатимизнинг иқлими мавжуд туристик ресурслар билан танишиш, улардан фойдаланишининг маълум вақтда қулай бўлишининг асосий омили бўлиб қолмоқда. Шу муносабат билан туристик фирмлар ҳам мавсумий фаолият кўрсатишга мослашган;
- туристик ташкилотларнинг имкониятлари ва қувватларининг тўлиқ фойдаланилмаслик. Туризм соҳасининг асосий мақсади – ҳар қандай меҳмон учун у хохлаган вақтда зарур шароитларини яратиб беришдир. Шу муносабат билан туристик-меҳмонхона комплексининг қуввати туристик оқимнинг максимал ҳажмига, ҳаттоки меҳмонхоналар турлари бўйича ҳам энг юқори талабни қондиришга мослаштирилиши кўзда тутилади. Бу эса албатта қўшимча харажатлар билан боғлиқ бўлади.

Самарқанд шахридаги туристик сиёсатини тахлил қилдиган бўлсак, охирги вақтларгача асосий эътибор хорижий туристларга қаратилганлигини эътироф этишимиз лозим. Ишлаб чиқиладиган туристик махсулотлар, овқатланиш ва яшаш учун яратиладиган шароитларнинг барчаси хорижий меҳмонлар учун мўлжалланган бўлган. Бугунги кунда ички туризмнинг имкониятлари янгидан очилганлиги хизмат кўрсатиш субъектларининг маркетинг фаолиятида бурилишга олиб келди. Самарқанднинг тарихий ва диний обидаларини, диққатга сазовор жойларини, дам олиш масканларини фуқароларимиз талабларига мос равишда ривожлантириш ишлари жадал олиб борилмоқда.

Туризмда маркетинг фаолиятини ривожлантириш аввало хизмат кўрсатиш субъектларидан бошланиши лозим. Шаҳарнинг туристик фирмалар ва меҳмонхоналарнинг асосий қисми кичик бизнес субъектлари қаторига киради. Бир томнодан кичик бизнес ташкилий ва молиявий жиҳатдан кўплаб афзаллик ва қулайликларга эга, аммо иккинчи томондан айрим вазифаларни қамраб олишда меҳнат ресурслари ҳамда зарур билим ва кўникмалар етишмаслиги мумаммо туғдириши мумкин. Шу муносабат билан туристик ташкилотлари раҳбарлари олдида маркетинг фаолиятини ташкил этиш ва ривожлантириш бўйича қатор вазифалар турибди. Уларнинг айримларига тўхталиб ўтсак.

Маркетингни ривожлантириш вазифаларнинг биринчиси ва асосийси – бу маркетинг

фаолиятини оддий хўжалик фаолиятидан фарқлаш ва стратегик аҳамиятга эга ҳаракатлар қаторига киритишдир, яъни маркетинг дастурига эътиборни қаратишдир. Давлат бошқарув органларининг туризмни ривожлантиришга қаратилган ҳаракатлари туризм инфратузилмасини шакллантиради холос, бозор муносабатларини ривожлантириш каби асосий ишни туристик ва мехмонхона субъектлари бажариши лозим. Бу вазифани бажаришда маркетинг дастурини тузиш бўйича тегишли услубий ёндашувнинг мавжудлиги катта аҳамиятга эга.

Иккинчи вазифага туризм бозори конъюнктурасини кузатиб бориш бўйича фаол сиёсатни олиб боришдир. Туристик фирма раҳбари бозорнинг холати, кўрсаткичлари ва уларнинг динамикасини аниқлашга интилиши лозим. Туристик фирмаларда марктинг ахбороти тизими мукаммал бўилишини таъминлаш долзарб бўлмоқди. Нима учун Самарқанднинг туристик бозори тўғрисида хорижий фирмалар кўпроқ билиши керак экан? Туристик ташкилот раҳбарларидан фаол маркетинг ахбороти сиёсатини юритиш талаб қилинади. Фаол сиёсат – бу ахборотларни мустақил равишда излаш, тахлил қилиш ва, керак бўлса, ахборот тарқатувчига айланиш демакдир.

Учинчи вазифа туристик фирмаларда маркетинг хизматини ташкил этиш шаклларини аниқлаштириш ва унинг ишлаш тамойилларини белгилашдан иборат. Бугунги кун туристик фирма ва меҳмонхоналардаги маркетинг хизматларининг анъанавий тарзда фаолият кўрсатиши паст самара беришининг сабабларидан бири деб таъкидласак бўлади. Маркетинг бўлимини тузиш билан маркетинг концепцияси қабул қилинди деб бўлмайди. Туризмда маркетинг хизматлари шакли бозорнинг ўзига хослиги ва ажралиб турувчи белгиларидан келиб чиқиши ва уларга жавоб бериши лозим.

Юқоридиги вазифаларни бажаришда илмий-услубий ёндашувнинг пухта ишлаб чиқилганлиги ҳамда замонавий илмий натижаларининг қўлланилиши катта аҳамиятга эга. Ҳаммага маълумки, аксарият туристик фирмалар авиакассалар негизида иш бошлаган, яъни туристик фаолиятнинг ўзига хослиги иш бошлашда бош тамойил қилиб олинмаган. Бунинг натижасида фаолият давомида маркетинг функцияларининг киритилиши анча мураккаб масалага айланган. Ҳозирги кунда муаммонинг моҳияти шундаки, туризмда замонавий маркетинг назариясини қўллаш долзарб бўлгани билан, бу соҳадаги хўжалик субъектларининг уни амалиётга тадбиқ этиш бўйича тажриба ва имкониятлари чекланган. Самарқанддаги туристик фирма ва меҳмонхоналарда ходимлар сони жуда кам, маркетинг вазифаларнинг барчасини қамраб олиш ҳам қийин кечмоқда. Шу муносабат билан, бизнинг фикримизча, Ўзбекистон олимлари томонидан туристик фирма ва меҳмонхоналар учун маркетинг фаолиятини ташкил этиш бўйича ихчам ва содда кўринишдаги қўлланмалар яратиш вақти келган. Бундай тажриба бир вақтлар тадбиркорлар учун бизнес-режа тузиш услубиятига оид қўлланмалар яратиш натижасида жуда катта самара берганлигини биламиз. Яратиладиган қўлланма ва тавсияномаларда туристик ташкилотларида маркетинг тамойиллари ва ташкилий механизмлари бўйича аниқ ечимлар таклиф этилиши билан амалиётчилар учун фойдали бўлади. Туризм маркетинги соҳасида туркум услубий материалларни чоп этиш ва тарғиб қилиш ҳам маркетинг саводхонлигини оширишда катта аҳамиятга эга бўлиши мумкин.

Туристик корхоналарда маркетинг хизмати шакллари бўйича ҳам ўзига хос таклифларни киритиш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз. Бунда туризмнинг ҳусусиятларидан келиб чиққан холда маркетинг вазифаларини иккита гуруҳга бирлаштириш лозим: минтақавий туристик салоҳиятини бошқариш вазифалари ва фирманинг рақобатбардошлигини ошириш вазифалари. Биринчи гуруҳ вазифаларини фирманинг ўзида қамраб олиш ҳам имконсиз, ҳам самарасиздир. Ҳеч қандай туристик фирма ёки меҳмонхона бу вазифаларни мустақил бажара олмайди. Бунинг учун тижорат асосида фаолят кўрсатувчи махсус маркетинг ва консалтинг марказлари хизматидан фойдаланишни йўлга қўйиш мумкин. Иккинчи гуруҳ вазифалари маҳаллий шароитларга асосланган бўлиб, ҳар бир корхона имкониятларидан келиб чиққан холда тузимлани яратиш мумкин. Ушбу вазифаларнинг аҳамиятли томони шундаки, уларни стандартлаштириш ва аниқ лавозим

йўриқномаларга келтириш мумкин. Бунда ҳам бизлар тадбиркорлар учун тайёр шаклида маркетинг хизматларининг турли вариантларини таклиф этиш зарур деб ҳисоблаймиз. Албатта, маркетинг хизматини ташкил этишда тажрибадан келиб чиққан холда қанча кўп вариант таклиф этилса, фирмалар учун шунчалик осон бўлади.

Бизнинг таклифларимиз барча олимларга қаратилган бўлиб, ҳозирги кунгача бажарилган илмий ишланмаларни бирлаштиришга асосланади. Шу билан биргаликда амалиётчи раҳбарларнинг таклифларини киритиш ҳам соҳада маркетингни қўллашда туртки бўлар эди. Туристик фирма ва меҳмонхоналардаги муаммоларни очиқ муҳокама қилиш, уларни бартараф этиш ва олдини олиш бўйича фикр алмашиш, мутахассислар тавсияларини мунтазам чоп этиб бориш бўндай фаолиятнинг самарадорлигини оширишда хизмат қилади.

Асосийси, туристик фирмаларда маркетинг фаолияти бўйича тажриба алмашиш майдончаси шакклантирилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 13 августдаги «Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини янада ривожлантириш таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида»гиПФ-5871-сон Фармони. Электрон манба. www.Lex.Uz

Хамроев М.С. – СамИСИ ассистенти
Нурбоев Ш.К. – СамИСИ магистранти

ТУРИСТИК ХИЗМАТЛАРНИ СУҒУРТАЛАШ АМАЛИЁТИ: МАВЖУД МУАММОЛАР ВА ИСТИҚБОЛДАГИ РЕЖАЛАР (“ЎЗБЕКИНВЕСТ” ЭИМСК САМАРҚАНД ВИЛОЯТ ФИЛИАЛИ МИСОЛИДА)

Аннотация. *В статье рассматривается практика страхования туристических услуг в настоящее время, анализируются существующие проблемы в этой сфере, а также освещены условия развития страхования рынка туристических услуг.*

Ключевые слова: *туризм, отрасль туризма, налоговые льготы, таможенные льготы.*

Abstract. *The article explains the practice of insurance of touristic services at present, and analysis of existing problems in this sphere as well as the conditions of developing insurance of touristic services market.*

Key words: *insurance, tourism, tourism industry, assistance, adjusts services*

Мамлакатимиз суғурта бозорида рўй бераётган ўзгариш ва янгиланишлар хусусида сўз юритсак, истиқлолнинг илк даврида юртимизда атиги битта давлат суғурта ташкилоти мавжуд эди. У ҳам давлат муассасаси сифатида фаолият юритарди. Бугунги кунга келиб эса, турли мулкчилик шаклидаги 30 дан ортиқ суғурта компанияси фаолият кўрсатмоқда. Уларнинг Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳрида жойлашган 1170 та бўлинмаси жисмоний ҳамда юридик шахсларга 130 дан зиёд суғурта -хизматларини таклиф этаяпти.[128]

Суғурта хизматлари жамиятнинг барча соҳаларини ва аҳоли қатламини қамраб олмоқда.Хусусан, туризм иқтисодиётнинг муҳим тармоқларидан бири ҳисобланади. Шу сабабли, охирги йилларда мамлакатимизда туризмни ривожлантириш, сайёҳлик объектларидан самарали фойдаланиш, кўрсатилаётган хизмат турлари сифатини ошириш, юртимизга ташриф буюраётган сайёҳлар оқимини кўпайтириш масалаларига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Ушбу саъй-ҳаракатлар натижасида юртимизга келаётган сайёҳлар оқими ошмоқда, хусусан, 2016 йилда Ўзбекистонга 2 миллиондан ортиқ сайёҳ келган бўлса,

[128] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 2 августдаги «Ўзбекистон Республикасининг суғурта бозорини ислоҳ қилиш ва унинг жадал ривожланишини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори

2018 йилда бу кўрсаткич 5 миллиондан ошган. [129] Ички ва ташқи туризмни янада ривожлантириш учун зарур инфратузилмани яратиш ва сайёҳларга халқаро талаблар даражасида хизмат кўрсатиш талаб этилади. Суғурта ҳам ушбу хизматлардан бири ҳисобланади. Мазкур заруратдан келиб чиқиб, юртимиздаги "Ўзбекинвест" миллий суғурта компанияси, "Ўзагросуғурта" АЖ, "Gross Insurance" МЧЖ ҚК каби йирик суғурта ташкилотлари туризм соҳасида суғуртани янада ривожлантириш масалаларини муҳокама этиш[130], мавжуд муаммоларни биргаликда ҳал этишга қаратилган таклифларни ишлаб чиқиш ва туристик фирмалар, туроператорлар, меҳмонхона эгалари, маҳаллий ва хорижий туристларнинг мулкий ва шахсий манфаатларини ҳимоя қилишга қаратилган суғурта хизматлари билан соҳа вакилларини яқиндан таништириш мақсадида жойларда турли мастер класслар ва семинарларни ташкил этмоқдалар.

Суғурта компаниялари томонидан қопланадиган харажатлар қуйидагилар бўлиб ҳисобланади :

- тиббий ҳаражатлар
- тиббий-транспорт ҳаражатлари
- транспорт ва бошқа ҳаражатлар
- бахтсиз ҳодиса содир бўлгандаги қоплама

Агар мазкур суғурта хизмат турларига батафсил тўхталсак, улар мазмун-моҳияти ойдинлашади. Масалан, туроператорларнинг саёҳатни бекор қилиниши билан боғлиқ кўзда тутилмаган харажатларини суғурталаш бўйича компания саёҳатчи томонидан сайёҳлик тури бекор қилиниши натижасида туроператорнинг кўзда тутилмаган, яъни меҳмонхона, транспорт, трансфер ва бошқа харажатлари учун амалга оширилган тўловлари билан боғлиқ харажатлари юзасидан кўрилган зарарларни қоплаш мажбуриятини зиммасига олади. Туроператорлар хорижий контрагентининг банкрот бўлиши билан боғлиқ кўзда тутилмаган харажатларини суғурталаш бўйича эса компания туроператор контрагентлари (шартнома бўйича ишловчи ҳамкорлари)нинг тўлов қобилиятининг тўлиқ йўқолиши натижасида ўз мажбуриятларини бажара олмай қолиши сабабли туроператорнинг кўзда тутилмаган, яъни хориж сафарини ташкил қилиш мақсадида меҳмонхона, транспорт, трансфер ва бошқа харажатлари учун амалга оширган тўловлари бўйича кўрган зарарларини қоплаб беради.Шунингдек, туроператорлар авиарейснинг кўчирилиши ёки бекор қилиниши билан боғлиқ кўзда тутилмаган харажатларни суғурталаш тури бўйича компания табиат ҳодисалари, об-ҳаво таъсири, авиакомпаниянинг ички тартиблари ва бошқа сабабларга кўра, авиарейснинг кўчирилиши ёки бекор қилиниши натижасида туроператорнинг кўзда тутилмаган, яъни хорижий турни ташкил қилиш билан боғлиқ меҳмонхона, транспорт, трансфер ва бошқа харажатлари учун амалга оширилган тўловлари сабабли кўриладиган зарарни тўлаб бериш мажбуриятини зиммасига олади.Сайёҳлар багажи (мол-мулки)ни суғурталаш тури шартларига кўра, компания сайёҳ багажига табиат ҳодисалари, хусусан, ёнғин, довул, сел, сув босиши, зилзила, тўфон, ер кўчиши ва ҳоказолар, шунингдек, учинчи шахсларнинг қонунга зид хатти-ҳаракатлари (ўғрилик, босқинчилик, талон-тарож, қасддан зарар етказиш ва ҳоказолар) ҳамда йўлтранспорт ҳодисалари ёки суғурталанувчи билан бахт-сиз ҳодиса содир бўлиши оқибатида багажга зарар етиши суғурта ҳодисаси ҳисобланади. Шу боис, шартномага асосан, саёҳатчи багажига, яъни мол-мулкига етган зарарни компания тўлаб бериш кафолатини олади. Айни пайтда "Ўзбекинвест" компаниясининг ҳудудлардаги 14 та филиали ва 190 та бўлими томонидан юқорида қайд этилган суғурта турлари бўйича хизматлар кўрсатиб келинмоқда. Шунингдек, жойлардаги таркибий бўлинмалар томонидан мижозларга 160 дан ортиқ суғурта маҳсулоти бўйича хизматлар тақдим этилиши йўлга қўйилган. Жумладан суғурта компанияси томонидан 3 хил суғурта доирасида хизматлар таклиф қилинмоқда. Булар "Стандарт", "Премиум" ва "Комфорт" суғурта дастурлари.[131]

---

[129] www.mf.uz Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигининг расмий сайти маълумотлари асосисда

[130] Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев томонидан 2019 йил 10 июль куни мамлакатда суғурта хизматлари бозорини ривожлантириш масалаларига бағишлаб ўтказилган йиғилиш нутқи асосида

131 "Ўзбекинвест" ЭИМСК Самарқанд вилоят филиали маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди

“Ўзбекинвест” ЭИМСК Самарқанд вилоят филиали томонидан жорий йилнинг май-август ойларида хорижга саёҳатга чиқувчи ҳамюртларимизга жами 58 та полис расмийлаштирилган. Мукофот суммаси 18700,0 сум. Компания томонидан 27711160,0 сум миқдорида суғурта ҳимояси шакллантирилган.[132] Таҳлил натижасида кўпгина хамюртларимиз асосан Миср араб республикаси, Туркия, Таиланд, Дубай БАА каби мамлакатларга саёҳатга боришлари аниқланди. Шулардан келиб чиқиб “Ўзбекинвест” ЭИМСК Самарқанд вилоят филилали компаниянинг ассистанс, аджастерлари диққатини юқорида номлари тилга олинган мамлакатларга ташриф буюрган ҳамюртларимиз учун сифатли суғурта хизматларини “ travel insurance” кўрсатишга қаратмоқдалар. Бугунги кунда компания томонидан 1 киши учун ўртача полисни расмийлаштириш нархи (суғурта мукофоти суммаси) 25,73 $ АҚШ доллари этиб белгиланди.[133]

Республикамизда туристларни шахсий суғурта қилиш - суғурта қилишнинг махсус кўриниши бўлиб, туристларнинг мулкий манфаатини у туристик сафарда, саёҳатда бўлганда ҳимоя қилади. Умуман олганда туристларни шахсий суғурта қилиш, суғурталашнинг хавфли бир тури бўлиб, унинг асосий хусусияти (аҳамияти) қисқа муддатлилиги шунингдек суғурта ҳолатида содир бўлиши мумкин бўлган катта даражадаги зарарлардадир. Асосан туристларни шахсий суғурта қилиш ҳодисаларига бахтсиз воқеалардан суғурталаш, касалликлардан суғурталаш, ўлим ёки қурбон бўлиш ҳодисалари киради. Мисол тариқасида, Франциянинг Шимоли қор чанғиси дам олиш масканидаги «Инко» суғурта компанияси тажрибасини олсак. Туристларнинг сон суяги синиши натижасида уни мураккаб ҳолатда тоғдан шифохонага ташиши, махсус операция, операциядан сўнг соғлигини тиклаш жараёни, аэропортга элтиб қўйиш, сўнгра эса махсус транспортда махсус назорат остида уйига элтиб қўйиш жараёнларига 17000 доллардан зиёд маблағ сарф бўлган. Агар суғурта компаниялари бўлмаганда эди, азият чеккан турист иқтисодий жиҳатдан, молиявий жиҳатдан таназзулга юз тутган бўлар эди. Унга бўлса бу фақатгина 15 долларга тушди, чунки тоғ эчкиси ҳаваскори 2 хафта сафарини суғурта қилган эди.[134] (Барча сарф-харажатларни суғурта компанияси тўлаб берган).Ҳар бир саёҳатга чиққан турист аввалом бор суғуртанинг нима эканлигини яхши ўрганиб олиши керак. Бундан ташқари суғуртани фойдасиз товар сифатида қабул қилмаслиги керак. Ҳозирги вақтда Республикамизда 30 дан ортиқ суғурта компаниялари фаолият кўрсатаётганлиги ҳаммамизга маълум. Москвада 150 дан ортиқ суғурта компаниялари фаолият кўрсатади, Санкт-Петербургда 15 дан ортиқ суғурта компаниялари хорижга чиқувчи туристларга ўз хизматларини таклиф қилмоқдалар.[135] Суғурта қилинган турист чет элга жўнаш давомида бехосдан оғриб қолганда, жисмоний шикастланганда одатда кўнгилли хизмат кўрсатилади. Бироқ агарда бирор киши маълум муддатга (2-3 ойдан кўпроққа чегарадан ташқарига чиқадиган бўлса, унинг ўзи ёки оиласи тушиб қолиши мумкин бўлган ноқулай ҳолатни тўғри бахолай олиб, у пайтда қўшимча ёрдам беришни ташкиллаштириш зарур.

Суғурта хизматлари иқтисодиётни турли хил молиявий хатарлардан ҳимоя қилувчи воситалардан биридир. Бироқ мамлакат молия бозорида бу хизматларнинг ўрни ҳозирча катта эмас.Жорий йилнинг олти ойида суғурта ташкилотлари томонидан йиғилган суғурта мукофоти ўтган йилнинг шу даврига нисбатан 1,5 баробар ошган бўлса-да, суғурта тушуми аҳоли жон бошига 50 минг сўмдан тўғри келган.Ушбу соҳанинг Ўзбекистон ялпи ички маҳсулотидаги улуши атиги 0,4 фоизни ташкил этмоқда[136]. Қиёс учун, бу кўрсаткич Жанубий Кореяда 11 фоиз, Германияда 6 фоиз, Россияда 1,5 фоизни ташкил этади.Бунинг

[132] “Ўзбекинвест” ЭИМСК Самарқанд вилоят филиали маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди

[133] “Ўзбекинвест” ЭИМСК Самарқанд вилоят филиали маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди

[134] И.Абдурахмонов. Суғурта - мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишида кучли молиявий воситаси. “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. № 3, июнь, 2019 йил 2-4 б.

[135] И.Абдурахмонов. Суғурта - мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишида кучли молиявий воситаси. “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. № 3, июнь, 2019 йил 2-4 б.

[136] Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев томонидан 2019 йил 10 июль куни мамлакатда суғурта хизматлари бозорини ривожлантириш масалаларига бағишлаб ўтказилган йиғилиш нутқи асосида

асосий сабабларидан бири — суғурта хизматлари етарли даражада жозибадор эмаслиги. Мисол учун, ўтган олти ойда умумий суғурта тармоғида 887 миллиард сўм суғурта мукофоти йиғилган бўлса-да, ушбу даврда мижозларга тўланган суғурта қопламасининг ҳажми мукофотнинг атиги 11 фоизига тўғри келган.[137] Дунёда эса бу кўрсаткич ўртача 50−60 фоиздир. Шу боис Молия вазирлиги хузуридаги Давлат суғурта назорати инспекцияни тугатилиб[138], Суғурта бозорини ривожлантириш агентлиги ташкил этиш таклиф қилинди. Мутасаддиларга суғурта соҳасини ўрта ва узоқ муддатли ривожлантириш стратегиясини ишлаб чиқиш, 2022 йилгача аҳоли жон бошига тўғри келадиган суғурта мукофоти ҳажмини 3 баравар, соҳанинг ялпи ички маҳсулотдаги улушини эса 2 баравар ошириш вазифаси қўйилди. Аввало, аҳоли ва тадбиркорларнинг суғуртага ишончини ошириш зарурлиги таъкидланди. Молия вазирлиги ҳамда Монополияга қарши курашиш қўмитасига суғурта даъволарини кўриб чиқиш муддатлари ва ҳужжатларини қисқартириш, суғурта ҳодисасини адолатли баҳолаш ва тўловларни тезкор тўлаш тизимини жорий қилиш вазифаси топширилди. Суғурта ташкилотларининг инвестиция фаолиятини қўллаб-қувватлаш механизмларини кенгайтириш юзасидан топшириқлар берилди. Жумладан, суғурта компанияларининг лизинг фаолияти билан шуғулланишини рағбатлантириш ва лизинг хизматлари бўйича солиққа тортиш тизимини такомиллаштириш вазифалари белгиланди.Иқтисодиёт тармоқларини суғурта хизматлари билан қамраб олиш муҳимлиги қайд этилди. Молия вазирлиги ҳамда Инвестициялар ва ташқи савдо вазирлигига қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари экспортини суғурталаш харажатларининг бир қисмини давлат томонидан субсидиялаш механизмларини жорий этиш бўйича кўрсатма берилди.Миллий суғурта компанияларининг халқаро молия бозорларига чиқишини таъминлаш, илғор корпоратив бошқарув тизимини жорий қилиш орқали халқаро рейтинглар олиш бўйича ҳам аниқ вазифалар белгиланди.Суғурта соҳасида замонавий кадрлар тайёрлаш, мутахассисларни нуфузли хорижий билим юртларида ўқитиш ва етакчи компанияларда малакасини ошириш масалаларига ҳам эътибор қаратилди.Ўзбекистонда мажбурий тиббий суғурта тизимини жорий қилиш ҳақида сўз борар экан, давлат раҳбари бунга пухта тайёргарлик кўриш, тиббий хизматларнинг минимал ижтимоий пакетини шакллантириш кераклигини таъкидлади. Умуман олганда туристларни шахсий суғурта қилиш, суғурталашнинг хавфли бир тури бўлиб, унинг асосий хусусияти (аҳамияти) қисқа муддатлилиги шунингдек суғурта ҳолатида содир бўлиши мумкин бўлган катта даражадаги зарарлардадир. Асосан туристларни шахсий суғурта қилиш ҳодисаларига бахтсиз воқеалардан суғурталаш, касалликлардан суғурталаш, ўлим ёки қурбон бўлиш ҳодисалари киради. Афсуски, бизнинг кўпгина фуқароларимиз «Агар бундай бўлсачи-ёки ундай бўлсачи?» деган фикр билан бўлиб, яъни ишониб-ишонмай кўнгли суғурта қилиш хизматларидан тўлмаганлиги сабабли, туристик сафарларга чиқаётган пайтида олдиндан ўзини суғурталаш ҳаёлига ҳам келмайди. Бизнинг Республикамизда ҳам туристларни суғурталашда чет эл туристик суғурта кампаниялари билан алоқани мустаҳкамлашни жоиз деб биламиз. Ҳозирги бозор иқтисодиётиига ўтиш жараёнида чет эл тажрибаларидан фойдаланиш туристларимиз учун ҳам суғурта компаниялари учун ҳам жуда катта фойда келтиради деб ўйлаймиз.

Barakaeva D.H – SamIES senior teacher

THE IMPORTANCE OF CROSS-CULTURAL TRAINING FOR TOURISM EMPLOYEES

Аннотация: *Межкультурное обучение не только полезно для сотрудников разных культур и этнических групп для совместной работы, но и для сотрудников необходимо*

[137] www.mf.uz Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигининг расмий сайти маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди

138 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 2 августдаги «Ўзбекистон Республикасининг суғурта бозорини ислоҳ қилиш ва унинг жадал ривожланишини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори

научиться справляться с определенными ситуациями, возникающими у клиентов из разных культур, религий и этнических групп.

Ключевые слова и выражения:

Кросс-культурный - с участием двух или более разных культур и их идей и обычаев

Индустрия гостеприимства - такие предприятия, как отели, бары и рестораны, которые предлагают людям еду, напитки или место для сна

HRM - управление персоналом

Глобализация - ситуация, в которой доступные товары и услуги или социальные и культурные влияния постепенно становятся одинаковыми во всех частях мира.

Цифровые устройства - использующие или относящиеся к цифровым сигналам и компьютерным технологиям

Клиент - человек, который покупает товар или услугу

Сотрудник - тот, кому платят за работу на кого-то другого

Репутация - общее мнение людей о ком-то или о чем-то

Традиция - это способ поведения или убеждение, которое было установлено в течение длительного времени, или практика следования поведению и убеждениям, которые были так установленыMany academics, industrialists and policy-makers have attempted to define the nature of the tourism industry – and the place of the hospitality sub-sector within this broader conceptualization – yet there is still no one commonly accepted definition. Hence, there are inherent problems seeking to define what is a large and diverse sector, which means many of the activities may overlap, and could be described as encompassing tourism and hospitality. For example, everyone knows that tourism is mainly based on terms about the Hotel, Catering and Tourism Sector (HCTS). This characterization of the HCTS recognizes that, in reality, many jobs in hospitality and tourism, 'share common attributes and are associated with both hospitality and tourism activities'

Organizations and managers in the tourism and hospitality industry face real challenges in recruiting, developing and maintaining a committed, competent, well managed and well-motivated workforce which is focused on offering a high-quality 'product' to the increasingly demanding and discerning customer. This article seeks to address some of the key human resource (HR) issues that have to be tackled in order that organizations can maintain such an environment. To do so it will critically review some of the problems which lead people to characterize tourism and hospitality employment as generally unrewarding and unappealing, whilst also considering examples of good practice, important policy responses and models of HRM which may offer cause for greater optimism in the way people are managed within the tourism and hospitality industry.

Globalization has greatly affected the tourism industry. People from newly developed countries now travel in large numbers.. As such, diversity has become an increasingly strategic component of the tourism and hospitality industries.

The need for diversity training is serious and urgent, because diverse customers have different cultures and traditions that have to be dealt with. Otherwise, they will be unsatisfied customers. In today's age of digital devices, unsatisfied customers can share their bad experiences with others via many different tools. When a consumer is making a purchase decision for an intangible product or service, such as those offered in the hospitality and tourism industry, he often will use interpersonal influence and word-of-mouth. As such, an unsatisfied consumer who is sharing his negative experiences with his neighbors or the online community can have a significant impact on a company's reputation. His opinions can negatively influence and affect the company's brand. This bad reputation can affect the employees' work environment, leading to disengagement.

Employees in the tourism and hospitality industry are already subject to high turnover even as new hotels open every day around the world. This means employees will not hesitate to quit their job if they find a better place to work. That is why it is important to focus on their training, so they can learn how to handle the gap between different cultures that coexist in this type of workplace.

Ultimately, cross-cultural training is not only useful for employees from different cultures and ethnicities to work together, but it is also necessary for employees to learn how to handle certain situations that are raised by customers from diverse cultures, religions, and ethnicities.

Here is my proposal: First, study the population among your customers. Different people from different countries have different traditions. Once you establish the different type of nationalities that come along in the company, it is important to set up training programs with scenario sessions that allow employees to learn up front about their customers' cultures, which will help ensure employees to react in a proper way when faced with cultural differences.

Scenario sessions

As an example: Farrukh is a seasoned traveler. He is 26 and comes from Samarkand. His traditions are fundamentally different from those in Western countries. Privacy, for example, is very important. When I asked him if he had a bad experience from one of his previous travels, the answer popped up immediately in his mind. In Paris, an employee from a five-star hotel knocked at his door and then came inside the room, where his family (mother, aunt, and sister) were, despite the "Do Not Disturb" sign hung on the door handle. This was a behavior he judged unacceptable. A simple training on the restricted definition of privacy for people from Islamic countries, many of whom travel to France, would have changed everything.

When I asked him if he would come back to this hotel in France, his answer was, "No." Such experiences are not uncommon. However, people sharing a tradition of privacy and discretion will feel highly disrespected and will not forget these embarrassing situations, but customers are not the only victims. Every employee working in the tourism and hospitality industries have faced, at one point, a cultural misunderstanding with a customer. Most of them would deem these events "bad experiences" because none of them knew how to deal with them.

After keeping track of the tourist rates based upon their different countries of origin, it is important to create a training plan. The manager should set up a meeting that includes the following topics :

- Importance of convincing employees of the necessity to attend these courses.
- Sharing the result of the tourist rates and teaching employees the behaviors to adopt when they deal with tourists from a country with a different culture.
- Emphasizing that what is acceptable to one customer might not be acceptable to another customer from a different culture. This is important because it affects the company's reputation.
- Understanding that behavior is not the only thing employees have to modify. They might have to set up new rules to be sure tourists will not have issues while they are enjoying a company's hospitality. For example, for some people, it is important to take off your shoes before going inside the room. Employees have to make sure this situation will not lead to any trouble (i.e., shoes being stolen), which can be avoided just by being more attentive, and provide practical solutions such as warning the customer about the risks or finding a safe place to leave these shoes. For a restaurant, a new rule might be noting in writing what foods include meat, pork, beef, and so on, so customers with special dietary needs or allergies can be aware.

In the end, if customers feel their traditions are being taken into account, they will be more likely to develop loyalty toward the company and share their positive experience with other people.

Султанова Н.У. - СамИСИ Маркетинг кафедраси ассисстенти

ЭТНОГРАФИК ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МУЗЕЙЛАР МАРКЕТИНГИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ.

Аннотация: *В статье освещается развитие этнографического туризма и роль музеев в этом отношении. С развитием разработок научно-теоретических, практических предложений и рекомендаций на сегодняшиный день маркетинг музеев играет важную роль в этом направлении.*

Ключевые слова: *этнография, этнографический туризм, музей, маркетинг музеев.*

Abstract: *The article highlights are about the development of ethnographic tourism and the role of museums in this regard. The marketing of museums are playing an important role with the development of scientific, theoretical and practical proposals and recommendations in this direction these days.*

Key words: *ethnography, ethnographic tourism, museum, marketing of museums.*

Авваламбор, этнография сўзи бугунги кунда бор бўлган миллат ва элатларнинг келиб чиқиш тарихи, уларнинг шаклланиши, ҳудудий жойлашиши ва этник тузилиши, урф-одатлари, анъаналари, қадриятлари, маънавий маданияти ва миллий хусусиятларини ўрганади. Шунингдек, этнография йўқолиб кетаётган элатларнинг ўтмишдаги жараёларини, турмуш шароити, ва маданиятини ўрганади.

Этнография серқирра, ижтимоий фан бўлиб, турли миллат ва элатларнинг нафақат бугунги кундаги хўжалик ва маданий хислатларини, балки уларнинг узоқ тарихий ривожланиш босқичларидаги этник келиб чиқишини, жойланишини, маданий-маиший алоқаларини, анъанавий машғулотларини ўрганади.

Машҳур этнограф олим С.А.Токаревич шундай деган эди: “Халқнинг келиб чиқшини англаш – бу уларнинг тарихий ворислигини, унинг номини ва жойини топиш, буюк аждодлари қаерда яшаганлигини, қадимий маданиятдан қолган мерослар эволюциясини шу ҳудудда излаш ва кузатиш эмас, аксинча бу уларнинг қайси тилда гаплашганлигини ёки тил тарихини аниқлаш ҳамда бу халқ қайси ирқ элементларидан вужудга келганлигини аниқлашдангина ҳам иборат эмас. Балки буларнинг барчаси халқнинг келиб чиқишини ўрганишда. Шундай экан, аввало халқнинг келиб чиқишини тушуниш учун шу маданиятни ривожланиши ва келиб чиқишини топиш керак, бу эса шу халқда кўпроқ ривожланган бўлади”[139].

Бугунги кунда этнографик туризм ва уни ривожлантириш масалаларига катта эътибор қаратилмоқда. Этнографик туризм ҳам туризмнинг яна бир турларидан бири бўлиб, у турли миллат ва элатга мансуб халқларнинг урф-одатлари, анъаналари, қадриятлари, этник маданияти, шунингдек, хунармандчилигини кўриш, ўрганиш мақсадида туристларнинг ташриф буюришидир.

Этнографик туризм туристларни жалб қилишда бир неча кўрсаткичларга эга бўлса мақсадга мувоффиқ бўлади, яъни ўзида этник хусусиятларни мужассамлаштирган аниқ бир ҳудуд ва бу ҳудудда ҳозири кунгача давом этиб келаётган моддий ва маънавий маданият ҳамда ушбу маданиятни сақлаб қолиш учун анъаналарнинг давом этишини таъминлайдиган соҳа.

Бугунги кунда республикамизда этнографик туризмни ривожлантиришга катта эътибор қаратилмоқда. Чунки мамлакатимизда миллий урф-одатлар, қадриятлар, анъаналар,тарихий обидалар, мақбаралар, халқ оғзаки ижоди каби бир қатор тарихий меросларга жуда бой мамлакат бўлиб, бундай бой меросга эга мамлакатлар дунёда камдан-кам учрайди. Шунинг учун уларни бутун дунёга кўз-кўз қилиш керак. Мустақилликка эришгач, туризм, шу жумладан, этнографик туризмни ривожлантиришга катта туртки бўлди. Шу мақсадда тарихий, маданий, этнографик меросни асраб-авайлаш ва келажак авлодларга ҳам етказиш бугунги кунда долзарб муаммолардан бири бўлиб қолмоқда. Юртимиз этнографиясига мансуб муҳим аҳамиятга эга материаллар тўплаш жараёни XIX асрдан бошлаб бугунги кунгача давом этиб келинмоқда.

Мамлакатимизда этнографик туризм сайёҳликнинг махсус тури сифатида қаралиб келинмода. Бу борада музейларнинг роли катта бўлиб, айнан музейлар тарихий, моддий ва маънавий ёдгорликларни тўплаш, сақлаш, ўрганиш ва тадқиқ қилиш каби вазифаларни бажаради. Маданий кўриниш факторлари музейларда ва ёдгорликларда намойиш қилиш давомида сайёҳларнинг қизиқишини ўрганган ҳолда ташкиллаштирилиши ижобий жараёнларни юзага келтирмоқда.

[139] Токарев, 1949, С. 24-25

Бугунги кунда музейлар янги ижтимоий-сиёсий маданият маркази бўлиб ҳисобланади. Айнан музейлар бозор иқтисодиёти шароитидаги ўзгариш ва янгиликлар билан ҳамнафас равишда муайян муҳитга мослашиш шарт-шароитини бошдан кечирмоқда. Мазку ижтимоий-иқтисодий ўзгаришлар шароитида ана шу музейлар инсонларда кўникма бериш хусусиятларига эга бўлиши лозим.

Туризм соҳасига, жумладан, айнан этнографик туризмга диққат-эътибор кучайган бир пайтда музейлар фақатгина тарихий меросни тарғиб этиш билан кифояланмай,балки замонавий бадиий жараён кечинмалари тўғрисида ҳам тушунча бериши лозим.

Туризм музейларининг ривожланиши ҳудуд тарихий меросини тарғиб этиш билан бирга, мавжуд тарихий шаҳарлар номини оммага танитишда музей маркетингини шаклланишини таъминлайди. Музей маркетинги –бу асосан жой маркетингининг таркибий қисми бўлиб, музейлар фаолиятини ривожлантиришда, инсонларнинг музей ҳақидаги ижобий фикрларини яратишда туртки бўлувчи, музей фаолияти ва мақсади ҳақида хабар бурувчи , маънавий ҳордиқ чиқариш, шунингдек, кўп йиллик тадқиқотлар натижаларини намоён этувчи жараёндир. Музей маркетингига асосланиб, замонавий музейлар концепцияси кўп қиррали кўринишда таклифларни киритиш мумкин:

- тез кўзга ташланадиган, ёрқин, ноёб ва намунавий экспозицияларни ўзида жамлаши;
- музей иши доирасидаги замонавий лойиҳа ва дастурларни ишлаб чиққан ҳолда,аждодлардан қолган мерос орқали келажак авлодни ватанпарварлик руҳида тарбиялашдаги амалий аҳамияти;
- глобал муаммолар шакли ва кўринишидаги ижтимоий ҳаёт лавҳаларига асосланган кўргазмалар ташкил этиш ва уларни ёшлар ҳаётига тарғиб этиш.

Ҳозирги кунда ўзбек халқининг тарихий аҳамиятга эга бўлган объектлар, археологик, қурилиш, меъморчилик объектлари намуналари, халқ тасвирий ва амалий санъати асарлари, муқаддас китоблар халқимизнинг бой маданий мерос намуналари сифатида айнан музейларда асраб-авайлаб сақланиб келмоқда. Зеро, мамлакатимиз маданий-маънавий меросининг кўплиги, бой ва ранг-баранглиги ҳамда қадимийлиги билан Ўзбекистон дунё мамлакатлари ўртаисда етакчи ўринлардан бирини эгаллаб келмоқда.

Шуни таъкидлаш керакки, турли миллат ва элатларнинг ҳамда халқларнинг урф-одатлари, маданияти ва турмуш тарзини ўрганишга бўлган ҳаракат инсонларни ҳаракат қилишга ундайди. Бунда музейлар маркетингдан самарали фойдаланса, мақсадга мквоффиқ бўлади. Ана шу омиллар асосида этнографик туризм соҳаси ҳам ривожланиб бормоқда.

Этнографик туризмни музейларсиз тасаввур қилиш қийин. Музейлар маркетинги эса турли мамлакат, халқ, миллатлар тарихи, уларнинг маданий мероси,дини, урф-одати, маросимлари, хусусан маданияти, санъати тўғрисида атрофлича маълумот беради ҳамда унумли дам олиши, хордиқмчиқаришининг турли-туман кўринишларини очиб беради.

Халқ фольклори, декаратив ва амалий санъатнинг турли соҳаларини, халқ мусиқаси, кийимлари, уй-рўзғор буюмларини , кишиларнинг маънавий ва маданий ҳаётини ўрганишда этнографик музей туризмининг роли ва ўрни бениҳоя каттадир. Шу сабабли халқнинг маданий кўринишининг этнографик музейларда ва ёдгорликларда намойиш қилиш юртимизга келадиган сайёҳларда ғоят катта қизиқиш уйғотади.

Xazratov A.P- SamISI assistent
Qulmurodova R.A - SamISI IK-118 talaba
Rasulova D. K - SamISI IK-118 talaba
Eshquvvatova N. A - SamISI IK-118 talaba

MAMLAKATIMIZDA NOGIRONLIGI BO'LGAN AHOLIGA TRANSPORT XIZMATLARI KO'RSATISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASINI QO'LLASH.

Аннотация: *В данной статье предлагается внедрить транспортные услуги в нашей стране, изучив опыт и конкретные пути развивающихся стран.*

Ключевые слова: *недвижимость, услуги, общественный транспорт, остановки, инвалидные коляски, Wi-Fi.*

Annotation: *This article proposes to introduce transport services in our country by studying the experience and specific ways of developing countries.*

Keywords: *Real estate, services, public transport, stops, wheelchairs, Wi-Fi.*

So‘nggi yillarda mamlakatimizning barcha hududlarida, hattoki chekka qishloqlarida ham yuksak o‘zgarishlar bo‘lmoqda.Mamlakatimizdao‘tkazilayotgan islohatlar iqtisodiyotning barcha sohalarini, shu jumladan, xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishga katta hissa qo‘shmoqda.

Ayniqsa, 2016-2017 yillarda aholiga pullik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha katta yutuqlarga erishildi, hamda bugungi kunda xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiyotning istiqbolli va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.Uning faoliyat doirasi juda xilma-xildir: transport, savdo, moliyaviy, axborot, aloqa sohasidagi va ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev davlat va hukumat idoralarining aholiga davlat xizmatlarini ko‘rsatish darajasini yanada oshirish maqsadida 2019-yilning 1-yanvarida ko‘plab farmonlarga imzo chekdi. Xalqimizning farovon hayoti uchun davlat xizmatlari ko‘rsatish sohasida ularning sifati, tezkorligi, shaffofligi va foydalanish imkoniyatini tubdan oshirish orqali “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan ulug‘vor g‘oyani so‘zsiz amalga oshirish, davlat xizmatlarining har bir turi bo‘yicha “Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi” tamoyiliga ko‘ra davlat xizmatlari ko‘rsatish mexanizmini, eng avvalo, ortiqcha tartib-taomillarni bartaraf etish, vakolatli davlat organlari va boshqa tashkilotlar zarur hujjatlar va axborotlarni boshqa tuzilmalardan mustaqil ravishda olishi hisobiga soddalashtirishni nazarda tutuvchi ma'muriy reglamentlarni tasdiqlash to‘g‘risidagi farmonlarini misol keltirishimiz mumkin. Agarda yuqorida keltirilgan farmonlarning amaldagi natijasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan xizmatlar hajmining o‘sish sur’atini kuzatamiz.

Hududlar bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi (milliard.so‘m hisobida)

Xizmat ko‘rsatish sohasi har bir davlat iqtisodiyotining rivojida asosiy bo‘g‘in hisoblanadi. Ulardan biri bo‘lgan transport xizmat ko‘rsatish sohasini oladigan bo‘lsak, bu soha barcha rivojlangan mamlakatlar xizmat turlarida alohida o‘rinni egallaydi. Dunyoning rivojlangan davlatlaridan biri – AQSh tajribasiga nazar solsak, jamoat transportlari xizmat sohasida bir qancha ustunliklarga ega ekanligini ko‘rish mumkin.

Eng avvalo, AQShda yo‘lovchilar qatnovi tig‘iz paytda yo‘nalishlarga ko‘proq transport vositalari chiqariladi. Masalan, ertalab va kechqurun ishga borish va qaytish vaqtida metro poyezdlari serqatnov bo‘ladi.

Hozirgi kunda AQShda 7700 dan ortiq tashkilotlar jamoat transport xizmatini ko‘rsatadi. Eng asosiysi bekatlar va jamoat transportlari aholining turli guruhlariga mos ravishda maxsus texnik moslashuv vositalari bilan jihozlangan. Misol uchun, nogironlar va yosh bolalar aravachasini avtobus va yer osti bekatlariga olib kirish va olib chiqishda qiyinchiliklar tug‘ilmasligi uchun avtobuslar maxsus ko‘tarma pandus- ko‘prikchalar bilan jihozlangan, metro bekatlarida esa yoshlar uchun eskalator xizmat ko‘rsatsa, keksalar, nogironlar va bolasini aravachada olib yuradigan ayollar uchun liftlar qurilgan. Yana bir jihati - AQShda ko‘pgina avtobuslar, bekatlar ko‘rish va eshitish imkoniyati cheklangan yo‘lovchilarga har bir bekat nomini avtomatik tarzda aytib va ko‘rsatib turuvchi yorug‘ yozuvlar, ovozli texnik vositalar bilan jihozlangan. Hatto, yo‘llar, piyodalar yo‘lakchasi va boshqa turli o‘tish joylari ham nogironlar va yosh bolalar aravachasiga moslashtirilgan holda zinalarsiz, tekis qurilgan bo‘lib, ularning yo‘l-transport vositalaridan bemalol foydalanishiga imkoniyatlar yaratilgan.

AQShda jamoat transport xizmatlarini ko‘rsatish sohasidagi yana bir qulay imkoniyati shuki, ko‘pgina metro va avtobus bekatlari bepul Wi-Fi internet xizmatlari bilan ta’minlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-yanvarda “Aholiga transport xizmati ko‘rsatish hamda shaharlar va qishloqlarda avtobuslarda yo‘lovchilar tashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori e’lon qilingan edi. Qarorga asosalanib, 2017-2021-yillarda shaharlar va qishloqlarda avtotransport xizmatlarini yanada rivojlantirish dasturi ham e’lon qilindi.

Dasturga koʻra, 2017-2021-yillarda 303 ta yangi yoʻlovchi tashish yoʻnalishi, ulardan 240 tasini (79,2 foizi) shahar atrofida va qishloqlardan oʻtadigan shaharlararo yoʻnalishlarda ochish nazarda tutilgan. Yangi yoʻnalishlar ochish bilan birgalikda, asosan avtobuslar yetishmasligi tufayli qatnov toʻxtatilgan yoʻnalishlar tiklanishi ham ta'kidlangan.Kelgusi 5-yilda 8,6 mingta yoʻlovchi tashish avtomobili, shu jumladan, 5,7 mingta umumiy foydalanishga qulay mikroavtobus sotib olinishi rejalashtirilgan. Avtobuslar va mikroavtobuslarning ishini onlayn rejimida (GPS) muntazam tarzda masofadan kuzatib borishni, shuningdek, yoʻlkirani naqd pulsiz toʻlash tizimini joriy etish nazarda tutilgan.Bu chora-tadbirlar, shak-shubhasiz, transport infratuzilmasi sifatini yaxshilaydi.

Yuqorida keltirilgan dasturlar natijasida transport xizmatlari sifati yanada yaxshilanmoqda. Shu bilan birga mazkur tarmoqni rivojlantirishdagi jiddiy kamchiliklarni ta'kidlab oʻtish joiz: Bugungi kunda biz uchun muammo boʻlib turgan masalalardan biri bu nogironlar va koʻp farzandli oilalar uchun transport masalasidir. Yuqoridaa aytilganidek jamiyatimizni ma'lum bir qismini noironlar tashkil etadi, shu bilan birga ular orasida ilmga chanqoq, hunarmand hamda iqtidorli fuqarolar ham mavjud. Ular oʻzlarining bunday qobilyatlarini yanada rivojlantirishlari, koʻrsata olishlari uchun oʻrta va Oliy oʻquv yurtlarida oʻqishlari keyinchalik esa jamiyatimizni rivijlantirishda hissa qoʻshishlari uchun davlat ishlarida ishlashlari, tadbirkorlik faoliyatlari bilan shugʻullanishlari shart. Ammo ularda bunday faollik bilan jamiyatimizga qoʻshilishlari uchun muammolardan biri transport vositasi hisoblanadi, ya'ni nogironlik aravachasida boʻlgan harakati cheklangan shaxslar shahar ichida bemalol transport qatnov mashinalariga ega emaslar. Misol uchun, jamoat avtobuslarida yoki marshrutkalarida ularning qatnovlari uchun qulayliklar mavjud emas. Ular bunday holatlarda yengil avtomobillardan tarkib topgan taxilardan foydalanishadilar bu esa ularning pensiyalari oʻzlariga ma'lum miqdorda cheklanganligi sababli moddiy qiyinchiliklarga uchrashiga olib keladi.

Qoʻshimcha qilib aytadigan boʻlsak bunday muammolarga nafaqat nogironlar balki koʻp farzandli oilalar ham uchrashmoqda. Bugungi kunda koʻplab oilalarning farzandlari bolalar bogʻchasi, maktab, litsey, kollejlar hamda oliy oʻquv yurtlarida oʻqishadi. Litsey, kollej hamda oliy oʻquv yurtlaridagi talabalar uchun preznoy kabi qulayliklar mavjud, ammo bolalar bogʻchasidagi bolalar hamda maktab oʻquvchilari uchun ham alohida har bir mahalla uchun jamoat avtobusi tashkil etilsa maqsadga muvofiq boʻlar edi. Buning natijasida bolalarning oʻquv maskanlariga qatnovlari faollashadi, qiyinchiliklarga uchrashmaydi, qishki va kuzgi mavsumlarda koʻp uchrab turadigan avto halokatlar boʻlmasligi va asosiysi ota- onalarning farzandlari ta'lim olish uchun qatnovlaridan biroz boʻlsada himoyada ekanliklarini his etishadi.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun rivojlangan davlatlardan biri boʻlgan AQSh tajribasidan foydalanadigan boʻlsak quydagi takliflarni keltirishimiz mumkin:

- bizda ham turli yoʻnalishlar boʻyicha yoʻlovchilar oqimini va aholi ehtiyojlarini muntazam oʻrganish va shuning asnosida belgilangan yoʻnalishlarga transport vositalarini chiqarish, zarurat boʻlsa, qoʻshimcha yoʻnalishlar ochib transport xizmatini zamonaviylik darajasiga olib chiqish zarur;
- respublikamizdagi jamoat transportlari va bekatlari turli guruhdagi kishilarga transport vositalaridan bemalol foydalanish imkonini beruvchi jahon standartlarga mos maxsus imkoniyatlari bilan ta'minlanishi zarur;
- yoʻllar, piyodalar yoʻlakchasi va boshqa turli oʻtish joylari ham nogironlar va yosh bolalar aravachasiga moslashtirilgan holda zinalarsiz, tekis qurilishi zarur;
- bekatlar koʻrish va eshitish imkoniyati cheklangan yoʻlovchilarga har bir bekat nomini avtomatik tarzda aytib va koʻrsatib turuvchi yorugʻ yozuvlar, ovozli texnik vositalar bilan jihozlanishi zarur;
- metrova avtobus bekatlari bepul Wi-Fi internet xizmatlari bilan ta'minlanishi zarur.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, avtotransport xizmatlarini koʻrsatish tizimida yuqorida keltirilgan jahon tajribasiga asoslangan jihatlar ham yoʻlga qoʻyilsa maqsadga muvofiq boʻlardi. Hukumatimizning Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamiga faravon hayot kechirishlari uchun qoʻshayotgan yordamlari beqiyosligiga hech birimizda shubha yoʻq va bularni amalda ham kuzatib

bormoqdamiz. Ammo bunday ko‘maklar qatorida transport masalalari ham hal etilsa ya’ni nogironligi mavjud insonlarning hamda kam ta’minlangan oilalarning farzandlar uchun jamoaviy transportlarni yo‘lga qo‘yilishi albatta jamiyatimiz ravnaqida bunday aholi qatlamlari yanada faol ishtirok etib o‘zlarining imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda ko‘plab yutuqlarga erishishadi va jannatmakon yurtimiz rivojlanishiga katta hissa qo‘shishadi.

Хашимов Ш. Ж. – СамДУ, Фуқаролик жамияти ва миллий ғоя кафедраси катта ўқитувчиси

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЧКИ ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ФУҚАРОЛАРГА МИЛЛИЙ ҒОЯ ВА МИЛЛИЙ МАФКУРАНИ СИНГДИРИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ

Аннотация: *В статье анализируется вопросы взаимосвязи национальной идеи и национальной идеологии с развитием внутреннего туризма в Узбекистане.*

Ключевые слова: *Национальный туризм, Закон “О Туризме”, Внутренний туризм, национальная идея, национальная идеология, духовная наследия, музеи, фестивали.*

Resumi: *The article systematically analyzes the relationship of the national idea and national ideology with the development of domestic tourism in Uzbekistan.*

Key words: *National tourism, the Law “On Tourism”, Domestic tourism, national idea, national ideology, spiritual heritage, museums, festivals.*

Ўзбекистон туризмни ривожлантириш бўйича жуда катта имкониятларга эга бўлиб, республикада 7,3 мингдан зиёд маданий мерос объектлари мавжуддир. Ушбу маданий мерос объектларидан 209 таси ЮНЕСКОнинг Бутунжаҳон мероси объектлари рўйхатига киритилган бўлиб, бундан ташқари Ўзбекистонда 11 та миллий боғ ва давлат қўриқхонаси, 12 та қўриқхона, 106 та музей ва сайёҳларни ўзига жалб қилиши мумкин бошқа кўплаб объектлар ҳам мавжуддир.

Бугунги кунда Ўзбекистонда мамлакатнинг туризм салоҳиятини тубдан янгилаш, туризм инфраструктурасини шакллантиришда ягона давлат сиёсатини амалга ошириш, халқимизнинг бой тарихий-маданий меросини кенг тарғиб қилиш, мамлакатимизда хавфсиз туризмни таъминлаш, миллий туризм маҳсулотларини халқаро туризм бозорига олиб чиқиш каби масалаларга катта эътибор қаратилмоқда. Ўзбекистонда туризм соҳасининг қонунчилик асосини мустаҳкамлаш масаласида Ўзбекистон Республикасининг “Туризм тўғрисида”ги қонуни янги таҳрирда 2019 йил 16 апрелда Қонунчилик палатаси томонидан қабул қилиниб, 2019 йил 21 июнда Сенат томонидан маъқулланди. 2019 йил 18 июлда Ўзбекистон Республикасининг ЎРҚ-549-сон Қонуни Президент Шавкат Мирзиёев томонидан имзоланиб, Қонуннинг кучга кириши у расмий эълон қилинган кундан эътиборан уч ой деб белгиланди. Қонуннинг 5-моддаси Туризмнинг шакллари ва турлари, деб номланиб, ушбу моддада туризм халқаро ва ички туризмга бўлиниши, халқаро туризм кириш ва чиқиш туризмларидан иборатлиги, ички туризм эса Ўзбекистон Республикасида доимий яшовчи шахсларнинг Ўзбекистон Республикаси ҳудудидаги саёҳатини ўз ичига олиши кўрсатиб ўтилган. Шу билан биргаликда ушбу моддада туризм ташкил этилаётган турнинг ўзига хослиги, мавзуси, давомийлиги, ҳаракатланиш усуллари ва турнинг бошқа хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда маданий-тарихий, зиёрат, экологик, маърифий, этнографик, гастрономик, ишбилармонлик, ижтимоий, спорт, тиббий, ёшлар туризми, агротуризм ҳамда туризмнинг бошқа турларига бўлиниши кўрсатиб ўтилган.

Ушбу масалага Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев томонидан алоҳида эътибор қаратилиб, Ҳозирги кунда миллий иқтисодиётга юқори даромад келтирадиган истиқболли тармоқлардан бири – бу миллий туризмдир, - дейди Президент Шавкат Мирзиёев, - Ўзбекистон туризм соҳасида улкан салоҳиятга эга бўлган давлат ҳисобланади. Юртимизда 7 минг 300 дан ортиқ маданий мерос объектлари мавжуд ва уларнинг аксарияти ЮНЕСКО рўйхатига киритилган. Шу билан бирга, мамлакатимизнинг

бетакрор табиати, гўзал дам олиш зоналари имкониятларидан фойдаланиб, янги туристик йўналишлар очиш мумкин. Бу соҳага жаҳон брендларини фаол жалб этган ҳолда, биз зиёрат туризми, экологик, маърифий, этнографик, гастрономик, туризм ва бу соҳанинг бошқа тармоқларини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратишимиз зарур. Бу борада давлат-хусусий шериклик муносабатларини қўллаш соҳани тараққий эттиришда кенг имкониятлар очишини ҳисобга олишимиз лозим. Самарқанд, Бухоро, Тошкент шаҳарларидаги муқаддас қадамжолар ва ёдгорликларни зиёрат қилишдан иборат бўлган "кичик хаж" дастурини ривожлантириш ва жадаллаштириш зарур. Ички туризм соҳасидаги катта имкониятларни ҳам тўлиқ ишга солиш лозим[140].

Ўзбекистон Республикасида туризмни, шу билан биргаликда ички туризмни ривожлантиришга оид бир неча президент фармонлари ва қарорлари қабул қилинган бўлиб, 2016 йил 2 декабрда Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг ПФ-4861-сон "Ўзбекистон Республикасининг туризм соҳасини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида", 2017 йил 5 декабрда ПФ-5273-сон ""Чорвоқ" эркин туристик зонасини ташкил этиш тўғрисида", 2018 йил 3 февралда ПФ-5326-сон "Ўзбекистон Республикаси туризм салоҳиятини ривожлантириш учун қулай шароитлар яратиш бўйича қўшимча ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида", 2019 йил 5 январда ПФ-5611 "Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармонлари қабул қилинди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 январдаги ПФ-5611 Фармонига илова сифатида "2019-2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш Концепцияси" келтирилиб, ушбу Концепцияга кўра Ўзбекистонда ички туристлар сонини 2019 йилдаги 15 млн 640 минг кишидан 2025 йилда 25 млн 10 минг кишига етказиш режалаштирилган. Концепцияга асосан республика ичида туризм хизматларига бўлган эҳтиёжни қондиришга қаратилган туризм фаолияти субъектларининг фаоллигини рағбатлантиришни таъминлайдиган ички туризмни ривожлантириш, туристик-экскурсион хизматлар истеъмолига аҳолининг кенг қатламларини жалб қилиш, ички туризм ҳаракатининг оммавийлигини қайта тиклаш, туризм хизматларини ишлаб чиқиш ҳамда мавсумий нотекислик оқибатларини юмшатишда кенг миқёсли таъсирдан фойдаланиш мақсадида "Ўзбекистон бўйлаб саёҳат қил!" Дастурининг амалга ошириш механизмини такомиллаштириш режалаштирилган. 2018 йил 7 февралда ПҚ – 3514-сон "Ички туризмни жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Президент Қарори эълон қилинди. Бу қарор Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 3 февралдаги ПФ-5326-сон "Ўзбекистон Республикаси туризм салоҳиятини ривожлантириш учун қулай шароитлар яратиш бўйича қўшимча ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида"ги Фармони ижросини таъминлаш, ҳудудларни барқарор ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим омилларидан бири сифатида ички туризмни жадал ривожлантириш, фуқароларни мамлакатимизнинг маданий-тарихий мероси ҳамда табиий бойликлари билан таништиришни кўзда тутади. Ушбу қарорга асосан жамиятдаги барча ижтимоий гурух ва қатламларни, таълим муассасалари ўқувчилари, ташкилотлар ходимлари, кам таъминланган оилалар фарзандлари, ногиронлиги бўлган шахслар, пенсионерлар ҳамда уруш ва меҳнат фахрийлари, фаол хотин-қизлар, маҳалла фаоллари ва ёш оилаларни "Ўзбекистон бўйлаб саёҳат қил!" ички туризмни ривожлантириш дастурига асосан саёҳатга жалб қилиш кўзда тутилган.

Ўзбекистон Республикасида ички туризмни ривожлантириш Ўзбекистон фуқаролари онги ва қалбига миллий ғоя ва миллий мафкурани сингдиришда муҳим ўрин тутади. Агар ғоя дунёдаги воқеа–ҳодисалар ва ҳаёт таъсирида инсон тафаккурида шаклланадиган, муайян мазмунга эга бўлган, бирор-бир маслакни акс эттириб, уни амалга оширишни тақозо этадиган, инсонлар ва халқларни уюштириб, муайян мақсадлар сари бошлайдиган ижтимоий

[140] Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир.2-жилд, Тошкент, Ўзбекистон, 2018 йил, 128-129 бетлар.

фикр бўлса, мафкура – ўзининг бош ва асосий ғоялари ҳамда тамойилларига таяниб, муайян ижтимоий гуруҳ ёки қатламнинг, миллат ёки давлатнинг эҳтиёжларини, мақсад, интилиш ва манфаатларини ифода этадиган, уларни амалга ошириш, эътиқод ва дунёқараш асосларини шакллантиришнинг усул ва воситалари тизимидир. Миллий ғоя миллатнинг ўтмиши, бугуни ва истиқболини ўзида мужассамлаштирган, унинг туб манфаатлари ва мақсадларини ифодалаб, тараққиётга хизмат қиладиган ижтимоий ғоя шаклидир. Миллий ғоя Ўзбекистонда яшовчи барча миллат ва элат вакилларининг туб манфаатларини, орзу-истакларини, олижаноб мақсад-муддаоларини ўзида мужассам этадиган ғоядир. Муайян халқнинг ўз олдига қўйган мақсадига эришиш йўллари ва воситалари тизими унинг миллий мафкурасининг асосини ташкил этади. Ўзбекистон халқининг миллий мафкураси жамиятимизни жипслаштиришга, давлатимиз фуқароларини Ватан равнақи, юрт тинчлиги, халқ фаровонлиги йўлида бирлаштирувчи, соғлом эътиқод ва дунёқараш билан яшашга даъват этувчи ғоялар тизимидир. Миллий ғоя ва мафкура жамият ҳаётида одамларни бирлаштиради, уюштиради, маълум бир мақсадга йўналтиради, ҳаракат дастури бўлади. Миллий ғоя ва мафкура Ўзбекистон фуқароларида миллий ўзликни англаш, тарихий хотирани тиклаш, миллий ғурур ва ифтиҳор туйғуларининг юксалишига хизмат қилади.

Ўзбекистонда ички туризмни ривожлантириш давлатимиз фуқароларининг ёшлик чоғларидан бошлаб Ўзбекистоннинг бой ва гўзал табиатини севишга ва асраб-авайлашга даъват этиб, уларда ватанпарварлик туйғусининг юксалишига хизмат қилади. Ўзбекистонда экотуризмнинг ривожланиши давлатимиз фуқароларида уларнинг ёшлик чоғларидан бошлаб ўсимлик ва ҳайвонот дунёси, флора ва фаунага нисбатан меҳр-шафқат билан муносабатда бўлишга ўргатса, экстремал туризм, спорт туризми уларнинг соғлигини мустаҳкамлашга хизмат қилади. Ўзбекистон ҳудудидаги қадимги меъморий обидалар, турли мақсадлар учун хизмат қилиб келган туристик объектлар, топилаётган осори-атиқалар халқимизнинг бой тарихга ва юксак маънавиятга эга эканлигини кўрсатиб, фуқароларимиз онги ва қалбида миллий ғурур ва ифтиҳор туйғуларининг юксалишига хизмат қилади. Ўзбекистондаги муқаддас қадамжолар зиёрат туризмининг ривожланишига хизмат қилса, бой тарихий маънавий мерос, қўлёзма асарлар, музейлар маърифий туризмнинг ривожланишига хизмат қилмоқда.

Хашимов Ш. Ж. - СамДУ, Фуқаролик жамияти ва миллий ғоя асослари кафедраси катта ўқитувчиси
Абдивоҳидов С.А - СамИСИ ижтимоий фанлар кафедраси ўқитувчиси

ЎЗБЕКИСТОНДА ТУРИСТИК КЛАСТЕРЛАР ВА УЛАРНИНГ ИЖТИМОИЙ-ФАЛСАФИЙ МАСАЛАЛАРИ

Аннотация: *В статье анализируется вопросы возникновения туристических кластеров, их взаимосвязь с другими сферами общественной жизни и системный подход к туристическому кластеру.*

Ключевые слова: *Национальный туризм, туристические кластеры, системный подход, инфраструктура туризма, кластер туризма и общественные институты.*

Resumi: *The article analyzes the emergence of tourism clusters, their relationship with other areas of public life and a systematic approach to the tourism cluster.*

Key words: *National tourism, tourism clusters, system approach, tourism infrastructure, tourism cluster and public institutions.*

Бугунги кунда Ўзбекистонда миллий туризмни ривожлантиришдан кўзланган асосий мақсад мамлакатимиз иқтисодиётини янада ривожлантириш, аҳоли турмуш даражасини юксалтиришдан иборатдир. Ўзбекистонда миллий туризмни ривожлантиришга, туризмга иқтисодиётнинг стратегик сектори мақомини беришга, туризм соҳасида ягона давлат сиёсатини ўтказишга катта эътибор қаратилмоқда. Ўзбекистонда туризм соҳасини жадал ривожлантириш борасида тизимли ишлар амалга оширилиб, соҳадаги бошқарув тизимини

такомиллаштириш, туристлар учун виза ва рўйхатга олиш тартиб-таомилларини соддалаштириш, янги туристик маршрутларни яратиш, туризм инфратузилмасининг жадал ривожланишини таъминлаш, соҳага хорижий инвестицияларни жалб этиш, туризмни ривожлантириш бўйича махсус иқтисодий зоналар ташкил этиш борасида кўпгина ишлар амалга оширилмоқда. Ўзбекистон минтақаларида туристик кластерларнинг шакллантирилиши туристик ресурслардан тўлиқ фойдаланиш замирида янги туристик фирмалар очилишига ва мавжудларининг ишини янада фаоллаштиришга туртки беради ва янги турдаги туристик маҳсулотларнинг яратилишига асос бўлади.

“Кластер” бир-бири билан узвий боғланган, ҳамда рақобатбардошлигининг ўсишига ўзаро кўмаклашувчи ташкилотлар уюшмаси бўлиб, “кластер” инглиз тилида “бир шингил”, “тўп”, “тўплам” деган маъноларни билдиради. “Кластер” тушунчасини биринчи бўлиб, фанга Гарвард бизнес мактаби профессори Майкл Портер киритган бўлиб, Портернинг фикрига кўра, “кластер – бу бир-бири билан рақобатлашувчи, лекин шу билан бирга бутун кластернинг рақобатбардошлигини таъминлаш мақсадида ўзаро ҳамкорликда фаолият юритувчи, географик жиҳатдан яқин жойлашган ташкилотларнинг ўзаро боғланган гуруҳлари, улар фаолиятига ихтисослашган хизмат кўрсатиш ташкилотлари, жиҳозлар етказиб берувчи ташкилотлар, уларга ҳамроҳ тармоқ ташкилотлари, шунингдек уларнинг фаолияти билан боғлиқ турли соҳа ташкилотлари (илмий-тадқиқот институтлари, ОЎЮлари, стандартлаштириш бўйича агентликлар, савдо уюшмалари ва ҳ.к.) ва бошқа бир қатор ташкилотлар гуруҳидир”[141].

Ўзбекистон Республикасининг ЎРҚ-549-сон янги таҳрирдаги “Туризм тўғрисида”ги Қонунининг 4-боби Туристик зоналар ва туристик кластерлар деб номланган. Қонуннинг 19-моддаси Туристик кластер, деб номланган бўлиб, ушбу моддага кўра, Комплекс туристик хизматлар ҳамда туристнинг ва экскурсантнинг эҳтиёжларини қаноатлантириш учун зарур бўлган бошқа қўшимча хизматлар кўрсатувчи мустақил ташкилотлар ҳамда якка тартибдаги тадбиркорлар мажмуи туристик кластердир. Туристик кластерлар комплекс туристик хизматлар кўрсатиш, туристик фаолиятнинг рақобатбардошлилиги ва сифатини ошириш мақсадида туристик маҳсулотни шакллантиради, тарғиб этади ва реализация қилади[142].

Охирги йилларда туризмдек муҳим соҳа комплекс раҳбарининг зарур даражадаги эътиборидан четда қолиб кетди, - дейди Президент Шавкат Мирзиёев, - Бу хатони сўзсиз ва энг муҳими, натижали равишда тўғрилаш керак. Биз ҳозир фақат туризмни ривожлантириш билан шуғулланадиган тузилмага доир масалаларни тасдиқладик. Бу чоралар туризмнинг Ўзбекистон иқтисодиёти ривожига қўшадиган ҳиссасини ошириш, тарихий ва маданий қадриятларимизни тарғиб қилиш, шунингдек, валюта захираларини тўлдириш бўйича аниқ чора-тадбирлар билан кучайтирилиши зарур[143].

Ўзбекистонда “кластерлар” бўйича республика миқёсида 44 та ҳудуд танлаб олиниб, туристик кластерлар ташкил этилмоқда. Туркиянинг IdealIST компанияси билан Хоразм, Наманган ва Сурхондарё вилоятларида туристик кластерлар ташкил қилиш бўйича шартномалар имзоланди. “Чорвоқ” эркин туристик зонасини ривожлантириш бўйича Франция ҳукуматининг 800 минг евро грант маблағлари ҳисобига мастер-режа ишлаб чиқилди. Индонезиянинг Sahid Group компанияси билан ҳамкорликда Имом ал-Бухорий комплекси атрофида 2019 йилда иккита меҳмонхона қуриш, Бухородаги “Модарихон” мадрасасини “Халол” стандарти бўйича меҳмонхонага айлантириш бўйича реставрация ишларини олиб бориш масаласида шартномалар имзоланди. Бўстонлиқ туманида “Амирсой” тоғ-чанғи комплекси барпо этилмоқда. Тошкент шаҳрида гольф-клуб ва “Гольф резорт” гольф-академияси қурилмоқда. Бухоро ва Хоразмда маданий мерос объектларини сақлаб қолиш, меҳмонхоналарни реконструкция қилиш ишларини маблағ билан таъминлаш масалаларида ҳамкорлик қилинмоқда. Ўзбекистоннинг Урганч, Тошкент шаҳарлари ва

[141] Портер М. Конкуренция. Пер. С англ. М.,Издательский дом «Вильямс», 2005, с. 256.
[142] Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. Туризм тўғрисида. 7/16/ Lex. uz. /docs/ 4428097
[143] Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд, Тошкент, Ўзбекистон, 2017 йил, 275 бет.

Фарғона вилоятида туризм ҳудудлари ташкил этилмоқда. Тошкент вилояти Бўстонлиқ туманида тоғ кластерлари босқичма-босқич ташкил этилмоқда. Ташкил этилаётган туризм ҳудудлари ва тоғ (тоғолди) туризм кластерларига чет эл сармоядорлари жалб қилиниб, янги меҳмонхоналар қуриш учун Ўзбекистонга етакчи меҳмонхона брендлари таклиф қилинади ҳамда мамлакатимиздаги меҳмонхона хўжаликлари улар бошқарувига топширилади. Андижон вилояти Хонобод шаҳрида дам олиш ҳудудлари, Жиззах вилояти Фориш ва Арнасой туманларида Айдар-Арнасой кўллари соҳилида бешта янги замонавий дам олиш ҳудудлари, Қашқадарё вилояти Шаҳрисабз ва Қарши шаҳарларида тўрт юлдузли меҳмонхоналар, Тошкент вилояти Бўстонлиқ тумани Чимён тоғ массивида меҳмонхона мажмуаси барпо этилади. Шунингдек, Навоий вилоятида Тўдакўлнинг жанубий соҳилида ички туризм ва Айдаркўл соҳилларида хорижлик туристлар учун пляжлар ташкил этилади[144]. Сўнгги йилларда туризм инфратузилмасини ривожлантириш бўйича йирик инвестиция лойиҳалари амалга оширилиб, Тошкент шаҳрида “Hyatt Regency Tashkent” ва “Lotte City Hotel Tashkent Palace” брендли меҳмонхоналар очилди, Андижон, Урганч ва Тошкент шаҳрида маданий-кўнгилочар боғлар ташкил этилди, “Ангрен-Поп” темир йўли очилди, Бухоро, Қарши, Шаҳрисабз ва Хива шаҳарларига тезюрар поездлар учун электрлаштирилган темир йўллари очилди.

Ўзбекистонда туристларнинг эҳтиёжлари ва талабларини инобатга олган ҳолда, мамлакатнинг барча ҳудудларида туризм инфратузилмаси ва ёндош инфратузилмани ривожлантириш, хусусан талабни инобатга олган ҳолда, янги жойлаштириш воситаларини қуриш ва мавжудларини реконструкция қилиш билан бир қаторда ёндош инфратузилмани (умумий овқатланиш объектлари, транспорт-логистика тузилмалари, кўнгилочар масканлар индустрияси, маданий ва спорт муассасалари, туристик намойиш объектлари ва бошқаларни) ривожлантиришга қаратилган туризм индустриясини ривожлантириш бўйича комплекс чора-тадбирларни ишлаб чиқиш, меҳмонхоналар ва бошқа туризм инфратузилмаси объектларини қуришга оид лойиҳаларни амалга ошириш механизмини соддалаштириш, тадбиркорларга ўз хизматларининг сифатини ошириш учун қўшимча шарт-шароитлар яратиш, шунингдек, жаҳонга машҳур меҳмонхона бизнеси брендларини Ўзбекистонга жалб қилишни рағбатлантириш, жойлаштириш воситаларини босқичма-босқич ривожлантириш, йирик, ўрта, кичик меҳмонхоналар ва хостелларни қуришни рағбатлантириш ҳамда мавжуд меҳмонхоналарни реконструкция ва модернизация қилишга алоҳида эътибор қаратиш, замонавий халқаро стандартларни ҳисобга олган ҳолда кўча инфратузилмасини (ўтиш йўллари, тротуарлар, кичик архитектура шакллари, санитар-гигиеник шохобчалар, жисмоний имконияти чекланган инсонлар учун ободонлаштириш элементлари ва бошқаларни) шу жумладан туризм-рекреацион марказларда яратиш, туризм навигациясининг ягона унификациялаштирилган тизимини жорий этиш ва ривожлантириш, кўчаларда, ҳудудларда, туризм намойиши объекти ҳисобланган бино ва иншоотлар ичида, транспорт воситалари ва тармоқларида ҳамда автомобиль йўлларида туризм навигациянинг унификациялаштирилган кўрсаткичларини ўрнатиш[145], масалаларига катта эътибор қаратилмоқда. Ушбу вазифаларни амалга ошириш Ўзбекистонда туризм кластерларини янада такомиллаштиришни талаб қилади.

Бугунги кунда Ўзбекистонда туризм янада ривожлантирилиб, туристик кластерлар ташкил этилишига катта эътибор қаратилаётган экан, мамлакатда туризмнинг барча турларининг тизимли фаолият кўрсатиши, маҳаллий ва хорижий туристларга сифатли хизмат кўрсатиш ва туристларнинг ушбу йўналишдаги эҳтиёжларини қондириш учун турли туристик объектлар, санаториялар, дам олиш муассасаларининг сонини ва уларнинг сифатини кўтариш масаласига катта эътибор қаратилмоқда. Ўзбекистоннинг барча туристик

[144] http:uz 24/ uz/society/ urganch-toshkent-shaharlari-va-farg’ona-viloyatida-turizm-hududlari-tashkil-etiladi.

[145]Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 январь ПФ-5611-сон “Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармонига 1-илова. 2019-2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш Концепцияси. 6-бет.
Lex. uz. / docs/ 4143188

ҳудудларида туристик, туристик рекреация кластерларини шакллантириш ва туристик мажмуаларни барпо этиш ҳамда уларни жаҳон талаблари даражасида баҳоланишини таъминлаш мамлакатимизда туризм инфраструктурасининг янада тараққий этишига, одамлар турмуш даражасининг ошишига, фуқаролар онги ва маданиятининг янада юксалишига олиб келади.

Ашурова З. Ш.- СамИСИ ўқитувчиси:
Садиқов О.Б. - СамИСИ ўқитувчиси:

ИСЛОҲОТЛАР РАҚОБАТБАРДОШ КАДРЛАРНИ ЕТИШТИРИШДА ТАЪЛИМ ТИЗИМИДАГИ СИФАТ ВА САМАРАДОРЛИК ГАРОВИДИР

Аннотация: *В данной статье отражены взгляды индустрии туризма на решение Президента нашего государства Ш.Мирзиёева «О дополнительных мерах по повышению качества образования и обеспечению их активного участия в масштабных реформах в стране».*

Ключевые слова: *высшее образование, национальная программа, стратегия действий, национальная программа подготовки кадров, конкурентоспособный персонал*

Annotation: *This article reflects the views of tourism industry on the decision of the President of our state, Sh.Mirziyoev, "On additional measures to improve the quality of education and ensure their active participation in large-scale reforms in the country."*

Keywords: *Higher Education, National Program, Strategy of Action, National Program of Personnel Training, Competitive Personnel*

Давлатимиз раҳбарининг 2018 йил 5 июндаги «Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислоҳотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» ги қарорнинг қабул қилиниши олий таълим тизимининг янада такомиллашувида муҳим аҳамият касб этмоқда.

Ўзбекистнда давлат мустақиллигига эришилганидан кейинги даврда таълимни ривожлантиришга йўналтирилган қатор ҳужжатлар қабул қилиниб, ҳаётга тадбиқ этилди.Ушбу ҳужжатлар ичида 1997 йилда қабул қилинган “Таълим тўғрисида”ги қонун ва Кадрлар тайёрлаш миллий дастури алоҳида аҳамият касб этади. Чунки ана шу ҳужатлар 15 йилга яқин вақт ичида таълим соҳасида дастурамал вазифасини бажариб келмоқда. Бунинг натижасида мамлакатимизтаълим тизими тубдан қайта қурилди. Бу ўринда айниқса Олий таълим тизимида катта ўзгаришлар юз берганлиги ва берилаётганлигини алоҳида таъкидлаб ўтишимиз зарур.

Бу борада Ўзбекистон Республикасида касбий таълим Миллий дастур асосида шундай даражага етиши керакки, бунда таълим мамлакатимизда ва хорижда фан техника,технология ҳамда иқтисодий соҳаларида бўлажак тараққиётини ҳисобга олган ҳолда рақобатбардош кадрларни янги авлодини истиқболга монанд вазифалар қўйиш ва уларни ечишга қодир, юқори савияда фикрлаш маданиятига эга сиёсий, ижтимоий ва илмий техникавий ахборотлар дунёсида мустақил ўз йўлини топа оладиган бўлиши керак.

Айниқса, кадрлар тайёрлашнинг замонавий таълим йўналишлари ва мутахассисликлари ҳамда сиртқи ва кечки бўлимларнинг очилиши, олий таълим муассасаларига қабул квоталарининг оширилиши мазкур йўналишдаги муҳим ислоҳотлардан бири саналади.

Ушбу қарор олий таълим тизимида ўқитишни ташкил этиш жараёни, таълим олаётган талабалар билимини баҳолаш тизими ҳамда профессор-ўқитувчиларнинг фаолиятини, билимини ва педагогик кўникмасини ошишида асос бўлиб хизмат қилаяпти. Жумладан, олий таълим муассасалари айни кунларда талабаларнинг инновацион ва технологик ғоялар билан фикр алмашадиган мулоқот марказига айлананиб улгурган. Шунингдек, олий даргоҳимизда профессор-ўқитувчилар, ёш олимлар ва талабаларнинг ташаббус кўрсатишлари учун зарур шарт-шароитлар етарлича яратилиб келинмоқда. Олий таълим муассасаларида таълим сифатини тубдан такомиллаштириш, уларнинг мамлакатда амалга

оширилаётган кенг қамровли ислоҳотларда фаол иштирокини таъминлаш, Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича "Ҳаракатлар стратегияси"да белгиланган вазифаларни изчил амалга ошириш мақсадида қатор ишлар амалга оширилмоқда. Асосий эътибор талабалар билимини назорат қилиш ва баҳолаш тизимига қаратилмоқда. Таълим йўналишларининг ўзига хос жиҳатларини инобатга олган ҳолда талабалар билимини баҳолашнинг замонавий, шаффоф ва адолатли бўлишига катта эътибор қаратилаётганлиги қувонарли ҳол албатта. Бундан ташқари, автоматлаштирилган, портфолио, тест синовлари, ижодий иш, антиплагиат каби усуллар жорий этилди. Бу борада олий таълим тизимида ўқитишни ташкил этиш жараёни ва таълим олаётган талабалар билимини баҳолаш тизими бугунги кунда айрим салбий ҳолатлар ўқитувчи талаба ўртасида муносабатлар баҳолаш тизимига тўсиқ бўлиб келиши ачинарли ҳол эди. 2018 йил Ўзбекистон Республиккаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирининг 820-сонли буйруғи юқоридаги ҳолатларга чек қўйишга муҳим ҳисобланди. Яъни, буйруқда 2018 -2019 ўқув йилида шунингдек, кейинги ўқув йилларида олий таълим муассасаларига ўқишга қабул қилинган талабаларнинг билимини назорат қилиш ҳамда баҳолашда қўлланилади. Олий таълим тизимидаги фанлардан талабаларни билмини баҳолашда адолатсизлик каби ҳолатар талабани сифатли таълим олишига, етук салоҳиятли кадрлар етиштиришда тўсқинлик қилар эди. Масалан, муайян фандан дарс берган педагогнинг якуний назорат жараёнларидаги иштирокини истисно этадиган тизим жорий этилди. Семестр якуни бўйича академик қарздор талабанинг қайта топшириши мумкин бўлган фанлар сонини белгилашга ва уларни топшириш муддатини ўзгартиришга имконият яратилаяпти. Эндиликда олий таълим муассасаларида "талабанинг ўзлаштириш даражаси – профессор-ўқитувчилар фаолиятини баҳолашнинг асосий мезони" тамойилини жорий қилишнинг аниқ механизмларини белгилаш бўйича тегишли чора-тадбирлар кўрилаётир. Бунда ушбу тамойил талабларига жавоб бермайдиган профессор-ўқитувчилар билан меҳнат шартномасини бекор қилишгача бўлган чоралар кўрилиши ҳам белгиланганлиги уларда янада масъулият юкини юклайди.

Бугунги кунда ҳар бир соҳа бўйича етек даражадаги кадрларни етиштириш тизиини янада такомиллаштириш бўйича бир қанча ишлар амалга оширилмоқда. Айниқса, туризм, иқтисодиёт соҳаларидаги рақобатбардош кадрларни етиштириш жараёнидаги амалга оширилган ишлар бугунги кунда амалий натижасини бермоқда.

Туризм фаолиятига "Туризм тўғриси"да ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни ва бошқа қонун талабларига мувофиқ туризмда рақобатбардош кадрларни тайёрлаш ва уларни амалиётга тадбиқ этиш орқали Ўзбекистонда туризмни янада ривожлантиришимиз мумкин. Айни пайтда туризм соҳасини янада ривожлантириш бўйича вилоятларда ташкил қилинган олий таълим муассасалари келгусида бу соҳа бўйича рақобатбардош кадрларни тайёрлаш ва мамлакатимизнинг узоқ ҳудудларида туристик зоналар ташкил қилишда тутган ўрнини оширишда хизмат қилиши керак.

Шунингдек, "устоз – шогирд" тизимини жорий этиш мақсадида ўқув юкламаларини ҳисобга олган ҳолда профессор-ўқитувчилар "вақт меъёрлари"нинг янги механизмларини ишлаб чиқилаяпти. Ҳозирда асосий эътибор ўқув машғулотларини талабаларни инновацион фикрлашга йўналтирадиган ўқитиш технологиялари ва интерфаол услубларни жорий этиш асосида ташкил этиш ҳамда талабаларнинг мустақил таълим олиши билан боғлиқ механизмларни амалга оширишга қаратилмоқда.

Imomov N. – SamISI o'qituvchisi
O'roqova M. – SamISI MXT-118 guruh talabasi

TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA MUHIM VAZIFALAR VA KADRLAR TAYYORLASH MASALALARI

Annotation: *The article outlines the main tasks for the development of tourism and the main objectives of national program of training cadres. In addition, the current legislation of the Republic of Uzbekistan is reflected in the article.*

Key Words: *Tourism, service, living standards, trade, national program of training cadres.*

Аннотация: *В статье изложены основные задачи развития туризма и основные задачи национальной программы подготовки кадров. Кроме того, в статье отражено действующее законодательство Республики Узбекистан.*

Ключевые слова: *туризм, сервис, уровень жизни, торговля, национальная программа подготовки кадров.*

Bugungi kunda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlardan ko‘zlangan pirovard maqsad mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, xalqimiz turmush farovonligini yuksaltirishga qaratilgan. Mamlakatimizda turizmning yangi istiqbollari ochilib, turli yo‘nalishlarda keng qamrovli loyihalar amalga oshirilmoqda. Xususan, keyingi yillarda alpinizm, otda, tuyada, velosipedda sayohat qilish, baliq ovi, rafting, xeliski, geoturizm, ta’lim turizmi, tibbiy turizm kabi yangi sayyohlik yo‘nalishlari ommalashmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 2-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni turizm tarmog‘ini jadal rivojlantirishni ta’minlash, turizmga iqtisodiyotning strategik sektori maqomini berish, mintaqalarda turizm salohiyatidan samarali foydalanishda muhim omil bo‘lmoqda.

Farmonda belgilab berilgan maqsadli vazifalar hamda ustuvor yo‘nalishlarni tashkil qilish va muvofiqlashtirish maqsadida O‘zbekston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tashkil etildi.

O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1992-yilgi “Ta’lim to’g’risida”gi qonun, 1997-yil 29-avgustda 463-son ostida qabul qilingan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ” kabilarni keltirishimiz mumkin. Buning samarasi sifatida yoshlarimizning barkamol shaxs bo’lib yetishishlarida iste’dod hamda iqtidorlarini ro’yobga chiqarishlarida ta’limning o’rni sezilarlidir.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning ustuvor yo’nalishlaridan biri- bu biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga aholi daromadlarini va ularning turmush darajasini oshirishga erishish hisoblanadi. Bu borada amaliyotga joriy qilinayotgan bir qancha qonunlarning ijrosi biznes va xususiy tadbirkorlikni oshirishga samarali ta’sir ko’rsatmoqda. Bu borada kadrlar tayyorlash milliy dasturining amalda tadbiq etilganligi bugungi kunning muhim vazifalarini o’zida mujassam etdi.Kadrlar tayyorlash milliy dasturi “Ta’lim to’g’risda”gi O’zbekiston Respublikasi Qonunning qoidalariga muvofiq tayyorlanganligi, milliy tajribaning tahlili va ta’lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida yetishib kelayotgan yosh avlodni yetuk kadrlar darajasiga ko’tarish vazifasi belgilab qo’yilgan.

Davlatimiz rahbarining 2016-yil 6-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 5-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmog‘i sifatida turizmni jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratish, hududlarning ulkan turizm salohiyatidan yanada to‘liq va samarali foydalanish, turizm tarmog‘ini boshqarishni tubdan takomillashtirish, milliy turizm mahsulotlarini yaratish va ularni jahon bozorida keng targ‘ib etish, turizm sohasida O‘zbekistonning ijobiy qiyofasini shakllantirish, sohaga investitsiyalarni faol jalb qilish, innovatsion g‘oya va texnologiyalarni joriy etish, mamlakatning madaniy-tarixiy merosi va tabiiy boyliklari targ‘ibotini yangi bosqichga ko‘tarish, yurtimizga kelayotgan turistlar oqimini ko‘paytirishda muhim dasturilamal bo‘lmoqda.

Ayniqsa, bugungi kunda turizm xizmatlari sohasining bir qancha yo’nalishlari, shu jumladan, aloqa, transport, qurilish, get tarjimonlik xizmatlari, va mehmonxona xizmatlari sohalarini misol sifatida keltirishimiz mumkin.

Turizm tarmog’ining ahamiyati va uning xalqaro, jumladan, hukumatlararo va shaxslararo munosabatlarga ta’siri doimiy ravishda o‘sib bormoqda. Turistik biznes har qanday davlat, viloyat, tumanning iqtisodiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Mamlakatimizda turizm faoliyatiga mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq, davlatning asosiy siyosati darajasida qaraldi. O‘zbekiston zamonaviy turizm industriyasini rivojlantirish uchun barcha zarur shart-sharoitlarga ega. Avvalambor, Buyuk Ipak

Yo‘li ustida joylashgan Vatanimizning qulay tabiiy-iqlim sharoitlari, boy tarixiy, madaniy merosi, qolaversa ham ichki, ham xalqaro munosabatlaring mehmondo’stlik, bag’rikenglik va birodarlik yo’sinda olib borilishi turizmning diyorimizda tez sur’atlarda rivojlanib borishi uchun zamin yaratadi. O‘zbekiston ham dunyo hamjamiyatiga qo‘shilar ekan, taraqqiyotning so‘nggi yutuqlarini o‘zlashtirishi va bu yutuqlarni turizm va mehmonxona xo‘jaligini rivojlantirishga safarbar etishi maqsadga muvofiqdir. Soha rivoji uchun barcha zarur tashkiliy – huquqiy mexanizm vujudga keltirilib, muhim me’yoriy hujjatlar qabul qilindi va bu ish hozirda ham davom ettirilmoqda. Mamlakatimizda turizmning ravnaqi, uni yangi pog‘onalarga ko‘tarish, yurtimizni jahon turizm markazlaridan biriga aylantirish uchun avvalo huquqiy zamin yaratildi. Turizm sohasi ham boshqa sohalar kabi kishilardan mehnatsevarlikni, fidoyilikni talab etadi.

"Raqobatbardoshlik" raqobatning natijaviy mahsuli bo'lib, iqtisodiyotning boshqa sohalariga qaraganda turizm sohasida tezda va qisqa muddatlarda yuzaga keladi. Shuning uchun, turizm sohasida kadrlarni tayyorlashda cho’chimaslik, ikkilanmaslik talab qilinadi, chunki birinchidan, turizm bozoridagi raqobat natijalari bo'yicha qisqa vaqtda bo’lajak rejaning maqsadi va vazifasini belgiab olish imkoniyatlari paydo bo'ladi. Ikkinchidan, turizmdagi xizmatlar sifatini iqtisodiyotning moddiy maxsulotlar ishlab chiqarish sohalariga tenglashtirganda qisqa vaqtda yaxshilash, oshirish mumkin. Shuningdek, yangi turistik xizmatlarning reklamasini ham tezlikda turizm bozoriga taklif qilish imkoniyatlari ham mavjud bo’ladi. Bozor iqtisodiyoti sub'yektlarining iqtisodiy muvaffaqtyati ularning qanchalik raqobat qonuni va uning ko'rinishlarini o'rganganlari, raqobat kurashiga tayyor ekanliklariga bog’liq bo’ladi. Xizmat ko'rsatish sohasining mamlakat ichki bozoridagi ulushining kamligi O'zbekistonning jahon iqtisodiyotida bosqichma-bosqich integrallashuvi xizmat ko'rsatishda raqobatbardoshlikni oshirish muammosining dolzarbligi muhim bo'lib qolmoqda. Aytish joizki, mehmonxona va restoran biznesi sayyohlikning eng ko'p daromad keltiradigan tarmoqlaridandir. Ularning sifatli xizmati, samimiy munosabati mijozlarning maroqli hordiq chiqarishi, muayyan muassasa, qolaversa, mamlakat obro'sining yuksalishiga xizmat qiladi. Shu o’rinda yurtboshimizning quyidagi fikrlarini eslab o’tish maqsadga muvofiqdir.

Turizmning davlatimizda rivojlanishi bu sohada faoliyat olib borayotgan kadrlarning madaniyati, ayniqsa, nutq madaniyati alohida ahamiyat kasb etishini ta’kidlab o’tish lozim. Odamlar o’rtasidagi munosabat qoidalarining asosini so’zlar, ovoz ohangi, bir-birlariga qarab boqish va imo-ishoralar tashkil qiladi. Ular maxsus adabiyotlarda insoniy munosabat vositalari yoki belgisi deb nomlanadi. Odamlarning bir-birlariga qarab boqishi, o’larning tanlab ishlatilishi va talaffuz qilish ohangiga qarab ular to’g’risida juda ham ko’p narsani bilib olish mumkin.

So’z munosabatga tushish vositalarining eng muhimi hisoblanadi. So’zlar orqali korxona xodimlari bir-birlariga jipslashadi, korxona, odamlar faoliyati boshqariladi, kerakli ma’lumotlar olinadi, xizmat ko’rsatish ishlari amalga oshiriladi. So’z orqali xodim bir-birlariga bo’lgan munosabatlarini, shodu-hurramliklarini, his-tuyg’ularini, fikr-takliflarini, yo’l-yo’riqlarini, dunyoqarashlarini va xatti-harakatlarini ifodalashadi.

Ta’lim tizimida chet tillarni o’qitish va uni amalda qo’llay olish muhim xususiyat kasb etmoqda.Yoshlarimizni jahon standartlariga mos ravishda bilim olishlari uchun ham chet tililarning o’rni beqiyosdir. Bugungi kunda turizmni rivojlantirish uchun chet tilini bilish muhim omillardan biridir. Bu borada 2012-yil 10-dekabrdagi “Chet tillarini o’qitish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 1875-sonli Qaror qabul qilinganligi yoshlarimizni, ayniqsa maktab o’quvchilarining ham chet tiliga bo’lgan qiziqish va bilim olishlari uchun muhim jarayon hisoblandi.Bunda nafaqat yoshlar balki, soha vakillari ham chet tilini o’rganishlari hamda pedagoglarning o’z ustida yanada ko’proq ishlashlari uchun ayni maqdasli vazifalardan biri bo’ldi.

Umuman olganda kadrlar tayyorlash faqat turizm sohasida emas iqtisodiyotning barcha sohalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Malakali kadrlar tayyorlashda mehnat bozori qonunlarining harakatlanishi ishchi kuchi sifatini yuqori darajaga ko’tarishga imkon beradi. Milliy iqtisodiyotimiz va uning ajralmas bir bo’lagi bo’lgan xizmat ko’rsatish sohasi dunyo miqyosida o’z o’rniga ega bo’lishi va rivojlanishi lozim. Shuning uchun ham iqtisodiyotdagi tarkibiy o’zgarishlarga mos malakali kadrlar tayyorlash iqtisodiy islohotlar sharoitining muhim muammolaridan biri hisoblanadi.

Iqtisodiy islohotlarni muvaffaqqiyatli olib borish ko'rsatgichlaridan biri aholini ish bilan bandligi hisoblanadi. Mamlakatimiz siyosati jamiyatimizning hozirgi rivojlanish darajasi fan, turizm, madaniyat bozor iqtisodiyotiga kirib borishi oliy ta'lim oldida turgan yangi masalalar faqatgina sifat jihatidan yangi mazmun texnalogiyadagi o'qitishni emas, balki turizm bozori iqtisodiyoti qonunlarini tushunadigan mataxassislarga bo'lgan talabni va ularni tayyorlash yo'nalishlariga yangicha yondashuvni ham talab qiladi. Turizmning har bir sohasini rivojlantirishdagi muvaffaqqiyatlar sifat o'lchamlari bilan hamda sifat jihatdan yangi ishchi kuchining mavjudligi bilan belgilanadi.

Turizm sohasi hozirgi kunda iqtisodiyotning muhim bo'g'inlaridan sanaladi. Bu sohaga katta e'tibor qaratilgani bois mazkur soha qator yillardan buyon o'sish tendensiyasiga ega bo'lib qolmoqda. Mamlakatimizda ko'rilayotgan chora tadbirlar ularga berilayotgan imkoniyat va imtiyozlar kelajakda ushbu sohani yanada jadal rivojlanishini ta'minlashi bilan birga xizmatlar sifatini oshishiga olib kelishi muqarrar. Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishning hozirgi va yaqin kelajakdagi ustuvor vazifalardan biri turizm xizmati sohasini rivojlantirishdan iboratligiga shubha yo'q. Chunki bu sohaga e'tibor bugun paydo bo'lgan emas. Shu tufayli mazkur sohaga ham matasilli e'tibor berilib kelingan. Shu yillar davomida bir qancha Davlat dasturlari ishlab chiqilib hayotga tadbiq etib kelinmoqda. Uzluksiz ta'lim ijodkor ijtimoiy faol ma'naviy boy shaxs shakllanishi malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda yetuk kadrlarni tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi etib belginalanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasida alohida yo'nalish sifatida ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga to'xtalib o'tilgan. Unda "Ta'lim va fan sohasini rovojlantirish" va "Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish "haqidagi bandlar mavjud. Bu esa malakali yetuk kadrlar tayorlashni yanada rivojlatirishda muhim ustuvor ahamiyat kasb etadi. Va malakali kadrlar tayyorlashda muhim amaliy vosita sifatida xizmat qiladi.

Yurtimizda yashovchi aholining deyarli 60% ini yoshlar tashkil qiladi. Bu esa O'zbekistonning kelajagi yoshlar qo'lida deganidir. Ularni malakali kadrlar qilib tayyorlash zamon talabiga aylanmoqda. Kelajakda bu yoshlar iqtisodiyotimizning har bir sohasi rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida ulkan taraqqiyot davrida malakali kadrlarga bo'lgan talab kun sayin oshib boraveradi. Bu esa kadrlar tayyorlashda takomillashgan yangi yangi usullar tizmlarni o'rganish va ularni hayotga tadbiq qilishni taqozo qiladi.

Bir so'z bilan aytganda, biz yoshlar bugunning mas'uliyatli avlodlari ekanmiz, o'qib-izlanish hamda yetuk darajadagi kadrlar bo'lib yetishish uchun tinmay o'zib-izlanish bizning oldimizda turgan mas'uliyatrli vazifalardan biri hisoblanib qolajak.

Рахмонов Ш.Ш. – "Ипак йўли" туризм халқаро университети магистранти,
Юсуфова З.А – СамДЧТИ "Хорижий тил ва адабиёти" йўналиши талабаси,
Тураева У.Р – "Ипак йўли" туризм халқаро университети магистранти

ВЕЛОТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АВСТРАЛИЯ ТАЖРИБАСИ

Annotation: *this article describes the development of cycle tourism in Australia which is one of the most popular cycle tourism center in the world, cycle trails in this territory and the meaning of "Cycle tourism strategy" of Western Australia.*

Key words: *cycle tourism, infrastructure, trail, strategy, cycle tourist*

Аннотация: *В этой статье описывается развитие велотуризма в Австралии, который является одним из самых популярных центров велотуризма в мире, вело-маршруты на этой территории и значение «Стратегия велотуризма» в Западной Австралии.*

Ключевые слова: *велотуризм, инфраструктура, маршрут, стратегия, велотурист*

Бутунжаҳон туризм ташкилотининг фикрига кўра, “Велотуризм – тез ўсиш суръатига эга бўлган саргузашт излаб саёҳат қилувчи туристлар учун мотив бўлиб, ҳудудга кам салбий таъсир кўрсатади ва юқори даромад келтиради”[146]. Бугунги кунда дунёда велотуризм учун юқори даражада инфратузилма шакллантирган ва кўплаб велотуристларни жалб қилиб келаётган мамлакат Австралия ҳисобланади.

Австралия жанубий ярим шарда жойлашган, ҳудудининг катталиги бўйича дунёда олтинчи ўринда турувчи давлат ҳисобланади. Мамлакат 6 та штат, 2 та ҳудуд (территория) ва майда ҳудудларга бўлинган.

Австралия курорт зоналари, пляжлари, Сидней шаҳридаги диққатга сазовор жойлари, қумли пляжлари ҳамда сёрфинг, дайвинг имкониятларининг яратилганлиги билан туристларни ўзига жалб қилади. 2018 йилда мамлакатга 9 миллион 246 минг нафар туристлар ташриф буюришган[147].

Австралияда актив туризм турларидан бири ҳисобланган велотуризм яхши ривожланган. Мавжуд маҳаллий туристик компаниялар ва ташқи бозордаги туристик фирмалар Австралия бўйлаб велотурларни ташкил қиладилар. Қуйидаги жадвалда Австралия бўйлаб велотуризм маршрутларини ишлаб чиққан маҳаллий ҳамда хорижий туристик компаниялар номлари ва тузилган маршрут давомийлиги келтирилган.

1-жадвал

Австралия бўйлаб велотуризм маршрутларини ишлаб чиққан маҳаллий ҳамда хорижий туристик компаниялар[148]

Маҳаллий туристик компаниялар	Тур давомийлиги
Back Pedal Tours	2-7 кун
Bandicoot Bicycle Tours	1 кун
Barossa Cycle Tours	8 кун
Bike About	3-5 кун
Boomerang Bicycle Tours	Ярим кундан-7 кунгача
Brake Out Cycling Tours	Ярим кун
Brindabella Bike Tours	Ярим кундан-3 ҳафтагача
Bushsports Guided Bicycle Tours	1 кун
Grapemobile Bicycle Hire and Tours	Ярим кун
Green Island Tours Tasmania	19 кун
Island Cycle Tours	Ярим кундан-10 кунгача
Outbike	10-30 кун
Pedal Oz	2 кун
Real Fun	1 кун
Remote Outback Cycle (ROC) Tours	4-32 кун
Terry's Cycling Adventures	4-15 кун
Wilderness Bike Ride Association	4 кун
Xterra Adventures	Ярим кундан-бир кунгача
Dan's Mountain Biking	Ярим кундан-бир кунгача
Mountain Bike Tours	Ярим кундан-бир кунгача
Bushranger Bikes Cycling Adventure Tours	Ярим кундан-бир кунгача
Хорижий туристик компаниялар	**Тур давомийлиги**

[146]United National World Tourism Organization (2013), Global Report on Adventure Tourism, AM Reports: Volume nine, UNWTO, Madrid, page 14

[147] UNWTO Tourism Highlights 2019 Edition, page 19

[148] Pam Faulks, Brent Ritchie and Martin Fluker, CYCLE TOURISM IN AUSTRALIA – an investigation into its size and scope, bibliography 2007, page 28.

Pedal Tours (Янги Зенландия)	3-18 кунгача
ExperiencePlus! Specialty Tours Inc. (АҚШ)	8-18 унгача

Мамлакатда велотуризмни ривожлантириш ва велотуристларни жалб қилиш мақсадида турли хил мусобақалар ва тадбирлар ўтказилади. Бундан тушган даромадлар Австралиянинг иқтисодиётига катта фойда келтиради.

2-жадвал

Австралиядаги велопойгалар, мусобақалар ва турли хил тадбирларда иштирок этувчи топ 20 та давлат фуқаролари[149]

№	Давлат	Иштирок этувчилар сони (2015/16/17 йиллар ўртачаси)
1	Буюк Британия	22 100
2	Хитой	7 400
3	Германия	6 000
4	АҚШ	6 000
5	Малайзия	5 600
6	Сингапур	5 600
7	Янги Зеландия	5 500
8	Франция	3 700
9	Япония	3 400
10	Гонг Конг	2 800
11	Канада	2 600
12	Скандинавия	2 500
13	Италия	2 400
14	Нидерландия	2 300
15	Швеция	2 200
16	Индонезия	2 100
17	Тайвань	2 000
18	Корея	1 900
19	Ҳиндистон	1 200
20	Таиланд	1 000
	Умумий	104 400

Велотуризм ривожланган Австралия штатларидан бири Ғарбий Австралия штати ҳисобланади. Ғарбий Австралия Те-Пиннаклс чўли, Ботаника боғи, “Тошли тўлқин” ёдгорлиги, Намбунг ва Кариджини миллий парклари, Хиллиер кўли, Пурнулулу саваннаси каби туристик ресурслари билан машҳур ҳисобланади.

Ғарбий Австралияда велосипеддан ниҳоятда кўп фойдаланилади. Статистик маълумотларга кўра, Ғарбий Австралияликлар Австралия аҳолисининг 10 фоизини ташкил этишларига қарамай, мамлакатдаги 14 фоиз велосипедлар Ғарбий Австралияликларга тўғри келади. Ғарбий Австралиядаги 1 200 000 кишида велосипед мавжуд ҳамда уларнинг 18,5 % ҳафта давомида велосипедлардан фаол фойдаланадилар. Штат аҳолисининг 85 % велосипеддан рекреация мақсадида, 35 % транспорт воситаси сифатида фойдаланадилар[150].

Ғарбий Австралия ўз ҳудудида велотуризмни ривожлантириш учун “Велотуризм стратегияси”ни ишлаб чиққан бўлиб, унинг мақсади ҳудудда велотуризмни стратегик

[149] Source: Tourism Research Australia, International Visitor Survey, Year Ending (YE) March 2017, page 7

[150] National Cycling Participation Survey 2017: Western Australia, Australian Bicycle Council, Austroads LTD, Sydney, page 15

ёндашувлар асосида ривожлантиришни белгилайди. Ғарбий Австралия "Велотуризм стратегия"си қуйидаги 4 та муҳим вазифаларнинг амалга оширилишини белгилайди.

1. Индустрияга инвестиция киритиш
2. Маркетинг тадқиқотлари
3. Турли хил тадбирлар ўтказиш
4. Туристда ўз саёҳатидан қониқиш ҳосил қилишга кўмаклашиш

Индустрияга инвестиция киритиш. Велотуризмнинг барқарор ривожланиши янги ва замонавий бошқарув моделларини қўллаш, туристик бозорнинг талаб ва эҳтиёжларини ўрганиб чиққан ҳолда амалга оширилиши белгиланган. Бу ўз таркибига мавжуд веломаршрут йўлларини таъмирлашга пул ажратиш, янги велотуризм маршрутларини қўллаб-қувватлаш, велотуризмни ривожлантириш йўлида давлат ва маҳаллий ҳокимият органлари орасида алоқаларни мустаҳкамлаш, велотуризмнинг иқтисодий фойдасини ўрганиб чиқиш ва бошқаларни ўз ичига олади.

Маркетинг тадқиқотлари. Велотуристлар сонини оширишда, ҳудуднинг туристик жозибадорлигини кўтаришда, ҳудудда рақобатбардошлик муҳитини шакллантиришда маркетинг тадқиқотлари муҳим ўрин эгаллайди. Мавжуд туристик бозорни ўрганиш, уни сегментларга ажратиш, ҳудуд учун ишлаб чиқилган веломаршрутларни кенг реклама қилиш, талаб ва таклифлар асосида янги туристик маршрутларни ишлаб чиқиш маркетинг тадқиқотларининг асосини ташкил этади.

Турли хил тадбирлар ўтказиш. Ҳудудда қанчалик кўп велоспорт мусобақалари ўтказилса, шунча кўп велотуристлар ташрифи амалга оширилади. Веломусобақалар велотуристлар эътиборини тортишнинг энг мақбул вариантларидан бири саналади. Ўтказиладиган тадбирларнинг 5 ва 10 йиллик календар режасини ишлаб чиқиш, хорижий туристларнинг қатнашиши учун етарли имкониятларни яратиш, тадбирларни халқаро миқёсда танитишга ҳаракат қилиш, маҳаллий ва ҳудудий веломаршрутлар ва веломусоьақалар дастурларини ишлаб чиқиш муҳим вазифалардан этиб белгиланган.

Туристга ўз саёҳатидан қониқиш ҳосил қилишига кўмаклашиш. Велотуристнинг ўз саёҳатидан қониқиши ҳудудда яратилган инфраструктура даражаси, йўл белгилар, маршрут хариталарининг аниқлиги, саёҳат давомидаги хавфсизлик, маршрутда жозибадорликнинг мавжудлиги, туристик ресурсларнинг ўзига хослиги ва табиий ҳолда сақланганлиги, онлайн гид хизматларининг мавжуд бўлиши, велосипедларни таъмирлаш хизматларининг яхши ташкиллаштирилганлиги ва бошқалар билан ўзаро боғланган.

Белгиланган вазифалар амалга оширилса, Ғарбий Австралия дунё велотуризм иштиёқмандларининг энг севимли нуқталаридан бири бўлиши белгиланган.

3-жадвал

2016-2017 йилларда Ғарбий Австралияда ўтказилган веломусобақалар ва тадбирлар[151]

№	Тадбир номи	Ўтказилган жой	Иштирок этганлар сони	Иқтисодий фойда
1	Busselton Ironman	Busselton	2 500	$10.06 млн.
2	Cape to Cape MTB	Margaret River Region	1 300	$2 млн.
3	Augusta Adventure Fest	Augusta	3576 (қатнашганлар) 6329 (томошабинлар)	$12 млн.
4	X Adventure	Dunsborough	1500 (қатнашганлар) 4000 (томошабинлар)	$5 млн.
5	The Gibb Challenge	Kimberley	3950	$1.2 млн.
6	UCI Gran Fendo	Perth	1500	$2 млн.

[151] Western Australian Cycle Tourism Strategy 2018, page 25

	World Championships (2016 only)			

Ғарбий Австралия маҳаллий ва хорижий велотуристларни жалб қилиш бўйича етакчи ўринларда туради. Статистик сўровномалар натижаларига кўра, штатга маҳаллий ва халқаро велотуристлар асосан дам олиш ва таътил ҳамда дўстлар ва қариндошларникига ташриф мақсадларида ташриф буюрадилар.

4-жадвал

Велотуристларнинг ҳудудга ташриф буюриш мақсадлари[152]

	Дам олиш ва таътил	**Дўстлар ва қариндошларникига ташриф**	**Бошқа**
Халқаро	57 %	40 %	22 %
Маҳаллий	69%	19 %	15 %

*Респондентларга бир нечта жавоб вариантлари белгилаш имконияти мавжудлиги сабаб, жавоблар умумий йиғиндиси 100 % дан ортиқ.

Хулоса қилиб айтганда, амалга оширилаётган вазифалар, кенг масштабдаги йирик велоспорт мусобақалари, тадбирлар, турли мураккаблик даражасидаги маршрутлар ҳудудда велотуризмнинг ривожланишига ўзининг катта ижобий таъсирини кўрсатмоқда.

Abdiqobilov Sh.X – SamISI talabasi
Eshquvvatova N.A.– SamISI talabasi
To'raqulova Q.I - SamISI talabasi

O'ZBEKISTONDA OILAVIY MEXMONXONALAR TASHKIL ETISH VA UNI YANADA RIVOJLANTRISH ISTIQBOLLARI

Abstract:*This article provides information about family hotels, which are currently popular among the tourism industry of the Republic of Uzbekistan. On the news, innovative ideas and suggestions for the implementation of this activity, the work done today for the development of the industry, the decisions and orders, the models used, the history of the industry, the problems and shortcomings in the industry reasoning.*

Keywords: *innovation, model, industry, material base, inventor, social formulation, room size, classification system.*

Аннотация: *В данной статье представлена информация о семейных отелях, которые в настоящее время популярны среди туристической индустрии Республики Узбекистан. О новостях, новаторских идеях и предложениях по реализации этой деятельности, о проделанной сегодня работе по развитию отрасли, решениях и заказах, используемых моделях, истории отрасли, проблемах и недостатках в отрасли ум.*

Ключевые слова: *инновация, модель, отрасль, материальная база, изобретатель, социальная формулировка, размер помещения, система классификации.*

So'ngi yillarda xizmat ko'rsatish sohalarida turizm industriyasi, davlatimiz iqtisodiyotida muhim o'rin egallab bormoqda. Uning izchil rivojlanishida joylashtirish xizmati ham takomillashib bormoqda. Mehmonxona xo'jaligi butun bir kompleks xizmatlarni o'z ichiga oladiki, bular yurtimizdagi tashqi va ichki turizmni rivojlanishda, davlatimizni turizm sohasini xalqaro turizm bozorida raqobatdoshligini oshirishda, aholini ish bilan ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan, hozirgi vaqtdagi turizmning jadal sur'atlarda rivojlanishi mehmonxonalar xo'jaligi

[152] Ўша ерда

rivojlanishining mo'ljali bo'lib,unga bog'liq vazifalarni bajarishda xizmat ko'rsatishning sifatini, ayniqsa mehmonxonalarda xizmat ko'rsatish sifatini yuqori darajaga ko'tarish zarur bo'ladi. Shuni ta'kidlash joizki, mehmonxona xo'jaligi insoniyat tarixidagi har qanday ijtmoiy formatsiyaga hos bo'lgan mehmonni hurmat qilish, uni qabul qilib olish va xizmat ko'rsatish tantanalari kabi eng qadimgi an'analardan kelib chiqadi.

Mehmondo'stlik industriyasi bu-mintaqa yoki turistik markaz xo'jaligining kuchli tizimidir va yuqorida ta'kidlaganimizdek turizm iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismidir.Mehmon qabul qilish indutriyasini guruhli va yakka joylashtrishning turli xildagi otellar, mehmonxonalar,motellar, yoshlarning xostel va yotoqxonalari, appartmentlar,turistik qishloqlar, shuningdek joylashtrishda ishtrok etuvchi xususiy sektor vositalari tashkil etadi.

Joylashtirishga mehmonxonalar, pansionlar, kempinglar fiotel, botel, flyatel kabi turlari mavjuddir. Ulardan biri bu mehmonxonalar mijozlar ehtiyojidan kelib chiqib har xil funksional vazifalarni bajaradi va ularga har xil talablar qo'yiladi. Bunday mehmonxonalarda mijozlar bilan ishlash, ular bo'ysunuvchi idoralar rahbariyati tomonidan tasdiqlangan mehmonxona xizmatlari ko'rsatish qoidalariga asosan tashkil etiladi. Ammo mazkur mehmonxonalarda amalqiluvchi qoidalarning birorta bandi ham O'zbekiston Respublikasining mehmonxona biznesini tashkil etish bo'yicha qonun hujjatlariga zid bo'lmasligi lozim. Funksional vazifasiga qarab mehmonxonalar:

- ishbilarmon uchun- umumiy tipda,idoraviy,yig'ilishlar, kengashlar va h.k lar uchun;
- dam olish uchun mehmonxonalar- turistik, kurort mehmonxonalari, avtoturistlar uchun, motellar, kempinglar;
- mehmonxonalarning maxsus turlari tranzit yo'lovchilar uchun va boshqalar uchun quriladi.

Mamlakatimizda asosan ma'lum ish yuzasidan nisbatan qisqa muddatga keluvchi odamlar shuningdek, har xil maqsadda syohat qilayotgan fuqorolarga mo'ljallangan umumiy tipdagi mehmonxonalar keng tarqalgan. Bunday mehmonxonalar asosan shaharning markaziy qismida, jamoat joylarida, ma'muriy, savdo markazlari yaqinida joylashadi va shaharning turli tumanlari bilan yaxshi transport aloqasi nazarda tutadi. Mazkur mehmonxonalar odatda maxsus ko'kalamzorlashtrilmagan nisbatan kichikina yer maydonlariga ega bo'ladi. Mehmonxonalarni turlarga ajratishda asosan uning nomerlari katta rol o'ynaydi. Mehmonxona nomerlari ko'p funksiyali ahamiyatga ega bo'lib, u mijozning tunashi, dam olishi, ovqatlanishi, yuvinishi, ishlashi, muloqot qilishini ta'minlaydi. Nomerda mehmonning shaxsiy buyumlari saqlanadi. Nomerlar o'rinlar soni, xonalar soni, maydoni, jihozlanishi, unga kiritilgan xizmatlarga qarab tasniflanadi. Jahon amalyotida bir yoki ikki kishiga mo'ljallangan bir xonali nomerlar keng tarqalgan. Ayrim mehmonxonalrning asosiy daromadining asosiy (60-100 %) foizini tashkil etadi bir xonali nomerlar. Nomerlarda mebel nomerining gabariti, devorlarning oralig'i, isitish xususiyatlari, texnologik ko'rsatkichlarga qarab joylashtriladi. Mehmonxona numerlari bo'yicha Apartment nomerli xonalar mehmonxona numerlarining 10% dan oshmaydi, ular xonalarining soni va vazifasiga, xojatxonasi va vannasiga, dahlizi va maydoniga ko'ra bo'ladi. Xodimlar uchun xonalarni joylashtrishda ish vaqtida xodimlarning harakatlanish yo'nalshi qisqartrish zarurligidan kelib chiqishi zarur. Sababi xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning ish joyidan uzoq bulsa, bu qo'shimcha quvvat sarfiga, xizmatish sifatini buzilishiga va ishchi xodimlarning tez charchab qolishiga olib keladi. Yana mehmonxona nomerlariga misol qilib: suit, twin va h,k larni olsak buladi.

2018-yilning 7-avgustida O'zbekiston respublikasi hududida oilaviy mehmonxonalar tashkil etishga doir,O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan "Oilaviy mehmon uylarni tashkil etish va faoliyatni yurutishni tartibga solish to'g'risida"gi qarori ishlab chiqildi va tadbiq etildi[153]. Qarorga muvofiq oilaviy mehmon uyi- mazkur mehmon uyida uy egasining oila a'zolari bilan birga yashash tamoyili bo'yicha bir vaqtning o'zida 10 nafargacha tashrif buyuruvchilarga(turistlarga) vaqtincha yashash (yoki) ovqatlanish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi xususiy uy- jodir. Bunda mazkur joy har bir yashovchi shaxsga 3x2 metr hisobidan to'gri keladigan turar joy maydoniga ega bo'lishi lozim. Oilaviy mehmon uyini tashkil etish uchun tegishli turar joyga ega bo'lgan shaxs oilaviy mehmon uylarni ro'yhatga olish va uning reyestriga kirish uchun ariza berishi

[153]Lex.uz – O'zbekistonRespublikasiQonunhujjatlarima'lumotlarmilliybazasi internet portal.

kerak. Mazkur reyestrTurizmni rivojlantrish davlat qo'mitasi tomonidan yuritiladi. Qo'mita hujjatlarni olgan kundan boshlab uch ish kuni hisobida ko'rib chiqadi hamda natijalar yuzasidan dalolatnomani rasmiylashtradi. Ushbu dalolatnoma asosida uylar yagona reyestr kiritiladi, reyesterga kiritilgandan so'ng tegishli xizmatlarni ko'rsatish lozim. Reyestrga kiritish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish va ko'chirma berish uchun to'lov undirlmaydi. Oilaviy mehmon uylar yagona reyesteriga kiritilgan tadbirkorlar buyurtmalariga binoan eng kam ish haqining 300 barobarigacha miqdorda, besh yil muddatga, shu jumladan ikki yillik imtiyozli davr bilan kreditlar ajratilishi mumkin.reyester online tarzida yuritiladi va Turizmni rivojlantrish qo'mitasi rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi. Reyester internet axborot tarmog'ida online rejimida yangilanib turadi. Oilaviy mehmon uyi xizmatlari yakka tartibdagi tadbirkor (YaTT)yoki oilaviy tadbirkor tomonidan ko'rsatiladi. Oilaviy mehmon uylari xizmatlarini ko'rsatishni sertifikatlashtrish tizimini soddalashtrish ko'zda tutilgan bo'lib, unga ko'ra oilaviy mehmon uyini o'rganish asosida tuzilgan bayonnoma asosida oilaviy mehmonxona uylarining yagona reyesteriga kiritiladi.

Tijoriy banklarga reyesterga kiritilgan mehmonxona uylari egalariga imtiyozli kreditlar ajratish tavsiya qilindi. Kredit hajmi besh yil muddatga, jumladan ikki yillik imtiyozli davr bilan Markaziy bankining qayta moliyalash stavkasidan oshmaydigan eng kam ish haqining 300 barobarigacha tashkil etadi. 2018- yilning 7-avgust kuni Vazirlar Mahkamasining "Oilaviy mehmonxonalar faoliyatin tashkil etish to'grisida"gi qarori qabul qilingach, 16-avgustda ana shu hujjat ijrosi bo'yicha Samarqand viloyat hokimining ham qarori chiqdi va oilaviy mehmon uylari faoliyati bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi[154]. Rejada 2019 yil oxiriga qadar Samarqand shahrida 45 ta mehmonxonalar tashkil etiladi. Bundan tashqari, birgina Imom Buxoriy majmuasida 30 ga yaqin mehmonxona qurish ko'zda tutilgan. Ammo sayyohlar soni o'sishi davom etmoqda. Ana shunday vaziyatda mehmonxonalarga bo'lgan talab va ehtiyojni qondirish, sayyohlarga o'zga xos xizmatlar taklif etish masalasiga yechim, ikkinchidan sayyohlar uchun mahalliy aholi urf odat bilan tanishish, kundalik yashash tarzini bevosita kuzatish imkonini beradi. Chunki oilaviy mehmonxonalarning asosiy xususiyatlaridan biri - uy egasining oila a'zolari bilan birga yashash tamoyilini o'rganishga imkon beradi. Shu yilning o'zida prezidentimiz tomonidan turizmni rivojantrshga doir 10 ga yaqin huquqiy hujjatlar qabul qilinib, sayyohlar oqimini oshirishga doir aniq ishlar amalga oshirilgach, turistlar soni salkam ikki barobar ko'paydi.

Mehmon uyini ochishni istagan kishi kirishimli, odamlarni yaxshi ko'radigan, mehmonlarga e'tibor qaratishni uddalaydigan bo'lishi lozim. Bu yerda hammasi sizning chet ellarga qilgan sayohatlaringiz tajribasi, sizda xorijdagi mehmonxonalar qanday ishlashi haqidagi tasavvuringiz bor-yo'qligiga ham bog'liq.Mehmonxonaga joylashgan turistlarning har biridan hamisha takliflarni oladigananketalar ishlab chiqib, ularga manzur bo'lgan jihatlar yoki kamchiliklarni, turistik mashrutlar bo'yicha fikrlarni olish ham lozim. Ularning fikrlaridan foydalangan holda turizm va mehmonxonalar faoliyatini takomillashtirib borish va shu orqali samaradorlikka erishish maqsadga muvofiq. Yana mehmonxona xo'jaligini rivojlantirish uchun marketing faoliyatini samarali tashkil etish va aniq amalga oshirish lozim. Asosiysi- O'zbekiston ruhini yo'qotmaslik. Mehmonlarimiz aynan oddiy o'zbek oilasi qanday yashashini his qilishni xoxlaydi. Shuning uchun hech narsadan nusha olishning hojati yo'q, aslimizcha qolishimiz lozim.

Turizm dunyo tamadduning bosh gultoji bo'lib, hozirgi kunda sayohat insoniyat maqsadlarining asosini tashkil qilib kelmoqda. Ayniqsa milliy turizmning rivojlantirish istiqbollari, O'zbekistonda turizm industriyasining jahon bozoridagi mavqeini oshirishga ko'maklashadi. Turizm nafaqat iqtisodiy, balki muhim ijtimoiy soha hamdir. Buning iqtisodiy samaradorligi bilan birga ma'naviy ruhiy va intellektual ahamiyati ham juda katta. Xususan, turizmni rivojlantirish evaziga o'z iqtisodiyotining yuksalishiga erishadi, davlat budjetidagi tushumlarning ko'payishini ta'minlaydi, tabiiy resurslarni asrab-avaylashga erishadi, xalqlararo aloqalarga erishadi, mamlakatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlashga harakat qiladi va valyuta tushumi ko'payadi. Turizmning mahalliy aholi uchun ham katta foydasi bor. Ular ish bilan ta'minlanadi, turli millat,

[154]Zarnews.uz – Zarafshongazetasirasmiy portal.

elat va xalq vakillari bilan muloqotda bo'ladilar va ularning turli an'ana va qadriyatlari bilan tanishadilar, doimiy daromad olib turish va mahsulotlarni sotish imkoniyatiga ega bo'ladilar

Сафарова Д. – СамИСИ талабаси
Салимова М. – СамИСИ талабаси
Хамидова С. – СамИСИ талабаси

ТУРИЗМ ҲУДУДИ БРЕНДИНИНГ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИ ВА УНИ БАРҚАРОР ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Аннотация: *В научной статье проведен сравнительный анализ национальных символов туризма 6 стран по методикам классификация по составу бренда, по качеству предложения составляющий слоган, стратегия регионального бренда и на основании результатов рейтинга национальных брендов.*

Ключевые слова: *дестинация, бренд, лого, слоган, онлайн имидж, цифровой спрос, устойчивая конкурентоспособность.*

Abstract: *The scientific article contains a comparative analysis of the national brands of 6 countries based on the methods as brand elements classification, the quality of the proposal constituent slogan, regional brand strategy and national brand ranking results.*

Key words: *destination, brand, logo, slogan, online image, digital demand, sustainable competiveness.*

2019 йил 6 январдан кучга кирган Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида" ПФ-5611 сонли фармони доирасида "2019-2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш концепцияси" қабул қилинган бўлиб, унга кўра "2019-2020 йилларда – туризмни ривожлантириш учун мустаҳкам қонунчилик базани яратишга қаратилган институционал ислоҳотлар, инфратузилмани модернизациялаш ва мамлакат брендини тарғиб қилиш" ҳамда "ягона миллий туризм брендини яратиш ҳамда унга асосан ҳар бир ҳудуднинг ўзига хос хусусиятидан келиб чиқиб, ҳудудларнинг туризм брендини яратиш" вазифаси белгиланган.

Google Travelerнинг ҳисоботларига қараганда, саёҳат жойини танлаш жараёнида 70% га яқин ҳордиқ чиқармоқчи бўлган инсонлар ишонарли маълумот манбаи сифатида Интернетга мурожаат қиладилар. Худди шу тадқиқот натижаларига қараганда 64% саёҳатчилар қидирув сайтлари орқали туристик ҳудудларни танлайдилар.[155]

Дунё миқёсида миллионлаб потенциал туристлар қидирув сайтларида кўрганларидан шунчалик илҳомланадиларки, натижада ўз саёҳат ҳудудларини унинг онлайн имижига таянган ҳолда танлайдилар.

Д. Ричардсон ва Д. Коен АҚШнинг шаҳар ва штатларининг имижини тадқиқ қилиб, ноёб тижорат таклифи концепциясига асосланган туристик ҳудуд слоганини шаклланишига қўйилган асосий талаблар иерархиясини ишлаб чиқиб: слоган таркибида таклиф бўлиши керак; таклиф бир ёки бир нечта позиция билан чекланиб қолиши керак; таклиф сайёҳларда қизиқиш уйғотиб, туристик ҳудуд устунликларини ифодалаши мақсадга мувофиқ; ва устунликлар ноёб бўлиб, туристик ҳудуднинг рақобатчиларга нисбатан дифференциация қилиш имконини бериши шарт, деган хулосага келадилар. [156]

Муаллиф томонидан мамлакат имижига талаб ва таклиф томонларидан ёндашиб, бозор ва истеъмолчи онгидан жой олиш жараёни илмий асосланган бўлиб, ушбу илмий мақолада ҳудудий брендларнинг рақобатбардошлигини баҳолашнинг бренд таркибига кўра тоифалаш,

[155] www.thinkwithgoogle.com
[156] Richardson, J., Cohen, J. State slogans: the case of the missing USP. Journal of Travel &Tourism Marketing. 1993. № 2(2/3). P. 91–109 (70)

слогандаги таклиф сифатига кўра баҳолаш усулларини қўллаш ҳамда халқаро рейтинг натижаларини қиёсий таҳлил қилиш услубиёти илмий асосланган.[157]

180 та мамлакат ҳудудий брендлари рейтингида Ўзбекистон киритилмаган бўлиб, агар маълум мамлакат туризмга оид статистик маълумотларини Жаҳон туризм ташкилотига (UNWTO) мунтазам тақдим этмаса ёки ишлаб турган Миллий туризмнинг расмий веб портали мавжуд бўлмаган тақдирда, Bloom Consulting халқаро ташкилоти бу мамлакатнинг рейтингини аниқламайди.

5 та қўшни давлатлар миллий туризм брендларини бренд таркибига кўра тоифалаш, слоганда қўлланилган иборадаги таклиф сифатини аниқлаш усуллари, ҳудуд бренди стратегияси ва миллий брендлар рейтинги натижалари бўйича ўзаро қиёсий таҳлил амалга оширилди. Ўзбекистон миллий брендининг рақобатбардошлигини барқарор ошириб бориш бўйича қуйидаги хулосалар қилинди ва таклифлар ишлаб чиқилди:

1.Туризмнит ривожлантириш давлат кўмитасининг веб сайти (uzbektourism.uz) орқали турли тилларда тарғиб қилинаётган слоган (Symbol of the magic East, Символ магического Востока, Сеҳрли Шарқ рамзи) Пайк С. услубиётига кўра ўрта сифатли ибора бўлиб, ўзида аниқ таклифни мужассамлаштирмасдан, Ўзбекистонга нисбаттан берилаган таърифга ўхшаб кетмоқда. Ваҳоланки, слоган давлатнинг таърифи шаклида эмас, балки потенциал ташриф буюрувчига бошқа ҳудудлар таклиф қилмаган креатив ваъда шаклида бўлиши мақсадга мувофиқ.

“Шарқ” сўзи потенциал туристни чалғитиб, географик жиҳатдан жуда кенг кўламни қамраб олувчи маънони беради. Яъни, миллий бренд слоганида қўлланилган “шарқ” сўзи потенциал ташриф буюрувчида Ўзбекистоннинг дунё харитасидаги ўрнини хаёлан тасаввур қилиш имконини бермайди. Фикримизча, мамлакатимиз слоганида “Ипак чорраҳаси” (Silk crossroad, Шелковый перекресток) иборасини қўллаш орқали Ўзбекистон Буюк ипак йўлининг асосий чорраҳалари жойлашган географик ҳудуд эканлигига ишора қилган бўламиз.

2. Ўзбекистонни дунё аҳолиси назарида “Буюк ипак йўлидаги чорраҳада жойлашган мамлакат ва у ерга саёҳат қилиш, ижодкорларга ижод, олимларга янги ғоялар, новаторларга ихтиролар, санъат аҳлига янги асарлар, депрессив ҳолатдаги инсонларда яшашга бўлган қизиқишнинг пайдо бўлишига олиб келишини” ваъда бериб, маърифат ўчоғи эканлигига ишора қилиш, тарғибот-ташвиқот ишларини айни шу стратегик бренд тегларига (#) асосланиб, комплекс амалга ошириш тавсия этилади.

Натижада, Ўзбекистон туризм ҳудуди (дестинация) сифатида дунё бозорлари ва аҳолиси онгида, ушбу мамлакатга саёҳатни амалга ошириш, “кишини илҳомлантиради, яшашга, ижод қилишга, яратишга, ихтиро этишга, бунёдкорликка куч ғайрат бағишлайди”, деган ақидани сингдириш эвазига “2019-2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш концепцияси” кўзда тутилган миллий бренд стратегиясига оид барча вазифаларни амалга ошириб, туризм рақобатбардошлигининг барқарорлигига эришишимизга ишончим комил.

Xamdamova M.A. – SamISI magistranti.
Norkulova D.Z. – SamISI katta o’qituvchisi, PHD

O’ZBEKISTONDA OILAVIY TURISTLARGA XIZMAT KO’RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISHDA INTERNETDAN SAMARALI FOYDALANISHNI TASHKIL ETISH YO’LLARI

Annotation: *The article is the third of five important initiatives of our President - the development of tourism through information and communication technologies, the popularity of leisure for the purpose of ensuring effective implementation of computer and Internet technologies*

[157] Ибрагимов Н.С., Рақобатбардош туристик ҳудуд бренди ва имижининг илмий асослари

among the population and youth. Suggestions and recommendations for ways to further enhance and improve the use of internet mobile apps for family tourists.

Key words: *5 Important Initiatives, Family Tourism, Information and Communication Technology, Mobile Apps, types of tourism, etc.*

Аннотация: *Статья является третьей из пяти важных инициатив нашего Президента - развитие туризма с помощью информационно-коммуникационных технологий, популярность досуга с целью обеспечения эффективного внедрения компьютерных и интернет-технологий среди населения и молодежи. Предложения и рекомендации по дальнейшему совершенствованию и улучшению использования мобильных интернет-приложений для семейных туристов..*

Ключевые слова: *5 важных инициатив, семейный туризм, информационно-коммуникационные технологии, мобильные приложения, виды туризма и др.*

Bugungi kunda turizm sohasi taraqqiyotini axborot va kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur etish qiyin. Sayyohlarni respublikamizga jalb etishdagi dastlabki qadamlar ularni mamlakatimizning turistik salohiyati to‘g‘risidagi axborot bilan tanishtirishdan boshlanadi, ayniqsa, keyingi yillarda ekologik turizm, ekstremal turizm, agroturizm, gastranomik turizm, oilaviy turizm, yoshlar turizmi va sohaning boshqa yo‘nalishlarining rivojlanishi turistlarni to‘laqonli axborot bilan ta’minlash ehtiyojining yanada oshishiga olib kelmoqda. Soha rivojida esa mobil ilovalarni yaratish turistlar oqimini ko’paytirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimiz aholisining 30 foizini 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan yigit-qizlar tashkil etadi. Ularning ta‘lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun keng sharoit yaratilgan. Shu bilan birga, yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishni tashkil etish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Yoshlar qanchalik ma‘naviy barkamol bo‘lsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shunchalik kuchli bo‘ladi. Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 19-mart kuni yoshlarga e‘tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san‘at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularga axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini singdirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma‘naviy-ma‘rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surdilar[158].

Bu tashabbusning uchinchisi – aholi va yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan bo’lib, ushbu yo’nalishning ijrosini ta'minlash maqsadida aholining dam olishga bo’lgan qiziqishini yanada kuchaytirish va oilaviy turistlar uchun internet mobil ilovalardan foydalanishni takomillashtirish, mamlakatimizda turizm turlarini keng ko’lamda rivojlantirishga yordam beradi

Mobil ilova – telefon, planshet yoki soat kabi mobil qurilmada ishlashga mo'ljallangan kompyuter dasturi yoki dasturiy ta'minoti hisoblanadi. Dastlab ilovalar elektron pochta, taqvim va aloqa ma'lumotlar bazasi kabi samaradorlikka yordam berish uchun mo'ljallangan edi, ammo ilovalarga bo'lgan ommaviy talab mobil o'yinlar, zavodni avtomatlashtirish, GPS va joylashuvga asoslangan xizmatlar, buyurtmalarni kuzatish va chipta sotish kabi boshqa sohalarda tez tarqalishga olib keldi. Ilovalar, odatda, App Store (iOS) yoki Google Play Store kabi mobil operatsion tizim egasi tomonidan boshqariladigan ilovalarni tarqatish platformalaridan yuklab olinadi. Ba'zi ilovalar bepul, boshqalari esa narxga ega bo'lib, foyda dastur yaratuvchisi va tarqatish platformasi o'rtasida taqsimlanadi.

Yurtimizda ham mobil sanoat jadallik bilan rivojlanmoqda. Internetdan foydalanuvchilar soni 12 milliondan oshdi, mobil qurilmalar, ayniqsa smartfon va planshetlar keng ommalashmoqda. Tabiiyki, O‘zbekistonda ishlab chiqilgan, o‘zbek tilidagi foydali, qiziqarli mobil ilovalarga bo‘lgan talab ham ortmoqda. Xususan, turizm maqsadida foydalaniladigan mobil ilovalar ham mavjud bo’lib, ularning bazilarini keltirib o’tmoqchimiz:

[158] https://darakchi.uz/oz/68103 *[chiqarilish sanasi: 20.03.2019, 17:57]; [manbaa olingan vaqt: 19.09.2019]*

Moy gorod – O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi hamda “Kartografiya” ilmiy-ishlab chiqarish davlat korxonasi bilan hamkorlikda “GISInfo” MChJ tomonidan taqdim etilgan mazkur elektron ma'lumotnomasi Toshkent shahri aholisi va mehmonlari uchun juda qulay mobil ilova hisoblanadi. Mobil ilovani bir marta yuklab olgandan so‘ng undan navbatdagi yangilanishlarga qadar bemalol offlayn foydalanish mumkin. Mobil ilovadan Toshkent shahri xaritasi, 12 mingdan ziyod tashkilotlar haqidagi ma'lumotlar kiritilgan katalog, “Gorod skidok” (“Chegirmalar shahri” hamkorlari, transport yo‘nalishlari (269ta) o‘rin olgan. Poytaxtning istalgan nuqtasidan boshqa xohlagan joyga boradigan transport yo‘nalishlarini topib beradi. Biror joy belgilansa, yaqin atrofda joylashgan tashkilotlar, bekatlar va boshqalar haqida ma'lumotlar, jumladan, tashkilotning yuridik manzili, telefon raqamlari, ish vaqtlari, u yerga boradigan transport turlari va yo‘nalishlari, mo‘ljal, to‘lov usullari va hokazolar paydo bo‘ladi.

UzDJ Bilet – O‘zbekiston temir yo‘llari aksiyadorlik jamiyatining mazkur mobil ilovasi trasnportning mazkur turidan foydalanuvchilar uchun katta qulaylik taqdim etdi. Ushbu dastur orqali yo‘lovchilar oldindan chiptalarga buyurtma berib, to‘lovni ham amalga oshirishlari mumkin. Mobil ilova rus va o‘zbek tillarida ishlab chiqilgan bo‘lib, onlayn rejimda ishlaydi. Mobil ilovaning bosh sahifasi orqali chiptalar, poyezdlar jadvali, kompaniya yangiliklari va ma'lumotlar bo‘limlariga o‘tish mumkin. Shuningdek, menyu yordamida kompaniya ma'lumotxonasiga qulay qo‘ng‘iroqni amalga oshirish, shaxsiy buyurtmalarni ko‘zdan kechirish mumkin. “Ma'lumotlar” bo‘limida turli foydali tavsiya va axborotlar qatorida elektron chiptalarni sotib olish qoidalari bilan tanishib chiqish mumkin[159].

Mamlakatimizda oilaviy turizm turlariga qiziqish yil sayin ommalashib borayotganligini inobatga olib, oilaviy turizmni amalga oshirishni xohlovchilar uchun Turizmni Rivojlantirish Davlat qo’mitasi hamda Samarqand Iqtisodiyot va Servis instituti “Xalqaro turizm va turizm servisi” kafedrasi yordamida “Oilaviy Sayohatlar uchun” (Travels for families)” deb nomlangan, oilalar uchun barcha ma’lumotlarni to’liq va aniq yoritib beradigan mobil ilova yaratishni taklif etgan bo’lar edik. Bu mobil ilova sayohatni oilaviy amalga oshirishni xohlovchi turistlar uchun barcha xizmatlarni taklif eta oladigan ovqatlanish korxonalari, joylatirish va transport vositalari, yangiliklar, chegirmalar, ko’ngil ochish joylari haqida ma’lumotlarni yetkazib beradi.

“Travels for families” deb nomlangan mobil ilovamiz online rejimda ishlab, ma’lumotlar tez-tez yangilanib turiladi va uning bosh sahifasida quyidagi ma’lumotlar jamlangan bo’ladi:

Joylashtirish vositalari turlari (Hotel&Resort) – bu bo’limda oilaviy turistlar istiqomat qilishi uchun mehmonxonalar ro’yxati joylashgan bo’lib, bu mehmonxonalar oilalar uchun barcha qulayliklarga ega bo’lishi zarur hisoblanadi. Xususan, maxsus nomerlar yoki kravatchalar, bolalar o’yin xonasi, bolalar aravachasi, o’yin maydonlari, sport xonalari, bolalarning ovqatlanishi uchun bolalar menyulari, vrach – pediatrlik xizmatlari, enaga xizmati, animatorlik xizmatlari, maxsus chegirmalar, ota-onalar dam olishi va rohatlanishi uchun ham barcha qulayliklarga ega bo’lmog’i zarur. Ular kurort-mehmonxona, rotel, botel, hotel kabi mehmonxona turlarini tanlashlari mumkin.

Transport vositalari turlari (Transport) – ushbu turizm turida transport vositalaridan foydalanishda qulaylik bo’lishi kerak. Tanlangan transport turida bolalar uchun maxsus o’rindiqchalar, yengil va qiziqarli taomlar, bolalarni zeriktirmaydigan maxsus texnikalar (bolalar eshitadigan musiqalar, multfilimlar, kinolar) va eng muhimi xavfsiz yoqilg’i vositalaridan foydalangan bo’lishi zarurdir. Ular: somalyot, vertolyot, poezd, suv transporti, avtomashina, rotel, velosiped kabi transport turlarini tanlashlari mumkin.

Ovqatlanish korxonalari turlari (Restuarant) – bu korxonalar bolalar uchun maxsus stol va stulchalar, bolalar menyusi, bolalar bo’tqalari, o’yin xonasi, farzandli ota - onalar tashrif buyurganda enagalik xizmati, dorixona xizmati, yolg’iz oilalar uchun maxsus kechalar uyushtira oladigan xizmatlarni taklif eta olishi kerak. Ular restoran, kafe, bar, kafeteriya kabi ovqatlantirish korxonalarini tanlashlari mumkin.

Ko’ngil ochar joylarning turlari (Activities) – bu bo’limda xiyobonlar, parklar, hayvonot bog’lari, muzeylar, delfinariyalar, plyajlar, tog’lar, o’rmonlar, aquaparklar, fermalar, art-muzeylar

[159] https://kun.uz/uz/132717 *[chiqarilish sanasi: 24.09.2017, 18:11]; [manbaa olingan vaqt: 10.10.2019]*

va h.k kabi ko’ngil ochar joylar ro’yxati va sport zallar, mashg’ulot o’tkaziladigan zallar, boshqa sport turlari bilan shug’ullanish mumkin bo’lgan barcha maskanlar manzillari joylashadi.

Sog’liq&Go’zallik (Health&Beauty) – bu bo’limda barcha go’zallik salonlari (ayollar&erkaklar uchun), SPA-sanatoriylar, sog’liqni tiklash maskanlari, klinikalar, shifoxonalar, poliklinikalar va h.k lar joylashadi.

Tabiat (Nature) bo’limida – oilaviy borish uchun barcha imkoniyatlari mavjud bo’lgan tog’lar, daryolar, ko’llar, dengizlar, plyajlar, sahrolar, cho’llar, milliy bog’lar, o’rmonlar, g’orlar, barcha tabiiy resursga ega bo’lgan maskanlar joylashadi.

Oilaviy turlar (Family Routine) – bu bo’limda turli xil qiziqarli oilaviy turlar mavsumga qarab yangilanib turiladi. Bu bo’limning ichida turli xil shaharlarning ro’yxati joylashadi va turistlar bu shaharlarni o’zlari xohlaganlarini tanlashadi.

Bronlash (Booking) bo’limida oilalar xohlagan turpaketlarini online, o’zlariga ma’qul narxlarda bron qilishlari mumkin bo’ladi.

Etc bo’limida shaharlarning turistik xaritalari, ijaraga mashina olish uchun kompaniyalar ro’yxatlari va h.k ma’lumotlar jamlanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, mobil ilovalar nafaqat turizm sohasi uchun balki, boshqa sohalar rivoji uchun ham juda muhim hisoblanadi. Sababi har bir insonda doimo yangi bir ehtiyoj mavjud bo’ladi, bugungi raqamli iqtisodiyot rivojlanayotgan yangi davrda ushbu ehtiyojlarni qondirishda tez va aniq ishlaydigan mobil ilovalardan foydalanish muhim hisoblanadi. Mobil ilovalar pul ishlash va daromad olish uchun katta imkoniyatdir. Ushbu imkoniyatdan to'liq foydalanish uchun mobil dasturlarni ishlab chiqaruvchi kompaniyalar tajribasidan foydalanish muhimdir. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusning uchinchisi aholi va yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan bo’lib, mobil ilovalarni yaratish va sohada qo’llash uchun katta imkoniyatdir. Davlatimiz rahbari tomonidan yosh avlodni tarbiyalash ishlariga bunday aniq va maqsadli yondashuv, tizimli va tartibli qat’iy munosabat barcha soha vakillarini, shuningdek, keng aholi qatlami, ayniqsa, yoshlarni yanada sergaklantirib, daxldorlik hissi va mas’ulligini oshirmoqda. Oliy hamda ezgu maqsadlar sari bir yoqadan bosh chiqarib, birgalikda harakat qilish, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash orqali yuqori natijalarga erishish, yurt taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishga undamoqda.

R.G‘. Suyunov – SamISI assistenti
I.O.Umarov – SamISI talabasi

O’ZBEKISTON MEHMONDORCHILIK BIZNESIDA XIZMAT KO’RSATISH MADANIYATINING O’RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Аннотация: *На сегодняшний день большое внимание уделяется повышению качества туристических услуг, предоставлению дополнительных услуг туристам и увеличению их разнообразия. и о принятии практических мер в этом направлении.*

Ключевые слова: *сервис, качество, навыки, инфраструктура, новости времени.*

Annotation: *To date, great attention is given to improving the quality of tourism services, providing additional services to tourists and increasing their variety. and about taking practical steps in this regard.*

Keywords: *service, quality, skills, infrastructure, time news.*

O’zbekiston haqli ravishda xorijiy turistlar uchun jozibali mamlakat hisoblanadi. Xitoyni Yevropa mamlakatlari bilan bog’lovchi Buyuk Ipak yo’li o’tgan shaharlarda o’rta asrlardan boshlab turli davrlarga taalluqli to’rt mingdan ziyod arxitektura yodgorliklari mavjud. O’zbekiston ko’plab xorijlik turistlarni jalb qilish uchun boshqa resurslarga ham ega: cho’l va qo’riqxonalar, tog’ cho’qqilari va daryolar, mineral suv buloqlari.

Hozirgi sharoitda respublikamizda o’z faoliyatini amalga oshirayotgan servis sohasi mutaxassislari xizmat ko’rsatishning barcha sir- asrorlari to’g’risida kasbiy bilim, malaka va ko’nikmaga ega bo’lishlari lozim. Jumladan, restoran mijozlariga xizmat ko’rsatishda, ofitsiant

mijozlar bilan muomala qilish malakasiga, etiket bilimiga, taom va ichimliklarni uzatish va yig'ish ko'nikmalariga ega bo'lmog'i shart. Xizmat ko'rsatish sifati ko'pchilik holatlarda xizmat ko'rsatish uslublariga bog'liq bo'ladi. Xizmat ko'rsatish uslublari korxonalar turlariga tegishli bo'ladi. Masalan, tez xizmat ko'rsatuvchi ommaviy ovqatlanish korxonalarida taomlarni tayyorlash va yetkazib berishning yuqori tezligi zarur bo'ladi. Kechqurungi va tungi mijozlarga xizmat ko'rsatuvchi restoranda esa taomlarni sekinlik bilan tortish, stolni bezash qoidalari(servirovka), etiket qoidalarini inobatga olgan holdagi yuqori sifatli xizmatlarni ko'rsatishni taqozo qiladi.

Shunday qilib xizmat ko'rsatish faoliyati qiyin va ko'p qirrali jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayon korxona xodimlarini va resurslarni yaxshi boshqarish, xizmat ko'rsatish madaniyatiga rioya qilish, ko'rsatilayotgan xizmatlarning iste'molchilar talablariga mos kelishi orqali ta'minlanadi.

Buyuk Ipak yo'li bo'yida joylashgan boshqa davlatlar bilan taqqoslanganda, O'zbekistonning alohida jihatlari mavjud:

- o'lkaning boy va qiziqarli tarixi, ko'plab arxitektura yodgorliklarining mavjudligi;
- mehmondo'st o'zbek xalqi;
- ajoyib tabiiy imkoniyatlar, tog' landshaftlari va sahrolar, boy flora va fauna;
- nisbatan yaxshi yo'llar infrastrukturasi va mamlakat ichidagi transport aloqasi ko'zga tashlanadi.

Faqat O'zbekistonga xos bo'lgan yutuqli tomonlar quyidagilar:

- O'zbekistonning Yevropa va Osiyo yo'llari chorrahasidagi strategik qulay o'rni;
- yaxshi xalqaro havo aloqasi va «O'zbekiston havo yo'llari» MAK xizmat ko'rsatishining nisbatan yuqori darajasi;
- Buxoro, Samarqand, Xivadagi yaxshi saqlangan arxitektura yodgorliklari, bu shaharlarning dunyodagi eng muhim tarixiy-madaniy yodgorliklar ro'yxatiga kiritilishi;
- Buxoro va Samarqandning xorijiy mehmonlarga ma'lumligi;
- O'zbekiston Saudiya Arabistoni, Isroil va Rossiyaning ko'plab fuqarolarining tarixiy vatani hisoblanishi;
- bu yerda buddizm va islomning muhim muqaddas joylari saqlanib qolganligi.

Yuqoridagilarning rivojlanishiga yetarli e'tibor qilinsa, 0'zbekiston turizm sanoatida tez o'sishga erishishi mumkin.

Hududiy jihatdan turizm resurslari infratuzilmadan iborat bo'lib, o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- O'zbekistonda iqtisodiy o'sish zaxiralarining mavjudligi;
- dam olish, ekskursiya va sayr-tomosha maqsadlarida tabiiy resurslar (daryo, ko'l, tog' g'orlari, landshaftlar)dan foydalanish;
- ma'danli suvlarning yer osti, shifobaxsh manbalaridan (ular 300 dan ortiq bo'lib, faqat 121 tasi harakatda) foydalanish;
- sayyohlarni o'ziga jalb qiladigan tarixiy-madaniy markazlarni qayta tiklash. Ularning soni 2600 dan ko'p bo'lib, hozirgi kunda turistlarni qabul qilishda foydalaniladigani faqat 150 atrofida, qolganlari foydalanish uchun qo'shimcha mablag'larni talab qiladi;
- butun dunyodan ziyoratchilarni jalb qilish uchun diniy obyektlarni qayta tiklash. Ularning 280 dan ortig'i hisobga olingan bo'lib, hozirgi kunda faqat 30 ga yaqin obyekt foydalaniladi. Qolganlari qayta tiklashga muhtoj;[1]

Turizm bo'yicha iqtisodiy o'sishga erishish maqsadida chet ellik sayyohlar o'rtasida yuqori talabga ega bo'lgan milliy turistik mahsulotlarning yangi turlarini yaratish, sayyohlarga servis xizmati ko'rsatish madaniyati va sifatini jahon standartlari darajasiga ko'tarish, qo'shimcha turistik xo'jaliklarni bunyod qilish va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash zarur. Buning uchun istiqbolda quyidagi eng muhim iqtisodiy vazifalarni hal qilish maqsadga muvofiqdir:

- ichki va xalqaro turizm rivojlanishining hozirgi holatini baholash;
- milliy turizmni rivojlantirishning mavjud moddiy-texnika bazasi va infratuzilmasi holatini tahlil qilish;

- turistik mahsulotlarga talab va taklifni tartibga solishga yo‘naltirilgan marketing tadbirlarini ishlab chiqish;

- milliy turizm sohasining mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojini aniqlash hamda mahalliy kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash;

- milliy turizmning mehmonxona, restoran va xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar kabi har xil sohalariga yo‘naltiriladigan investitsiyalar bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish;

- ichki va xalqaro turizmni rivojlantirishning miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlarining iqtisodiy asoslangan prognozlarini ishlab chiqish. Bu strategik vazifalarni ro'yobga chiqarish yangi milliy turistik mahsulotlarni yaratish va O‘zbekistonning xalqaro turizm bozoriga integratsiyalashuviga imkon beradi.

Hozirgi paytda O’zbekistonda xorijdan kelayotgan sayyohlar soni yildan – yilga ortib bormoqda, bu esa turizmning istiqboli porloq ekanligini tasdiqlaydi. Yurtimizda hozirda turistlar ko’radigan joylar soni va dunyo miqyosidagi ularga bo’lgan talab bilan birinchi 10 ta davlat qatoriga kiradi. Respublikadagi 11 ta shahar dunyo miqyosida turistik shaharlar deb e’tirof etilgan. Bu shaharlarda turizmni rivojlantirish uchun barcha shart – sharoitlar yetarli. Masalan, mamlakatimizda jami 7198 ta madaniy meros obyektlari bo’lib, ulardan 3843 tasi arxeologik, 88 ta muzeylar mavjud bo’lib, ulardan 32 tasi tarixiy, 16 tasi o’lkashunoslik, 2 tasi tabiiy – ilmiy, 7 tasi adabiyot, 6 tasi adabiy monumental, 14 tasi monumental, 11 tasi uy- muzeylaridir.[2]

Manbalarga murojaat etilsa, butun dunyo olimlari, sayyohlari azaldan bizning yurtimizni o’rganishgan, o’rnak olishgan va o’z xotiralarida yozib qoldirishgan.

Shulardan kelib chiqqan holda, quyidagi takliflarni ishlab chiqdim:

- turistik xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, ularning manfaatlarini himoya qilish. Mehmonxona va restoran boshqaruvchilari turistlarga sifatli xizmat ko’rsatishda malakali xodimlar tanlash naqadar muhim ekanligini yaxshi tushunishlari lozim. Xodimlarning mehmonxona va restoran sohasidagi bilimlarini kuchaytirish turizm infratuzilmasini rivojlantirishda, yangi mehmonxona va restoranlar paydo bo’lgani sayin juda muhim ahamiyatga ega bo’lib boraveradi;
- xorij tajribasidan kelib chiqgan holda, yangidan - yangi xizmat turlarini ko’paytirish, jumladan, mehmondo’stlik industriyasida faoliyat ko’rsatuvchi korxonalarda xizmat ko’rsatishni animatsiyalash lozim. Bunga turistlar va ekskursantlami "tirilgan" tarixiy personajlar kutib oladigan animatsion shou-muzeylar yoki kechasi mehmonxonada turistlar ishtirokida shoular; animatsion sport o‘yinlari va musobaqalarini, raqs kechalarini, karnaval, o’yin, ma‘naviy qiziqishlar sohasiga kiruvchi mashg‘ulotlarni o‘z ichiga oladigan animatsion dasturlar kiradi;

a) mehmondo’stlik indutriyasida faoliyat yurituvchi korxonalar samaradorligini ta’minlash va faoliyatini rivojlantirish uchun marketing tadqiqotlarini har doim uzluksiz olib borish; bunda ham turistik firma, ham ovqatlanish, dam olish, tunash va boshqa xizmatlarni taklif qiluvchi obyektlar manfaatdor. Ko’pincha amaliyotda marketing tadqiqotlari muammo keskin yechim topishni talab qilgan vaziyatda tashkil qilinadi. Mana shu yo’l qo’yiladigan xato sohadagi barcha korxonalar (mehmonxona, restoran va hokazo) ning faoliyat samaradorligiga salbiy ta’sir ko’rsatadi;

b) sohada faoliyat ko’rsatuvchi xodimlar uchun master – klasslar tashkil qilish va bu master – klasslarga sohada katta tajribaga ega bo’lgan shaxslar, psixologlar, madaniyatshunos olimlar jalb etilishi lozim. Bu master – klasslarda ishni qanday yuritish, xodimlarni qanday tanlash va ular bilan qanday ishlash kerakligi, ularda xizmat ko’rsatish madaniyatini qanday shakllantirish kerakligi, korxonada mehmondo’stlik muhitini qanday yaratish lozimligi va shunga o’xshash ko’plab muhim ko’nikmalar shakllantiriladi;

d) chet davlarda har yili bo’lib o’tadigan xalqaro turistik yarmarka va ko’rgazmalarda ishtirok etish uchun sohadagi korxonalar o’rtasida tanlov asosida xodimlarni yuborish. Mehmondo’stlik sanoati korxonalari faoliyatining xorij tajribasini o’rganish, shubhasiz, mehmonlarga xizmat ko’rsatish sifatini yaxshilashda katta rol o’ynaydi. Xizmatchilar mehmonlar tomonidan zamonaviy xizmat darajasiga qanday talab qo’yilishi haqida tasavvurga ega bo’lmasa, ulardan mijozlarga yuqori darajada xizmat ko’rsatishlarini talab qilish juda qiyin;

e) turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash holatini chuqur o'rganish va uning natijalari asosida soha bo'yicha ta'lim yo'nalishlariga o'zgartirishlar kiritish uchun takliflar berish;

f) turistlar uchun qiziqarli ko'ngilochar joylar, mintaqalar va manzillar ochish bo'yicha assotsiatsiyaga birlashgan korxonalar mutaxassislari bilan birgalikda ish olib borish va shu orqali yangi segmentdagi sayyohlarni qabul qilishga erishish.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, xizmat ko'rsatish sohasida xizmatlar sifatini yaxshilash, bu sohada malakali kadrlar tayyorlash va ularning malakasini muntazam oshirib borish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda. Bu borada amaliy chora-tadbirlarni qo'llash, sohaga innovatsion muhitni olib kirish va qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish, mamlakatimiz iqtisodiyotida turizmning ulushi nafaqat barqaror bo'lishini, balki, yildan-yilga ko'payishini ham ta'minlaydi.

R.G'. Suyunov – SamISI assistenti

INNOVATSION JARAYONLARNING IQTISODIY MOHIYATI

Аннотация: *В данной статье обобщается влияние инноваций на организационные показатели, цель технологических инноваций и анализ отраслевых инноваций. Есть также примеры международного опыта.*

Ключевые слова: *технология, инновация, инвестиции, инноватор, инноватор, ВСИОМ.*

Annotation: *This article summarizes the impact of innovation on organizational performance, the purpose of technological innovation, and the analysis of industry innovation. There are also examples of international experience.*

Keywords: *technology, innovation, investment, innovator, innovator, VSIOM.*

Ma'lumki, har qanday korxona yoki firmaning asosiy maqsadi daromad bo'lib, u korxona faoliyatining asosiy ko'rsatkichidir. Daromad tashkilotning butun faoliyati qanchalik samarali bo'layotganini belgilaydi. Daromadning oshishi firmaning imkoniyatlarini kengayishini, faoliyatni rivojlantirish uchun shaxsiy kapitalni yaratishni, hamda muammolarga keng miqyosda yechim topishni anglatadi.

Daromad ishlab chiqarishga kapital investitsiyalarni kiritadi va shu bilan faoliyatning yangilanishi va kengayishiga imkon yaratadi. Natijada, innovatsiyalarni joriy etishga va uning ilmiy-texnik rivojlanishi uchun moliyaviy faoliyatini amalga oshirishga imkon beradi. Innovatsiyalar har qanday faoliyatning samaradorligini oshiradi, hamda qo'shimcha qulayliklar yaratadi. Bu esa, oz navbatida innovatsiyalarning ahamiyatini yanada oshiradi.

Turizm sohasining rivojlanishida ham innovatsiyalarning o'rni beqiyosdir. Ushbu sohani muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun innovatsion rivojlanishning mohiyatini va tabiatini to'g'ri baholash muhim hisoblanadi. Mamlakatning sayyohlik industriyasini innovatsion rivojlantirish masalasining o'ziga xos jihati shundaki, innovatsion jarayonlarning mohiyatini nazariy asoslash turizm sohasining amaldagi imkoniyatlarini baholashning birinchi qadamidir.

Bugungi kunda iqtisodiy adabiyotlarda va qonunchilik me'yoriy-huquqiy bazasida innovatsion faoliyat sohasi terminlarining turli talqinlari mavjud. "Известий" nashriyotining ilmiy kuzatuvchisi S.Leskovning so'zlariga ko'ra, "Odamlar innoovatsiyalar haqida futboldan ko'ra ko'proq gapirishadi, ammo har kim uni o'zicha tushunadi"[160]. Haqiqattan ham ВЦИОМ (Всероссийский центр изучения общественного мнения) tomonidan o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnoma natijalariga ko'ra, Rossiyada 47% aholi bu terminni turlicha izohlaydi va 53% aholi esa, bu termin qanday ma``noni anglatishini umuman bilmaydi[161]

[160] Мазуренко С. Инновации – это симбиоз государственной политики и рыночных отношений // Известия.2008. №12. С.12-13.

[161] www.wciom.ru - Всероссийский центр изучения общественного мнения.

XX asrning boshlarida avstriyalik iqtisodchi Shumpeter tomonidan ishlab chiqarishni yangilash jarayonlari, yangi tovarlar, yangi texnik va boshqaruv qarorlarining ta'siri bo'yicha jiddiy tadqiqotlar o'tkazildi.. U birinchi marta "innovatsiya" tushunchasini iqtisodiyot nazariyasiga kiritdi. U o'zining "Ijodiy faoliyat, innovatsiya-effekt" nomli ilmiy ishida innovatsiyalarni "yangi mahsulotni kiritish uchun amalga oshirilgan har qanday o'zgarish..." - deb ta'riflaydi.

Shumpeter konsepsiyalari boshqa g'arb mutaxassislari tomonidan rivojlantirilgan. Xususan, Amerikaning yetakchi olimi P. Druker "Innovatsiya va tadbirkorlik" kitobida:. "Innovatsiya - deydi u; tadbirkorlarning maxsus vositasi bo'lib, u o'zgarishlarni yangi turdagi biznes yoki xizmatni joriy qilish imkoniyati sifatida ishlatiladigan vositadir".

Oksford iqtisodiy lug'atida "innovatsiyalar" tushunchasi quyidagicha ta'riflangan: "mahsulotni loyihalash, ishlab chiqarish yoki sotish uchun yangi yondashuvga ega bo'lgan innovator yoki uning kompaniyasining raqobatchilardan ustunligi".

S.N. Mazurenko (Innovatsiyalar bo'yicha federal agentlik rahbari) innovatsiya "yangi texnologiyalarni ishlab chiqishni nazarda tutadi va buning natijasida bozorda raqobatbardosh yangi mahsulotni yaratishni o'z ichiga oladi" - deb hisoblaydi.

Aslida, xuddi shu fikr (lekin yanada aniqroq shaklda) M. A. Fedotov va A. M. Kamalovning ishlarida ham keltirib o'tiladi. Unga ko'ra: "Innovatsiyalarda bozorda inqilobni amalga oshirishga qaratilgan yangi texnologiyalar va mahsulotlar yaratiladi".[162]

Zamonaviy adabiyotlarda "innovatsiya" atamasini izohlashda uchta asosiy yondashuv mavjud:

Birinchi yondashuv. Bu atama ma'lum bir jarayonni anglatadi. S.N. Ma-Zurenko shunday deydi: "Innovatsiya uch bosqichli jarayondir...". Shunga yaqinroq ta'rif Iqtisodiyotning katta lug'atida keltirib o'tilgan bo'lib, unga ko'ra, "kompaniyaning moliyaviy resurslari samaradorligini oshirishga imkon beruvchi usullar" - deb .

Ikkinchi yondashuv. Bu atama faqat ma'lum bir jarayonning natijasini bildiradi. Misol uchun, "innovatsiya" atamasiga o'xshash boshqa bir atama – "novatsiya" (lot. novatio - yangilanish, o'zgarish) ma'lum bir jarayonga kiritilgan yangilikni bildiradi. Shunday qilib innovatsiyalarni yaratuvchi shaxs rus lug'atida "innovator" emas, "novator" (lot. novator – yangilovchi, ya'ni ma'lum bir faoliyat turiga yangi prinsiplar, yangi texnologiyalarni kirituvchi shaxs) tarzida ifodalanadi.

Uchinchi yondashuv. Bu atama bilan ko'pincha ham jarayon va ham bu jarayonning natijasi belgilanadi.

Innovatsion faoliyatning me'yoriy-huquqiy bazasini o'rganish orqali innovatsiya ilm-fan yutuqlari va yangi mahsulotni iste'molga chiqarish yoki bozorda sotiladigan mahsulotni takomillashtirish, texnologik jarayon va tashkiliy-texnik chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha eng yaxshi amaliyotlarning yakuniy natijalari faoliyatda qo'llaniladi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsiyalar raqobatbardoshlik omilidir. Ular xizmat ko'rsatishning texnologik jarayonini optimallashtirish, taqdim etilayotgan xizmatlar turlarini kengaytirish, sayyohlarning mehmonxonalarda yanada qulay bo'lishini ta'minlash imkonini beradi.

Бунаков О.А.- к.э.н., доцент
Заведующий кафедрой сервиса и туризма
Казанский федеральный университет

РАЗВИТИЕ СФЕРЫ ТУРИЗМА НА ДЕПРЕССИВНЫХ ТЕРРИТОРИЯХ ЗА СЧЕТ СОЗДАНИЯ ОБЩЕСТВЕННЫХ ПРОСТРАНСТВ

Abstract.

In this article, the author consider the possibility of developing tourism in depressed territories by creating park zones. The types of parks, peculiarities of their creation and operation

[162] Глазьев С.Ю. Теория долгосрочного технико-экономического развития: Научный доклад. М.: ЦЕМИ РАН, 2001.

are shown. Special attention is paid to the design of parks and their maintenance at the expense of attracted business structures. The author conclude that modern parks can become an effective means of developing depressed territories, as well as have a positive impact on the tourist sphere of the city.

Keywords: depressive territories, development of depressive territories, parks, tourist zones.

Туризм во всем мире продолжает динамично развиваться, а туристы становятся всё более требовательными. Каждая туристская дестинация заинтересована в привлечении как можно большего числа посетителей. Учреждения, занимающиеся развитием туризма на той или иной территории, задаются вопросом: «Что способствует увеличению турпотока в нашей дестинации?» Одним из вариантов решения этой проблемы является создание новых туристско-рекреационных объектов, обладающих неповторимыми качествами и удовлетворяющих требованиям прибывающих гостей.

В последние годы важнейшим туристско-рекреационным объектом становятся городские парки. Многие считают, что городские парки – это озелененные территории, расположенные, как правило, в центре города и предназначенные для прогулок по тротуарам и отдыха в тени деревьев на комфортных скамейках. Большинство российских парков выглядят именно таким образом.

Однако городской парк как туристско-рекреационный объект должен обладать не только этими качествами, чтобы привлечь внимание гостей города. Существует также и такие места в городской черте, куда не только туристы, но и местные жители стараются не приходить. В литературе подобные места называют депрессивными территориями, которые характеризуются, как правило, социально-экономическими и экологическими проблемами. Поэтому задача грамотного проектирования городских парков является актуальной в рамках повышения привлекательности города для туристов и местных жителей.

На данный момент существует несколько определений термина «парк». Согласно толковому словарю С.И. Ожегова, парк – это большой сад или насаженная роща с аллеями, цветниками, водоёмами.

Другая точка зрения гласит, что парком является предназначенная для отдыха всех желающих открытая озеленённая территория, содержащаяся, как правило, за счет государства.

В ландшафтном дизайне используется следующее определение. Парк - обширная (обычно больше 10-15 га) озелененная территория, благоустроенная и художественно оформленная для отдыха под открытым небом.

Лесопарки могут использоваться в целях охраны окружающей среды, а их размещение вблизи промышленных объектов, либо в городе способствует очищению воздуха и благоприятно влияет на экологию в этих районах [1, 2].

Сейчас парк является одним из главных составляющих общегородской системы озеленения и рекреации. Городские парки чаще всего используются как площадки проведения культурно-массовых мероприятий и выставок.

С точки зрения культурологии и развития сферы туризма городские парки имеют важное значение. Они являются не просто местами проведения городских праздников и массовых мероприятий, а субъектами межкультурных коммуникаций. В парках представители разных социальных групп, разных культур и поколений могут контактировать друг с другом. Таким образом, городские парки воздействуют на коммуникации между людьми.

В настоящее время существуют как парки различного назначения, так и парки, соединяющие в себе несколько функций. Разберемся подробнее в функциональных особенностях городских парков. Существует несколько точек зрения касательно функций городских парков.

Согласно первому мнению, городские парки создают благоприятные условия для рекреации населения и проведения культурно-массовых мероприятий; обеспечивают единство природных экосистем и соседних районов города; создают пространство для

сохранения и восстановления растительных угодий, памятников культуры и других достопримечательностей. Недостатком данной классификации является обобщенное разделение на 3 функции, которое объединяет несколько различных функций и не позволяет рассмотреть все назначения парков конкретно.

С другой точки зрения, парки выступают в роли объектов, способствующих социализации и культурному воспитанию граждан благодаря организации массового отдыха и развлечений, проведению информационно-просветительской, рекреационной и физкультурно-оздоровительной работы [4].

Нельзя не отметить, что современные парки выполняют оздоровительные, культурно-воспитательные, эстетические, природоохранные функции [5]. Воздействие природно-лечебного фактора (чистого воздуха) благоприятно сказывается на здоровье посетителей парков, что характеризует выполнение оздоровительной функции. Многофункциональные центры, находящиеся в парках, обеспечивают население площадками для проведения различных выставок, фестивалей, мастер-классов и культурных собраний, что, несомненно, влияет на культуру и воспитание гостей парков. Получение эстетического удовольствия от нахождения в гармонично созданном архитектурно-ландшафтном комплексе также осуществляется благодаря паркам. И вместе с этим, парковые зоны способствуют поддержанию благоприятной окружающей среды, о чем и говорит последняя функция.

Таким образом, можно сказать, что существует разнообразие городских парков и их функциональной нагрузки. Парки – это не просто места отдыха и прогулок, парки – это целые комплексы взаимосвязанных элементов, которые выполняют множество функций: от рекреационной до культурно-просветительской. В настоящее время парки стали мощнейшим объектом привлечения туристов.

Перед началом проектирования необходимо провести анализ выбранной территории и определить, обладает ли данная территория потенциалом для разбития на ней садово-паркового комплекса. Следует проанализировать:

- существующий рельеф;
- зеленые насаждения;
- функционально-планировочные элементы (дорожные покрытия, автостоянки, освещение);
- элементы благоустройства (малые архитектурные формы: детское игровое и спортивное оборудование, уличная мебель, элементы визуальной информации, ограничители въездов, газонные ограждения, оборудования хозяйственных площадок и т.д.);
- технические сооружения и инженерную инфраструктуру;
- наличие воздушных линий электропередач.

При проектировании городских парков архитекторы должны учитывать возможные конфликты и суметь предотвратить их. Таким образом, готовый проект парка должен соответствовать ряду требований.

Во-первых, парк должен быть обеспечен местами для отдыха людей разных возрастных категорий в зависимости от их предпочтений.

Во-вторых, чтобы не возникло экологических конфликтов, парк должен соответствовать нормам рекреационной нагрузки [1]. Данная величина показывает, какое количество туристов посетило единицу площади парка или другой природной территории в единицу времени. Оптимальным вариантом при проектировании парка является допустимая рекреационная нагрузка.

В-третьих, различные функциональные зоны не должны пересекаться. Согласно Лесному кодексу РФ, на территории лесопарковой зоны выделяются функциональные зоны с дифференцированным режимом использования для целей охраны, защиты и воспроизводства лесов в различных частях зоны.

Первая зона – зона активного отдыха, находящаяся в местах лесопарка с наиболее высокой рекреационной нагрузкой для их благоустройства и создания живописных природных ландшафтов повышенной устойчивости. Такая зона не должна занимать больше

30% площади территории, на диаграмме показана меньшая площадь – 20%.

Вторая зона – прогулочная зона, располагающаяся в наименее посещаемых и тихих частях лесопарка. Эта зона должна занимать более 70% лесопарка, на диаграмме представлено значение 70%.

Третья зона – фаунистическая зона, функциональным значением которой является обеспечение благоприятных условий для жизни представителей местной фауны. В Кодексе не сказано о процентном соотношении данной территории, поэтому возьмем, например, значение в 5% от площади лесопарка.

Четвертая зона – это восстановительная зона, необходимая для длительного воспроизводства лесных насаждений, пострадавших в результате пожара или иного бедствия. В Кодексе также не указано процентное соотношение от площади лесопарка, поэтому тоже возьмем 5%. Таким образом, основная часть лесопарков должна выделяться под прогулочную зону, зона активного отдыха также может присутствовать, однако нужно помнить о разделении зон и площадном соотношении. Также не стоит забывать о местах, выделенных для восстановления и сохранения флоры и фауны.

Однако если рассматривать именно городские парки, а не лесопарки, то в них зональность выполнена по-другому. Процент прогулочной зоны в городских многофункциональных парках значительно ниже, чем в лесопарках. Однако парки городов обладают большим разнообразием зон для посетителей, чем лесопарки. Городские парки могут предложить зоны для культурно-массовых мероприятий, зоны для отдыха детей – детские площадки, зоны для занятия спортом и т.д. При проектировании нужно учитывать специфику каждой зоны и процентное соотношение от площади парка.

К тому же важен выбор места, где будет находиться парк с точки зрения коммуникации. Одним из критериев популярности парка является доступность, поэтому при проектировании городского парка стоит обратить внимание на маршруты городского транспорта и близость автомагистралей. Чем легче добраться до парка, тем больше его посещаемость. Близость к популярным туристским аттракциям станет преимуществом для любого парка. Расположение парка в центральной части города (например, Центральный парк Нью Йорка) способствует вхождению его в туристский продукт. Парк становится объектом показа для туристов и местом, где они проводят свое свободное время. Также городские парки привлекают индивидуальных путешественников как место для отдыха перед новым объектом. Некоторые парки позволяют подобным туристам ставить палатки и даже ночевать.

При проектировании стоит знать, что художественный образ парка должен вписываться в окружающую городскую среду. Важно, чтобы парк и окружающий его район составляли единый проработанный образ, чтобы создавалась деликатная интеграция в сложившуюся среду. Для этого нужно соблюдать единство стиля и использование похожих материалов таким способом, чтобы создавался целостный архитектурный образ.

Средствами создания архитектурного образа служат элементы благоустройства. К таким элементам относят: скамьи, урны, элементы защиты деревьев, контейнеры для растений, ограждения, элементы навигации, велодорожки, велопарковки, лестницы, пандусы, парапеты, дорожные покрытия, тротуар, автостоянка, фонари и т.д.

Кроме того, не стоит забывать о функциональных зонах, так как элементы их благоустройства имеют свою специфику. Оборудование детских площадок для детей дошкольного возраста включает: песочные ящики, невысокие скамейки и столы, карусели, домики-избушки, горки катальные, качалки, навесы для тени, перголы, трельяжи, беседки, обвитые вьющимися растениями. Детские игровые площадки должны быть для разных возрастов — до 3 лет и до 7 лет.

На площадках для занятий физкультурой размещается спортивное оборудование и тренажеры для различных возрастных групп. Игровое, спортивное оборудование и тренажеры размещаются с соблюдением зон безопасности, указанных производителем. Детские игровые площадки и площадки для занятий физкультурой должны выполняться

в водопроницаемом противоударном покрытии — из резиновой крошки, резиновой или каучуковой плитки. При группировке спортивных площадок их следует объединять по видам спорта. Сблокированные спортивные площадки на базе хоккейной коробки используются зимой для устройства катков для массового катания.

На открытых площадках для культурных мероприятий могут размещаться летние эстрады с местами для зрителей (амфитеатры) или устанавливаться временные нестационарные конструкции для концертов, фестивалей и так далее.

Все площадки следует оборудовать садовыми скамьями и урнами. На территории сада должны быть установлены современные декоративные опоры наружного освещения. На участках газонов с древесно-кустарниковой растительностью создаются ландшафтные композиции из декоративных деревьев, красивоцветущих кустарников и цветочных растений. На время проведения культурно-массовых мероприятий в общественной зоне необходимо устанавливать санитарно- гигиеническое оборудование — туалеты и контейнеры для сбора ТКО.

Также важными деталями проекта парка являются элементы навигации. Размещение на территории парка карт, стендов с информацией и другого информационного оборудования способствует упрощению ориентирования посетителей на местности. К тому же, указатели помогут гостям узнать об интересных локациях на территории и добраться до дальних концов парка, посетить которые они не намеревались в виду незнания.

Важной составляющей полученного впечатления от посещения парковой зоны является эстетическая удовлетворенность данным природно-архитектурным комплексом [8]. Человек, приходя в парк, хочет в первую очередь остаться наедине с природой, созерцать ее природы и почувствовать ее гармонию. Это вызвано психологическими потребностями человека. Задача архитекторов – создать разнообразие пейзажей и гармоничный архитектурный ансамбль, который бы радовал глаз и вызывал приятные ощущения.

Но вместе с тем, человек не хочет лишать себя своих привычек. Парадоксально, но наряду с природным единством человеку необходим привычный комфорт и современные девайсы. Отличительной чертой каждого парка может стать использования на его территории современных технологий. Это могут быть источники солнечной энергии, дождевой и талой воды и т.д. Но главной современной потребностью людей в технологиях на территории парка является беспроводная сеть Wi-Fi, без которой нельзя представить пребывание человека в каком-либо общественном месте. А также полезным дополнением к этому будут источники электропитания для зарядки мобильных устройств [9].

Нельзя не отметить такую потребность людей, как потребность в чем-то новом и интересном. Из этого следует, что парк должен обладать уникальными чертами, выделяющими его среди других парков. Если мы говорим о привлечении туристов, то проектирование парка должно основываться на особенности и непохожести этого объекта. Нужно прежде всего ответить на вопрос: «Почему туристы захотят посетить именно этот туристско-рекреационных объект, а не другой?». Возможно, в данном парке будут использоваться инновационные технологии или необычная архитектура. Если выражаться простым языком, то для привлечения туристов в парке должна быть «изюминка». Поэтому проектировщики парка должны использовать креативные идеи и идти в ногу со временем. Сейчас мало кого удивишь простым фонтаном и скамейками. Если мы устанавливаем в парке фонтан, то это может быть танцующий фонтан с подсветкой или фонтан, форма которого, например, выполнена в виде огромной ложки.

Что касается парковой мебели, то не стоит ставить обыкновенные деревянные скамейки. Гораздо интереснее будет установить скамейки необычной формы или расцветки. К тому же, в последнее время наблюдается тенденция к расположению в парках скамеек не только для того, чтобы сидеть на них, но и чтобы лежать.

Создание креативных рабочих зон в парке также привлечет туристов, которые хотят совместить работу и пребывание на природе. Детские площадки зачастую однообразны и не вызывают желания к посещению, однако, если использовать ландшафт при создании

игровых зон, тем самым внедряя детские аттракционы в окружающую среду, то интерес к ним значительно повысится.

Нельзя не упомянуть и об экономической составляющей, которая включает в себя в первую очередь содержание парка. Разумеется, для этих целей требуются немалые средства, которые в первую очередь необходимы для уборки парковой территории. Решение данной проблемы видится в сдаче в аренду парковых площадей для предприятий питания, мелкой торговли и индивидуальных предпринимателей, которые могли бы оказывать услуги посетителям парка. Доходы, получаемые от арендных платежей можно пустить на содержание парков и их переоснащение. Уровень доходов парков сильно разнится, но, например, в Казани в 2019 году за 9 месяцев доходы от парков достигли почти 19 миллионов рублей и год от года данная цифра увеличивается.

В вопросе о том, где размещать парк, до сих пор нет единства мнений. Мы предлагаем рассмотреть для данных целей так называемые депрессивные территории, так как в подобном случае достигаются следующие выгоды:

1) территория, выбранная под парк, преображается и становится привлекательной;
2) растет посещаемость данного места и его экономическая привлекательность;
3) повышается количество посетителей (зачастую и туристов).

Примером, который характеризует все перечисленные блага может послужить парк, который планируется организовать на территории, прилегающей к Речному порту в городе Казани. В настоящее время данная территория представляет собой лесные насаждения, за которыми никто не следит. Местность граничит с промышленной портовой зоной, спальным районом и, непосредственно с пассажирским речным портом. Сложилась ситуация, при которой прибывающие в Казань по воде туристы не имеют возможности прогуляться пешком недалеко от порта. Власти города предложили облагородить территорию и создать огромный полифункциональный парк, который позволит туристам и местным жителям интересно провести время. Изюминкой парка станет возможность добраться (именно не покидая парка) до центра города – практически до Казанского Кремля. Проект реализуется с учетом опыта организации подобного паркового пространства (Горкинско-ометьевский парк).

Можно сделать вывод, что современные городские парки выполняют целый комплекс функций, одной из которых является привлечение туристов и создание для них комфортной среды пребывания. Процесс проектирования городского парка должен включать в себя тщательное планирование различных зон, которые будут интересным разным категориям посетителей, а все вместе создавать единую зону рекреации.

Таким образом, нужно находить креативные подходы к созданию архитектурно-ландшафтного пространства, используя необычные малые архитектурные формы и другие оригинальные элементы садово-парковой архитектуры, чтобы туристы, приходящие в парк, были приятно удивлены и захотели прийти сюда снова, а местные жители имели качественное место для отдыха всей семьей. Территории города, превращенные в современные парковые зоны получают «новую жизнь», а сам город преображается в глазах приезжающих туристов.

Список литературы

1. Бунаков О.А. Проблема позиционирования и устойчивого развития в туризме [Электронный ресурс] // Управление экономическими системами: электронный научный журнал. – 2011. – № 4 (28). – № гос. Рег. статьи 0421100034/0115. – Режим доступа к журн.: http://uecs.mcnip.ru

2. Бунаков О.А. Анализ сдерживающих факторов развития туризма в России // Туризм как фактор модернизации экономики и развития регионов. Материалы I Всероссийской научно-практической конференции с международным участием / Под общ. ред. А.Н. Полухиной. – 2015. – С. 45-49.

3. Гук Т.Н., Фролова Ю.В., Семенкова Е.В. и др. Благоустройство в реновации. Подходы и проблемы / по заказу Комитета по архитектуре и градостроительству города Москвы — М. : Изд-во «А-Принт», 2018. — 268 с.

4. Буланова М. Б., Угрехелидзе Е. А. Парк в культурной среде города // Вестник РГГУ. Серия «Философия. Социология. Искусствоведение». 2015. – С. 96-99.

5. Анализ парков и скверов города Алматы [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://almatydc.kz/images/docs/analiz_parokov_i_skverov.pdf

6. Бугаенко М.Б., Григорьева Д.Р. Городской парк как часть архитектуры современного города [Электронный ресурс] // Научное сообщество студентов XXI столетия. Гуманитарные науки: сб. ст. по мат. XXXVIII междунар. студ. науч.-практ. конф. № 1(38). Режим доступа: http://sibac.info/archive/guman/1(38).pdf

7. Демиденко Г.А., Шадрин И.А. Создание и содержание объектов ландшафтной архитектуры для благоприятной городской среды Красноярска [Электронный ресурс] // Вестник КрасГАУ. 2018. №6 (141). Режим доступа: https://cyberleninka.ru/article/n/sozdanie-i-soderzhanie-obektov-landshaftnoy-arhitektury-dlya-blagopriyatnoy-gorodskoy-sredy-krasnoyarska

8. Сайт ландшафтных терминов [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://landshaft-spb.ru/kak-sozdat-svoj-sad/slovar-terminov/

9. Федотов Ю.Д. Оценка рекреационной нагрузки на лесопарковые зоны территории г. Саранск [Электронный ресурс] / Ю. Д. Федотов, Я. О. Гурьянова // Современные проблемы территориального развития: электрон. журн. – 2019. – Режим доступа: https://terjournal.ru/2019/id69/

А.Р.Қаюмов - ЎзРФА Тарих институти, т.ф.н.

ТОШКЕНТ ШАҲРИ АҲОЛИСИНИНГ ХЎЖАЛИК-МАИШИЙ ҲАЁТИДА ДЕҲҚОНЧИЛИК АНЪАНАЛАРИ

XIX – XX аср бошларида Ўзбекистоннинг анъанавий шаҳар муҳитида аҳолининг хўжалик-маиший турмуши, ижтимоий муносабатлари ва жамоа бўлиб меҳнат қилиш анъаналари каби хусусиятларини этнографик материаллар асосида ёритиб бериш шаҳар ҳаётининг тарихан ривожланиш жараёнларини англаб етишда катта аҳамиятга эгадир.

Суғорма деҳқончилик минтақаларида тураржойларнинг жойлашув хусусиятига асосланган хўжалик ва маиший турмуш тарзининг қатъий анъанавий шакли сақланиб қолган эди. Тарихий ва этнографик тадқиқотларда қайд этилишича, Ўзбекистонда шаҳар аҳолисининг кўп қисми қишда шаҳарда, ёзда эса шаҳар четидаги дала-боғларда яшаганлар. О.А.Сухареванинг фикрича, шаҳар аҳолиси ўртасида ҳунармандчилик ва савдони деҳқончилик билан қўшиб олиб борилиши, яъни шаҳар аҳолиси кўпчилигининг “икки тураржой” га эгалиги ва бундай шароитда оила ва жамият маълум гуруҳининг ишлаб чиқариш фаолияти, улар ўртасидаги меҳнат тақсимоти масалаларининг тадқиқ этилиши муҳим илмий аҳамиятга эга [163].

XIX - XX аср бошларида қадимги деҳқончилик воҳасида жойлашган Тошкент шаҳри аҳолисининг хўжалик-маиший ҳаётида ҳамда умуман олганда, Ўзбекистоннинг бошқа шаҳарлари учун ҳам хос бўлган савдо ва ҳунармандчиликни деҳқончилик билан қўшиб олиб бориш анъанаси яхши сақланиб қолган эди. Ўзининг асосий машғулотини деҳқончилик деб билган шаҳар аҳолиси ўзларини деҳқон деб атаганлар ва ҳам шаҳарда, ҳам шаҳар атрофида боғ ҳамда экинзорларига эга бўлганлар.

XIX асрнинг иккинчи ярмида Тошкенда бўлган Бурнашев ва Поспелов ҳамда

[163] С у х а р е в а О.А. Традиция сочетания городских и сельских занятий в Средней Азии конца X1X - начала XX в. // Товарно-денежные отношения на Ближнем и Среднем Востоке в эпоху средневековья. М., 1979. С. 203-211.

П.И.Пашино[164]ларнинг таъкидлашича, деҳқончилик билан шуғулланадиган шаҳар аҳолисининг асосий машғулоти ғаллакорлик бўлган. Потаниннинг қайдномаларида таъкидланишича, шаҳар аҳолиси "ғаллакорлик ва боғдорчилик соҳасида катта тажрибага эга бўлган ва унумдор ердан самарали фойдалана билганлар"[165]. Бу даврда саёҳатчилар Шубай Асланов, Нурмуҳаммад Алимов[166]ларнинг кундаликларидаги маълумотлар ҳамда Н. А Маев, Н. Г. Маллицкий[167]ларнинг асарларида Тошкент шаҳри аҳолиси савдо ва ҳунармандчилик билан биргаликда боғдорчилик ва деҳқончилик билан ҳам шуғулланганликлари ҳақида қизиқарли маълумотлар мавжуд.

Бевосита Тошкент шаҳри бўйича тадқиқотлар олиб борган Ф. Азадаев[168] ва К.Фазиловалар[169] Дегрез маҳалласидаги шаҳарлик деҳқонларнинг машғулотлари ҳақида бой маълумотларни тўплаганлар. Ушбу маълумотларга кўра ҳатто, шаҳарнинг ишлаб чиқариш маркази бўлган Шайхонтаҳурда (бу ерда дегрезчилар бўлган) аҳолининг тўртдан бир қисми деҳқончилик билан шуғулланган[170].

Шаҳарларнинг кўпгина аҳолиси (Тошкент, Самарқанд) ва шунингдек, шаҳар типидаги қишлоқларнинг аҳолиси баҳорда ўзининг шаҳар атрофидаги дала-боғларида кеч кузга қадар яшаган. Бундай шароитда ҳунармандлар ва савдогарларнинг хўжалигида ҳам деҳқончилик машғулоти мавсумий бўлса-да асосий ўрин эгаллаган. М. Рўзиеванинг маълумотларига кўра, Шайхонтаҳур даҳаси аҳолисининг дала-боғлари ҳам шаҳарда ҳам шаҳар четида жойлашган. Шаҳардаги ер мулклар "боғ", "майдон", шаҳар ташқарисидаги ерлар "дала-боғлар" деб аталган[171].

Тошкент аҳолиси ёзда бориб яшайдиган шаҳар девори ташқарисида жойлашган дала-боғлар ҳам шаҳар тасарруфида эди. Н.Г. Маллицкийнинг қайд этишича, уларнинг бир қисми жамоавий ерлар бўлиб, айрим даҳалар аҳолиси шу ердан фойдаланишган, шу боис, улар тегишли маҳаллалар номи билан аталган (масалан, Чувалачи, Ҳиёбон, Тахтапул ва ҳоказо).[172] Бироқ, бундай жамоа бўлиб фойдаланиладиган ерлар XX аср бошларида сезиларли даражада камайди. Дала-боғлар шаҳар атрофини 4-6 чақирим кенгликдаги ҳалқа тарзида қуршаб олган. Дала-боғларнинг эгалари у ерларда фақат ёздагина яшаб, боғ ва токларни парвариш қилишган, қишда дон-дун ғамлаб ортиқчасини сотишган. Дала-боғларда вақтинча яшаш учун чайлалар ҳам қуришган. Кузда аҳоли шаҳардаги уйига қайтиб келган.

XX аср бошларида дала-боғлар таркибига кирувчи қишлоқлар шаҳарга қўшилиб кетди. Уларнинг номлари даҳа ва мавзелардагина сақланиб қолди. Бешқайрағоч, Юнусобод, Оқтепа, Дархон, Яланғоч, Чўпонота, Қатортол, Чилонзор, Тахтакўприк, Миробод шулар жумласидандир. Жамоавий ерларнинг айрим бўлакчалари у ер-бу ерларда, хусусан, Кўкча қисмида суғорилмайдиган тепаликлар тарзида сақланиб қолди.[173] Н.Г Маллицкийнинг фикрича, шу боисдан, шаҳар девори бутунлай йўқолиб кетди: аср бошларида Кўкча ва Чиғатой дарвозалари ҳамда Бешёғоч ва Камолон дарвозалари оралиғидагина шаҳар девори қолдиқлари қисман сақланиб қолган эди.

Ўқчи даҳасидаги Дегрез ва Қудуқбоши мавзеларининг шаҳар ташқарисидаги дала-

---

[164] Поездка Бурнашева и Поспелова в Ташкент в 1800 г. с примечаниями Я.Ханыкова //Вестник русского географического общества, Ч.1. Кн.1 СПб, 1851. С.29; П а ш и н о П.И. Туркестанский край в 1866 году. Путевые заметки. СПб. 1868. С.130.

[165] Записки о Кокандском ханстве Хорунжего и Потанина. СПб. 1830. С.14.

[166] Материалы по истории России. Т.2. Оренбург, 1900. С.59.

[167] М а е в Н.А. Азиатский Ташкент // Материалы для статистики Туркестанского края, 1876. С.78; М а л л и ц к и й Н.Г. Тошкент маҳалла ва мавзелари, Русчадан Усмон Қўчқор таржимаси. Тошкент, 1996.

[168] А з а д а е в Ф. Ташкент во второй половине XIX в., Ташкент. 1959. С. 39, 176.

[169] Ф а з ы л о в а К. Ташкентский квартал литейщиков (махалля Дероз) в конце XIX – начале XX в. // Научные работы и сообщения, кн.4. Ташкент. 1961. С. 242.

[170] Ф а з и л о в а К. Кўрсатилган мақола. 243-бет.

[171] *Р у з и е в а М. О занятии земледелие жителей города Ташкента (конец XIX–начало XX в.) //Из истории кул ьтуры народов Узбекистана. Ташкент, 1965. С.74.*

[172] М а л л и ц к и й Н.Г. Ташкентские махалля и мауза. Ташкент. 1927, С.109.

[173] А р и ф х а н о в а З.Х. Тошкент маҳаллалари: анъаналар ва замонавийлик. Тошкент, 2002. 21-бет.

боғларига илк баҳордан ҳунармандлар кўчиб кела бошлаганлар ва ўзларининг боғ ва узумзорларига ишлов бериб, экин экишга тайёргарлик кўрганлар. Ҳатто, дегрезчилар шаҳар ҳовлиларидан ўзларининг баъзи ҳунармандчилик асбоб-анжомларини ҳам олиб келганлар ва деҳқончилик билан биргаликда ҳунармандчилик машғулотини ҳам давом эттирганлар. Кейинроқ бу дала-боғларда шаҳар аҳолисининг бир қисми доимий равишда яшаб қолиб, аста-секинлик билан шаҳарнинг таркибий қисмига айлана бошлади. Тошкент шаҳри аҳолиси шаҳар ташқарисидаги ер майдонларида доимий яшаш жойларининг барпо этилиши янги маҳаллалар ва қишлоқларнинг ташкил топишига олиб келди. Масалан, XVIII – XIX асрларда Тошкент таркибига кирган бир қанча ерларнинг номлари ҳам шаҳарнинг бир қанча кенгайганлигини англатади. Жумладан, Олмазор, Ҳовузбоғ, Ўрикзор, Кадват, Арпа, Тўпқайрағоч, Ҳиёбон, Қирқбирба, Каттабоғ ва бошқа янги қишлоқлар шаҳарга қўшилган[174]. Шунингдек, ҳунармандчилик, савдо ва деҳқончилик машғулотлари шаҳар аҳолисининг кўп фарзандли оилаларда ўзига хос меҳнат тақсимоти асосида тақсимланган, яъни оиланинг бир неча фарзандлари шаҳар машғулоти, бир қисми эса деҳқончилик билан машғул бўлган. Албатта, бу ҳолат ҳунармандларнинг бир қисми ишлаб чиқарган маҳсулотларининг товарлилик даражаси юқори бўлганлиги сабабли шаҳар машғулотини давом эттирган бўлсалар, бир қисми (аксарияти) деҳқончилик билан қўшимча даромад олиш ёки озиқ-овқат заҳирасини яратиш учун (асосан буғдой, шоли, нўхат, мош, ловия, сабзи, пиёз, шолғом, кейинчалик картошка ва боғдорчилик маҳсулотлари) шуғулланганлар.

Шаҳарликлар фойдаланаётган ерлар хусусий ва жамоа ерларига бўлинган. Хусусий ер-мулк эгалари ерни сотиш, сотиб олиш ва ворисий мулк сифатида авлодларига қолдириш ҳуқуқига эга эдилар. Баъзи шаҳарлик бойлар каттагина ер-мулкларга эга бўлганлар. Масалан, Шайхонтаҳур даҳасининг Қиёт мавзесида Шомуҳаммад Бекмуҳаммадов Қози Қўрғон деган жойда 160 таноб ер мулкка эга бўлган[175]. Бундай ер майдонларини сотиш (мавзеда жойлашганларини) *шапуқ* деб аталадиган қўшничилик ҳуқуқига кўра чегараланган ва фақатгина улар ўзларининг маҳалладошларига сотишга ҳақли эдилар, деб маълумот беради М. Рўзиева[176].

XX аср бошларида ерга хусусий эгалик бир қадар ривожланди, яъни бошқа мавзеда яшайдиганларнинг ерларини сотиш-сотмаслиги қатъий назорат қилинмайдиган бўлди. Орқакўча мавзесидан уч оила Бодак мавзесида[177] ер-мулкка эга бўлган. Қошиқчилик мавзесидан учта, Себзордан биттадан оила Қашғар, Тахтапул ва Қудуқбоши мавзеларида ерларга эга бўлганлар[178]. Бу даврда шаҳар хўжалик ҳаётида шаҳар атрофидаги ерлар муҳим ўрин тутган. Шаҳарнинг Шайхонтаҳур қисмида 1870 йиллар бошларида 1814 таноб буғдойзорлар ва 1896 таноб шолизорлар бўлган[179]. Мауза – аҳоли ёзда деҳқончилик билан шуғулланадиган шаҳардан ташқаридаги ер майдонлари бўлиб, бу ерлар дастлаб жамоа ерлари ҳисобланган. Кейинчалик эса ишлаб чиқариш муносабатларининг ривожланиб бориши билан аста-секин ердан жамоа бўлиб фойдаланиш анъаналарига путур ета бошлади.

XX аср бошларида ҳар бир маҳалланинг дала-боғлари - «маузаси» бир жойда, яъни шаҳар ташқарисининг муайян жойида жойлашган эди, деб маълумот беради Н.Г. Маллицкий[180]. Аммо, М. Рўзиева этнографик ва архив материалларига асосланиб, аксинча, бу даврда ҳар бир мавзенинг дала-боғлари шаҳар ташқарисининг турли жойларида бўлган эди, деб Н.Г. Маллицкийнинг маълумотини инкор этадиган материалларни келтиради. Масалан, Орқакўча мавзеси (23 оила), Бодак (8 оила), Дархон (6 оила), Ганжтепа (5 оила), Занжирлик (2 оила) мавзеларида яшовчи оилаларнинг Яланғоч даҳасида

---

[174] Ф и л а н о в и ч М. Роль топонимики и археологии в изучении истории Ташкента. // Тошкент шаҳри ва вилояти топонимлари муаммолари. Тошкент, 1994. 47-бет.

[175] ЎзР МДА, И. 17- фонд, 1-рўйхат, 19851-иш, 5-варақ.

[176] *Р ў з и е в а М. Кўрсатилган мақола, 74-бет.*

[177] ЎзР МДА. фонд. И. 37-фонд, 1-рўйхат, 1928-иш, 181- варақ.

[178] Ўша жойда. 1925-иш, 101-варақ; 1928-иш, 154, 155, 158 - варақлар.

[179] М а е в Н.А. Азиатский Ташкент... С. 78.

[180] М а л л и ц к и й Н.Г. Тошкент маҳалла ва мавзелари. Русчадан Усмон Қўчқор таржимаси. Тошкент, 1996.

шаҳар атрофидаги ерлари бир жойда бўлган ёки Оққўрғонда Ганжтепа (9 оила), Орқакўча (5 оила), Гадраган (4 оила), Оқмачит (3 оила), Жаркўча (2 оила) мавзеларида яшовчи оилаларнинг дала-боғлари бўлганлиги ҳақидаги фактик материалларга асосланади[181]. Эҳтимол бу ҳолат XX аср бошларида жадал тус олган янгича ижтимоий-иқтисодий муносабатларнинг натижаси бўлиши мумкин. Чунки бу даврда хусусий мулкчилик ва ишлаб чиқаришнинг кенгайиши билан ер олди-сотдисининг кучайиши ҳамда илгари шаҳар атрофидаги жамоа ерларининг бир қисмини хусусийлашиши билан боғлиқ бўлиши мумкин.

Шаҳарликларнинг жамоа ер-мулклари нафақат шаҳар атрофида, балки шаҳардан узоқдаги дарё воҳаларидаги унумдор ерларда ҳам мавжуд эди. Жамоа ерлар «жамоа ери» ёки «ўртадаги ер» баъзида «чек» ерлар деб аталган[182]. Чунки бу ерларнинг чегаралари ҳар йили ўзгариб турган ва "чек" ташлаш асосида оилалар ўртасида тақсимланган. Тошкентда Самарқанддаги- дан фарқ қилиб, шаҳар мавзеларининг аҳолиси (сотиб олинган ёки мерос қолдирилган) шаҳар ҳудудига туташ бўлган ва девор билан ўраб олинган хусусий ерлар билан биргаликда асосан, дон ўсимликлари етиштириладиган жамоа ерлари бўлган[183].

Архив маълумотларининг кўрсатишича, маҳаллалар ўртасида яхши жамоа ерлари учун кураш кетган. 1880 йилда Шатак, Чормак, Болак, Ганчтепа ва Орқакўча мавзелари аҳолисининг Қурама уездида жамоа ерлари бўлган. Кейинроқ ноқонуний равишда бу ерлар Бодак мавзеси аҳолисига берилган. Бошқа мавзеларнинг аҳолиси Тошкент шаҳри маъмуриятига бу хусусида арз қилади ва ер илгариги эгаларига қайтарилади[184]. Баъзида жамоа ерлари обрўли кишилар томонидан шахсий ерлар сифатида тортиб олинган. Шаҳарнинг Шайхонтаҳур даҳаси аҳолисининг Оққўрғондаги ерларини оқсоқол Иноғом Хўжа томонидан хусусий ер сифатида олиб қўйилган[185].

1880 йилда Шайхонтаҳур даҳаси Мерганчи мавзеси аҳолисининг Қурама уездида 100 ботмон ерлари, Пулмес деган жойда 400 ботмон ерлари бўлган. Бу ерлар уларнинг аждодларидан қолганлиги ва кейинчалик эса бу ерлар олиб қўйилиб, аҳолиси буғдой экиладиган ерлардан маҳрум бўлиб қолган. Улар рус ҳукуматидан жамоа ерларини сотишни ҳужжатлаштирмасликни сўрайдилар[186]. Бундан кўринадики, шаҳар ташқарисидаги жамоа ерлари хусусий ерларга айланиб борган.

XX аср бошларида Ўрта Осиё ва умуман, Ўзбекистон ҳудудларида бозор муносабатларининг қатъийлашуви ва янгича ижтимоий-иқтисодий муносабатларининг қарор топиши билан шаҳардаги йирик ер эгалари доимий равишда шаҳар ташқарисидан ҳам унумдор экин майдонларини олишга ҳаракат қила бошладилар. Ишлаб чиқариш ва савдонинг ривожланиши билан шаҳар атрофидаги дала-боғлар илгариги аҳамиятини йўқота бошлади. Кўпгина ер эгалари ишлаб чиқаришнинг янгича тамойиллари асосида ишлаб чиқариш корхоналари очиш билан шуғулландилар[187]. Аҳолининг кўпайиши билан унумдор ерларга талаб ҳам ошиб борди ва шаҳар чегараси доимий равишда кенгая бошлади. Ишлаб чиқаришнинг кенгайиши билан камбағал шаҳарликлар ўзларининг ер-мулкларини, дала-боғларини сотиб, фақатгина шаҳар ишлаб чиқариши билан машғул бўла бошладилар.

XX аср бошларида шаҳарликларнинг деҳқончилик билан шуғулланиши маълум даражада қисқарган бўлса-да, аммо, шаҳар хўжалигида деҳқончилик катта аҳамиятга эга эди. Тошкент шаҳри аҳолисининг хўжалик-маиший ҳаётида ҳунармандчилик, савдо ва деҳқончилик хўжалиги параллел тарзда олиб борилган. Шаҳар анъанавий хўжалик тизимида қишлоқ хўжалиги маҳсулотларига бўлган эҳтиёждан келиб чиқиб, шаҳар аҳолиси (ҳунармандлар, савдогарлар) ўзларининг шаҳар ташқарисида жойлашган дала-боғларида

---

[181] Р ў з и е в а М. Кўрсатилган мақола, 75-бет.
[182] Ўша жойда.
[183] А р и ф х а н о в а З.Х. Ўша асар. 21-бет.
[184] ЎзР МДА, И.17- фонд, 1-рўйхат,19262-иш. 3-варақ.
[185] А з а д а е в Ф. Ўша асар. 211- 212 - бетлар.
[186] ЎзР МДА , И.36-фонд, 1-рўйхат, 1913-иш, 14-16-варақлар.
[187] А з а д а е в Ф. Ўша асар. 185 - бет.

деҳқончилик билан шуғулланганлар. Бу жараён дастлаб натурал ишлаб чиқариш билан боғлиқ бўлган бўлса, кейинчалик товар-пул муносабатларининг ривожланиши билан қишлоқ хўжалик маҳсулотларини товарлилик хусусиятини кенгайишига олиб келди. Тошкент шаҳрида янгича ишлаб чиқариш муносабатларнинг шаклланиши ва ривожланишига қарамасдан қишлоқ хўжалик ишлаб чиқаришининг шаҳар хўжалик ҳаётидан тўлиқ ажралиб чиқмаганлиги кузатилади.

Темирханова М.Ж. – ТДИУ докторанти**,**
К.Б. Уразов – и.ф.д., профессор (СамИСИ)

ТУРИСТИК ТАШКИЛОТЛАРДА ХАРАЖАТЛАРНИ БОШҚАРУВМАҚСАДЛАРИДА ТАСНИФЛАШ ХУСУСИЯТЛАРИ

Туристик ташкилотлар харажатларининг молиявий ҳисобни юритиш ва молиявий ҳисоботни тузишда қўлланиладиган таснифий жиҳатлари уларни режалаштириш ва назоратини олиб бориш, шунингдек ички бошқарув қарорларини қабул қилиш учун етарлича эмас. Ушбу мақсадга эришиш учун, бошқарув ҳисобида мазкур ташкилотлар харажатларини, чунончи турмаҳсулот таннархини ташкил қилувчи харажатларни қўшимча тарзда қуйидаги белгилари бўйича таснифлаш ўта муҳим ҳисобланади (1-жадвалга қаранг).

1-жадвал

Туристик ташкилотлар харажатларини бошқарув қарорларини қабул қилиш,режалаштириш ва назорат қилиш мақсадларида таснифлаш

Таснифий белги	Харажат гуруҳи
1.Тегишлилига кўра	Умумхаражатлар
	Жавобгарлик марказлари харажатлари
	Бир бирлик турмаҳсулотга тўғри келадиган ўртача харажатлар
2.Хизматлар ҳажмининг таъсирига кўра	Ўзгарувчан
	Ўзгармас (доимий)
3.Муқобиллигига кўра	Муқобил
	Номуқобил
4.Назорат қилиниши имконига кўра	Назорат қилиш имкони бор
	Назорат қилиш имкони йўқ
5.Меъёрланишига кўра	Меъёрлаштириладиган
	Меъёрлаштирилмайдиган
6.Релевантлигига кўра	Релевант
	Норелевант
7.Дифференциланишига кўра	Ўсиб борувчи
	Маржинал харажатлар

*Тегишлилигига кўра*туристик ташкилотлар харажатларини умумхаражатлар, жавобгарлик марказлари харажатлари ва бир бирлик турмаҳсулотга тўғри келадиган ўртача харажатларга ажратиш ўта муҳимдир.

Умумхаражатлар – бу туристик ташкилотнингжами барча харажатлари йиғиндиси. Ушбу харажатлар, ўз навбатида, турмаҳсулот таннархига киритиладиган ва унга киритилмайдиган харажатлардан ташкил топади.

Жавобгарлик марказлари харажатлари деганда туристик ташкилотнинг бевосита жавобгарлик марказларига тегишли харажатлари тушунилади. Туристик ташкилотларда асосий жавобгарлик марказлари бўлиб турмаҳсулотлар ва турпакетлар ҳисобланади. Турмаҳсулотлар ва турпакетлар бўйича харажатларнинг бошқарув ҳисобини ташкил этиш уларнинг ҳар бирида харажатлар устидан назоратни ўрнатишга имкон беради, бунинг

эвазига норационал харажатларга йўл қўйилмасликка эришилади. Жавобгарлик марказларида харажатларни самара бериш нуқтаи назаридан амалга оширилиши оқибат натижада яхлит туристик ташкилот бўйича норационал харажатларга йўл қўйилмасликни таъминлайди.

Бир бирлик турмаҳсулотга тўғри келувчи ўртача харажатлар – бу турмаҳсулотга кетган жами харажатларни жами турпакетлар ёки туристлар сонига бўлиш орқали топилган ўртача суммасидир. Бир бирлик турмаҳсулот сифатида 1 та турист олинганда унга кетадиган ўртача харажатлар турмаҳсулотга кетган жами харажатларни жами хизматлар кўрсатилган туристлар сонига бўлиш орқали аниқланади.

Хизматлар ҳажмининг таъсирига кўра туристик ташкилотлар харажатлари ўзгарувчан ва ўзгармас (доимий) харажатлардан иборат бўлади.

Ўзгарувчан харажатлар деганда туристик хизматлар ҳажмининг ўсиб бориши билан мос равишда умумий миқдори ошиб борадиган харажатлар тушунилади. Мисол учун, бир хилдаги моддий, меҳнат ва бошқа харажатларни талаб этадиган 1 та турпакетга кетадиган жами харажат 3000000 сўм десак, 100 та турпакет учун кетадиган жами харажат 300000000 сўмни (3000000*100), 200 та турпакет учун кетадиган жами харажат 600 000 000 сўмни (3000000*200) ташкил этади. Демак, бунда корхонанинг жами ўзгарувчан харажатлари ишлаб чиқариш ҳажмига мувофиқ пропорционал ошиб боради, шу билан бирга 1 бирлик турмаҳсулотга тўғри келадиган ўзгарувчан харажатлар ўзгармас (турғун) бўлиб қолаверади (1-расмга қаранг).

а) Умумий ўзгарувчан харажатлар. в) Бир бирлик учун ўзгарувчан харажатлар.



1-расм. Ўзгарувчан харажатлар: а) умумий; б) 1 бирлик маҳсулотга

Ўзгармас(доимий) харажатлар деганда туристик хизматлар ҳажмининг ўсиб боришидан қатъий назар умумий миқдори ўзгармайдиган харажатлар тушунилади. Уларга мисол бўлиб туристик ташкилот мулкини, чунончи авторанспорт воситаларини суғурталар, улар бўйича лицензия тўловлари, автотранспорт воситалари ва офисбиноси ижара ҳақлари, бино ва бошқа асосий воситалар амортизацияси кабилар ҳисобланади. Бундай харажатларнинг умумий суммаси доимий бўлсада, бироқ бир бирлик турмаҳсулотга тўғри келадиган миқдори ўзгарувчан бўлади. Айтайлик, туристик ташкилот тўлайдиган ижара ҳақи, суғурта тўловлари ва амортизация суммаси йилига 120 000000 сўм. Бу ҳолда ушбу харажатларнинг йиллик суммаси суммаси доимий бўлсада, бироқ уларнинг бир бирлик турмаҳсулотга тўғри келадиган ўртача суммаси 100 та турпакет сотилганда 1200 000 сўмни (120000000/100), 200 та турпакет сотилганда эса 600 000 сўмни (12000000/200) ташкил этади. Демак, бунда туристик ташкилотнинг иш фаоллиги ошсада, жами доимий харажатлар суммаси ўзгармасдан қолади, шу билан бирга 1 бирлик турмаҳсулотга тўғри келадиган ўзгармас харажатлар ўзгарувчан бўлиб қолади (2-расмга қаранг).

а) Умумий ўзгармас харажатлар.



в) Бир бирлик учун ўзгармас харажатлар.



2-расм. Ўзгармас (доимий) харажатлар: а) умумий; б) 1 бирлик маҳсулотга

а – ўзгармас (доимий) харажатлар, сўмда

а – константа

*Муқобиллигига кўра*туристик ташкилотлар харажатлари муқобил (альтернатив) ва номуқобил (альтернатив бўлмаган) харажатлардан иборат бўлади.

Муқобил (альтернатив) харажатлар деганда бир фаолиятни бошқа фаолиятга алмаштиришда самара келтиради деган бошқарув қарорини қабул қилишга асос бўлган харажатлар тушунилади. Бундай харажатлар кейинги фаолиятни юритишдан олиниши мумкин бўлган иқтисодий наф суммаси миқдорида баҳоланади. Мисол учун, туристик ташкилотда олдинги турпакетларга қўшимча тарзда янги йўналишдаги турпакетларни шакллантирилиши ташкилотга қўшимча фойда келтирадиган бўлса, бу ҳолда янги турмаҳсулотга кетадиган харажатлар муқобил харажатлар бўлиб ҳисобланади.

Номуқобил (альтернатив бўлмаган) харажатлар деганда бир фаолиятни бошқа фаолиятга алмаштиришда самара келтирмайди деган бошқарув қарорини қабул қилишга асос бўлган харажатлар тушунилади. Бундай харажатлар олдинги ва кейинги фаолият турларини юритишда вужудга келадиган иқтисодий йўқотишлар суммаси миқдорида баҳоланади. Мисол учун, туристик ташкилотда олдинги турпакетларга қўшимча тарзда янги йўналишдаги турпакетларни шакллантирилиши ташкилотга қўшимча фойда келтирмаса, бу ҳолда янги турмаҳсулотга кетадиган харажатлар муқобил харажатлар бўлиб ҳисобланмайди.

*Назорат қилиниши имконига кўра*туристик ташкилотлар харажатларини назорат қилиш имкони бор бўлган ва назорат қилиш имкони йўқ бўлган харажатларга бўлиш мумкин.

Назорат қилиш имкони бор харажатлар деганда менежер томонидан назорат қилиниши натижасида даражаси ўзгарадиган харажатлар тушунилади. Харажатлар устидан қатъий назоратни ўрнатилиши кўплаб норационал харажатлар, масалан самарасиз сафар харажатлари, асоссиз ҳайриялар, бизнес режада назарда тутилмаган ортиқча харажатлар олдини олишга имкон беради.

Назорат қилиш имкони йўқ харажатлар деганда қатъий масъул шахслар томонидан назорат қилинишига қарамасдан юз берадиган (вужудга келадиган) ҳамда даражаси ошадиган харажатлар тушунилади. Уларга мисол бўлиб узоқ муддатли активлар, товар-моддий бойликлар харидига қилинган сарф-харажатлар ҳисобланади.

*Меъёрланишига кўра*туристик ташкилотлар харажатлари меъёрлаштириладиган ва меъёрлаштирилмайдиган харажатларга бўлинади.

Меъёрлаштириладиган харажатлар деганда ҳисобдан чиқарилиши қонун ва қонуности ҳужжатларида белгиланган меъёрлар асосида аниқланадиган харажатлар тушунилади. Бундай харажатлар сирасига мисол бўлиб сафар харажатлари,реклама харажатлари, вакиллик харажатлари, солиқ тўловлари кабилар ҳисобланади.

Меъёрлаштирилмайдиган харажатлар деганда ҳисобдан чиқаришда меъёрий миқдори қонун ва қонуности ҳужжатлари билан тартибга солинмайдиган харажатлар

тушунилади. Бундай харажатлар сирасига тўланган жарима ва пенялар, ҳомийлик, суд харажатлари, фавқулотдаги зарарлар киради.

*Релевантлигига кўра*туристик ташкилотлар харажатларинирелевант ва норелевант харажатларга бўлиш мумкин.

Релевантхаражатлар деганда бошқарув қарори асосида миқдори ва даражаси келгусида ўзгарадиган харажатлар тушунилади. Мисол учун бошқарув қарори асосида туристик ташкилот балансидаги автобусларни бензиндан суюлтирилган газ таъминотига ўтказиш ёқилғи сарфини ўзгаришига ёки туристларни шартнома асосида бошқа корхона орқали овқатлантиришга ўтиш овқатлантириш харажатларини камайишига олиб келади. Релевант харажатларни бошқачасига бартараф этилиши мумкин бўлган харажатлар ҳам деб атайдилар.

Норелевантхаражатлар деганда қабул қилинган бошқарув қарори таъсирида миқдори ва даражаси ўзгармасдан қоладиган харажатлар тушунилади. Уларга мисол тариқасида мол-мулк ва суғурта харажатларини келтириш мумкин. Чунки, ушбу харажатлар автобусларни бензиндан суюлтирилган газ таъминотига ўтказиш ёки туристларни шартнома асосида бошқа корхона орқали овқатлантиришга ўтиш бўйича бошқарув қарори қабул қилиниши ёки қилинмаслигидан қатъий назар мавжуд бўлади.Норелевант харажатларни бошқачасига бартараф этиб бўлмайдиган харажатлар ҳам деб атайдилар.

*Дифференциланишига кўра*туристик ташкилотлар харажатлариниўсиб борувчи харажатлар ва маржинал харажатларга бўлиш мумкин.

Ўсиб борувчихаражатлар– бу қўшимча турмаҳсулот яратилиши натижасида вужудга келадиган қўшимча харажатлардир.

Қўшимча харажатлар (ΔХ) туристик ташкилот бўйича қуйидагича аниқланади:

$$\Delta X = Xп - Xо$$

Бу ерда: Хп - харажатларнинг прогноз бўйича миқдори; Хо- харажатларнинг ҳисобот давридаги миқдори;

Маржинал харажатлардеганда бир бирлик қўшимча турмаҳсулотга қилинган қўшимча харажатлар тушунилади.

Бир бирлик қўшимча турмаҳсулотга тўғри келадиган маржинал (қўшимча) харажатлар (ΔХ1) қуйидагича аниқланади:

$$\Delta X1 = \frac{\Delta X}{\Delta К}$$

Бу ерда: ΔК – туристик маҳсулотлар ҳажмининг ўсиш миқдори.

Туристик ташкилотларда улар харажатларини юқорида келтирилган мезонлар бўйича бошқарув ҳисобини ташкил қилиш харажатларни тежаш, чунончи турмаҳсулотлар таннархини пасайтиришнинг ички резервларини аниқлаш ҳамда уларни қўллашга оид аниқ бошқарув қарорларини қабул қилишга имкон беради.

У.Э.Бойназаров, мустақил-изланувчи, СамИСИ

МЕҲМОНХОНА ХИЗМАТЛАРИНИ ДИВЕРСИФИКАЦИЯЛАШНИНГ СТРАТЕГИЯЛАРИ

Аннотация: *В статье подчеркивается важность использования стратегий диверсификации гостиничных услуг.*

Ключевые слова: *гостиница, диверсификация, стратегия, однородная, некоммерческая, реструктуризация.*

Abstract. *The state is a strategic diversification of the strategy of diversification.*

Keywords: *hotel, diversification, strategy, homogeneous, non-profit, restructuring.*

Меҳмонхонада хизматларни диверсификациялаш стратегияларини гапиришдан аввал, диверсификация стратегияси тушунчасига изоҳ берсак. Диверсификацияга ўтиш қарорига

келингандан сўнг алтернатив стратегиялардан бири танланади. Бунда асосан қуйидаги 5 та стратегик диверсификация вариантлари мавжуд:

1. Янги тармоқларга кириш стратегияси, янги компания ва қўшма корхона яратиш ёки сотиб олиш.
2. Турдош бизнесга диверсификация стратегияси.
3. Нотурдош бизнесга диверсификация стратегияси.
4. Воз кечиш, қисқартириш, йўқ қилиш стратегияси.
5. Компанияни янгилаш стратегияси. Реструктуризация.

Биринчи уч йўналиш диверсификацияни бошлайди, кейинги уч йўналиш компания мавқеъини ва диверсификацияланган компания фаолиятини яхшилашга қаратилган.

Янги тармоққа кириш стратегияси. Янги тармоққа кириш уч хил шаклда бўлиши мумкин: сотиб олиш, яратиш ва қўшма корхоналар тузиш. Мақсадли бозорга мумкин қадар тезлик билан киришда мавжуд бизнесни сотиб олиш бу кенг тарқалган диверсификация воситасидир. Ушбу усул диверсификация муаммолари: технологик куникмаларни, таъминотчилар билан муносабатларни йўлга қўйишни, бирлик маҳсулотга сарф бўладиган меҳнат ҳаражатларини пасайтиришни, бозорга товарни таништиришда реклама сиёсатини ташкил этишни ва бошқаларни кўпгина тармоқларда янги корхонани яратиш билим ва тажрибани, ресурсларни, етарли масштабдаги ишлаб чиқаришни ва рақобатбардошликни талаб қилади.

Янги соҳага кириш учун янги компанияни яратиш қуйидаги ҳолда мақсадга мувофиқ:

1. қувватларни ишга тушириш учун етарли вақт бўлса.
2. агар бозорда ҳаракат қилувчи компаниялар янги рақобатчига самарали қаршилик кўрсата олмаса.
3. янги компанияни яратиш уни сотиб олишга қараганда тежамли бўлса.
4. янги компания самарали рақобат учун етарли тажриба ва билимга эга бўлса.
5. янги ишлаб чиқариш қувватлари бозордаги талаб ва таклиф мувозанатига салбий таъсир этмаса.
6. бозорда асосан кичик фирмалар мавжуд бўлиб, йирик кучли фирмалар рақобатчи бўлмаса.

Қуйидаги уч вазиятда қўшма корхоналар янги тармоққа киришнинг қулай воситасидир:

1. қўшма корхона битта компания учун самарасиз ва таваккалчилик даражаси юқори бўлганда яхши натижа беради.
2. бир-неча корхоналарнинг тажриба ва ресурсларининг бирлаштирилиши кучли рақобатбардош компанияни вужудга келтириши мумкин.
3. қўшма корхона кўп ҳолларда хорижий квота ва солиқларни, миллий, сиёсий манфаатларни енгиш йўлидир. Маҳаллий корхоналар ўзи кирмоқчи бўлган бизнесга хорижий мамлакат корхонаси билан қўшма корхона тузадилар. Маҳаллий компаниялар маҳаллий шароитни ва бозорларни яхши биладилар, бу шароитда мехнат ҳақи пастроқ бўлади.

Турдош диверсификация стратегиялари. Ҳар-хил бизнеслар бир-бирига яқин бўлса стратегик мувофиқлик мавжуд бўлади. Бунда имкониятлар:

1. малака ва тажрибани бир бизнесдан иккинчисига ўтказиш мумкин.
2. ҳаражатларни пасайтириш имкони туғилади.

Диверсификация компанияси стратегик мувофиқликдан ишлаб чиқаришнинг боғлиқликларидан фойдаланиб юқорироқ меҳнат унумдорлигига ва ҳаражатларни пасайтиришга эришади.

Стратегик мувофиқлик технологияни умумлаштириш, ишчиларнинг ва бошқарувнинг юқори малакасидан фойдаланиш, таъминотчиларни ўзгартирмаслик, ишлаб чиқариш усулларини умумлаштириш, маркетинг, мавжуд савдо тармоқларидан ва савдо маркасидан фойдаланиш имконини беради. Буларнинг ҳаммаси ҳаражатларни камайтиради рақобатбардошликни оширади.

Турдош диверсификацияда ҳаражатлар занжири жозибадор стратегик мувофиқликни назарда тутади.

Кенг фойдаланиладиган турдош диверсификациялар:

1. мавжуд ходимлардан, рекламадан, сотиш каналларидан фойдаланиш мумкин бўлган бизнесга кириш.
2. турдош технологиядан фойдаланиш.
3. компаниянинг савдо маркасини янги бизнесга ўтказиш.
4. компаниянинг янги бизнесни сотиб олиши уни мавқеъини эски бизнесда яхшилаши мумкин.

Нотурдош диверсификация стратегиялари. Нотурдош диверсификация яхши фойда берувчи бизнеснинг ҳамма соҳаларига киришни назарда тутади. Стратегик мувофиқлик иккинчи даражали ҳисобланади. Нотурдош диверсификацияга ўтмоқчи бўлган компания қуйидагича танлайди:

1. компания фойда, даромад ва инвестиция нуқтаи-назаридан талабга жавоб берадими?
2. янги бизнес кўп капитални, асосий фондларни айланма капитални талаб қиладими?
3. ўз соҳасида компания ўсиш потенсиалига эгами?
4. асосий компания фаолиятига ижобий таъсир ўтказиш учун янги бизнес етарли даражада катта ҳажмдами?
5. янги соҳанинг ҳимояланиши қандай? Сўниш, инфляция ва ставкалар олиш даврида у ўзини қандай тутади?

Қуйидаги уч бизнес йўналиши компанияларни ўзига жалб этади:

1. активлари аниқ бахоланмаган компаниялар. Ушбу компанияларни бозор нархидан арзон сотиб олиш мумкин.
2. молиявий етишмовчиликни ҳис этаётган компаниялар.
3. порлоқ келажакка эга лекин вақтинчалик капитал танқислигига учраган компаниялар

Кенг кўламда диверсификацияда рахбарлар:

1. яҳши компанияни ёмонидан ажрата олиши
2. ҳамма бизнесларни бошқариш учун юқори малакали кадрларга эга бўлиши
3. бизнес рахбарларини таклифларида тўғри ечимларни кўра билиши
4. бизнес ўз мувозанатини юқота бошлаганда нима қилишни билишлари лозим.

Қисқартириш ва воз кечиш стратегиялари. Ҳаттоки яхши уйланган диверсификация ҳам мувафаққияцизликка учраши мумкин. Бунда савол туғилади бизнесни давом эттириш ёки воз кечиш лозимми? Пухта уйланган бизнес ўз вақтида стратегик номувофиқликка эга бўлиши ўз жозибадорлигини юқотиши мумкин. Маълум бизнес ўз жозибадорлигини юқотса уни сотишга ҳаракат қилиш мақсадга мувофиқ. Одатда бундай бизнесдан тезроқ воз кечиш лозим. Бунда асосий савол «Агар бугунги кунда ушбу бизнес бизда мавжуд бўлмаганда биз уни сотиб олармидик?» - деган саволдир. Агар жавоб «юқ» бўлса унда ушбу бизнесдан воз кечиш лозим. Компанияни сотишда қандай қилиб бўлса ҳам уни бировга сотиш эмас, у қандай компанияга максимал мос келишини ўйлаш лозим. Лекин жозибасини йўқота бошлаган бизнесдан дастлабки даврда воз кечиш кўпроқ маблағни тежаб қолади.

Корпорация стратегиясини қайта кўриш ёки қисқартириш ва буюртма портфелини рестрктуризацияси

Қайта кўриш стратегияси буюрма портфелини соғломлаштиришда қўлланилади. Мушкул аҳвол бир ёки бир-неча бизнес соҳаларидан келадиган зарарлар туфайли вужудга келиши мумкин. Қайта кўриш стратегияси зарар келтирувчи соҳаларни аниқлаб таҳлил этиб уларни фойда келтирадиган соҳага айлантириш демакдир.

Қисқартириш стратегияси бизнеслар кўламини торайтиришни назарда тутади. Раҳбарият диверсификация жуда кенг деган фикрга келса компания кучини бир-неча асосий бизнес соҳаларига йўналтириш мумкин. Баъзи компаниялар бир неча йиллик уринишлардан

кейин ҳам бизнеснинг самарадорлигини таъминлай олмайдилар ёки маблағ асосий фондлар етишмаслиги сабабли бизнесни қисқартиришга тўғри келади. Раҳбарият компания ресурслари жуда кам тарқоқлашган деган фикрда бўлса ҳам бизнес йўналишларини қисқартиришлари мумкин.

Реструктуризация стратегияси. Бунда буюртма портфелининг таркиби жиддий ўзгартирилади. Масалан компания тўртта бизнесни сотди, тўрттасидан воз кечди, лекин у иккита бизнесни сотиб олди ва олтитасини ўз таркибида яратди. Демак, компания 16 янги деструктуризация бизнесига эга бўлди.

Реструктуризацияда қуйидаги шартлар бажарилса мақсадга мувофиқдир:

1. таҳлил натижасида аниқлансаки, портфелда сўниб бораётган, секин ривожланаётган бизнеслар кўплиги сабабли компания келажаги хавф остида бўлиши
2. компаниянинг бир ёки бир неча асосий бизнеси вазият курбони бўлганда
3. янги директор компания фаолият юналишини узгартиришга карор килса
4. янги технолдогияларни кўплаб пайдо бўлиши натижасида компаниянинг бозор мавкеъини мустахкамлашга тўғри келса
5. компаниянинг янги катта бизнесни сотиб олиши учун кулай имконият эски асосий бир неча бизнесларни сотилишини талаб қилса
6. компаниянинг буюртма портфели ўз жозибадорлигини юқотиб компания келажаги хавф остида колмаган бўлса буюртма портфелини реструктуризация килишга тўғри келади.

Ҳ.Ҳ.Мусаев мустақил тадқиқотчи,СамИСИ

ИННОВАЦИОН ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

Аннотация:в статье изложена роль инвестиций в развитии инновационного туризма,даны предложения по увелечению инвестиций на предприятиях данной сферы.

Ключевыеслова:туризм,инвестиции,привлечениеинвестиций всферу туризма.

Annotation:the article describes the role of investment in the development of innovative tourism,offers are given on increased investment in enterrised in this field

Keywords:tourism,investment,attraction of investment in the field tourism.

Ўзбекистон иқтисодиёти жадал ривожланиб бормоқда.Бундай ижобий ўзгаришлар мамлакатимизда қабул қилинган ва амалга оширилаётган “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси,” “2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожланиш Стратегияси ”орқали амалга оширилмоқда.” Ушбу ҳужжатлардаги устувор вазифаларнинг тўлақонли амалга ошириш учун миллий иқтисодиёт тармоқларида илм-фан янгиликлари,янги технологиялар ва халқаро илғор тажрибалардан кенг фойдаланиш керак.Президентимиз эътироф этганларидек:“Илм-фан ва техника ютуқларини кенг қўллаган ҳолда,иқтисодиёт тармоқларида,ижтимоий ва бошқа соҳаларга замонавий инновацион технологияларни тезкор жорий этиш Ўзбекистон Республикаси жадал ривожланишнинг муҳим шарти ҳисобланади”(1)

Амалга оширилаётган вазифалар миллий иқтисодиётдаги муҳим кўрсаткич-ялпи ички маҳсулот(ЯИМ)да ўз ифодасини топмоқда.Сўнгги икки йил ичида ушбу кўрсаткич 5,1 фоизга ошди(1-жадвал).

1-жадвал

Мамлакат ЯИМ нинг 2017-2018 йиллардаги ҳажми ва ўсиш суръати[2](1)

	2017 йил	2018 йил	фарқи	Ўсиш индекси.%
Мамлакат ялпи ички маҳсулоти ҳажми млрд.сўм	302536,8	407514,5	104977,7	5,1

Ушбу кўрсаткич 2019 йилда 5,5 фоизга етиши кутилмоқда.

Республикамиз иқтисодиёт тармоқларини ривожлантиришда ушбу соҳага киритилаётган ички ва ташқи инвестицияларнинг роли каттадир. Биргина 2018 йилда иқтисодиёт тармоқлари томонидан асосий капиталга киритилган 107333,0 млрд.сўмлик инвестициялар ўзлаштирилди. Ушбу кўрсаткич 2017 йилдагига нисбатан 118,1 фоизга кўпдир[3]. Инвестициялар таркибини таҳлили натижалари қуйида келтирилди(2 жадвал):

2 жадвал

Молиялаштириш манбаларига кўраасосий капиталга 2018 йилда қилинганинвестициялар тўғрисида маълумот[4](1)

	Жами инвес-р млрд.сўм	Молиялаштириш манбасининг ҳиссаси (фоизда)						
		Рес бюд.маб.	Давлат мақсад фондлари	Корхоналар ва аҳоли маб-и	Банк кредитлари ва қарзлари	Хор.инв ва кред.	Ривож ва рек-я фонд.	Бол.спорт ривож фонди.
Ўзбекистон Республикаси, шу жумладан	107333,0	3,8	5,1	39,3	14,9	29,2	7,4	0,3
Самарқанд вилояти	5746,9	3,0	9,2	56,6	24,4	6,7	-	0,1

Тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики миллий иқтисодиёт тармоқларидаги асосий капиталига 2018 йилда киритилган барча инвестицияларнинг 39,3 фоизи корхоналар ва аҳолининг, 29,2 фоизи хорижий инвесторларнинг, 14,9 фоизи банклар ва бошқа кредитларнинг ҳиссасига тўғрикелади. Инвестицияларнинг асосий қисми давлат датурларидага йирик лойиҳалар ва устувор йўналишга киритилмоқда.Ушбу кўрстаткичнинг хизмат кўрсатиш,шу жумладан туризм соҳасидаги улуши юқори эмас.Республикамизда туризм соҳасини ривожлантириш устувор вазифалардан қилиб белгиланган. Ушбу масалага қаратилган Президент ва Вазирлар Маҳкамасининг қатор фармонлари ҳамда қарорлари қабул қилинган.Бугинги кунда туризм соҳасини инновацион ривожлантиришга катта эътибор берилмоқда.Соҳани инновацион ривожлантириш йўналишларини қуйидагича ифодалаш мумкин:

- туризм соҳасини инновацион ривожлантириш йўналишлари белгиланган;
- хорижий сайёҳларнинг мамлакатимизга ташриф буюришлари йил сайин ошиб бормоқда;
- туризм хизматининг ҳажми кўпайиб сифати яхшиланмоқда;
- янги-янги туристик йўналишлар аниқланмоқда;
- туристик корхоналарга қўшимча имтиёзлар белгиланган.

Шулар билан биргаликда туризм соҳасининг мамлакат ЯИМ даги ҳиссасини ошириш,мазкур соҳага ички ва ташқи инвестицияларни кенг жалб қилиш бўйича маълум муаммолар ва ўз ечимини кутаётган масалалар мавжуд.Булар қаторига туризм соҳасига инвестицияларни кенг жалб қилиш ва самарадорлигини ошириш масалалари киради.

Тадқиқот натижаларига асосланиб мамлакат ҳудудларида инновацион ткризмни ривожлантириш ва ушбу соҳага инвестицияларни кенг жалб қилиш бўйича қуйидаги таклифлар ва тавсияларни берамиз:

- туризм соҳасига инвестицияларни кенг жалб қилиш орқали инновацион туризмни ривожлантиришга қаратилган меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларни ишлаб чиқиш;
- инновацион туризмнинг мезонлари ва кўрсаткичларини илмий жиҳатдан асослаш;
- туризм соҳасига киритилган инвестициялар самарадорлигини кўрсаткичрарини ишлаб чиқиш;
- инвестициялар мониторингининг сифатини ошириш;
- туризмни ривожлантиришга қаратилган имтиёзларни кенгайтириш мақсадга мувофиқдир.

IV ШЎЪБА. ТУРИЗМ СОҲАСИДА ТАБИИЙ ВА ЭТНОГРАФИК РЕСУРСЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШДА МЕНЕЖМЕНТ, МАРКЕТИНГ, МОЛИЯ ВА БАНК ХИЗМАТЛАРИ ҲАМДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ РОЛИНИ ОШИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Xolmurodova Ch.- SamISI BH-218 guruh talabasi

INFLYATSIYANING HAYOTIMIZDAGI O'RNI

Abstract. *This report is mentioned. containing inflation is the basis of socio-economic well-being, as well as the fact that inflation (rising prices) has a direct impact on the country's microeconomic development, incomes and welfare.*

Аннотация. *В этом докладе упоминается.сдерживание инфляции является основой социально-экономического благополучия, а также тот факт, что инфляция (рост цен) оказывает непосредственное влияние на микроэкономическое развитие страны, доходы и благосостояние населения.*

Key words. *Theoretical understanding of inflation, types of inflation, inflation rate, price stability in the domestic market.*

Ключевые слова. *Теоретическое понимание инфляции, виды инфляции уровень инфляции, стабильность цен на внутреннем рынке.*

Inflatsiya so`zi lotincha bo`lib, lug`aviy manosi "bo`rtish", "ko`pchish", mantiqan pulning qadirsizlanishi va narx-navoning muntazam ravishda oshib borishi kabi manolarni bildiradi. Bu so`z XIX asrning urtalaridan boshlab iqtisodchilar tomonidan iqtisodiy termin sifatida ishlatilguncha kadar, u tibbiyotda xavfli usma kasalini ifodalashda qo`llanilgan. Inflyatsiya so`zi Pul muomalasi sohasida AQSh ning Shimoliy va Janubiy shtatlari o`rtasida fuqorlar urushi bulganda muomalaga juda ko`p miqdorda (450 mln. grin bek) qog`oz dollar chiqarilgan vaqtdan boshlab qo`llanila boshlagan. Infilatsiyaning turlariga to'xtaladigan bo'lsak 3ta turimavjud: **O`rmolovchi inflatsiya**. Bunda narx-navo sekin o`sadi va inflatsiya suratlari yiliga 1-3 % dan 5-10 % gacha bo`ladi. Mamlakatda iqtisodiy o`sish davom etadi, ishsizlik katta bo`lmaydi, bunday inflatsiya odatda, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarga xosdir. **Suzib yuruvchi inflatsiya .** Bunda yillik inflatsiya suratlari 10 % dan 100 % gacha bo`ladi. Mamlakatda narx-navo tezroq o`sa boshlaydi, iqtisodiy o``sish suratlari pasayadi, ishsizlik ko`paya boradi. Bunday inflatsiya rivojlanayotgan mamlakatlarga xosdir. **Geperinflatsiya** sharoitida korxonalar va aholi nima qilib bo`lsa xam, chetel valyutasini yig`ishga xarakat qilishadi. Narx-navoni umuman tartibga solib bo`lmay qoladi, narxlar oyiga 50 % dan o`sadi. Tovarlarni sotib olishda barter usulida foydalanish vujudga keladi. Pul muomalasi izdan chiqadi.

Oxirgi yillarda inflyatsiya tez-tez uchrab turadigan jarayon bo`lib sifati ham o`zgarib bormoqda. Buning sababi shundaki, hozirgi kunlardagi inflyatsiya: birinchidan, uzluksiz baholarning oshishiga; ikkinchidan pul muomalasi qonunining buzilishi natijasida umumxujalik mexanizmining ishdan chiqishiga olib keladi.Inflyatsiya darajasi (narxlarning oshishi) mamlakatning bevosita mikroiqtisodiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni ichki bozorda narxlar barqarorligini ta'minlash muhim sabablardan biri, bu - ichki bozorda raqobat muhitini yanada rivojlantirish, iste'mol tovarlarini ishlab chiqaruvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning xomashyo resurslaridan hech qanday cheklovlarsiz foydalanishlari uchun qulay sharoit yaratish hisoblanadi.

Buni qanday amalga oshirish mumkin, degan savol tug'iladi?

Birinchidan, iqtisodiyot tarmoqlarini yetarli miqdordagi tabiiy gaz va elektr energiya bilan ta'minlash. Bu maqsadga erishish uchun, avvalo, iqtisodiyot strategik tarmoqlarining

moliyaviy barqarorligini ta'minlash talab etiladi. Moliyaviy sog‘lomlashtirish esa bevosita mazkur korxonalar tomonidan ishlab chiqariladigan tovar va xizmatlarga narx shakllanishi mexanizmini qayta ko‘rib chiqish bilan bog‘liq. Uzoq yillar davomida samarasiz narx shakllanish tizimining qo‘llanilishi iqtisodiyot bazaviy tarmoqlarining zarar bilan ishlashiga, bu esa o‘z navbatida, boshqa sohalarni yetarli miqdordagi elektr energiya va tabiiy gaz bilan ta'minlash hamda ishlab chiqarish quvvatlaridan to‘liq foydalanish imkoniyatini cheklab qo‘ygan edi.

Ikkinchidan, xomashyo resurslarini bozor mexanizmlari asosida realizatsiya qilish tizimini joriy qilish. Haqiqatdan ham, xomashyo resurslaridan foydalanish uchun barcha tadbirkorlik sub'yektlariga teng sharoitlarning yaratilmaganligi mazkur sohada raqobat muhitining rivojlanishiga katta to‘siq bo‘lib, korrupsion elementlarning rivojlanishi uchun sharoit yaratardi. O‘tgan yildan boshlab barcha resurslarning bozor mexanizmlari asosida faqat birja savdolari orqali realizatsiya qilish mexanizmining joriy qilinishi natijasida barcha uchun teng sharoitlar yaratilishi bilan birgalikda korxonalarning moliyaviy holati yaxshilanishiga erishildi.

Uchinchidan, ichki bozorni iste'mol tovarlari bilan to‘yintirish maqsadida mazkur tovarlar bo‘yicha egiluvchan bojxona tariflarini joriy qilish.Mazkur yo‘nalishdagi ishlarni izchil davom ettirish lozim

Darhaqiqat, aholi turmush farovonligini ta'minlashning muhim yo‘nalishlaridan biri, bu - narxlarni erkinlashtirish sharoitida aholining ehtiyojmand qatlamini ijtimoiy himoya qilishdir. Ushbu holat birinchidan aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish imkonini bersa, ikkinchi tomondan elektr energiyasi va tabiiy gazdan samarali foydalanish imkonini beradi.

Umuman olganda, bularning negizidainflyatsiya darajasini jilovlash, ichki bozorda narxlar barqarorligini ta'minlash va shu orqali aholi turmush darajasini yaxshilashga erishish yotadi.

Siddiqov A. A. - assistant, Samarkand institute economics and service
Uralov Sh. A. - student, Samarkand institute economics and service,
Xolmurodova Ch. A- student, Samarkand institute economics and service,

WHY RETAIN CLIENTS (RESTAURANT SCALE)?

Annotation: *The relevance of the article is that there is a problem of collecting and attracting clients in every entrepreneurial activity.*

Аннотация*: Актуальность статьи заключается в том, что существует проблемы с привлечением в предпринимателськую деятелность. Вы можете прочитать больше об этих проблемах в статье.*

Key words*: client, organization, connect, meeting.*

Ключевые слова: *клиент, организация, связь, встреча.*

If you’ve been in business for a while, you know there are several strong arguments for why it makes sense to retain your clients- in addition to the fact that it takes ten times the effort, ten times the money, and perhaps one hundred times the amount of time to land a new client as to obtain repeat business. Let’s consider why this is worth a chapter in this book. Retaining clients for repeat business means you will be able to save time, money, and energy on marketing, as mentioned. In addition, there is less time delay from the time the client hires you to the time you can begin the work. This is good for the client because you will be able to start the project sooner than a new consultant could. And while I don’t mean to sound crass, this is good for you, too, because it translates into less time before money can be deposited into your bank account. Retaining clients means that you are aware of the idiosyncrasies of the organization. You will spend less time getting up-to-speed about the politics, an advantage for both you and your client. If there is a glitch, you will know how to resolve it faster than if you were working with a new client. For example, you may already know your way around the accounts payable department should there be a delay with

your check. Retaining clients means that you will become more and more valuable to the organization. The client will call you regularly to assist on many projects. Each assignment will build on past work. In addition, you can expect to be referred from department to department. This is good for your client because you will be able to get up-to-speed faster. It's good for you because you will not need to do as much research and background work. Should work be presented for competitive bid, you will have an unspoken advantage both in what you know about the client and in what the client knows about you. And during difficult economic times, a client who know your work will not even second-guess the need to call on you for your assistance—without asking for bids. Finally, you will have developed one of the most valuable marketing tools—far surpassing any we discussed in Chapter Five. A client's referral is gold in your marketing plan. A solid relationship with clients ensures that they will give you glowing referrals. In addition, they will refer you to others without you asking them to A Client in Hand Is Worth Ten in Your Plan: Will Your Clients Market for You?. The ebb associates vision states: "Our clients are so satisfied that they will market for us." It has taken a long time to achieve that vision, but it is a vision in action today. We can trace more than 80 percent of our business back to three of our original clients. So why is it important to retain clients? I think it is quite clear there are benefits to both you and the client. Now how do you ensure that this occurs? To retain clients you need to build a relationship with the organization as well as the people who work there.

BUILD A RELATIONSHIP WITH THE ORGANIZATION. Every organization that you work with will be unique. What is not unique is the list of things you can do to build a relationship with each of them. You may already be involved in some of these activities. In addition, some of the things we discussed in Chapters Five and Six may be useful. Know Where You Stand There are four things: (1) Ask them if they are satisfied; (2) Find out what is important; (3) Gather data to determine how you compare to your competition regarding what is important; and (4) Develop an action plan. "Wait a minute," you might say, "that sounds suspiciously familiar." It should. It is the same thing we did in Chapters Two, Three, Four, and Six. Conduct a customer satisfaction audit. That might be as simple as a letter or a telephone call. You might also take them to lunch and ask how you are doing. Do you know where you stand with your clients? All of them? Continue to Learn More About Them Learn as much as you can about your clients while you are on the job. Interview employees throughout your project and gather data to add to what you may have learned at the beginning of the project. For example, after implementing a new software, conduct a mini survey to learn what skills employees still need in order to be successful. Always share your findings with management. Tour stores, plants, branch offices, and other locations to better understand the entire organization. Observe meetings to learn about communication, politics. Observe meetings to learn about communication, politics, meeting management, the culture, and other things that give an organization its personality. Keep Yourself in Front of Your Clients The key is to keep yourself in front of your clients. By that I don't mean you need to be in their faces or stop in for lunch on Wednesdays. There are other ways. Find reasons to connect with them. This might be anything from handwritten notes to telephone calls when you are in their cities. You might invite them out to lunch or send them copies of an article or book you have published. You can find excuses to connect with them, such as introducing a new client or congratulating someone on a recent personal or professional accomplishment. Include them on your holiday greeting list. Or send them information that you know would interest them. I can't begin to tell you how often I have done one of the things listed and two days later received a phone call from the individual saying, "We have this new project and I was wondering if you . . ." or "I got your note and it reminded me that I need someone who . . ." Out of sight, out of mind is a saying that covers it all. How do you stay in your clients' sight? Be Unique Chapters Two and Three helped you explore your niche. What do you offer clients that other consultants do not offer? What do clients want? Perhaps it is high-quality paper in your materials. Perhaps it is free graphic design. Perhaps it is free and continued follow-up. Perhaps it is a money-back guarantee. Whatever it is, be sure that it is something that your clients want and that they are aware of it. We stand out for all of the items listed here. In addition, many of our clients love the practical marketing items we send. Some claim

that they would pay to be on our mailing list. We add fun to their lives. What makes you unique? Make Your Customers Number One Customers need to feel as if they are your number-one priority. Whenever I think of making customers number one, I remember a pizza company that I used in another city. Their motto was "Pizza delivered to your door, fast, hot, and friendly." They identified and intended to achieve everything their customers wanted: fast A Client in Hand Is Worth Ten in Your Plan: Will Your Clients Market for You? hot food, and a friendly exchange. This made the customers feel like they were number one. This is easier than you might think. Try some of these ideas. Always give your clients your undivided attention—do not accept or make phone calls to other clients while at a client's site. Be easy to work with—prima donnas are not successful for long as consultants. Communicate clearly and often—I've never heard a client complain that a consultant was over-communicating. Do Good Work Seems like this might go without saying. You might be surprised at how many consultants I work with who think that good work and marketing are not connected. No matter what you do in the way of marketing, you must do great work to earn repeat business. Determine how you can add value. You might be surprised at how easy it is to be above average. You might assist your clients to develop the specifications for a job before you submit a proposal. Most clients have little experience with that part of the job. You might also simply consider completing the job early or charging less than you originally bid. Most of my clients tell tales of woe of consultants who request time extensions or additional money to complete a project. Unless there is scope creep (which, of course, you have discussed as it arises with your client), you should never miss a deadline or request additional money. If you are behind schedule, work overtime to complete it on time. If you underestimated the cost of the project, keep it to yourself and bid better next time. So if the majority of consultants are missing deadlines, simply complete the project earlier than you promised. You will be a hero. How you deliver your services is as critical as what you deliver. Always give a little more than you promised. See the list in Exhibit 9.1 for ideas. What can you do to add unexpected value to your projects? What the Client Wants A few years ago a huge consulting firm hired an expensive marketing firm to conduct research to determine what was most important to its clients. After interviewing the clients, the top three items included: Be honest about what you can do; take time to understand our needs; and be responsive to our schedule. That's Consulting 101. Reminders are good for us. Remember the basics when you are building a relationship with your clients.

Urazov S.Sh., - SamISI, assistent
Jurayeva. O.T - SamISI, MN-319 guruh talabasi

TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA IQTISODIYOTNI LIBERALLASHTIRISH - FAROVON KELAJAGIMIZ KAFOLATI

Аннотация. *В данной научной статье раскрывается сравшетелный анализ по развитию экономики и либерализации концептуального направления в стратегии действия Республики Узбекистан.*

Ключевые слова: *инновационный экономика стратегия, диверсификация, кредитно-денежная политика, инвестиция, либеральничат экономика*

Annotation. *Developing economics and act the liberal economics of Movements strategy for developing the Republic of Uzbekistan was described in this is scientific article.*

Keywords: *innovational economics, strategy, diversification, money-credit policy, input, act the liberal economics*

Huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish, aholi turmush darajasi va hayot sifatini oshirish maqsadida 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi Prezidentimizning 2017-yil 7 fevraldai PF-4947 sonli qarori asosida imzolandi. Barchamizga ma'lumki Harakatlar strategiyasining uchinchi tamoyili ya'ni "Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor

yo'nalishlari"ga bag'ishlangan. O'tgan yigirma sakkiz yillik mustaqil taraqqiyot davrida iqtisodiyotda ma'muriy-buyruqbozlik asosiga qurilgan boshqaruv tizimidan butunlay voz kechilib, bozor islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilgani va pul-kredit siyosati izchil rivojlantirilib borilayotgani, makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotni jadal sur'atlar bilan o'sishini, inflatsiyani prognoz ko'rsatkichlari darajasida saqlab qolishni ta'minladi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratilishiga xizmat qildi. Mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori konyunkturasi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani mamlakatimizni tobora barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun yangicha yondashuv va tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda. 2017-yildan buyon iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar provardida 161 ta yirik sanoat obyekti ishga tushirildi. Bu mamlakatimiz uchun bir yil ichida qo'shimcha 1.5 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarish imkonini berdi. Jumladan, Toshkent issiqlik elektrstansiyasida bug'- gaz qurilmasi barpo etilishi natijasida qo'shimcha ravishda 2.5 milliard kilovatt elektrenergiyasi ishlab chiqarish imkoni yaratildi.[188]

Taraqqiyot strategiyasida o'rin olgan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun quyidagi sarf-xarajatlarning qilinishi rejalashtirilgan:

2017-2021-yillarda umumiy qiymati 40 milliard AQSH dollari miqdorida 649 ta investitsiya loyihasini nazarda tutuvchi tarmoq dasturlarini ro'yobga chiqarish rejalashtirilgan. Natijada keyingi besh yilda sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 1,5 barobar, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 33.6 foizdan 36 foizga, qayta ishlash tarmog'i ulushi 80 foizdan 85 foizga oshadi. Jami xarajatlar uchun 37687.8 milliard so'm va 8349.3 million AQSH dollari ajratiladi.

Taraqqiyot strategiyasida mablag'lar sohalar va tarmoqlarga quyidagicha taqsimlanadi[189]:

№	Moliyalashtirish manbalari	Milliy valyutada, (mlrd.so'm)	AQSH dollarida (ming dollar)
1.	Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari	5263.1	1625.8
2.	Ijrochilar va xayriya tashkilotlari mablag'lari	15423.0	311510.0
3.	Tijorat banklari kreditlari	16941.2	-
4.	Xalqaro tashkilotlar,moliya institutlari mablag'lari va beg'araz yordam	60.5	8036157.8

Milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish masalasini hal etish bo'yicha Harakatlar strategiyasida iqtosodiyotning tayanch tarmoqlaridagi 4400 dan ortiq korxonaning rentabellik darajasini oshirish va moliyaviy sog'lomlashtirish hamda ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini yuksaltirish asosida ishchilar sonini ko'paytirishga erishishi

[188] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. Toshkent-"O'zbekiston-2018.6-bet.

[189] 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha Ilmiy-uslubiy qo'llanma Toshkent "Ma'naviyat"2017.118-bet.

rejalashtirilgan edi. Buning natijasida korxonalarning rentabellik darajasi oshdi. Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi va ishchilar soni ko'paydi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining ijrosi yuzasidan davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgan 15 ta qonun va 700 dan ortiq boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Hududiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari doirasida 13339 ta loyiha amalga oshirildi, 10 ta erkin iqtisodiy zona, 5 ta kichik sanoat zonasi tashkil etildi.

O'zbekistonning o'z majburiyatlarini bajarish va chet el hamkorlarining daromadlarini repatriatsiya qilish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish uchun shart-sharoitlarni ta'minlovchi milliy valyutaning erkin konvertatsiyasi bu borada muhim qadam bo'ldi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalar mamlakat va jamiyat munosabatlari mamalakatimiz uchun yangicha ruh bag'ishladi. Soha rivoji davlat hamda jamiyat, davlat organlari va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarning yangi shakllari amaliyotga joriy etilishiga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, Prezidentimiz tomonidan iqtisodiyotni yuksaltirish hamda liberallashtirish maqsadida 20 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi, xususan davlatimiz rahbari tashabbusi bilan kichik tadbirkorlikni rivojlantirish kafolat jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakillik institutini tuzilishi bevosita tadbirkorlik sub'yektlarini huquqiy qo'llab-quvvatlash, normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanish samaradorligini oshirish, amaldagi qonunchilik me'yorlariga to'liq rioya etilishi yuzasidan ijro intizomini takomillashtirishda mustahkam kafolat bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish izchil iqtisodiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. Bugungi kunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev axborot-kommunikatsion texnologiyalardan faol foydalanish, mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi eng dolzarb muammolar bo'yicha muloqot ochiqligi bilan mamlakat milliy brendini shakllantirishda o'rnak bo'lmoqda .Ushbu yo'nalishda nufuzli xalqaro institutlarning baholari, reyting va indekslari muhim ahamiyatga ega. Jumladan, Jahon Bankining "Biznes yuritish-2017" deb nomlangan ma'ruzasiga ko'ra O'zbekiston dunyoning 190 ta mamlakatlari orasida 87-o'rinni, "Focus Economics" tadqiqotlar natijasiga muvofiq O'zbekiston 2016-yilda yalpi ichki mahsuloti o'sishi sur'atlari bo'yicha dunyoning 127 ta mamlakati orasida 7-o'rinni egallashi mamlakatimizning kelajagi buyuk davlat ekanligining yorqin ifodasidir.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar juda salmoqlidir. Iqtisodiyotimizni yuksaltirish va liberallashtirish maqsadida mamlakatimizni jahonning eng rivojlangan mamlakatlari qatoriga qo'shish uchun tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Milliy valyutamizning erkin konvertatsiyasi, pul-kredit siyosati, makro iqtisodiy barqarorlik, inflatsiyani prognoz ko'rsatkichlar darajasida saqlab qolinganligi shular jumlasidandir.Bu kabi islohotlar o'tmishi buyuk xalqimizning farovon kelajagi kafolatidir.

Urazov S.Sh., - SamISI "Menejment" kafedrasi assistenti
Shamsiyeva Sh.K. – SamISI MN-119 guruh talabasi

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI EKSPORT FAOLIYATI UCHUN MAMLAKATIMIZDA YARATILAYOTGAN IMKONIYATLAR

Аннотация. *Данной статье раскрыты вопросы по совершенствование экспортного потенциала малой бизнес и частного предпринимательство. Приведены доля экспорта в*

национальной экономике, налоговые льготы, проблемы совершенствования экспортной деятельности.

***Ключевые слова: малый бизнес**, экспортный потенциал, солиқ имтиёзлари, налоговые льготы.*

***Annotation.** In the article discloses questions on improving the export potential of small businesses and private entrepreneurship. The share of exports in the national economy, tax benefits, problems of improving export activities are given.*

***Key words:** small business, export potential, salt and imports, tax benefits.*

Bilamizki hozirgi kunda yutimizni dunyo yetakchi davlatlar safiga qo‘shish uchun hukumatamiz tomonidan ko‘plab sohalarga katta e’tibor qaratilayapti. Shu o’rinda iqtisodiy rivojlanishda beqiyos o‘ringa ega bo‘lgan kichik biznes boshqaruviga ham. Shuni inobatga olib kichik biznes faoliyatini yanada rivojlantirish uchun davlatimiz tomonidan tadbirkorlik sub’ektlari eksport faoliyatini rivojlantirish uchun so‘nggi yillarda keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari salohiyatini kengaytirish, ularga zamonaviy chet el bozorlarida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirishda va uni eksportga chiqarishda zarur huquqiy, moliyaviy va tashkiliy yordam ko‘rsatish, mamlakatimizning eksport qiluvchi tashkilotlarini tashqi bozor konyukturasi o‘zgarishlari xavf-xatarlaridan ishonchli ximoya qilishni ta’minlash maqsadida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarining eksportini qo‘llab quvvatlash jamg‘armasi tashkil etildi. Joriy yilning o‘zida ushbu fond tomonidan 2162 ta tadbirkorlik subektlariga o‘z tovar va xizmatlarini eksport qilishda huquqiy, moliyaviy va tashkiliy xizmatlar ko‘rsatilgan, jumladan 1767 ta tadbirkorlik subyektlariga tashqi bozorlarni o‘rganishda, 127 ta tadbirkorlik subektlariga xorijiy hamkor topishda 135 tasiga xalqaro ko‘rgazmalarda ishtirok etish, xalqaro sertifikatlar olish va bojxona rasmiylashtiruvni amalga oshirishda ko‘mak berilgan. Buning natijasida joriy yilning sentabr oyigacha 395 ta tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1093 mln dollarlik eksport amalga oshirilgan.

Tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab quvvatlash maqsadida esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarining eksportini qo‘llab quvvatlash fond tomonidan umumiy qiymati 5219 mln so‘mlik, shundan 4030 mln so‘m miqdorida foizsiz moliyaviy qarzga ko‘mak ajratilgan. Buning natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik eksportining mamlakatimiz umumiy eksportidagi ulushi oxirgi 15 yilda 3 marta oshgan va bugungi kunda 27 foizga yetgan[190].

Kichik biznes subektlari soni 1,6 barobarga oshgan, ayniqsa bu faoliyatni rivojlantirish uchun soliq imtiyozlari yaratildi. Misol uchun Soliq Kodeksining 212 va 230 moddalariga asosan:

-tovarlarni chet el valyutasida eksportga realizatsiya qilish oborotiga nol darajali stavka bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadi.

-aksiz to‘lanadigan tovarlarni ularning ishlab chiqariluvchilari tomonidan eksportga realizatsiya qilishga aksiz solig‘i solinmaydi.

Bundan tashqari 2018 yilning 2 sentabrida qabul qilingan ,,Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida’’ 5177-sonli Farmoniga asosan Respublikamizda ishlab chiqariladigan mahsulotlarning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishga ishlab chiqarish uchun zarur mahsulotlarni import qilishda xorijiy valyutaga ehtiyoj bo‘yicha mavjud bo‘lgan muammolarni bartaraf etishga qaratilgan zarur shart-sharoitlar ham yaratilib berildi.

[190] www.stat.uz

Joriy yilning o‘zidan eksport qiluvchi xo‘jalik subyektlari uchun mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) eksport qilishdan tushadigan valyuta tushumlarini majburiy sotish bo‘yicha ham talab bekor qilindi. Bundan tashqari davlatimiz rahbarining “Tashqi bozorlarda mahalliy mahsulotlarning eksport qilinishi va raqobatbardoshligini ta’minlashni yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’ 5057-sonli farmoniga asosan tadbirkorlik subyektlari uchun 100 ming dollargacha bo‘lgan miqdordagi tashqi bozorlarga mahsulot yetkazib berish uchun oldindan to‘lovlarsiz eksport qilish huquqi berildi.

Yana shuni alohida takidlash zarurki, eksportbop, sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish, korxonalarimiz raqobatbardoshligini yanada oshirish maqsadida, 2018 yilning 29 sentabr kuni Prezidentimiz tomonidan ,,O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’gi 3303-sonli qarori qabul qilindi.Ushbu qaror bilan Respublikamizda ishlab chiqarilmaydigan xom-ashyo, material, asbob uskuna bilan korxonalarni ta’minlash maqsadida ushbu tovarlarga bojxona boji va aksiz stavkalari deyarli olib tashlandi. Endi esa statistikaga qisqacha nazar tashlaydigan bo‘lsak 2018-yil 1-aprel holatiga ro‘yhatga olingan jami kichik tadbirkorlik subektlarining soni 11764 tani tashkil etdi. 2017-yil yanvar-mart oyida yalpi hududiy mahsulotning 51,1 foizi kichik biznes subektlari tomonidan ishlab chiqarilgan bo‘lsa 2018-yilning yanvar-martida bu ko‘rsatkich quyidagi:

-sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 220,7 mlrd. so‘mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 32,5 foizi) yoki 2017-yilning yanvar-martiga nisbatan 100,5 foizni tashkil qildi.

Yaratilayotgan bunday imkoniyatlar shubhasiz iqtisodiyotimiz raqobqtbrdoshligini oshirishga, uning tayanchi bo‘lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yanada rivojlanishiga, ularning qulay ishlab chiqarish muhitida faoliyat olib borishiga, provardida eksportni yanada rag‘batlantirishga xizmat qiladi va albatta yurtimizni jahonning ilg‘or davlatlari safiga qo‘shishga katta hissa qo‘shadi.

Маматкулова К.А. – СамИЭСст.преп.

РОЛЬ ИНТЕРАКТИВНЫХ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ СРЕДСТВ И ИНТЕРНЕТ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ

Annotatsiya: *Ma’ruzada chettillarni o’rgatishda interaktif, multimediya, internet texnologiylardan foydalanishning roli va ahamiyati yoritibberilgan. Chet tillarni egallashning optimalvariant – butilni haqiqiy til muhitidao’rganishdir. Bu o’sha xalqning mintalitetini, ananalarini, madaniyatini, turmushinio’rganishdir.*

Annotation: *This article discusses the use of new information technologies in teaching a foreign language, new forms and methods of teaching, a new approach to the learning process. This article discusses the integrated use of innovative technologies that makes the process of learning foreign languages more effective.*

